

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI



Q.A. Isayev

XALQARO TRANSPORT KORIDORLARI

(Darslik)

TOSHKENT – 2025

UO‘K :
KBK
E

Q.A. Isayev. Xalqaro transport koridorlari. (Darslik). – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi” 2025, 335 bet.

ISBN:

Xalqaro transport koridorlari fanidan tayyorlangan darslik talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, zamonaviy xalqaro iqtisodiyot sharoitida ro‘y berayotgan o‘zgarish, hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ularning ilmiy dunyo qarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Darslik 70411901 – “Jahon iqtisodiyoti” (mintaqa va faoliyat turlari bo‘yicha) va 70411102 – “Tashqi iqtisodiy faoliyat” (tarmoqlar va faoliyat turlari bo‘yicha) magistratura bosqichi talabalari va shu sohaga qiziquvchi mutaxassislar uchun mo‘ljallangan.

Учебник по предмету «Международные транспортные коридоры» способствует формированию у студентов теоретических знаний, практических навыков, методологических подходов к изменениям, явлениям и процессам, происходящим в современной международной экономике, а также расширению их научного мировоззрения.

Учебник предназначен для студентов магистратуры по направлениям 70411901 – «Мировая экономика» (по регионам и видам деятельности) и 70411102 – «Внешнеэкономическая деятельность» (по отраслям и видам деятельности), а также для специалистов, интересующихся данной областью.

The textbook on the subject “International Transport Corridors” is designed to develop students’ theoretical knowledge, practical skills, and methodological approaches to the changes, phenomena, and processes occurring in the modern international economy, while also broadening their scientific worldview.

This textbook is intended for master’s degree students specializing in 70411901 – “World Economy” (by regions and fields of activity) and 70411102 – “Foreign Economic Activity” (by industries and fields of activity), as well as for professionals interested in this field.

UO‘K:
KBK

Taqrizchilar:

Sh.A. Sharifxodjayev - Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti “Xalqaro iqtisodiyot” kafedrası professori.;

Muhammad.E.B. - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar” kafedrası dotsenti.

ISBN

Q.A. Isayev, 2025;
“Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2025.

MUNDARIJA

1-BOB. XALQARO TRANSPORT KORIDORLARI TUSHUNCHASI, MOHIYATI, TASNIFI VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.....	14
1.1. Xalqaro transport koridorlari tushunchasi va mohiyati	14
1.2. Xalqaro transport koridorlarining tasniflanishi	19
1.3. Xalqaro transport koridorlarining rivojlanish xususiyatlari	28
1.4. Xalqaro transport koridorlarining mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni	41
2-BOB. TRANSPORT LOGISTIKASI TIZIMLARINING TURLARI, AHAMIYATI VA HUQUQIY ASOSLARI	50
2.1. Logistik tizim va uning turlari	50
2.2. Yuk tashishda xalqaro avtomobil yo‘laklaridan foydalanishning ahamiyati.....	57
2.3. Xalqaro transport koridorlari faoliyatining huquqiy asoslari	60
2.4. Tashqi savdo bojxona rejimlarining zamonaviy tendensiyalari	75
3-BOB. XALQARO MAGISTRALLAR, TEMIR YO‘LLAR VA JAMOAT YO‘LLARIDAN FOYDALANISHNI TASHKIL ETISH TIZIMI	89
3.1. Transport turlari, tashqi iqtisodiy faoliyatda ulardan foydalanish.....	89
3.2. Transport xarajatlari tahlili	113
3.3. Yuk jo‘natuv hujjatlarini tayyorlash: invoyslar, yuk xatlari, tir karnet, yuklarni yetkazib berishda nazorat kitobchasi.....	120
3.4. Tezkorlik va sifat, optimal narxlarda transport xizmatlarini tashkil etish masalalari	133
4-BOB. GLOBALLASHUV JARAYONIDA ENG QISQA VA XAVFSIZ KORIDORLARNI ANIQLASH VA ULARDAN FOYDALANISHNI TASHKILLASHTIRISH	141
4.1. Xalqaro transport koridorlarini optimallashtirish va eng qisqa yo‘nalishlarni aniqlash usullari	141
4.2. Transport yo‘nalishlarining xavfsizligini ta‘minlash va geosiyosiy barqarorlik masalalari	145
4.3. Xalqaro transport koridorlaridan samarali foydalanishda sug‘urtalashning ahamiyati.....	148
4.4. Raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar yordamida optimal yo‘nalishlarni aniqlash imkoniyatlari.....	164

5-BOB. YEVROPA QIT'ASIDA TRANSPORT KORIDORLARINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI	170
5.1. Trans - Yevropa transport tarmog'i (TEN-T) haqida umumiy tushuncha.....	170
5.2. Yevropaning to'qqizta asosiy tarmoq koridorlari tavsifi.....	187
5.3. Yevropa transport koridorlarini boshqaruvchi va moliyalashtiruvchi agentliklar	194
5.4. Yevropa transport koridorlarining rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi muammolar	200
6-BOB. AMERIKA QIT'ASIDA TRANSPORT KORIDORLARINING TASHKIL ETILISHI VA LOGISTIK YECHIMLARI	206
6.1. Amerika qit'asida transport koridorlari va mintaqaviy integratsiya.....	206
6.2. Pan-Amerika transport koridori va uning iqtisodiy ahamiyati	211
6.3. Shimoliy Amerika logistik tarmoqlari va transport koridorlari.....	217
6.4. Janubiy Amerikaning transport infratuzilmasi va savdo yo'laklari	220
7-BOB. OSIYO VA AFRIKA MAMLAKATLARI HUDUDIDA TRANSPORT KORIDORLARINING GEOGRAFIK JOYLASHUVI VA TASHKIL ETISH XUSUSIYATLARI.....	227
7.1. Osiyo va Afrika transport koridorlarining umumiy ko'rinishi	227
7.2. Osiyodagi asosiy transport koridorlari va ularning geografik joylashuvi	233
7.3. Afrikadagi transport koridorlari va infratuzilma loyihalari.....	236
7.4. Transport koridorlarini rivojlantirish va tashkil etishdagi muammolar va imkoniyatlar	245
8-BOB. MARKAZIY OSIYO VA YEVROOSIYO TRANSPORT KORIDORLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	253
8.1. Markaziy Osiyo mamlakatlarining tranzit salohiyati va raqobatbardoshligi	253
8.2. Yevroosiyo makonidagi xalqaro transport koridorlari	271
8.3. Rivojlanish yo'lida duch kelinayotgan muammolar.....	276
8.4. Markaziy Osiyo va Yevroosiyo mamlakatlari transport koridorlarining rivojlanish imkoniyatlari.....	281
9-BOB. BMTNING XALQARO TRANSPORT BO'YICHA KELISHUVLARI, PAKTLARI HAMDA STANDARTLARI	287
9.1. BMTning xalqaro transport sohasidagi umumiy roli va funksiyalari	287

9.2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining xalqaro transport bo'yicha kelishuvlari va paktlari.....	290
9.3. Xalqaro transport standartlari va reglamentlari	297
9.4. BMT tomonidan qabul qilingan kelishuvlarning milliy transport tizimiga ta'siri	300
10-BOB. O'ZBEKISTON VA JAHON MAMLAKATLARI TRANSPORT TIZIMLARINING INTEGRATSION RIVOJLANISHI VA HAMKORLIK YO'NALISHLARI	306
10.1. O'zbekiston transport tizimining umumiy ko'rinishi va rivojlanish bosqichlari.....	306
10.2. O'zbekiston transport koridorlari kengayishi doirasida Bir makon bir yo'l loyihasi amalga oshirishining zamonaviy tendensiyalari.....	312
10.3. Transport tizimlarini rivojlantirishda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik.....	318
10.4. Integratsion rivojlanishning istiqbollari va strategik yo'nalishlari.....	323
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	332

ОГЛАВЛЕНИЕ

ГЛАВА 1. ПОНЯТИЕ, СУЩНОСТЬ, КЛАССИФИКАЦИЯ И ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ ТРАНСПОРТНЫХ КОРИДОРОВ	14
1.1. Понятие и сущность международных транспортных коридоров	14
1.2. Классификация международных транспортных коридоров	19
1.3. Особенности развития международных транспортных коридоров ...	28
1.4. Роль международных транспортных коридоров в экономике страны.....	41
ГЛАВА 2. ТИПЫ, ЗНАЧЕНИЕ И ПРАВОВАЯ ОСНОВА ТРАНСПОРТНО-ЛОГИСТИЧЕСКИХ СИСТЕМ	50
2.1. Логистическая система и ее типы	50
2.2. Важность использования международных автомагистралей при грузоперевозках	57
2.3. Правовые основы функционирования международных транспортных коридоров.....	60
2.4. Современные тенденции в таможенных режимах внешней торговли.....	75
ГЛАВА 3. СИСТЕМА ОРГАНИЗАЦИИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ АВТОМОБИЛЬНЫХ, ЖЕЛЕЗНЫХ ДОРОГ И ДОРОГ ОБЩЕГО ПОЛЬЗОВАНИЯ	89
3.1. Виды транспорта, их использование во внешнеэкономической деятельности	89
3.2 . Анализ транспортных расходов	113
3.3 . Оформление товаросопроводительных документов: счета-фактуры, товарно-транспортные накладные, автомобильные книжки, буклеты контроля доставки грузов	120
3.4 . Вопросы организации транспортных услуг по скорости и качеству, оптимальным ценам.....	133
ГЛАВА 4. ОПРЕДЕЛЕНИЕ КРАТЧАЙШИХ И БЕЗОПАСНЫХ КОРИДОРОВ В ПРОЦЕССЕ ГЛОБАЛИЗАЦИИ И ОРГАНИЗАЦИЯ ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ.....	141
4 .1 . Методы оптимизации международных транспортных коридоров и определения кратчайших маршрутов	141

4.2. Обеспечение безопасности транспортных путей и вопросы геополитической стабильности	145
4.3. Значение страхования в эффективном использовании международных транспортных коридоров	148
4.4. Возможности определения оптимальных направлений с использованием цифровых технологий и инноваций.....	164
ГЛАВА 5. ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ТРАНСПОРТНЫХ КОРИДОРОВ НА ЕВРОПЕЙСКОМ КОНТИНЕНТЕ.....	170
5.1. Общее понимание Трансьевропейской транспортной сети (TEN-T).....	170
5.2. Описание девяти основных европейских сетевых коридоров	187
5.3. Агентства, управляющие и финансирующие европейские транспортные коридоры	194
5.4. Проблемы, препятствующие развитию европейских транспортных коридоров	200
ГЛАВА 6. ОРГАНИЗАЦИЯ ТРАНСПОРТНЫХ КОРИДОРОВ И ЛОГИСТИЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ В АМЕРИКЕ.....	206
6.1. Транспортные коридоры и региональная интеграция в Америке ...	206
6.2. Панамериканский транспортный коридор и его экономическое значение	211
6.3. Североамериканские логистические сети и транспортные коридоры.....	217
6.4. Транспортная инфраструктура и торговые пути Южной Америки .	220
ГЛАВА 7. ГЕОГРАФИЧЕСКОЕ ПОЛОЖЕНИЕ И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ ОСОБЕННОСТИ ТРАНСПОРТНЫХ КОРИДОРОВ В АЗИИ И АФРИКЕ	227
7.1. Обзор азиатских и африканских транспортных коридоров	227
7.2. Основные транспортные коридоры Азии и их географическое положение	233
7.3. Транспортные коридоры и инфраструктурные проекты в Африке .	236
7.4. Проблемы и возможности развития и организации транспортных коридоров.....	245

ГЛАВА 8. ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ЦЕНТРАЛЬНОАЗИАТСКИХ И ЕВРАЗИЙСКИХ ТРАНСПОРТНЫХ КОРИДОРОВ	253
8.1. Транзитный потенциал и конкурентоспособность стран Центральной Азии	253
8.2. Международные транспортные коридоры на евразийском пространстве	271
8.3. Проблемы, возникающие на пути развития.....	276
8.4. Возможности развития транспортных коридоров в Центральной Азии и Евразии	281
ГЛАВА 9. СОГЛАШЕНИЯ, ПАКТЫ И СТАНДАРТЫ ООН ПО МЕЖДУНАРОДНЫМ ПЕРЕВОЗКАМ.....	287
9.1. Общая роль и функции ООН в области международного транспорта.....	287
9.2. Соглашения и пакты ООН о международных перевозках.....	290
9.3. Международные транспортные стандарты и правила	297
9.4. Влияние соглашений ООН на национальную транспортную систему.....	300
ГЛАВА 10. ИНТЕГРАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ ТРАНСПОРТНЫХ СИСТЕМ УЗБЕКИСТАНА И СТРАН МИРА И НАПРАВЛЕНИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА.....	306
10.1. Обзор и этапы развития транспортной системы Узбекистана.....	306
10.2. Современные тенденции реализации проекта «Один пояс, один путь» в рамках расширения транспортных коридоров в Узбекистане	312
10.3. Сотрудничество с международными организациями в развитии транспортных систем.....	318
10.4. Перспективы и стратегические направления комплексного развития.....	323
ЛИТЕРАТУРЫ.....	332

CONTENTS

CHAPTER 1. CONCEPT, ESSENCE, CLASSIFICATION AND FEATURES OF DEVELOPMENT OF INTERNATIONAL TRANSPORT CORRIDORS	14
1.1. Concept and essence of international transport corridors.....	14
1.2. Classification of international transport corridors	19
1.3. Features of the development of international transport corridors.....	28
1.4. The role of international transport corridors in the country's economy ...	41
CHAPTER 2. TYPES, MEANING AND LEGAL BASIS OF TRANSPORT AND LOGISTICS SYSTEMS	50
2.1. Logistics system and its types.....	50
2.2. The Importance of Using International Highways in Freight Transport...	57
2.3. Legal basis for the functioning of international transport corridors.....	60
2.4. Modern trends in customs regimes of foreign trade	75
CHAPTER 3. SYSTEM OF ORGANIZING THE USE OF INTERNATIONAL ROADS, RAILWAYS AND PUBLIC ROADS	89
3.1. Types of transport, their use in foreign economic activity.....	89
3.2 . Analysis of transport costs.....	113
3.3 . Preparation of accompanying documents: invoices, consignment notes, vehicle books, cargo delivery control booklets	120
3.4 . Issues of organizing transport services in terms of speed and quality, optimal prices.....	133
CHAPTER 4. DETERMINING THE SHORTEST AND SAFE CORRIDORS IN THE PROCESS OF GLOBALIZATION AND ORGANIZING THEIR USE	141
4 .1 . Methods for optimizing international transport corridors and determining the shortest routes	141
4.2. Ensuring the security of transport routes and issues of geopolitical stability.....	145
4.3. The Importance of Insurance in the Efficient Use of International Transport Corridors	148
4.4. Opportunities to identify optimal directions using digital technologies and innovations	164

CHAPTER 5. FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF TRANSPORT CORRIDORS ON THE EUROPEAN CONTINENT.....	170
5.1 General understanding of the Trans-European Transport Network (TEN-T).....	170
5.2 Description of the nine main European network corridors	187
5.3. Agencies managing and funding European transport corridors	194
5.4. Problems hindering the development of European transport corridors ..	200
CHAPTER 6. ORGANIZING TRANSPORT CORRIDORS AND LOGISTICS SOLUTIONS IN AMERICA.....	206
6.1. Transport Corridors and Regional Integration in America.....	206
6.2. The Pan-American Transport Corridor and its Economic Importance ...	211
6.3. North American Logistics Networks and Transportation Corridors	217
6.4. Transport infrastructure and trade routes of South America	220
CHAPTER 7. GEOGRAPHICAL POSITION AND ORGANIZATIONAL FEATURES OF TRANSPORT CORRIDORS IN ASIA AND AFRICA.....	227
7.1. Overview of Asian and African Transport Corridors.....	227
7.2. The main transport corridors of Asia and their geographical location....	233
7.3. Transport corridors and infrastructure projects in Africa.....	236
7.4. Problems and opportunities for the development and organization of transport corridors	245
CHAPTER 8. DEVELOPMENT TRENDS OF CENTRAL ASIAN AND EURASIAN TRANSPORT CORRIDORS	253
8.1. Transit potential and competitiveness of Central Asian countries	253
8.2. International transport corridors in the Eurasian space	271
8.3. Problems arising on the path of development	276
8.4. Possibilities for the Development of Transport Corridors in Central Asia and Eurasia.....	281
CHAPTER 9. UN AGREEMENTS, COVENANTS AND STANDARDS ON INTERNATIONAL TRANSPORT	287
9.1 . General role and functions of the United Nations in the field of international transport	287
9 .2 . UN agreements and pacts on international transport.....	290

9.3. International transport standards and regulations.....	297
9.4. Impact of UN agreements on the national transport system.....	300
CHAPTER 10. INTEGRATION DEVELOPMENT OF TRANSPORT SYSTEMS OF UZBEKISTAN AND COUNTRIES OF THE WORLD AND DIRECTIONS OF COOPERATION	306
10.1. Review and stages of development of the transport system of Uzbekistan.....	306
10.2. Current trends in the implementation of the “One Belt, One Road” project within the framework of the expansion of transport corridors in Uzbekistan.....	312
10.3. Cooperation with international organizations in the development of transport systems.....	318
10.4. Prospects and strategic directions of integrated development.....	323
REFERENCES.....	332

MUQADDIMA

Jahon amaliyotida transport tizimini rivojlantirishga qaratilgan maxsus tadqiqot markazlari tashkil etilgan va ushbu yo‘nalishdagi muammolarning ilmiy yechimini topishga bag‘ishlangan maqsadli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, dengizga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkoniyati bo‘lmagan davlatlar uchun muqobil bo‘lgan arzon va qisqa transport koridorlarini yaratish, multimodal transport koridorlaridan foydalanishni rivojlantirish, zamonaviy va qulay transport-logistika xizmatlarini joriy etish, tovar tannarxida transport xarajatlarini qisqartirish kabi masalalarga keng ilmiy doiralar tomonidan alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Ushbu kitobda Yevropa va Amerika qit‘asidagi transport koridorlari va Osiyo va Afrika mamlakatlari hududida transport koridorlarining geografik joylashuvi, shuningdek ular orqali yuzaga keladigan iqtisodiy aloqalar va o‘zgarishlar dinamikasi yaxlit tizim sifatida tadqiq qilinib, «Xalqaro transport koridorlari» fani ostida birlashtirildi. Qo‘lingizdagi darslik matematik formulalar, chizmalar va keyslar asosida transport koridorlarining rivojlanish tendensiyalari hamda xalqaro savdo munosabatlari to‘g‘risidagi nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirishga ko‘mak beradi.

Mazkur darslikdagi nazariyalar mohiyatini chuqurroq anglab yetish uchun o‘quvchidan xalqaro iqtisodiyot, geografiya va logistika fanlaridan dastlabki bilimlarga ega bo‘lish talab etiladi. Darslikda aks etgan nazariy-amaliy tushuncha va xalqaro transport koridorlariga oid masalalar mavzular kesimida statistik tahlillar orqali talqin etilgan.

Darslik “Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar” yo‘nalishi bo‘yicha magistratura bosqichida tahsil olayotgan, tayanch iqtisodiy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan, kelajakda xalqaro transportga oid tashkilot va kompaniyalarda faoliyat olib borishni rejalashtirganlar, shuningdek, xalqaro transport sohasida ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanayotganlar uchun ham foydali bo‘lishini hisobga olib tayyorlangan. Har bir bobdan o‘rin olgan masalalar mantiqiy ketma-ketlikda, sodda tushuntirishlar hamda grafiklar orqali talqin etilgan.

Shu bilan birga, materiallarni mustahkamlash maqsadida boblar va paragraflarning mazmunidan kelib chiqib, keyslar, masala va misollar ham o‘rin olgan.

Mavzularni yoritilishidagi mazkur usul va yondashuvlar kitobxonga har bir bob bo‘yicha nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmalar bilan boyitishga xizmat qiladi. Shuningdek, darslik xalqaro savdo, xalqaro magistrallar, temir yo‘llar va jamoat yo‘llaridan foydalanishni tashkil etish tizimi bo‘yicha qo‘shimcha bilim hosil qilmoqchi bo‘lgan, mustaqil ta‘lim bilan muntazam shug‘ullanib kelayotgan o‘quvchilarga ham mo‘ljallangan bo‘lib, mavzular izohi soddadan murakkablikka, xususiylikdan umumiylikka qarab shakllantirilgan.

Yuqoridagi holatlarni inobatga olgan holda, tayyorlangan mazkur darslik siz, aziz talaba-yoshlar va izlanuvchilar uchun xalqaro transport koridorlarida uchraydigan ziddiyatli muammo va masalalarni yechishga, ularning tub mohiyatini anglab yetishga ko‘mak beradi, degan umiddamiz.

Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, darslikda uchragan xatoliklar, ayrim tushuncha va kategoriyalarning asl mohiyati siz o‘ylagandek ravon bayon etilmagan bo‘lsa, muallif tomonidan yo‘l qo‘yilgan kamchilik sifatida baholab, uni quyidagi manzilga jo‘natishingizni iltimos qilamiz: **qobiliy.isaev@gmail.com**. Siz o‘quvchilar tomonidan bildirilgan taklif va tavsiyalar kitobning keyingi nashrlarini tayyorlashda xizmat qiladi, degan umiddamiz.

Muallif mazkur darslikning dunyo yuzini ko‘rishida yaqindan ko‘maklashgan, jumladan, materiallarni yig‘ish va texnik ishlarni bajarishda ishtirok etgan talabalarga, qimmatli vaqtini ayamadan zaruriy taklif va tavsiyalarini bergan barcha ustozlarga, taqrizchilarga o‘zining samimiy minnatdorchiligini bildiradi.

1-BOB. XALQARO TRANSPORT KORIDORLARI TUSHUNCHASI, MOHIYATI, TASNIFI VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

- 1.1. Xalqaro transport koridorlari tushunchasi va mohiyati
- 1.2. Xalqaro transport koridorlarining tasniflanishi
- 1.3. Xalqaro transport koridorlarining rivojlanish xususiyatlari
- 1.4. Xalqaro transport koridorlarining mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni

1.1. Xalqaro transport koridorlari tushunchasi va mohiyati

Insonlar, tovarlar va ma’lumotlar oqimi kishilik jamiyatining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib kelgan. Doimiy iqtisodiy aloqalar esa ushbu mobillik(harakatchanlik)ni yanada oshirdi va foydalanish imkoniyatlarini yuqori darajalarga olib keldi. Garchi bunday rivojlanishlarning boshlanishi buyuk geografik kashfiyotlar va sanoat inqilobi davrlariga borib taqalsada, XX asrning 2-yarmidagi savdoning erkinlashtirilishi, iqtisodiy bloklarning paydo bo‘lishi, mehnat resurslari va boshqa iqtisodiy resurslardagi nisbiy afzallikdan oqilona foydalanilishi sababli yanada tezlashdi. Bunday holat yo‘lovchilar, tovarlar va axborot oqimini boshqarish, qo‘llab quvvatlash va rivojlantirishdagi bir qancha muammolarni keltirib chiqarishiga qaramasdan, insonlar va shu qatorda milliy iqtisodiyotlar ham o‘zlarining transport tizimlarining “quli”ga aylanishdi. Bir tomondan insonlar qisqa vaqtda uzoq masofalarni bosib o‘tishni, o‘zlari uchun yangiliklarni kashf etishni, ijtimoiy aloqalarni kuchaytirishni istar ekan, boshqa tomondan mamlakatlar va korxonalar o‘zlarining energiya, arzon ishchi kuchi, qulay va katta bozorlarga bo‘lgan talablarini qondirilishini, jahon iqtisodiyotining bir qismi bo‘lishni istar ekan, bulaning yechimi aynan transport tizimining doimiy ravishda rivojlantirilishi va standartlashtirilishiga borib taqaladi.

Xalqaro transport koridorlarini shakllantirish va rivojlantirishning falsafiy-nazariy va amaliy shartlari chuqur tarixiy ildizlarga borib taqaladi. Hatto qadimgi davrlarda ham, o‘rta asrlarda ham transport savdo-iqtisodiy koridorlari shakllangan bo‘lib, ular yuk va yo‘lovchi oqimlarining keng konsentratsiyasi, ijtimoiy-iqtisodiy

munosabatlarning chastotasi hamda birlashgan davlatlar va qit'alarining o'zaro bog'liqligi bilan ajralib turardi. Tarixda mintaqalararo savdo yo'llari ko'plab uchraydi. Xususan, mashhur tarixiy savdo yo'llaridan biri Sharqiy Osiyo va O'rta yer dengizi mamlakatlarini bog'lagan Buyuk Ipak yo'lidir. Xitoylik olim Hansen V. takidlaganidek, "Bu kabi yo'llar qatoriga Hindiston, Ziravorlar orollari va Sharqiy Afrikadan O'rta yer dengizigacha bo'lgan "Ziravorlar yo'li"; "Yantar yo'li"—Boltiq bo'yidan O'rta yer dengizigacha; "Tuz yo'li"—Salariya portidan Adriatika dengizi sohilidagi Truetn lagerigacha kabi yo'llarini misol keltirishimiz mumkin".¹ Albatta, mazkur qarashlar qadimgi xalqlarning madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy aloqalari haqidagi qiziqarli tarixiy haqiqatlarni ochishga xizmat qiladi. Tarixiy savdo-iqtisodiy yo'laklarning har biri amaliyotga yo'naltirilgan siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy asoslash va konsentratsiyalangan maqsadli oqimni ta'minlovchi transport kommunikasiyalari tarmog'i bo'lib, uning doirasida iqtisodiy resurslar, foydali qazilmalar va tabiiy resurslar, fan va texnika yutuqlari, bilim va texnologiya, madaniyatlarning xalqaro transchegaraviy almashinuvi amalga oshiriladi.

Jahon transport koridorlari deganda alohida geografik hududlar o'rtasida muhim xalqaro yuk va yo'lovchi tashishni ta'minlovchi milliy yoki xalqaro transport tizimining bir qismi tushuniladi, shuningdek, ushbu yo'nalishda harakatlanuvchi barcha transport turlarining harakatlanuvchi tarkibi va statsionar qurilmalari, bundan tashqari, ushbu trafikni amalga oshirish uchun texnologik, tashkiliy va huquqiy shartlar majmui ham ushbu transport koridorlarining tarkibiga kiradi.

Koridorlar konsepsiyasi iqtisodiy rivojlanishda muhim rol o'ynaydi, chunki iqtisodiyotlar samarali va barqaror logistika tizimlari bilan qo'llab-quvvatlanishi kerak. Ko'pincha turli mamlakatlarda boshlang'ich va boradigan nuqtalar o'rtasida tezkor yo'laklarni yaratish rivojlanish konsepsiyasi sifatida foydalaniladi. U savdo

¹ Hansen V. The Silk Road: A New History: [англ.]. — Oxford University Press, 2012. — 320 p.

va transportni osonlashtirish va ulanishni oshirish uchun konsepsiya sifatida ishlatiladi.

Zamonaviy mutaxassislarning talqiniga ko'ra, "Bugungi kunda "transport koridori" tushunchasi ma'lum bir yo'nalish bo'ylab harakatlanish uchun havo, quruqlik yoki dengiz yo'li sifatida talqin qilinadi va tranzit tashish zarurati kabi majburiy komponent bundan mustasno". "Transport koridori tushunchasi tranzitga qaraganda kengroq va har bir transport koridori ham tranzit emas, chunki u orqali nafaqat tranzit yuklar, balki ichki va tashqi savdo yo'llari ham olib o'tilishi mumkin"². A.S. Zinevich ilmiy qarashlarida transport koridorlariga imkon qadar kengroq yondashishga harakat qilgan. Ko'rinib turibdiki, "transport koridori" tushunchasiga xalqaro terminologik jihatdan sezilarli ta'sir ko'rsatadi va rus terminologiyasida esa bu tushuncha "yo'l", "yo'lak" ma'nolarini anglatadi. Shuni ta'kidlash kerakki, "hozirgi vaqtda Yevropa Ittifoqining ko'plab hujjatlarida "transport koridori" tushunchasi "transport o'qi" bilan almashtirilmoqda va ba'zi hollarda "multimodal marshrut" logistik atamasi qo'llaniladi". Yu.A. Sherbanin zamonaviy transport koridorlarining asosiy vazifalarini ancha chuqur tahlil etgan olimlardan biri sanaladi. Shunga ko'ra, ushbu konsepsiyani siyosiy, iqtisodiy, moliyaviy, texnik va huquqiy ma'nolarda birlashtirish mahalliy iqtisodiy fan va amaliyot uchun juda muhim bo'lib ko'rinadi va kelajakda mintaqaviy iqtisodiyotning texnik, transport va iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Ushbu sohani moliyalashtirishga va yagona siyosiy-huquqiy sohada harakat qilgan holda transport koridorini yaratish imkon beradi.

V.A. Dergachevning ta'rifiga ko'ra, "mintaqaviy transport koridorlari umumiy foydalaniladigan transport(temir yo'l, avtomobil, dengiz, havo, quvur liniyasi) va telekommunikatsiyalarning asosiy yo'nalishlari bo'yicha konsentratsiya deb tushuntiradi". O.V.Vnukova va V.A.Nikiforovlar tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra, "transport koridorlari tegishli infratuzilmaga ega bo'lgan, ko'proq

² Hansen V. The Silk Road: A New History: [англ.]. — Oxford University Press, 2012. — 13-26 p.

konsentratsiyali yo‘nalishlarda xalqaro tashishlarda tashishni ta’minlaydigan turli xil transport turlarining asosiy transport kommunikatsiyalari to‘plami - deb ta’rif berib o‘tadi”³.

Transport koridorlari vazifasi va xarakteriga ko‘ra keng maqsadlarga mo‘ljallangani bilan izohlanadi. MDH mamlakatlari olimlaridan V.N. Morozovning transport koridorlariga, “Turli mamlakatlarni bog‘laydigan va eksport, import va tranzit tashish hajmini oshirishga yordam beradigan tashkiliy va iqtisodiy jihatdan muvozanatli aloqani tashkil etuvchi turli xil transport turlari infratuzilma obektlarining tartiblangan to‘plami”–deya ta’rif berib o‘tadi.

Transport tizimi mamlakat iqtisodiyotining samarali ishlashi uchun zarur omillardan biri va u barqaror o‘shishning eng muhim infratuzilmasi hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda, mamlakatlar iqtisodiyoti bir-biriga bog‘langan bo‘lsa, jahon ishlab chiqarish tarmog‘ida samarali ishlaydigan transport va kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirish mamlakatlarning ushbu global tarmoqqa kirib borishi uchun zarur shartdir.

Yuk va yo‘lovchilarni xalqaro tashishning rivojlanishi yaqin va uzoq xorijdagi ko‘plab davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarni o‘rnatish barqarorligidan dalolat beradi. Xalqaro tashishlarni samarali amalga oshirish uchun transport koridorlarini rivojlantirish lozim bo‘ladi. Xalqaro transport koridori (transport koridori, MTK)-umumiy foydalanishdagi yer usti transporti (temir yo‘l, avtomobil, daryo) va telekommunikatsiyalarni umumiy yo‘nalishlarga jamlaydigan yuqori texnologiyali transport tizimi hisoblanadi.

“Koridor” tushunchasi umumiy holda tashishning barcha turlarini o‘z ichiga oladigan: avtomobil yo‘llari, dengiz, daryo, temir yo‘l va havo uchastkalari, magistral quvurlar, dengiz, daryo va havo portlari, temir yo‘l stansiyalari va multimodal terminallarni o‘z ichiga oladi. Xalqaro transport koridori yuk va yo‘lovchi tashishda xalqaro aloqalarini rivojlantirish va yaxshilash uchun xizmat

³ Внукова О.С., Никифоров В.А. Международные транспортные коридоры // Ученые записки Орловского государственного университета. 2015. – С. 193.

qiladi. Transport koridorlari yagona texnologik, tashkiliy, huquqiy me'yorlar va qoidalar asosida ishlaydigan xalqaro standartlar talablariga javob beradigan kuchli polimer magistrallar bo'lib, tashish muddati va narxini sezilarli darajada kamaytirishga, ularning sifati va ishonchliligini oshirishga imkon yaratadi.

Davlatlararo iqtisodiy, madaniy va boshqa aloqalarni ta'minlash bilan bog'liq tashish muammolarini hal qilishda, xalqaro hamkorlikning kengayishi va xalqaro transport koridorlarini shakllantirishning integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishda shuningdek, kelishilgan texnik parametrlarga ega bo'lgan va qo'shma tashish texnologiyalaridan foydalanishni ta'minlaydigan xalqaro transport infratuzilmasini yaratishning maqsadga muvofiqligi milliy transport tizimini global transport tizimiga integratsiya qilish asoslari sifatida transport tizimi yetakchi rol o'ynaydi BMT ekspertlar guruhi Xalqaro transport koridorining quyidagi ta'rifini qabul qilgan: "bu milliy yoki xalqaro transport tizimining bir qismi bo'lib, u alohida geografik hududlar o'rtasida muhim xalqaro yuk va yo'lovchi tashishni ta'minlaydi, shu yo'nalishda ishlaydigan barcha transport turlarining harakatlanuvchi tarkibi va statsionar qurilmalarini, shuningdek tashishning texnologik, tashkiliy va huquqiy shart-sharoitlarni o'z ichiga oladi".

Tadqiqotlar va siyosiy hujjatlarda turli xil koridorlarni uchratish mumkin: rivojlanish koridorlari, iqtisodiy koridorlar, multimodal transport koridorlari, tranzit yo'laklari, savdo koridorlari, logistika koridorlari, asosiy koridorlar va yordamchi tarmoqlar va boshqalar. Sof fazoviy nuqtai nazardan koridorlar (transport) tarmog'idagi bo'g'inlar bo'lib, transport infratuzilmasi va turli transport turlari oqimlari orqali ikki yoki undan ortiq tugunlarni (ko'pincha iqtisodiy markazlarni) bog'laydigan geografik aloqaga ishora qiladi. Ushbu tugunlar ko'p hollarda shaharlar, portlar, sanoat markazlari kabi yuklari qayta ishlanadigan yoki saqlanadigan, sotiladigan iqtisodiy markazlardir.

Muvaffaqiyatli transport koridorlari faqat amalga oshirilayotgan katta tashkiliy ishlar, shuningdek, xalqaro tashuvlarni amalga oshiruvchi transport-ekspeditorlik firmalarining zamonaviy transport va yuklarni qayta ishlash

texnologiyalarini joriy etish, turli transport tizimlaridan foydalanish, “eshikdan-eshikgacha” tashish imkoniyatlari tufayli mumkin bo‘ladi. Bular tovarlarini yetkazib berish, shuningdek, zamonaviy telekommunikatsiyalar, kuzatuv tizimlari va yuklarni kuzatib borishni o‘z ichiga oladi.

Shunday qilib, xalqaro transport yo‘laklari tashish jarayonida ilg‘or axborot-logistika texnologiyalaridan (intermodal, aralash va boshqa transport turlari) foydalangan holda samarali transport infratuzilmasini yaratish, qonunchilik, ekologik va boshqa talablarga rioya etish asosida zamonaviy yuk tashish tizimining ishlashini ta‘minlaydi. Bunday tizimlar faqat ularni yaratish va modernizatsiya qilishda innovatsion texnik va texnologik yechimlardan foydalanilsa va boshqaruv raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshirilsagina muvaffaqiyatli ishlaydi.

Shuningdek, transport logistikasi tizimi logistika kerakli miqdordagi tovarlarni kerakli vaqt va eng kam xarajatlar bilan optimal yo‘nalish bo‘yicha kerakli nuqtaga ko‘chirishni nazarda tutadi. Sotish uchun tayyor bo‘lgan tovarlarning umumiy narxida xalqaro jo‘natmalar uchun transport xarajatlarning tarkibiy qismi muhim ahamiyatga ega. Bu ulush 5-10%, xom ashyo uchun esa 50% va undan ko‘p bo‘lishi mumkin. Yagona yetkazib berish operatori bo‘lgan eng samarali transport agentining mavjudligi, ayniqsa multimodal transportni tashkil qilishda juda muhim hisoblanadi.

1.2. Xalqaro transport koridorlarining tasniflanishi


Xalqaro transport koridorlari global iqtisodiy rivojlanishning muhim elementlaridan biri bo‘lib, ular turli mamlakatlar va mintaqalar o‘rtasida savdo, logistika va transport jarayonlarini tezlashtirishda asosiy rol o‘ynaydi. Transport koridorlari yirik iqtisodiy markazlarni bog‘lovchi, tovarlar va xizmatlar harakatini samarali amalga oshiruvchi yo‘nalishlar majmuasidir. Ushbu yo‘nalishlar orqali logistika zanjirlari takomillashib, hududlararo integratsiya kuchayadi.

Xalqaro transport koridorlarining tasniflanishi ularning geografik joylashuvi, transport turlari, xizmat ko‘rsatish doirasi va iqtisodiy ahamiyatiga qarab amalga

oshiriladi. Bu tasniflash jarayoni transport tizimlarining yaxlitligini ta'minlash va mintaqaviy iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun zarurdir.

So'nggi yillarda transport infratuzilmasi rivojlanishi bilan birga, xalqaro transport koridorlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan loyihalar soni ortib bormoqda. Bu esa nafaqat alohida mamlakatlar uchun, balki butun mintaqaviy savdo va iqtisodiy taraqqiyot uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Masalan, Osiyo va Yevropa o'rtasidagi transport yo'nalishlari global miqyosda savdo oqimlarining barqarorligini ta'minlashda asosiy ahamiyat kasb etmoqda.

Xalqaro transport koridorlarining tasnifiga ko'ra, besh turdagi transport koridorlari mavjud (1.2.1-rasm).



1.2.1-rasm. Xalqaro transport koridorlarining tasnifi

Milliy savdo koridori. Import va eksportni xalqaro shlyuzdan yoki chegara o'tish joyidan olib o'tish uchun foydalaniladigan milliy transport tarmog'idagi belgilangan marshrut. U mamlakatning bir yoki bir nechta yirik ishlab chiqarish va iste'mol markazlari bilan bog'lanadi. Eng keng tarqalgan yo'lak mamlakatning milliy poytaxti yoki sanoat markazini uning asosiy porti bilan bog'lashdir.

Ushbu tur savdo korridoriga Moskva-Nizhny Novgorod-Yekaterinburg-Omsk-Novosibirsk-Krasnoyarsk-Irkutsk-Ulan-Ude-Khabarovsk-Vladivostok savdo korridorini misol qilib keltirishimis mumkin. Ushbu corridor 1966- yilda ochilgan bo'lib, uzunligi 9259 km (5753 mil)ni tashkil etadi. Yuk va yo'lovchilarni tashish uchun o'rtacha 144-166 soat vaqt sarflanadi.

Ikki tomonlama savdo koridorlari. Yo‘laklar ikki davlat o‘rtasida savdosiqtini olib borish va har bir davlatga boshqasining xalqaro shlyuzlaridan foydalanish imkonini berish uchun ishlatilgan. Shunday qilib, ular bir yoki bir nechta chegara o‘tish joylarini o‘z ichiga oladi va bir yoki bir nechta xalqaro shlyuzlarga ulanadi. Yo‘laklar nafaqat yo‘nalishlarni, balki o‘zaro savdoning mamlakatga kirishi va chiqishi mumkin bo‘lgan joylarni ham belgilovchi milliy qonunchilik bilan belgilanadi.



1.2.2-rasm. Rossiya. Moskva-Vladivostok korridori⁴

Ikki tomonlama savdo yo‘laklari ikki davlat o‘rtasidagi savdoni tashish va har bir davlatga boshqasining xalqaro shlyuzidan foydalanishga imkon berish uchun ishlatiladi.

Shunday qilib, ikki tomonlama savdo koridorlari bir yoki bir nechta chegara o‘tish joylarini o‘z ichiga oladi va bir yoki bir nechta xalqaro shlyuzlarni bog‘laydi.

Ular odatda o‘zaro savdo amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan yo‘nalishlar va joylarni belgilovchi milliy qonunchilik bilan belgilanadi. Qonun hujjatlarida


⁴ <https://www.agatetravel.com/moscow-to-vladivostok-trains.html>

tovarlarni chegaradan olib o'tish, bojxona majburiyatlari bo'yicha tovarlarni chegara o'tish joyi o'rtasida olib o'tish va ichki joylashuv (bojxona rasmiylashtiruvi tugallanishi mumkin bo'lgan joy) yoki xalqaro shlyuz orqali tovarlarni olib o'tish kabi qoidalar ham belgilanishi mumkin.

Milliy hukumat quruqlikdagi chegara o'tish joylarini nazorat qiladi, lekin faqat odatda viloyat hukumati tomonidan boshqariladigan xalqaro shlyuzlarni tartibga soladi.

Bojxona va tegishli chegara idoralari chegaradan o'tish joylarini nazorat qiladi va odatda viloyat idoralari idoralar ustidan ma'muriy nazoratga ega.

Darvoza va chegara o'tish joylarini saqlash xarajatlari odatda foydalanuvchi to'lovlari va yig'imlari hisobidan qoplanadi va aloqa va boshqa tugunlarni saqlash xarajatlari umumiy soliq tushumlari hisobidan qoplanadi.



Izoh: Chizmaning aniq mazmunini saqlab qolish va xalqaro iqtisodchilarga mo'ljallanganligi nuqtayi nazaridan tarjimaga qo'l urilmadi.

1.2.3-rasm. Janubiy Osiyo mintaqaviy hamkorlik tashkiloti(SAACR) koridori⁵

⁵ https://www.researchgate.net/figure/SAARC-Railway-Corridors-in-Bangladesh_fig4_363280765

Ikki tomonlama koridorlarga misol bo'la oladigan koridorlardan biri bu Janubiy Osiyo mintaqaviy hamkorlik tashkiloti koridorlaridir.

Ko'p tomonlama savdo koridorlari. Bojxona va tegishli chegara idoralari chegaradan o'tish joylarini nazorat qiladi va odatda viloyat idoralari idoralar ustidan ma'muriy nazoratga ega. Milliy hukumat quruqlikdagi chegara o'tish joylarini nazorat qiladi, lekin faqat odatda viloyat hukumati tomonidan boshqariladigan xalqaro shlyuzlarni tartibga soladi. Yo'laklar yuklarni kamida bittasi tranzit mamlakat sifatida ishlaydigan uch yoki undan ortiq davlat orqali tashish uchun ishlatiladi. Natijada, kamida ikkita chegara o'tish joyi mavjud va bir yoki bir nechta xalqaro shlyuzlarga ulanish bo'lishi mumkin. Yo'laklarni farqlashning yana bir usuli koridor ta'rifiga kiritilgan transport turlari va marshrutlari qatoriga tegishli. Yo'l yoki temir yo'l liniyasi kabi bir rejimli, bitta yo'nalishli koridorni boshqarish nisbatan sodda. Yagona agentlik infratuzilmani rivojlantirish uchun javobgardir. Shu yoki boshqa organ ushbu transport turini tartibga solish uchun javobgardir.

Ko'p tomonlama savdo yo'laklari kamida bittasi tranzit mamlakat bo'lgan uch yoki undan ortiq mamlakatlar orqali yuklarni tashish uchun ishlatiladi. Natijada, kamida ikkita chegara o'tish joyi mavjud va ko'p tomonlama savdo koridorlarida bir yoki bir nechta xalqaro shlyuzlarga ulanish bo'lishi mumkin.

Ushbu yo'laklardagi yo'nalishlar ikki tomonlama kelishuvlar orqali belgilanishi mumkin, biroq chegaralar va tranzit mamlakatlar orqali yuklarni tashishda izchil tartib-qoidalarga rioya etilishini ta'minlash uchun mintaqaviy kelishuvlar talab qilinishi mumkin. Bunga tovarlar va transport vositalarini sug'urtalash hamda tranzit mamlakat orqali o'tishni tugatmagan tovarlar va transport vositalaridan bojxona to'lovlarini undirish bo'yicha mintaqaviy qoidalar kiradi.

Ushbu yo'nalishlarning maqsadi qo'shni yoki qo'shni bo'lmagan davlatlar o'rtasida mintaqaviy integratsiya va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishdir. Ko'p tomonlama savdoni saqlash xarajatlari koridorlar ikki tomonlama savdo yo'llarini saqlash xarajatlari bilan bir xil tarzda qoplanadi. Biroq, tranzit mamlakatlar

mamlakatdan tranzit o'tadigan transport vositalari tomonidan foydalaniladigan infratuzilma xarajatlarini qoplash uchun to'lovlarni olishlari mumkin.

Multimodal koridorlar. Yo'laklarni farqlashning yana bir usuli koridor ta'rifiga kiritilgan transport turlari va marshrutlari qatoriga tegishli. Yo'l yoki temir yo'l liniyasi kabi bir rejimli (yoki bitta marshrut koridorini) boshqarish nisbatan osonroq. Yagona agentlik infratuzilmani rivojlantirish uchun mas'uldir va xuddi shu agentlik ushbu transport turini tartibga solish uchun javobgar bo'lishi mumkin.

Turli rejimlardan foydalangan holda parallel marshrutlar mavjud bo'lgan multimodal koridorni boshqarish qiyinroq. Bu ishlab chiqish va tartibga solish uchun modal agentliklar o'rtasida muvofiqlashtirishni talab qiladi. Ushbu muvofiqlashtirishga erishish uchun yuqori siyosiy rahbarlar, masalan, bosh vazir, rejalashtirish komissiyasi, yuqori vazirlik yoki qonunchilik qo'mitasi ishtirok etishi kerak.

Turli rejimlardan foydalangan holda parallel marshrutlar mavjud bo'lgan multimodal koridorni boshqarish qiyinroq. Bu rivojlanish va tartibga solish funksiyalari uchun modal agentliklar o'rtasida muvofiqlashtirishni talab qiladi. Ushbu muvofiqlashtirishga erishish uchun yuqori darajadagi siyosiy rahbariyatning ishtiroki talab qilinishi mumkin (masalan, bosh vazir, rejalashtirish komissiyasi, vazirlar mahkamasi yoki qonunchilik palatasi).



1.2.4-rasm. Pan American korridori⁶

Ko'p tomonlama savdo korridorlariga misol qilib Pan American savdo korridorini olishimiz mumkin.

1.2.1-jadval⁷

Ikki tomonlama va ko'p tomonlama korridorlar

Bilateral	Multilateral
Bolivia-Chile	TEN, EU
Northern Corridor, Kenya	TRACECA, C. Asia
Maputo, Mozambique	Can-Mex (NAFTA)
Mongolia-China	Pan American
SAARC Corridors, S. Asia	Trans-Kalahari, Namibia

⁶ https://en.wikipedia.org/wiki/Pan-American_Highway_%28North_America%29

⁷ International Transport Corridors , M.E.Balmaa ,Tashkent-2022, 16-b.

Mercosur, S. America	ECOWAS, W. Africa
Northern West Borneo	Turkey-Jordan
West Bengal, India	Asian Highway, C. Asia
West Bank-Gaza, Palestine	GMS Corridors, S.E. Asia

Multimodal transport koridorlari. Transport koridorlarini farqlashning yana bir yo‘li bu ushbu koridorda ishlatiladigan transport vositalariga qarab farqlashdir. Faqat yo‘l yoki temir yo‘ldan iborat marshrutni boshqarish osonroq bo‘lib, uni boshqarish, tartibga solish, va infratuzilmani rivojlantirishga birgina tashkilotning qurbi yetadi. Ammo shunday Transport koridorlari borki, bunday koridorlarda mashina yo‘li va temir yo‘ldan tashqari suv transporti ham mavjud bo‘ladi va mahsulotlar bir turdagi transport vositasidan boshqa turdagi transport vositasiga o‘tkazilishga majbur bo‘linadi.

Bunday Multimodal transport koridorlarini boshqarish, tartibga solish va rivojlantirish uchun turli xil tashkilotlar bir-birlari bilan hamkorlikda ishlashga majbur bo‘lishadi.

Multimodal yo‘lda intermodal tashishdan farqli o‘laroq, sayohatning har bir bosqichi ko‘pincha boshqa tashuvchi tomonidan yoki alohida shartnomalar bo‘yicha amalga oshiriladi. Multimodal tashishda yuk uchun mas’uliyat marshrutning turli nuqtalarida bir tashuvchidan boshqasiga o‘tishi mumkin.

Bunday multimodal transport koridorlariga Markaziy Osiyo koridorlarining G‘arbiy yo‘nalish transport koridorlari misol bo‘la oladi. Ushbu korridor to‘g‘risida qisqacha ma’lumotni quyidagi jadvaldan bilib olishingiz mumkin.

Ushbu koridorda Turkmaniston hududidan o‘tish uchun ushbu davlat qonunchiligiga muvofiq yuk alohida shartnoma asosida Turkmaniston Mashinalari orqali boshqa davlat chegarasigacha, yoxud Kaspiy dengizi portigacha tashib beriladi. Bundan tashqari Kaspiy dengizida Paromlarga yuk ortish uchun ham alohida shartnoma talab etiladi.

G'arbiy yo'nalish transport koridorlari

Nomi	Masofa (km)	Tashish vaqti	20-22 tn. yukni tashish uchun o'rtacha xarajat, AQSH doll.
“Toshkent — Qo'ng'iro't — Beyneu — Oqtau — Boku — Tbilisi — Poti — (<i>Bolgariya, Ruminiya va boshqalar</i>)”	4 558 (<i>Konstansa</i>) 4 645 (<i>Burgas</i>)	19-21 kun	4 500-4 700
“Toshkent — Buxoro — Turkmanobod — Mari — Turkmanboshi — Boku — Tbilisi — Poti — (<i>Bolgariya, Ruminiya, Vengriya va boshqalar</i>)”	4 320 (<i>Burgas</i>) 4 233 (<i>Konstansa</i>)	19-21 kun	4 700-4 900

Intermodal koridor. Intermodal tashish bir nechta transport turlaridan (masalan, temir yo'l, avtomobil, dengiz yoki havo) foydalangan holda, lekin bitta konnosament yoki shartnoma bo'yicha tovarlarni tashishni o'z ichiga oladi. Intermodal tashishda konteynerlar yoki tirkamalar yukning o'zini tushirish va qayta yuklash zaruratisiz turli xil transport turlari o'rtasida o'tkaziladi. Misol uchun, konteyner bir mamlakatdan boshqasiga kemada sayohat qilishi mumkin, so'ngra oxirgi manzilga yetkazib berish uchun poyezd yoki yuk mashinasiga o'tkazilishi mumkin. Intermodal tashish yuklarni turli rejimlar o'rtasida uzluksiz uzatish bilan tavsiflanadi, odatda standartlashtirilgan konteynerlar va samarali uzatish terminallari bilan osonlashtiriladi. Hozirgi kunda deyarli barcha transport koridorlarida Intermodal usulda yuk tashish ta'minlangan.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro transport koridorlari mintaqaviy va global iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ularning tasnifi transport turlari, geografik yo'nalish va iqtisodiy ahamiyatiga qarab belgilanib, har bir koridor

⁸ O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi rasmiy veb sahifasi

savdo oqimlarini tezlashtirish va logistika xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi. O'zbekiston o'zining strategik joylashuvini inobatga olgan holda, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va xalqaro koridorlarga integratsiyani kuchaytirishga yo'naltirilgan islohotlarni davom ettirmoqda. Bu esa mamlakatning tranzit salohiyatini oshirish va tashqi savdo imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

1.3. Xalqaro transport koridorlarining rivojlanish xususiyatlari

Zamonaviy globallashuv sharoitida xalqaro transport koridorlari jahon iqtisodiyotining asosiy bo'g'inlaridan biriga aylangan. Ular xalqaro savdo oqimlarini samarali tashkil etish, mintaqalararo iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish va geosiyosiy manfaatlarni uyg'unlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Transport koridorlari nafaqat yuk tashish va logistika jarayonlarini yengillashtiradi, balki mamlakatlarning iqtisodiy o'sishida katalizator sifatida xizmat qiladi.

Xalqaro transport koridorlarining rivojlanishi texnologik taraqqiyot, ekologik talablar, mintaqaviy va global siyosiy o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq. Dengiz yo'llari, temiryo'llar, avtomobil yo'llari va aviatsiya yo'nalishlari orqali amalga oshiriladigan transport tizimlari global savdoning muvozanatini ta'minlab, davlatlararo hamkorlikni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, barqaror rivojlanish tamoyillariga amal qilish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va raqamli texnologiyalarni joriy etish transport koridorlarining kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilab beradi.

Ushbu mavzuda xalqaro transport koridorlarining jahon iqtisodiyotidagi o'rni, ularning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar va texnologik innovatsiyalarni o'rganish dolzarb ahamiyatga ega. Transport infratuzilmasi va logistika tizimlarining rivoji nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki global savdo tizimidagi mavjud qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Shu sababli, xalqaro transport koridorlarining rivojlanish xususiyatlarini

tahlil qilish zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

1. Global savdo va iqtisodiy integratsiya

Global savdo va iqtisodiy integratsiya xalqaro iqtisodiy tizimning ajralmas qismi bo‘lib, mamlakatlar o‘rtasida tovarlar, xizmatlar, kapital va mehnat resurslarining erkin harakatlanishini ta‘minlaydi. Savdo va integratsiya jarayonlari global iqtisodiy rivojlanishga turtki bo‘lib, iqtisodiy o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytiradi va yangi bozor imkoniyatlarini yaratadi.

Global savdo asosan davlatlarning o‘z ichki resurslarini samarali foydalanib, chet el tovarlari va xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishi bilan bog‘liq. Har bir davlat o‘zining raqobatdosh afzalliklariga asoslangan holda savdo siyosatini olib boradi. Bu esa davlatlararo savdo oqimlarining kengayishiga olib keladi. Misol uchun, rivojlangan davlatlar yuqori texnologiyali mahsulotlar va xizmatlarni eksport qilsa, rivojlanayotgan davlatlar asosan xomashyo va agrar mahsulotlar bilan bozorga kiradi.

Iqtisodiy integratsiya esa davlatlar o‘rtasida iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan. Bu jarayon odatda bosqichma-bosqich amalga oshiriladi va quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1.3.1-jadvalda global savdo va iqtisodiy integratsiyaning bosqichlari keltirilgan.

Ushbu bosqichlar iqtisodiy integratsiyaning rivojlanish jarayonlarini ifodalaydi va davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish uchun ishlatiladi.

Global savdoning rivojlanishi iqtisodiy integratsiyani tezlashtiradi, chunki davlatlar bir-birlariga iqtisodiy jihatdan bog‘liq bo‘lib qoladi. Misol uchun, Yevropa Ittifoqi (YI) dunyoning eng yirik iqtisodiy integratsion tashkilotlaridan biri bo‘lib, uning doirasida davlatlar o‘rtasidagi savdo to‘siqlari bartaraf etilgan va yagona valyuta – yevro joriy qilingan.

1.3.1-jadval

Global savdo va iqtisodiy integratsiyaning bosqichlari

Bosqich	Tavsif	Misol
Preferensial savdo kelishuvlari	Ayrim mahsulotlarga bojxona imtiyozlari beriladi.	Janubiy Amerika davlatlari o'rtasidagi MERCOSUR kelishuvlari.
Erkin savdo zonalari	A'zo davlatlar o'rtasida bojxona to'lovlari bekor qilinadi yoki sezilarli darajada kamaytiriladi.	NAFTA (hozirgi USMCA), ASEAN erkin savdo zonasi.
Bojxona ittifoqlari	O'zaro bojlarni bekor qilishdan tashqari, uchinchi tomon davlatlariga nisbatan yagona bojxona siyosati yuritiladi.	Rossiya, Qozog'iston va Belarus o'rtasidagi Yevroosiyo bojxona ittifoqi.
Yagona bozorlar	Kapital, mehnat va xizmatlarning erkin harakatlanishi ta'minlanadi.	Yevropa Ittifoqining yagona bozori.
Iqtisodiy va valyuta ittifoqi	Yagona iqtisodiy siyosat va yagona valyuta tizimi joriy etiladi.	Yevropa Ittifoqining Yevro hududi (Eurozone).

Global savdo jarayonlari nafaqat iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri, balki davlatlarning ijtimoiy va siyosiy rivojlanishida ham muhim rol o'ynaydi. Jahon savdo tashkiloti (WTO) kabi xalqaro tashkilotlar savdo nizomlarini tartibga solib, davlatlar o'rtasidagi savdo mojarolarini hal qilishda vositachi sifatida xizmat qiladi. WTO tomonidan ishlab chiqilgan qoidalarga amal qilish, savdoni ochiq va adolatli qilishga yordam beradi.

Raqamlashtirish va logistika texnologiyalarining rivojlanishi global savdo tizimini tubdan o'zgartirdi. Elektron tijoratning yuksalishi global bozorlarga kirishni osonlashtirdi va kichik korxonalar ham o'z mahsulotlarini xalqaro miqyosda sotish imkoniyatiga ega bo'ldi. Misol uchun, Amazon va Alibaba kabi platformalar global savdoning yangi yo'nalishlarini belgilab berdi.

Shu bilan birga, global savdo jarayonlarida mavjud bo'lgan ayrim cheklovlar va qiyinchiliklarni ham ta'kidlash kerak. Proteksionizmning kuchayishi, savdo to'siqlari, geosiyosiy ziddiyatlar va pandemiya kabi omillar xalqaro savdoga salbiy ta'sir ko'rsatadi. COVID-19 pandemiyasi vaqtida global yetkazib berish


zanjirlaridagi uzilishlar savdoning zaif tomonlarini ochib berdi. Shu sababli, davlatlar global savdoning barqarorligini ta'minlash maqsadida yangi strategiyalar ishlab chiqmoqda.

Iqtisodiy integratsiyaning ijobiy natijalaridan biri davlatlararo ishlab chiqarish zanjirlarining shakllanishidir. Masalan, avtomobilsozlik yoki elektronika sanoatida mahsulot ishlab chiqarish turli davlatlar o'rtasida taqsimlanadi. Bu jarayon raqobatni oshirish bilan birga, iqtisodiyotning globallashtirishiga hissa qo'shadi.

Global savdo va iqtisodiy integratsiya dunyo iqtisodiyotini yanada uyg'unlashtiradi, yangi imkoniyatlar yaratadi va xalqaro aloqalarni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, bu jarayon davlatlardan moslashuvchanlik, barqaror rivojlanish tamoyillariga rioya qilish va iqtisodiy siyosatni doimiy takomillashtirishni talab etadi.

2. Geosiyosiy va strategik ahamiyat

Xalqaro transport koridorlarining geosiyosiy va strategik ahamiyati xalqaro aloqalar, milliy xavfsizlik, savdo-iqtisodiy manfaatlar hamda mintaqaviy integratsiya jarayonlariga bog'liq. Bu koridorlar nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki davlatlar o'rtasidagi kuchlar muvozanatini shakllantirish va geosiyosiy manfaatlarni amalga oshirishda ham muhim rol o'ynaydi. Xalqaro transport koridorlarini rivojlantirishda mamlakatning geosiyosiy va strategik ahamiyatini yoritib beruvchi omillar 1.3.1-rasmda keltirilgan.



1.3.1-rasm. Geosiyosiy va strategik ahamiyatga ta'sir etuvchi omillar

Geosiyosiy ahamiyat quyidagilarda o‘z aksini topadi:

Geografik joylashuvning roli. Transport koridorlari orqali bir davlat boshqa davlatlarga strategik ta’sir ko‘rsatish imkoniga ega bo‘ladi. Geografik jihatdan foydali joylashuvga ega davlatlar tranzit davlat sifatida katta iqtisodiy va siyosiy foyda oladi. Misol uchun, Suvaysh kanali orqali o‘tadigan koridor Misrni global dengiz savdosining markaziga aylantiradi. Xuddi shunday, Turkiya Boshqaruvidagi Bosfor va Dardanel bo‘g‘ozlari Sharqiy Yevropa va Osiyoni birlashtiruvchi strategik nuqtalar hisoblanadi.

Energiya resurslari tranziti. Energiya manbalarini tashish transport koridorlarining geosiyosiy ahamiyatini oshiradi. Neft va gaz quvurlari, masalan, Rossiyadan Yevropaga gaz yetkazib beruvchi quvurlar, davlatlar o‘rtasida siyosiy vosita sifatida ishlatilishi mumkin. Masalan, Kaspiy dengizi orqali o‘tadigan gaz quvurlari Rossiya, O‘zbekiston, Qozog‘iston va Xitoy o‘rtasidagi geosiyosiy hamkorlikni kuchaytirgan.

Mintaqaviy ziddiyatlar va transport koridorlari. Ba’zi transport koridorlari mintaqaviy ziddiyatlarning markazida turadi. Transport yo‘llarini nazorat qilish davlatlar o‘rtasida kuch kurashiga sabab bo‘ladi. Buning uchun shuni misol qilib keltirish mumkinki, Kashmir orqali o‘tadigan yo‘llar Hindiston, Pokiston va Xitoy o‘rtasidagi geosiyosiy nizolarning bir qismi hisoblanadi.

Qurolli kuchlarning joylashuv. Transport koridorlari harbiy strategiyalarda ham muhim ahamiyatga ega. Qo‘shinlarni tezkor harakatlantirish, harbiy ta’minot zanjirini qo‘llab-quvvatlash uchun transport infratuzilmasi zarur. Misol sifatida, NATO davlatlari Sharqiy Yevropadagi harbiy logistikani transport koridorlari orqali ta’minlaydi.

Strategik ahamiyat quyidagilardan iborat:

Global savdo tizimining yadro elementi. Transport koridorlari xalqaro savdo va yetkazib berish zanjirlarining uzluksizligini ta’minlaydi. Strategik ahamiyatga ega yo‘llarni boshqarish savdo oqimlarini yo‘naltirish imkonini beradi. Maslan,

Yangi Ipak Yo'li (Belt and Road Initiative) Osiyo, Yevropa va Afrikani birlashtirish orqali global savdo tarmog'ini kengaytirmoqda.

Qo'shni davlatlar bilan integratsiya. Transport koridorlari qo'shni davlatlar o'rtasida savdo, turizm va investitsiya oqimlarini osonlashtiradi. Buning natijasida iqtisodiy va siyosiy barqarorlik mustahkamlanadi. Markaziy Osiyo davlatlari orqali o'tuvchi yo'llar Xitoy va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi savdoni tezlashtiradi.

Tranzit salohiyat. Tranzit davlatlar transport koridorlari orqali bojxona to'lovlari, xizmat ko'rsatish va logistika sohasi orqali katta iqtisodiy daromad oladi. Singapur dunyoning eng yirik portlaridan biri bo'lib, global savdoning tranzit markaziga aylangan.

Ekologik va barqarorlik strategiyalari. Transport koridorlarining strategik ahamiyati ekologik xavfsizlikni ta'minlash va yashil energiya tizimlariga moslashuvchanlikni rivojlantirish bilan oshib bormoqda. Yashil transport tizimlari joriy etilishi ekologik talablarni qondirishga xizmat qiladi. Yevropa davlatlarining temiryo'l transportiga o'tishi uglerod izini kamaytirishga qaratilgan.


3. Raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarning roli

Xalqaro transport koridorlarini rivojlantirishda texnologiyalar va innovatsiyalar muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy texnologiyalar transport tizimlarini raqamlashtirish, yuk tashish va logistika jarayonlarini avtomatlashtirish, tranzit vaqtini qisqartirish, xarajatlarni kamaytirish va ekologik talablarga moslashishni ta'minlaydi. Innovatsiyalar bu koridorlarni nafaqat iqtisodiy, balki ekologik va strategik jihatdan ham samaraliroq qilish imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalar xalqaro transport koridorlarida integratsiyalashgan boshqaruv tizimlarini yaratish imkonini beradi. Bu texnologiyalar avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini, IoT (Internet of Things) va blokcheyn texnologiyasini o'z ichiga oladi. Sun'iy intellekt asosidagi tizimlar yuklarni kuzatish, transport oqimlarini boshqarish va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Internetga ulangan qurilmalar yordamida yuklarning joylashuvi, holati va yetkazib berish jarayonini real vaqt rejimida kuzatib borish mumkin. Blokcheyn

texnologiyasi esa yuk tashish jarayonlarini xavfsiz va oshkora qilish orqali tranzaksiyalarni tezlashtiradi hamda korrupsiya xavfini kamaytiradi.

Innovatsiyalar transport va logistika sohasida yangi texnologiyalarni joriy qilishga yo'naltirilgan bo'lib, ular transport koridorlarining samaradorligini oshiradi. Avtonom transport vositalari, jumladan haydovchisiz yuk mashinalari, dronlar va poyezdlar yuk tashish vaqtini qisqartirib, xarajatlarni kamaytiradi. Germaniyada yirik logistika markazlarida avtomatlashtirilgan robotlar ishlatiladi. Raqamli logistika markazlari yuklarni avtomatlashtirilgan omborlarda saqlash va taqsimlashni ta'minlaydi. Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar (Big Data) asosida yuk tashish yo'nalishlarini optimallashtirish va yoqilg'i iste'molini kamaytirish mumkin. Xalqaro transport koridorlarini rivojlantirish xususiyatlaridan biri bo'lgan raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarning taqdim etuvchi imkoniyatlari 1.3.2-rasmda tasvirlangan.



1.3.2-rasm. Raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarning roli

Transport koridorlarini rivojlantirishda ekologik barqarorlik muhim ahamiyatga ega. Yashil texnologiyalar, masalan, elektr transport vositalari va qayta

tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish karbonat angidrid chiqindilarini kamaytiradi. Elektr yuk mashinalari va poyezdlar, shuningdek, port va logistika markazlarida quyosh va shamol energiyasidan foydalanish ekologik zararni kamaytiradi. Transport infratuzilmasi uchun ekologik monitoring tizimlari joriy etilib, zararli chiqindilar darajasi nazorat qilinadi. Yashil logistika esa transport jarayonlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni ko'paytiradi.

Intellectual transport tizimlari (ITS) transport vositalari va infratuzilma o'rtasida interaktiv aloqa o'rnatib, transport oqimlarini samarali boshqarishga xizmat qiladi. Trafikni boshqarish va favqulodda vaziyatlarga tezkor javob berish orqali ITS tizimlari vaqt va xarajatlarni kamaytiradi, xavfsizlikni oshiradi. Yo'l xaritalarini yangilash tizimlari transport vositalarining real vaqt rejimidagi harakatlarini kuzatib, eng qisqa yo'nalishlarni tavsiya qilish imkonini beradi.

Xalqaro transport koridorlaridagi innovatsiyalar amalda keng qo'llanilmoqda. Misol uchun, Xitoyning Belt and Road Initiative (BRI) loyihasida raqamli transport tizimlari va avtomatlashtirilgan logistika markazlari faol qo'llanilmoqda. Yevropa Ittifoqida Trans-European Transport Network (TEN-T) loyihasida GPS, IoT va sun'iy intellekt yordamida integratsiyalashgan transport tizimlari ishlatiladi. Elon Musk tomonidan taklif qilingan Hyperloop texnologiyasi esa yuqori tezlikda yuk tashishni maqsad qilgan yangi transport innovatsiyasini tashkil etadi.

Texnologiyalar va innovatsiyalar xalqaro transport koridorlarining rivojlanishida markaziy rol o'ynaydi. Ular nafaqat transport tizimlarini samarali va tejankor qilishga, balki ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga ham imkon yaratadi. Texnologik yutuqlar koridorlarning global savdodagi rolini oshiradi, yangi imkoniyatlar yaratadi va mintaqalararo bog'liqlikni mustahkamlaydi. Bu esa transport infratuzilmasi rivojlanishida texnologiyalarni joriy qilish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

4. Ekologik talablar va barqarorlik

Xalqaro transport koridorlarini rivojlantirishda ekologik talablar va barqarorlik muhim o'rin tutadi, chunki transport sohasining ekologik ta'siri global

iqlim o'zgarishi, atrof-muhitni ifloslantirish va inson sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bugungi kunda dunyo miqyosida transport tizimlarining ekologik ta'sirini kamaytirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun bir qator yangi strategiyalar va texnologiyalar ishlab chiqilmoqda.

Transport tizimining atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun ekologik talablar va siyosatlar joriy etilmoqda. Bu talablar, ayniqsa, yuk tashish va yo'l harakati bo'yicha chiqindilarni kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rag'batlantirishga qaratilgan. Transport tizimlarining atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish uchun boshqaruv va texnologik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega.

Birinchi navbatda, transportning atmosferaga ta'sirini kamaytirish uchun ekologik talablar va standartlar kiritiladi. Bu, masalan, karbonat angidrid (CO_2) chiqindilarini kamaytirish, noxush gazlarni filtrlash, shuningdek, energiya samaradorligini oshirish kabi choralarga asoslanadi. Hozirgi kunda ko'plab davlatlar o'z transport tizimlarini ekologik jihatdan toza qilish uchun normativ hujjatlar ishlab chiqishmoqda. Elektr transport vositalari va avtonom transport texnologiyalari, masalan, emissiya miqdorini sezilarli darajada kamaytirish imkoniyatlarini taqdim etadi. Shuningdek, transport tizimlarini barqaror energiya manbalari bilan ta'minlash ham ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Yashil texnologiyalar, jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish transport koridorlarining ekologik barqarorligini oshirishda muhimdir. Quyosh va shamol energiyasidan foydalanish, portlar va boshqa transport markazlarida energiya samaradorligini oshirishga imkon yaratadi. Boshqa tarafdin, ekologik transport texnologiyalari transport tizimlarining kam uglerodli va energiya samarali bo'lishiga yordam beradi. Elektr transport vositalari, masalan, elektr yuk mashinalari va poyezdlar, an'anaviy transport vositalariga nisbatan karbonat angidrid chiqindilarini kamaytiradi. Shuningdek, qayta tiklanuvchi energiya

manbalaridan foydalanish orqali transportning energiya samaradorligini oshirish mumkin.

Ekologik talablarga rioya qilish uchun, shuningdek, transport tizimlarining atrof-muhitga ta'sirini monitoring qilish va boshqarish tizimlari joriy etilmoqda. Ushbu tizimlar chiqindilarni kuzatish va ularni kamaytirish, shuningdek, ekologik xatarlarga tezkor javob berish imkoniyatini beradi. Shuningdek, ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun ekologik sertifikatlash tizimlari ham joriy etilmoqda. Bu tizimlar orqali transport kompaniyalari va infratuzilma operatorlari o'z faoliyatlarini ekologik jihatdan toza qilish uchun zarur choralarni ko'rishlari kerak.

Shuningdek, transport tizimlarining ekologik jihatdan barqarorligini ta'minlash uchun iqtisodiy rag'batlar va subsidiyalar ham joriy etilmoqda. Masalan, ekologik toza transport vositalari va texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish uchun davlat tomonidan rag'batlantiruvchi chora-tadbirlar qo'llanilmoqda. Bu chora-tadbirlar, o'z navbatida, transport koridorlarining ekologik samaradorligini oshiradi. 1.3.2-jadvalda Xalqaro transport koridorlarining ekologik barqarorligini oshirishda qo'llanilayotgan texnologiyalar keltirib o'tilgan.

1.3.2-jadval

Xalqaro transport koridorlarining ekologik barqarorligini oshirishda qo'llanilayotgan texnologiyalar

Texnologiya	Funksiyasi	Barqarorlikka ta'siri
Elektr transport vositalari	Yuk va yo'lovchilarni elektr energiyasida tashish	Uglerod chiqindilarini kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish
Quyosh va shamol energiyasi	Transport markazlari va portlarda energiya manbai sifatida foydalanish	Karbonat angidrid chiqindilarini kamaytirish, toza energiya ishlab chiqarish
Avtonom transport texnologiyalari	Haydovchisiz transport vositalarini boshqarish	Tezlikni optimallashtirish, energiya samaradorligini oshirish, xavfsizlikni oshirish

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari	Portlarda, temir yo‘l stansiyalarida energiya ishlab chiqarish	Transport tizimlarining energiya ta’minotini diversifikatsiya qilish, ekologik barqarorlikni ta’minlash
Biokimyoviy yoqilg‘ilar	Transport vositalarini ekologik toza yoqilg‘ilar bilan ta’minlash	Atrof-muhitga ta’sirini kamaytirish, uglerod izini kamaytirish

Yuqoridagi texnologiyalar xalqaro transport koridorlarining barqarorligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Bu texnologiyalar orqali transport tizimlarining ekologik ta’sirini kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rag‘batlantirish mumkin.

Barqaror transport tizimlarini yaratish uchun transport kompaniyalari va hukumatlar birgalikda ishlashlari zarur. Davlat tomonidan ko‘rsatiladigan rag‘batlar va subsidiyalar ekologik toza texnologiyalarni joriy etishni rag‘batlantiradi, shu bilan birga, atrof-muhitga salbiy ta’sirlarni kamaytirishga imkon beradi. Ekologik talablar va barqaror transport tizimlari transport koridorlarining global miqyosda samarali va barqaror ishlashini ta’minlaydi, bu esa o‘z navbatida global iqtisodiy integratsiyaga yordam beradi.

5. Multimodal transport tizimlari


Multimodal transport tizimlari, turli transport turlari va vositalarining integratsiyasi orqali global va mintaqaviy savdo va logistika jarayonlarini samarali tashkil qilishni ta’minlaydi. Xalqaro transport koridorlarini rivojlantirishda multimodal tizimlarning roli katta, chunki ular transport tizimlarining bir-biri bilan samarali bog‘lanishini va transport oqimlarining yaxlitligini ta’minlashga yordam beradi.

Multimodal transport tizimlari orqali eng samarali va arzon yo‘llar tanlanib, yuk tashish va yo‘lovchi tashish jarayonlari tezlashtiriladi va iqtisodiy samaradorlik oshadi. Bunday tizimlar, shuningdek, transport tarmoqlarining ekologik ta’sirini

kamaytirishga, xavfsizlikni oshirishga va umumiy logistika xarajatlarini pasaytirishga yordam beradi.

Multimodal transportning asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, u bir nechta transport turlarining kombinatsiyasi orqali amalga oshiriladi. Bu transport turlari temir yo‘l, avtomobil, havo, suv (dengiz va daryo) va turli xil logistika va ombor tizimlarini o‘z ichiga oladi. Bunday tizimlar xalqaro transport koridorlarining integratsiyasini ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi, chunki turli mamlakatlar va mintaqalar o‘rtasidagi tranzitni eng samarali va tezkor yo‘l bilan amalga oshirish imkonini beradi.

Xalqaro transport koridorlarida multimodal tizimlarning rivojlanish xususiyatlari quyidagi omillarga asoslanadi (1.3.3-rasm).



1.3.3-rasm. Multimodal tizimlarning rivojlanish xususiyatlariga ta'sir etuvchi omillar

1. Transport vositalarining birlashtirilishi. Multimodal tizimlar bir nechta transport turlarini, masalan, temir yo‘l, avtomobil, havo va dengiz transportlarini o‘zaro bog‘lab, bir xil yukni bir nechta transport vositalarida yetkazib berishga imkon yaratadi. Bu, transport jarayonlarini birlashtirish orqali tezlikni oshirish va xarajatlarni kamaytirishga imkon beradi.

2. Yukni boshqarish tizimlari. Multimodal tizimlar samarali boshqaruv tizimlariga asoslanadi. Bu tizimlar yukning joylashuvi, tezligi, holati va yetkazib berish jarayonini kuzatish imkonini beradi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar,

masalan, IoT va sun'iy intellekt asosida bu jarayonlar real vaqt rejimida boshqariladi va optimallashtiriladi.

3. Integratsiya va logistika markazlari. Xalqaro transport koridorlarini rivojlantirishda multimodal tizimlarning samarali ishlashi uchun turli transport tarmoqlarining integratsiyalashgan logistika markazlarida jamlanishi muhimdir. Bu markazlar turli transport turlarini birlashtirish va ularni tezkor va samarali bog'lash imkonini beradi. Integratsiya qilishda innovatsion texnologiyalar va raqamli platformalar muhim ahamiyatga ega.

4. Barqarorlik va ekologik ta'sir. Multimodal transport tizimlari ekologik jihatdan barqaror bo'lishi mumkin, chunki ular turli transport vositalarining to'g'ri tanlanishiga asoslanadi, ya'ni eng kam energiya iste'moli va eng kam chiqindilarni yaratadigan transport vositalari tanlanadi. Elektr va ekologik toza transport vositalarini multimodal tizimlarda qo'llash orqali, uglerod izini kamaytirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash mumkin.

Multimodal transport tizimlari xalqaro savdoni rivojlantirish va transport koridorlarining samaradorligini oshirish uchun quyidagi strategik afzalliklarga ega (1.3.3-jadval).

Bir nechta transport turlaridan foydalanish orqali xarajatlarni optimallashtirish mumkin. Masalan, temir yo'l va dengiz transporti arzonroq bo'lishi mumkin, shuning uchun ularni qo'shib ishlatish yuk tashish jarayonini samarali qiladi.

Turli transport turlarining kombinatsiyasi orqali, masalan, havo transporti va dengiz transporti orasida tezkor o'tishlar amalga oshiriladi, bu esa yukni yetkazib berish vaqtini sezilarli darajada qisqartiradi.

Multimodal transport tizimlari mamlakatlar o'rtasidagi savdo aloqalarini kengaytirish va iqtisodiy integratsiyani kuchaytirishga yordam beradi, chunki ular turli mamlakatlar va mintaqalar o'rtasida samarali va xavfsiz tranzitni ta'minlaydi.

Xalqaro transport koridorlarida multimodal tizimlarning asosiy afzalliklari

Afzallik	Tavsif
Transport xarajatlarini kamaytirish	Bir nechta transport vositalarining integratsiyasi orqali xarajatlar pasayadi.
Vaqtни qisqartirish	Tezkor va samarali yo‘nalishlar orqali yukning yetkazib berish vaqti qisqaradi.
Ekologik barqarorlik	Kam uglerodli transport turlarining qo‘llanishi orqali ekologik ta’sir kamayadi.
Savdo va iqtisodiy integratsiya	Mamlakatlar va mintaqalar o‘rtasida savdo aloqalarining rivojlanishiga yordam beradi.
Logistika jarayonlarini optimallashtirish	Real vaqt rejimida logistika jarayonlarini boshqarish orqali samaradorlik oshadi.

Multimodal transport tizimlari xalqaro transport koridorlarining samarali ishlashini ta’minlaydi va global savdo aloqalarining rivojlanishida markaziy rol o‘ynaydi. Bunday tizimlar turli transport turlari va texnologiyalarni birlashtirish orqali transport xarajatlarini kamaytiradi, vaqtни qisqartiradi va ekologik barqarorlikni ta’minlaydi. Xalqaro savdoni rivojlantirish uchun multimodal tizimlarni joriy etish, transport koridorlarining global integratsiyasini kuchaytiradi va mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni yanada mustahkamlaydi.

1.4. Xalqaro transport koridorlarining mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni

Xalqaro transport koridorlari mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan asosiy omillardan biridir. Ular mamlakatlarning savdo aloqalarini, sanoat va xizmatlar sohasini, shu bilan birga, turizm va investitsiya oqimlarini shakllantirishda katta rol o‘ynaydi. Xalqaro transport koridorlari nafaqat tovarlarni va xizmatlarni tez va samarali tarzda yetkazib berishga yordam beradi, balki mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy integratsiya va hamkorlikni kuchaytiradi, ularning global iqtisodiy tizimga integratsiyasini ta’minlaydi.

Xalqaro transport koridorlarining mamlakat iqtisodiyotiga ta’siri asosan ularning tranzit salohiyatiga, ya’ni tovarlarni tez va xavfsiz yetkazib berish

qobiliyatiga bog‘liqdir. Bu koridorlar orqali o‘tadigan yuklar mamlakatlarning eksport va import salohiyatini oshiradi, shuningdek, biznes va sanoat tarmoqlarining rivojlanishiga yordam beradi. Ushbu koridorlar orqali amalga oshiriladigan savdo va logistika operatsiyalari mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga, yangi ish o‘rinlarini yaratishga va yangi investitsiyalarni jalb qilishga yordam beradi.

Xalqaro transport koridorlarining iqtisodiyotga ta’siri shuningdek, mintaqaviy barqarorlik va rivojlanish uchun ham muhimdir. Ular mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlarini qo‘llab-quvvatlaydi, qishloq xo‘jaligi va sanoat tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlashga yordam beradi, shuningdek, mintaqamamlakatlarning ijtimoiy va iqtisodiy barqarorligini oshiradi. Shu bilan birga, xalqaro transport koridorlari mamlakatlar o‘rtasida yangi diplomatik aloqalar va hamkorlikni yaratadi, bu esa o‘z navbatida iqtisodiy rivojlanishning yangi imkoniyatlarini yuzaga keltiradi.

Xalqaro transport koridorlarining mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni nafaqat tashqi savdo va logistika jarayonlarida, balki ichki iqtisodiy rivojlanishda ham ko‘zga tashlanadi. Transport tizimlarining rivojlanishi, yangi yo‘nalishlarning ochilishi va mavjud infratuzilmaning modernizatsiyasi ichki iqtisodiy faoliyatni yanada samarali va raqobatbardosh qilishga xizmat qiladi. Bu jarayonlar mamlakatning investitsiya jozibadorligini oshiradi va xalqaro bozorlar bilan yanada mustahkam aloqalar o‘rnatishga yordam beradi.

Transport koridorlari bo‘yicha amalga oshirilayotgan va taklif etilayotgan tashabbuslar soni ortib bormoqda. Imtiyozli takliflardan biri Afg‘onistonning Kobul shahridan Chittagong (Bangladesh)gacha bo‘lgan Katta magistral yo‘lini qayta tiklash bo‘lib, u dunyodagi kambag‘allarning katta qismi yashaydigan hududlarni bog‘laydi. Bundan ham ulug‘vor tashabbus Xitoy tomonidan taklif etilayotgan “Bir makon va bir yo‘l” tashabbusi bo‘lib, uning maqsadi Ipak yo‘li iqtisodiy kamari va Yangi dengiz ipak yo‘li (Jahon banki 2019) atrofida muhim infratuzilma

investitsiyalari orqali transkontinental miqyosda aloqa va hamkorlikni yaxshilashga qaratilgan.

Katta transport yo‘laklarini rivojlantirish mintaqaviy integratsiya va iqtisodiy o‘rishni rag‘batlantirish usuli sifatida tobora ko‘proq ko‘rilmoqda. Mamlakatlar ko‘pincha xalqaro hamjamiyat yordamida xususiy sektor investitsiyalari va savdosini oshirish, ish o‘rinlarini yaratish va iqtisodiy farovonlikni yaxshilash umidida ushbu yo‘laklarga sarmoya kiritadi.

Qadimiy davrlarda, xususan XVIII asrdan (sanoatdan) oldingi davrlarda transportning eng ko‘p tarqalgan turi bu insonlar tomonidan qo‘lga o‘rgatilgan jonzorlar, xususan, otlar, tuyalar bo‘lishgan. Odamlar ushbu transport vositalarida karvon yo‘llarida (o‘sha davrlarning transport koridorlari orqali) harakatlanishgan. Bunday transport koridorlariga “Buyuk ipak yo‘li”ni misol qilib keltirishimiz mumkin (1.4.1-rasm). Bu tur transport vositalari juda ham ko‘p tarqalganiga qaramasdan, unchalik samara bermagan. Otlar o‘rtacha soatiga 8-15 km yo‘l bosgan, tashilishi mumkin bo‘lgan yuk hajmi esa 125 kg atrofida bo‘lgan. Albatta otlar bilan uzoq yo‘l bosish, ayniqsa sahrolardan o‘tish birmuncha noqulayliklar keltirib chiqargan. Misol uchun ozuqaning ko‘p miqdorda talab etilishi, sug‘orishdagi muammolar va boshqalar. Bunday muammolarning yechimi esa tuyalardir, ular karvonda soatiga 5-8 km tezlikda yurishgan va har bir tuyaga o‘rtacha 200 kg yuk ortilgan.⁹


Buyuk ipak yo‘li transport koridoriga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, uzunligi taxminan 7000 mil yoki deyarli 12 ming kilometrni tashkil etadigan ushbu yo‘l Xitoyning Pekin va Shanghai shaharlaridan boshlanib, Changan, Lanjou, Jiuquan, Yumen, Anxi, Hami, Turfan, Kusha, Oqsu, Qoshg‘ar, O‘sh, Samarqand, Buxoro, Mashhad, Bag‘dod, Konstantinopol (hozirgi Istanbul), Qohira kabi ko‘plab shaharlardan o‘tgan kichik karvon yo‘llarining birlashmasidan iborat transport koridori hisoblanadi. Tarixiylik jihatdan esa 10000 yillik bo‘lishi mumkin, chunki

⁹ The geography of transport systems Jean-Paul Rodrigue 3rd edition 42b

eramizdan oldingi X asrga tegishli Misr fir'avnlari maqbaralarida Xitoy ipagining izlari aniqlangan.

Yuk tashish muddatiga kelsak, Xitoydan Rim imperiyasigacha borib qaytishga o'rtacha 2 yil vaqt sarflangan. Yuklarni faqat bitta karvon boshidan oxirigacha yetkazib borganmi degan savolga esa salbiy javob olamiz, chunki karvonlar bir shahardan boshqa bir shahargacha yo'l yurishgan xolos, yuklar esa keyingi karvonga sotilgan va o'sha karvon yuklarni keyingi punktgacha yetkazib bergan¹⁰.

Ipak Yo'li



1.4.1-rasm. Buyuk Ipak yo'li¹¹

Bu davrda quruqlikdagi transport tizimining samaradorligi past bo'lganligi sababli, savdoning katta qismi mahalliy edi. Muxtoriyat va asosiy tirikchilikka asoslangan iqtisodlar ko'p savdo-sotiq hosil qila olmadi. Mintaqaviy iqtisod nuqtai nazaridan shaharlarni tez buziladigan qishloq xo'jaligi tovarlari bilan ta'minlash ko'pi bilan 50 kilometr radius bilan chegaralangan. Shaharlarning kattaligi ham vaqt o'tishi bilan doimiy bo'lib qoldi. Odamlar soatiga taxminan 5 km yura olishlari va

¹⁰ <https://www.theglobalist.com/a-silk-road-caravan/>

¹¹ <https://www.iflscience.com/what-was-the-silk-road-and-why-was-it-so-hugely-important-67943>

ular kuniga bir soatdan ko‘proq vaqt sarflashni xohlamasliklari sababli, iqtisodiy munosabatlarning kunlik maydoni 2,5 km radius yoki taxminan 20 kvadrat kilometr bilan cheklanadi.

1.4.1-jadval

Top 14 davlatlarning YaIM, eksport va import hajmi (2022-yil)¹²

Davlat nomi	YaIM	Eksport	Eksport YaIMga nisbati	Import	Import YaIMga nisbati
AQSH	\$25 439 700 000 000	\$2 995 046 000 000	11,77%	\$3 969 644 000 000,00	15,60%
Xitoy	\$17 963 171 479 205	\$3 714 245 280 577	20,68%	\$3 139 497 839 473,03	17,48%
Yaponiya	\$4 256 410 760 724	\$916 904 220 798	21,54%	\$1 079 882 755 161,36	25,37%
Germaniya	\$4 082 469 490 798	\$2 078 953 894 568	50,92%	\$1 973 119 748 663,80	48,33%
Hindiston	\$3 416 645 826 053	\$778 547 052 989	22,79%	\$902 304 020 924,93	26,41%
Buyuk Britaniya	\$3 089 072 722 400	\$1 032 613 371 396	33,43%	\$1 112 016 212 896,31	36,00%
Fransiya	\$2 779 092 236 506	\$963 967 041 638	34,69%	\$1 102 655 769 490,92	39,68%
Kanada	\$2 161 483 369 422	\$731 555 074 344	33,85%	\$719 339 144 628,93	33,28%
Italiya	\$2 049 737 165 408	\$750 824 732 037	36,63%	\$781 083 185 842,36	38,11%
Korea, Respublikasi	\$1 673 916 469 027	\$808 029 011 186	48,27%	\$811 129 400 000,00	48,46%
Gollandiya	\$1 009 398 719 033	\$946 333 742 193	93,75%	\$835 470 254 029,17	82,77%
Irlandiya	\$533 140 011 838	\$730 869 814 169	137,09%	\$516 083 899 683,54	96,80%
Singapur	\$466 788 426 792	\$870 805 785 589	186,55%	\$701 629 497 098,64	150,31%
Gong Kong SAR	\$359 838 583 490	\$697 587 039 485	193,86%	\$683 414 517 073,09	189,92%

Shunday qilib, aksariyat qishloq joylari qishloq va shaharlar atrofida joylashgan bo‘lib, diametri 5 km dan oshig‘i kamdan-kam uchraydi. Rim, Pekin, Konstantinopol yoki Venetsiya kabi sanoat inqilobigacha bo‘lgan yirik shaharlar

¹² Jahon banki ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan

hech qachon 20 kvadrat kilometrdan oshmagan¹³. Haqiqatan ham xalqaro savdo xususan, Ipak yo‘li bo‘ylab mavjud edi, lekin sotiladigan tovarlar ziravorlar, ipak, vino va parfyumeriya kabi yuqori qiymatli (hashamatli) tovarlar edi. O‘rta yer dengizi atrofida amfora zaytun moyi, don yoki sharobning samarali standart transport mahsuloti sifatida keng tarqalishiga sabab bo‘ldi. Buyuk Ipak yo‘li esa insoniyat tarixidagi eng mustahkam savdo yo‘li bo‘lib, u taxminan 1500 yil davomida ishlatilgan. Aynan ushbu davrda buyuk geografik kashfiyotlar amalga oshirilgan¹⁴.

Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqadigan bo‘lsak transport vositalarining rivojlanmaganligi ushbu davrda mahsulotlarning faqat cheklangan doirada aylanganligini ta’minlagan xolos.

Endi mamlakatlar YaIM hajmi, Eksporti va Importini tahlil qilsak. Chunki mamlakat bir mahsulotni export yo import qilar ekan, Jahon transport koridorlariga murojaat qiladi.

1.4.1-jadvaldan kelib chiqib xulosa qiladigan bo‘lsak, mamlakatlar eksporti va importining YaIMga nisbati juda ham baland va ushbu ko‘rsatkichlar mamlakatlarning jahon savdo koridorlaridan qanchalik ko‘p foydalanishini ifoda etib keladi.

Shunday qilib, xalqaro transport koridorlari mamlakatning iqtisodiy o‘sishiga, barqaror rivojlanishiga va global miqyosda raqobatbardoshligini oshirishga hissa qo‘shadi. Ularning ta’siri va ahamiyati mamlakatning tashqi savdo siyosatidan tortib, ichki iqtisodiyotga bo‘lgan ta’sirigacha barcha sohalarda o‘z aksini topadi.

¹³

¹⁴ https://uz.wikipedia.org/wiki/Buyuk_geografik_kashfiyotlar

Asosiy tushunchalar

Xalqaro transport koridorlari – turli mamlakatlarni bog‘lovchi asosiy yo‘nalishlar bo‘lib, transport tarmoqlari orqali yuk va yo‘lovchi tashishni ta‘minlaydi. Ular savdo, iqtisodiy integratsiya va logistika jarayonlarini tezlashtirishga xizmat qiladi.

Koridorlar konsepsiyasi – xalqaro va mintaqaviy transport tarmoqlarini yaxlit tizim sifatida rivojlantirish g‘oyasi bo‘lib, u savdo yo‘nalishlarini optimallashtirish va tranzit imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan.

Transport tizimi – turli transport vositalari va infratuzilma tarmoqlarini o‘z ichiga oluvchi majmua bo‘lib, yuk va yo‘lovchilarni samarali tashishni ta‘minlaydi.

Koridor tushunchasi – transport va logistika sohasida aniq belgilangan yo‘nalish bo‘lib, savdo oqimlarini muvofiqlashtirish va tranzit jarayonlarini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Milliy savdo koridori – bitta davlat hududi ichida joylashgan savdo va transport yo‘nalishi bo‘lib, ichki iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash va eksport-import jarayonlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan.

Ikki tomonlama savdo koridorlari – ikki davlat o‘rtasidagi savdo va transport yo‘nalishlari bo‘lib, ularning o‘zaro iqtisodiy hamkorligini rivojlantirish va tashqi savdoni kengaytirishga xizmat qiladi.

Ko‘p tomonlama savdo koridorlari – uch va undan ortiq davlatlarni bog‘lovchi savdo va transport yo‘nalishlari bo‘lib, mintaqaviy iqtisodiy integratsiya va transchegaraviy hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan.

Multimodal koridorlar – yuk tashishda ikkita yoki undan ortiq transport turi ishlatiladigan yo‘nalishlar bo‘lib, bu tizim logistika jarayonlarini optimallashtirish va yuk yetkazib berish vaqtini qisqartirishga yordam beradi.

Intermodal koridorlar – yuk tashish jarayonida bir nechta transport turi qo‘llaniladigan, biroq yagona tashish hujjati asosida amalga oshiriladigan transport tizimi. Bu, ayniqsa, xalqaro yuk tashishlarda muhim rol o‘ynaydi.

Global savdo – dunyo bo‘ylab tovar va xizmatlarning erkin harakatlanishini anglatib, xalqaro transport koridorlari bu jarayonning samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Iqtisodiy integratsiya – turli mamlakatlar o‘rtasida savdo, investitsiya va transport sohalarida hamkorlikni rivojlantirish jarayoni bo‘lib, xalqaro transport koridorlari bu integratsiyaning asosi hisoblanadi.

Tranzit salohiyat – mamlakatning o‘z hududi orqali yuk va yo‘lovchilarni tashish imkoniyatlari bo‘lib, bu iqtisodiy daromad manbai va geostrategik ustunlik hisoblanadi.

Nazorat savollari:

1. Xalqaro transport koridorlarining paydo bo‘lish tarixi haqida gapirib bering.
2. Xalqaro transport koridorlari tushunchasiga ta’rif bering.
3. Xalqaro transport koridorlarining tasniflanishi deganda nimani tushunasiz?
4. Ikki tomonlama va ko‘p tomonlama transport koridorlarining farqlari nimalardan iborat?
5. Xalqaro transport koridorlarining rivojlanish xususiyatlarini ayting.
6. Global savdo va iqtisodiy integratsiyaning bosqichlari nechta?
7. Geosiyosiy va strategik ahamiyatga tasir etuvchi omillarni sanab bering.
8. Xalqaro transport koridorlarining rivojlanishida raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarning roli qanday?
9. Xalqaro transport koridorlarining ekologik barqarorligini oshirishda qo‘llanilayotgan texnologiyalar haqida gapirib bering.
10. Xalqaro transport koridorlarining mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni nimada o‘z aksini topadi?
11. Multimodal tizimlarning rivojlanish xususiyatlariga ta'sir etuvchi omillar nimalardan iborat
12. Xalqaro transport koridorlarida multimodal tizimlarning asosiy afzalliklarini sanab bering.

Case Study

Masala 1: O‘zbekiston hukumati mamlakatni Shimol-Janub xalqaro transport koridoriga faol integratsiya qilish bo‘yicha loyiha boshladi. Bu koridor Rossiya, O‘zbekiston va Eron o‘rtasida yuk tashishni amalga oshirishni maqsad qilgan bo‘lib, Hind okeanidagi bandargohlar orqali global bozorga chiqish imkoniyatini yaratadi. Mazkur loyiha O‘zbekistonning eksport-import jarayonlarini tezlashtirish va iqtisodiyotining turli tarmoqlarini rivojlantirish uchun muhim deb qaralmoqda.

Topshiriqlar:

1. “Shimol-Janub” transport koridori orqali tranzit yuk oqimini oshirish uchun O‘zbekiston qanday infrastrukturaviy va huquqiy islohotlarni amalga oshirishi kerak?
2. Ushbu koridorning rivojlanishi O‘zbekiston iqtisodiyotiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

Masala 2: O‘zbekiston “Sharq-G‘arb” transport yo‘lagi (Xitoy-O‘zbekiston-Kavkaz-Yevropa) orqali tranzit markazga aylanishni maqsad qilgan. Bu koridor orqali Xitoydan Yevropaga mahsulotlar temir yo‘l va avtomobil transportida tashiladi. Ushbu loyiha Yevropa bozorlariga qisqa yo‘nalishda yuk tashish imkonini beradi va Xitoy-O‘zbekiston hamkorligini mustahkamlaydi.

Topshiriqlar:

1. O‘zbekistonning “Sharq-G‘arb” yo‘nalishidagi tranzit imkoniyatlarini oshirish uchun qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish kerak?
2. Ushbu koridordan foydalanish mamlakat iqtisodiy rivojlanishida qanday o‘rin tutadi?

2-BOB. TRANSPORT LOGISTIKASI TIZIMLARINING TURLARI, AHAMIYATI VA HUQUQIY ASOSLARI

2.1. Logistik tizim va uning turlari

2.2. Yuk tashishda xalqaro avtomobil yo‘laklaridan foydalanishning ahamiyati

2.3. Xalqaro transport koridorlari faoliyatining huquqiy asoslari

2.4. Tashqi savdo bojxona rejimlarining zamonaviy tendensiyalari

2.1. Logistik tizim va uning turlari

Bugungi kunda transport-logistika tizimining rivojlanishi jahon iqtisodiyotining globallasuvi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, xalqaro transport koridorlari bu jarayonning asosi sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekiston so‘nggi yillarda o‘zining transport va tranzit imkoniyatlarini oshirish maqsadida qator muhim islohotlarni amalga oshirmoqda. Xususan, avtomobil va temir yo‘l infratuzilmasini modernizatsiya qilish, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish hamda yangi logistika markazlarini barpo etish orqali xalqaro koridorlar bilan integratsiyani kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, O‘zbekiston MDH, Yevroosiyo va Janubiy Osiyo mamlakatlari bilan transport sohasidagi hamkorlikni mustahkamlab, “Shimol-Janub” va “G‘arb-Sharq” yo‘nalishlarida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Shundan kelib chiqib, avvalo logsitika va unga turlari haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Logistika – iste’molchi talablarini ko‘proq qanoatlantirish maqsadlarida xomashyo, yarimfabrikatlar, tayyor mahsulotlar va tegishli axborotlarni jamlash, saqlash, ishlab chiqarilgan joydan iste‘mol joyiga tashish va uzatishning texnologik va tejamkor samarali operatsiyalarini rejalashtirish, amalga oshirish va nazorat qilish jarayonidir.

Logistika – keng ma’noda mikro va makro tizim oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun moddiy, axborot va moliyaviy oqimlarni boshqarish va optimallashtirishni anglatadi.


Logistika – tor ma’noda menejmentning umumlashgan vositasi bo‘lib, moddiy va servis oqimlar hamda ularga ergashgan axborot va moliyaviy oqimlarni samarali boshqarish orqali biznesning strategik, taktik va operativ maqsadlariga erishish imkoniyatini beradi.

Logistikaning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. O‘zini o‘zi tartibga solish (ishlab chiqarishning mutanosibligi).
2. Moslashuvchanlik (xarid va yetkazib berish jadvalriga o‘zgartirish kiritish mumkinligi).
3. Zahira hajmini minimallashtirish.
4. Tovar harakatini modellashtirish.
5. Yangi axborot tizimlaridan maksimal foydalanish (kompyuterlashtirish).
6. Resurslar bilan ta’minotdagi ishonchlilik.
7. Tejamkorlik (iste’molchida mavjud mahsulot zahirasi darajasini 30-40 foizgacha kamaytirish, axborot xizmati darajasini oshirish).

Logistik tizim – u yoki bu logistika vazifasi va operatsiyalarni bajaruvchi teskari aloqaga moslashtirilgan tizimdir. U qoidaga ko‘ra, bir necha tizimlardan iborat va tashqi muhit bilan rivojlangan aloqaga ega. Nazariyadan ma’lumki, har qanday tizim ikki yoki undan ortiq elementlardan tashkil topadi.

Logistik tizimning tuzilishida quyidagi omillar hisobga olinadi (2.1.1-rasm).



2.1.1-rasm. Logistik tizimning tuzilishiga ta’sir qiluvchi omillar

Korxonalar soni tizimning miqyosi va o‘zaro bog‘liqligini belgilaydi. Katta miqdordagi korxonalar birgalikda faoliyat yuritadigan tizimlar o‘zaro integratsiya

va hamkorlikni talab qiladi. Korxonalar sonining ko'pligi logistika jarayonlarining murakkabligini oshiradi, lekin shu bilan birga yanada ko'proq resurslar va imkoniyatlar yaratadi.

Omborlar soni logistik tizimning saqlash va ta'minlash imkoniyatlarini ko'rsatadi. Omborlar tovarlarni saqlash, inventarizatsiya qilish va ularni kerakli vaqt va joyda yetkazib berish uchun zarurdir. Omborlar sonining ortishi tizimning o'zgaruvchan talabga moslashishini va tovarlarni tez yetkazib berish imkoniyatini oshiradi.

Transport modellari tizimning samarali ishlashini ta'minlaydigan asosiy elementlardan biridir. Transport modellarining turli xil variantlari mavjud, masalan, avtomobil, temir yo'l, dengiz va havo transporti. Har bir modelning o'z afzalliklari va cheklovlari mavjud bo'lib, ular tizimning ehtiyojlariga qarab tanlanadi. Transport modellari tizimning tezligini, arzonligini va xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Aloqa va axborot tizimi logistik jarayonlarning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy axborot texnologiyalari orqali logistik tizimlar o'rtasida tezkor va to'g'ri axborot almashinuvi amalga oshiriladi. Bu tizimlar orqali transport, omborlar va yetkazib berish jarayonlarini rejalashtirish, kuzatish va boshqarish osonlashadi. Yaxshi rivojlangan aloqa va axborot tizimi orqali logistika jarayonlaridagi xatoliklar kamayadi va samaradorlik oshadi.

Ta'minot (xarid qilish) logistikasi tadbirkorlik logistikasining bo'limi bo'lib, u quyidagi masalalarni qamrab oladi:

- bozorda kerakli xomashyo, materiallar, qismlar va hokazolarni xarid qilish;
- qabul qilingan yuklarni rasmiylashtirish, ularni nazorat qilish va hisobga olish;
- korxonaga kelgan yuklarni tashish va omborga joylashtirish.

Taqsimlash va sotish logistikasi tadbirkorlik logistikasining yakuniy qismi hisoblanadi va buyurtmachi bilan ishlab chiqaruvchilarning aloqasini ta'minlaydi. U quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- buyurtmalarning bajarilishini tashkil etish;
- omborga joylashtirish va tashish.

Logistik tizim quyidagi xususiyatlarga ega:

- bir butunlik va alohidalik;
- aloqalar;
- tashkil qilish;
- integrativ sifatlar.

Logistik tizimlar quyidagi belgilariga ko'ra farqlanadi (2.1.1-jadval).

2.1.1-jadval

Logistik tizimlarning belgilariga ko'ra farqlanishi

T/r	Logistik tizimlarning belgilari	Tasniflanishi
1.	Ko'lam bo'yicha	- mikroiqtsodiyot tizimlari (sanoat korxonasi doirasida); - makroiqtisodiy tizimlar (mamlakat, hudud yoki mamlakatlar guruhi ko'lamida); - mezologistik tizimlar – alohida turdagi tovarlar yoki tovarlar guruhlarining ta'minoti, ishlab chiqarish va sotish alohida tizimlarning majmuasi.
2.	Tayyorlash va qo'llash doirasi bo'yicha	- logistik tizimlar va jarayonlarni tahlil qilish, rejalashtirish, loyihalashtirish va konstruktiv rasmiylashtirish bo'yicha vazifalarni tayyorlash; - logistik jarayonlarni boshqarish, nazorat qilish va o'tkazish bo'yicha vazifalarni amalga oshirish; - logistik quvvatlar va tizimlar unumdorligining hisob-kitoblari bo'yicha vazifalar.
3.	Xizmatning belgilanishi bo'yicha	- transport logistikasi (tashish, ortish, tushirish, qayta ortish, omborga joylashtirish, taqsimlash); - ishlab chiqarish logistikasi; - savdo sohasidagi logistika; - xizmat ko'rsatish sohasidagi logistika.
4.	Jarayonga bog'liq moddiy oqimlarning izchilligi bo'yicha	- ta'minotda logistika; - ishlab chiqarishda logistika; - ombor logistikasi; - transport logistikasi; - idishlarga joylashtirish jarayonidagi logistika; - mahsulotlarni sotish sohasidagi logistika; - ehtiyot qismlar bilan ta'minlash logistikasi; - ishlab chiqarish chiqindilarini yig'ish va qayta ishlash sohasidagi logistika;
5.	Logistikadan foydalanadigan sohalar bo'yicha	- tadbirkorlik faoliyati; - tibbiyot; - harbiy ish; - qurilish;

Barcha transport majmuasi masshtabida yuk oqimlarini yagona markazlashgan logistik tizim asosida boshqarishni tashkil etish inter va multimodal tashish turlarini yanada samarali amalga oshirishga hamda yagona optimallashtirilgan transport konveyerini yaratishga imkon beradi. Logistik tizim asosida ekspeditorlik, stividorlik va boshqa yordamchi operatsiyalar markazlashadi, yuqori malakali transport, operatorlik va boshqa kompaniyalar vujudga keladi va mamlakat transport majmuasi infrastrukturasi ratsional rivojlanishi uchun sharoit yaratiladi.

Transportni hududiy boshqarish – logistik tizimi konsepsiyasi va ishining texnologiyasi ishlab chiqilsa, quyidagilarni amalga oshirish mumkin bo‘ladi:

- yuk oqimlarini boshqarish;
- temir yo‘lda yuk tashuvchilar va boshqa transport turlarining texnik imkoniyatlarini bog‘lash;
- yuklarni bir transport turidan ikkinchi transport turiga qayta ortish va vagonlarni turib qolish vaqtini tejash va yuklarni ortish-tushirish vaqtini tejash va samarali ta‘minlash;
- multimodal tashishlarda barcha transport turlari qatnashchilarining manfaatlari ko‘zlanadi;
- hududiy muammolar e‘tiborga olinadi.

Yuqoridagi masalalarning hal qilinishida logistik markaz yuklangan vagonlarning kelishini boshqa transport turlari kelishi vaqtiga muvofiqlashtiradi. Taklif etilgan logistik markaz konsepsiyalari yaqin vaqtda orilgan vagonlar oqimini o‘tkazish bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etishga imkon beradi. Boshqa transport turlarida qayta ishlov berish imkonini va xalqaro transport yo‘lkalarining raqobatbardoshligini oshiradi.

Transport logistik tizimi (TLT) samarali xizmat ko‘rsatishi uchun logistik axborot tizimi quyidagi mezonlarga javob berishi lozim:


- oddiylik – logistik axborotlarga yengil va oddiy yondoshish;

- aniqlik – transport terminallarida joriy operatsiyalarni, buyurtmalarni bajarishdagi jarayonning o‘zgarishi yuk konsolidatsiyasi haqidagi axborotlarni aniq aks ettirish;

- egiluvchanlik – transport-logistik zanjirdan foydalanuvchilar va mijozlarning ma’lumotlarga bo‘lgan talabini boshqara olish qobiliyati;

- hisobot ma’lumotlarini samarali rasmiylashtirish – ma’lumotlar kompyuter monitorlari va hisobotda qulay shaklda bo‘lishi lozim.

Logistik tizimlar makro, mikro, mezo logistik tizimlarga bo‘linadi (2.1.2-rasm)



2.1.2.-rasm. Logistik tizimning turlari

Makrologistik tizim – mamlakatdagi savdo, transport, sanoat, vositaviy korxonalarni qamrab oluvchi materiallar oqimini boshqaruvchi yirik tizimdir. Makrologistik tizim biror bir mamlakatning aniq iqtisodiy infrastrukturasi o‘zida aks ettiradi. Makrologistik tizim quyidagi ko‘rsatkichlarga qarab tavsiflanadi:

- mamlakatning ma’muriy-hududiy bo‘linish belgisiga ko‘ra;
- tuman, tumanlararo, shahar, viloyat va o‘lka;
- mintaqaviy, mintaqalararo, respublika va respublikalararo;
- funksional – obyekt belgisiga ko‘ra;
- korxona, soha, korxonalar o‘rtasida, sohalararo, harbiy, institutsional va h.k.

Mikrologistik tizim makrologistik tizimning tarkibiy qismlari, tizimchalari hisoblanadi. Unga har xil ishlab chiqarish, savdo korxonalari, hududiy ishlab

chiqarish majmualari kiradi. Mikrologistik tizim ichki (ishlab chiqarish ichidagi), tashqi va integratsiyalashgan turlarga bo'linadi. Ishlab chiqarish ichidagi logistik tizimlar mahsulot ishlab chiqarishning texnologik sikli doirasida materiallar oqimini boshqarishni optimallashtiradi. Ishlab chiqarish ichidagi logistik tizimning asosiy vazifasi – yakunlanmagan ishlab chiqarish va material resurslar zaxiralarini kamaytirish, firmaning kapital aylanishini tezlashtirish, uzoq muddatli ishlab chiqarish davrini kamaytirish, material resurslar zaxira darajasini nazorat qilish va boshqarish, texnologik (sanoat) transport ishini optimallashtirishdir. Ishlab chiqarish ichidagi logistik tizim ishini optimallashtirish mezonini mahsulot tannarxini va tayyor mahsulot sifatini berilgan darajada ta'minlash, uzoq muddatli davrni minimallashtirish hisoblanadi.

Mezologistik tizimlar. Odatda davlatning xo'jalik faoliyati makroekonomika deb yuritiladi. Bu tushuncha mustahkam iqtisodiy aloqalar bilan bog'langan mamlakatlarning xo'jalik faoliyatini tavsiflash uchun ishlatiladi. Oxirgi yillarda iqtisodiy rivojlanishdan mamlakatlarda va butun jahon amaliyotida yagona logistik tizimga bog'langan korxonalarning katta guruhlaridan konglomeratlar tuzish jarayoni kuzatilmoqda.

Konglomeratlar moliya – sanoat guruhlar korporatsiyasi hisoblanadi, bunda kapitallar birlashishi nazarda tutiladi. Ko'rsatib o'tilgan korporatsiyalar (bir mamlakatni qamrovchi) va transmilliy, ya'ni bir nechta mamlakatlar xo'jalik faoliyatini birlashtiruvchi bo'lishi mumkin. Har xil darajadagi shunday konglomeratlar tashkil bo'lish jarayoni korporativlash nomini oldi. Moliyaviy kapital sohasida ham yirik xalqaro banklar birlashuvini yaratish, korporativlash jarayoni kuzatilmoqda. Bunday xo'jalik faoliyati iqtisodiyotning o'rta bo'g'ini – mezoiqtisodiyot sohasining yaratilishiga olib keladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, logistik tizim global savdo va iqtisodiy rivojlanishning ajralmas qismi bo'lib, uning samarali ishlashi ta'minot zanjirlarining uzluksizligini ta'minlaydi. Turli xil logistik tizimlar – global, mintaqaviy, korporativ va tarmoqli logistika – har biri o'z vazifasiga ega bo'lib, yuk va xizmatlarning

optimal harakatlanishiga xizmat qiladi. Zamonaviy texnologiyalar va raqamli yechimlarning joriy etilishi esa logistika tizimlarining samaradorligini oshirib, transport xarajatlarini kamaytirish va xizmat sifatini yaxshilash imkonini bermoqda.

2.2. Yuk tashishda xalqaro avtomobil yo‘laklaridan foydalanishning ahamiyati

Bugungi kunda xalqaro avtomobil yo‘laklari yuk tashish jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, global savdo va logistika tizimining samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynamoqda. O‘zbekiston tranzit salohiyatini kuchaytirish maqsadida bojxona tartiblarini soddalashtirish, raqamli logistika tizimlarini joriy etish hamda xalqaro avtomobil yo‘laklaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirmoqda. Shuningdek, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan transport integratsiyasini rivojlantirish doirasida yangi avtomobil yo‘laklarini ochish va mavjud yo‘nalishlarni modernizatsiya qilish bo‘yicha kelishuvlar amalga oshirilmoqda. Bu tashabbuslar yuk tashish jarayonlarini tezlashtirish, transport xarajatlarini kamaytirish va mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Ushbu yo‘laklar mamlakatlar o‘rtasidagi tovarlar va xizmatlar almashinuvini tezlashtiradi, bu esa savdo aloqalarini rivojlantirishga, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga, va logistika jarayonlarini optimallashtirishga yordam beradi. Yuk tashishda xalqaro avtomobil yo‘laklaridan foydalanishning ahamiyati 2.2.1-rasmda tasvirlangan.

Yuk tashishda xalqaro avtomobil yo‘laklaridan foydalanishning ahamiyati	Savdo va iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash
	Transport xarajatlarini kamaytirish
	Tezkor va barqaror yetkazib berish
	Logistika tizimining optimallashtirilishi
	Xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish
	Iqtisodiy o‘sish va ish o‘rinlari yaratish
	Ekologik ta’sir va barqarorlik

2.2.1-rasm. Yuk tashishda xalqaro avtomobil yo‘laklaridan foydalanishning ahamiyati

Birinchidan, **savdo va iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash** Xalqaro avtomobil yo‘laklari orqali amalga oshiriladi. Xalqaro transport yo‘laklari mavjud bo‘lganda, mamlakatlar o‘rtasida savdo hajmi ortadi, chunki bu transport tizimi iqtisodiy jihatdan samarali bo‘ladi. Masalan, 2022-yilda Yevropa Ittifoqi va Osiyo o‘rtasidagi avtomobil transporti orqali o‘tkazilgan tovarlar hajmi 200 milliard yevrodan ortdi.¹⁵ Bu esa transport tizimining savdoni oshirishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Yevropa bilan Osiyo o‘rtasida xalqaro avtomobil yo‘laklarining rivojlanishi, ikki mintaqada o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi, savdoning sezilarli ravishda oshishiga olib keladi.

Transport xarajatlarini kamaytirish xalqaro avtomobil yo‘laklarining asosiy afzalliklaridan biridir. Avtomobil transporti ko‘pincha arzonroq va tezroq bo‘lishi mumkin, chunki transport masofalari qisqaradi va yo‘l infratuzilmasi yaxshilanadi. Misol uchun, Xitoy va Yevropa o‘rtasida amalga oshirilgan “Yangi Ipak yo‘li” tashish dasturi orqali avtomobil yo‘laklari orqali tovarlar olib o‘tilganda transport xarajatlari 10% ga kamaydi¹⁶, bu esa logistika kompaniyalari uchun katta iqtisodiy foyda keltirdi. Shuningdek, transport yo‘laklarining optimallashtirilgan rejaları orqali yo‘lni ta‘mirlash va o‘zgartirish xarajatlari ham kamayadi, bu esa butun tizimning samaradorligini oshiradi.

Tezkor va barqaror yetkazib berish xalqaro avtomobil yo‘laklari orqali ta‘minlanadi, bu esa ishlab chiqarish va savdo tarmoqlarining samarali ishlashini ta‘minlaydi. O‘z vaqtida yetkazib berish jarayonlari ishlab chiqarish liniyasini uzluksiz ravishda ta‘minlaydi. Masalan, 2021-yilda Yaponiyada avtomobil transporti orqali yetkazib berilgan yuklarning 85% tez va xavfsiz tarzda maqsadga yetkazildi¹⁷, bu esa ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini va

¹⁵ Manba: European Commission, "EU trade in goods - Statistics explained", 2022

¹⁶ Manba: China Railway Corporation, "China-Europe Railway Express Overview," 2020

¹⁷ Manba: Japan External Trade Organization (JETRO), "The Role of Transport Infrastructure in Japan's Logistics System," 2021

samaradorligini oshirdi. Tezkor yetkazib berish tizimining ishlashi nafaqat mamlakat ichki iqtisodiyoti, balki xalqaro savdo aloqalariga ham ijobiy ta'sir qiladi.

Logistika tizimining optimallashtirilishi xalqaro avtomobil yo'laklari orqali yanada samarali bo'ladi. Tovarlarini tez va xavfsiz tashish jarayonini rejalashtirish va amalga oshirish, dunyo bo'ylab global ta'minot zanjirlarini kuchaytiradi. 2020-yilda Hindiston va Eron o'rtasidagi xalqaro avtomobil yo'lagi orqali eksport qilingan tovarlar hajmi 15% ga oshdi¹⁸, bu logistika jarayonlarining optimallashtirilganligini va transport yo'laklarining iqtisodiy foydaliligini ko'rsatadi. Shuningdek, optimallashtirilgan transport tizimi orqali yetkazib berish vaqtlarini qisqartirish va ishlab chiqarish resurslarini tejash mumkin.

Bojxona deklaratsiyasi – tovar va transport vositalarining bojxona chegarasidan o‘tishida ularning tavsifi, qiymati, kelib chiqishi va bojxona bojlarini hisoblash uchun rasmiy hujjat.

Ta’minot (xarid qilish) logistikasi – xomashyo, materiallar va butlovchi qismlarni xarid qilish, saqlash hamda ishlab chiqarish jarayoniga o‘z vaqtida yetkazib berishni ta’minlovchi logistika yo‘nalishi. Bu tizim ta’minotchilar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, xarid strategiyasini ishlab chiqish va yetkazib berish jarayonlarini optimallashtirishni o‘z ichiga oladi.

Taqsimlash va sotish logistikasi – tayyor mahsulotlarni iste’molchilarga yoki savdo tarmoqlariga yetkazib berish jarayoni bo‘lib, transport, omborlash, buyurtmalarni qayta ishlash va mijozlarga xizmat ko‘rsatishni qamrab oladi. Bu tizim mahsulotni bozorga tez yetkazish, xaridor talabini qondirish va sotuv samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Nazorat savollari:

1. Logistika tizimi va uning turlarini sanab bering.
2. Logistikaning asosiy tamoyillari nimalardan iborat.
3. Logistik tizimning tuzilishiga ta’sir qiluvchi omillar nimalardan iborat?
4. Yuk tashishda xalqaro avtomobil yo‘laklaridan foydalanishning ahamiyati nimalarda namoyon bo‘ladi?
5. Logistika tiziminig optimallashtirilishi deganda nimani tushunasiz?

6. Yuk tashishda xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishning o‘rni qanday?
7. Xalqaro transport tizimlarini boshqarish va rivojlantirishda ishtirok etadigan xalqaro tashkilotlarni sanab bering.
8. Xalqaro tashkilotlarning funksiyalari nimalardan iborat?
9. Qanday xalqaro transport bitimlari va konvensiyalarini bilasiz?
10. Bojxona rejimlarining mohiyatini tushuntirib bering.
11. Bojxona deklaratsiyalari va rasmiylashtirish qanday amalga oshiriladi?
12. Bojxona deklaratsiyasini rasmiylashtirish jarayonida talab qilinadigan hujjatlar nimalardan iborat?

Case Study

Masala 1: “UztransLogistics” kompaniyasi O‘zbekistondagi ishlab chiqaruvchilarga mahsulotlarini Yevropa bozorlariga eksport qilishda yordam beradi. Kompaniya logistika tarmog‘ini takomillashtirish maqsadida, Xitoydan Markaziy Osiyo orqali Yevropaga o‘tadigan **Xalqaro transport yo‘lagi (CAREC koridorlari)** imkoniyatlaridan foydalanishni rejalashtiradi. Ushbu yo‘nalish Xitoydan O‘zbekiston orqali Yevropa Ittifoqi davlatlariga mahsulot yetkazishni tezlashtiradi.

Topshiriqlar:

1. CAREC yo‘lagi orqali yuk tashish iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun kompaniya qanday chora-tadbirlarni amalga oshirishi kerak?
2. Bojxona protseduralarini tezlashtirish uchun qanday huquqiy hujjatlar yoki xalqaro kelishuvlardan foydalanish lozim?

Masala 2: O‘zbekistondagi “AgroExport” kompaniyasi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilishda muammolarga duch kelmoqda. Asosiy qiyinchiliklar — mahsulotlar uchun bojxona protseduralarining uzoq davom etishi va yuk tashish jarayonida harorat rejimlariga rioya etilmasligi. Shu sababdan kompaniya

“Transxazar transport koridori” (O‘zbekiston-Turkmeniston-Ozarbayjon-Turkiya) orqali eksport yo‘nalishini sinab ko‘radi.

Topshiriqlar:

1. Mazkur koridordan samarali foydalanish uchun qanday logistika strategiyalari ishlab chiqilishi lozim?
2. Bojxona rejimlarining soddalashtirilishi mahsulot eksporti uchun qanday ijobiy natijalarni olib kelishi mumkin?

3-BOB. XALQARO MAGISTRALLAR, TEMIR YO‘LLAR VA JAMOAT YO‘LLARIDAN FOYDALANISHNI TASHKIL ETISH TIZIMI

3.1. Transport turlari, tashqi iqtisodiy faoliyatda ulardan foydalanish

3.2. Transport xarajatlari tahlili

3.3. Yuk jo‘natuv xujjatlarini tayyorlash: inyoyslar, yuk xatlari, tir karnet, yuklarni yetkazib berishda nazorat kitobchasi

3.4. Tezkorlik va sifat, optimal narxlarida transport xizmatlarini tashkil etish masalalari

3.1. Transport turlari, tashqi iqtisodiy faoliyatda ulardan foydalanish

Transport tizimi global iqtisodiyotning muhim bo‘g‘ini hisoblanadi va u davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Transport turlari iqtisodiyotning turli sohalarida qo‘llanilib, xom ashyo, tayyor mahsulotlar, energetika resurslari va boshqa tovarlarni mamlakatlar o‘rtasida samarali harakatlanishini ta‘minlaydi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatda transport turlari tovarlarni tezkor, xavfsiz va arzon yetkazib berish imkoniyatini beradi, bu esa xalqaro savdo hajmini oshirish, mintaqalararo integratsiyani kuchaytirish va yangi bozorlarni ochishda muhim ahamiyatga ega. Har bir transport turi o‘ziga xos xususiyatlari va afzalliklariga ega bo‘lib, ular tovarlarning turiga, masofaga, transport xarajatlariga va geografik omillarga qarab tanlanadi.

Global savdoning o‘sib borishi bilan transport infratuzilmasini rivojlantirishga bo‘lgan talab ham ortib bormoqda. Ayniqsa, avtomobil, temir yo‘l, suv, havo va quvur transporti orqali tashuvlar xalqaro iqtisodiy faoliyatda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu transport turlari davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashda va global savdo zanjirini samarali tashkil etishda asosiy vositalar sifatida qaraladi.

Transportning samaradorligi va raqobatbardoshligi mamlakatlarning tashqi iqtisodiy salohiyatini oshirishda va ularning xalqaro bozorlardagi o‘rnini

mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi. Shu sababli, transport turlarining xususiyatlarini chuqur tahlil qilish va ularning tashqi iqtisodiy faoliyatda qanday qo‘llanilishini o‘rganish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir.

Quyida asosiy transport turlari, ularning afzalliklari, kamchiliklari va xalqaro tashqi iqtisodiy faoliyatdagi o‘rnini ko‘rsatuvchi jadval keltiriladi (3.1.1-jadval).

3.1.1-jadval

Transport turlari va ularning xalqaro iqtisodiyotdagi o‘rni

Transport turi	Afzalliklari	Kamchiliklari	Xalqaro iqtisodiyotdagi o‘rni
Avtomobil transporti	- Tezlik va moslashuvchanlik - Qisqa va o‘rta masofalarga qulay - Har qanday yuk uchun mos	- Transport xarajatlari yuqori - Tirbandlik muammolari - Ekologik ta’siri salbiy	Mintaqaviy va qisqa masofadagi yuk tashishlar uchun qulay; Savdo aloqalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.
Temir yo‘l transporti	- Katta hajmdagi yuklarni tashish imkoniyati - Energiyadan samarali foydalanish - Barqarorlik	- Harakatlanish moslashuvchan emas - Qurilish xarajatlari yuqori - Yangi yo‘nalishlar tashkil qilish murakkab	Uzoq masofalarga yirik yuklarni tashishda ishlatiladi; Yirik tranzit yo‘llarni rivojlantirish uchun asosiy vosita.
Suv transporti	- Arzon narx - Juda katta hajmdagi yuklarni tashish imkoniyati - Geografik qamrov keng	- Tez emas - Port infrastrukturasiga bog‘liq - Ob-havo sharoitlariga ta’sirchan	Xalqaro savdoning 80% suv transporti orqali amalga oshiriladi; Resurslarni global miqyosda yetkazib berishda yetakchi.
Havo transporti	- Eng tez tashish vositasi - Xavfsizlik yuqori - Qimmatbaho yuklar uchun qulay	- Juda qimmat - Yuk hajmi cheklangan - Yonilg‘i xarajatlari yuqori	Yuqori qiymatli va tezkor yetkazib berish talab qilinadigan yuklar uchun muhim; Global savdo logistikasini tezlashtiradi.
Quvur transporti	- Uzluksiz tashish - Xavfsizlik yuqori - Ekologik toza	- Faqat maxsus yuklar uchun mos - Qurilish xarajatlari katta - Yo‘nalish moslashuvchan emas	Energetika resurslarini eksport-import qilishda ishlatiladi; Energetik xavfsizlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Bu jadval orqali transport turlarining har biri tashqi iqtisodiy faoliyatda qanday rol o'ynashini tizimli ravishda ko'rish mumkin.

Avtomobil transporti xalqaro va ichki yuk hamda yo'lovchi tashishda eng keng qo'llaniladigan transport vositalaridan biri bo'lib, uning moslashuvchanligi, tezkorligi va "eshikdan-eshikka" xizmat ko'rsatish imkoniyati uni global iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylantiradi. Avtomobil transporti har qanday turdagi yuklarni, jumladan, kichik, o'rta va yirik hajmdagi tovarlarni tashishda samarali vosita hisoblanadi. Bu transport turi qisqa va o'rta masofalarda yuklarni tez va oson yetkazish uchun ishlatiladi. Shuningdek, u logistika zanjirlarida boshqa transport turlari bilan integratsiyalashgan holda foydalaniladi, bu esa multimodal tashishlarni samarali tashkil etishga imkon beradi. Avtomobil transportining asosiy afzalliklaridan biri bu yo'llar infratuzilmasining kengligi bo'lib, u yuklarni boshlang'ich manzildan to oxirgi manzilgacha to'g'ridan-to'g'ri yetkazib beradi. Muzlatilgan oziq-ovqat, xavfli kimyoviy moddalar yoki katta hajmdagi yuklar kabi maxsus tovarlarni tashishda moslashtirilgan avtomobillardan foydalanish bu transport turini universal va samarali qiladi.

Biroq, avtomobil transportining kamchiliklari ham yo'q emas. Ushbu transport turi ekologik jihatdan zararli bo'lib, yoqilg'i iste'moli va havoga chiqadigan zararli moddalar sababli atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, yo'l harakati tirbandligi yuklarni o'z vaqtida yetkazib berishga to'sqinlik qilishi mumkin. Uzoq masofalarda esa transport xarajatlari nisbatan yuqori bo'lib, bu xalqaro savdo jarayonlarida xarajatlarning oshishiga olib keladi.

Avtomobil transporti xalqaro savdo jarayonlarida muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, chegaradosh davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda avtomobil transporti asosiy vosita sifatida qo'llaniladi. Yevropa Ittifoqida yuk tashishlarning 70 foizdan ortig'i avtomobil transportiga to'g'ri keladi²³. Osiyo mintaqasida ham bu transport turi jadal rivojlanmoqda. Masalan, Markaziy Osiyo mamlakatlari, jumladan, O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi savdo yuklarining

²³ "Eurostat", 2023

katta qismi avtomobil transporti orqali amalga oshiriladi. Toshkent–Olmaota yo‘nalishi mintaqaviy savdoda eng faol yo‘llardan biri hisoblanadi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2022-yilda global avtomobil transporti orqali tashilgan yuk hajmi 10 milliard tonnadan oshgan²⁴. Shu bilan birga, Xitoy va Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi savdo aloqalarida avtomobil transportining o‘rni sezilarli darajada o‘sib bormoqda. Ushbu transport turi xalqaro savdo hajmini oshirish va logistika jarayonlarini optimallashtirishda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Avtomobil transporti global va mintaqaviy iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashda muhim vosita hisoblanadi. Uning moslashuvchanligi va tezkorligi sababli u xalqaro savdo zanjirida boshqa transport turlari bilan birgalikda samarali ishlatiladi. Shunga qaramay, ekologik muammolar va infratuzilma bilan bog‘liq cheklovlarni bartaraf etish avtomobil transportining yanada samarali bo‘lishi uchun dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Avtomobil transportidan foydalanishga misol sifatida **Markaziy Osiyo mintaqasidagi xalqaro transport koridorlari**, jumladan, **“Yevropa–Xitoy” transport koridori (Trans-Kavkaz koridori)** ni ko‘rsatish mumkin. Ushbu yo‘lak avtomobil transporti orqali yuklarni tezkor va samarali tashishni ta’minlaydi hamda Yevropa bilan Osiyo mamlakatlari o‘rtasida iqtisodiy aloqalarni rivojlantiradi.

Yana bir muhim misol – **Markaziy Osiyo–Janubiy Osiyo koridori** bo‘lib, bu yo‘nalish O‘zbekistonni Afg‘oniston va Pokiston orqali Arab dengizidagi portlarga bog‘laydi. Ushbu koridor avtomobil transporti yordamida qisqa masofalarda yuklarni tez yetkazib berish imkoniyatini yaratadi. Ayniqsa, Pokistondagi Karachi porti orqali yuklarni tashish Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun strategik ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, **TRACECA (Transport Corridor Europe-Caucasus-Asia)** yo‘lagi avtomobil transportida yuk tashish uchun ko‘p ishlatiladi. Bu koridor orqali yuklarni Yevropa, Kavkaz va Osiyo davlatlari o‘rtasida tashish amalga

²⁴ “Statista”, 2023

oshiriladi. TRACECA avtomobil transporti orqali yuklarni tezkor yetkazib berish imkonini beruvchi eng samarali yo‘llardan biri hisoblanadi.



3.1.1-rasm. Markaziy Osiyo O‘rta korridori²⁵

Ushbu koridorlarda avtomobil transportidan foydalanish yuklarni “eshikdan-eshikka” yetkazib berish tizimini amalga oshiradi. Bu esa nafaqat yuklarni o‘z vaqtida yetkazib berishni ta’minlaydi, balki savdo jarayonlarini tezlashtirib, mintaqalar o‘rtasidagi iqtisodiy integratsiyani kuchaytiradi.

Temir yo‘l transporti. Temir yo‘llar insoniyatning eng ajoyib yutuqlaridan biri bo‘lib, ilm-fan, innovatsiyalar va taraqqiyotga tinimsiz intilishning dalilidir. 19-asr boshidagi kamtarona boshlanishidan tortib, bugungi kunda qit‘alarni kesib o‘tuvchi keng tarqalgan tarmoqlarigacha temir yo‘llar zamonaviy dunyoni shakllantirishda o‘chmas rol o‘ynadi. Temir “arteriya”lar bepoyon landshaftlarni qamrab olgan va uzoq qirg‘oqlarni bog‘lagan holda, xalqlar, madaniyatlar va savdo-sotiqni bir vaqtlar tasavvur qilib bo‘lmaydigan shaklda rivojlantirdi.

²⁵ <https://www.voanews.com/a/central-asian-trade-corridor-gains-interest-amid-regional-tensions-/7390284.html>

200 yil oldin, lokomotivlar birinchi marta ishlab chiqilganda, odamlar ularning tezligidan yo'lovchilar "nafas ololmaydilar" yoki "tebranishlardan hushidan ketishadi" deb xavotirlanishgan.

Ammo bugun biz hammamiz buning aksini bilamiz. Darhaqiqat, hozirda soatiga 300 milya (mph) dan yuqori tezlikda harakatlanadigan poyezdlar mavjud. Shubhasiz, poyezdlar birinchi marta relsga chiqqanidan beri keskin o'zgargan. Har qanday boshqa transport turlari singari, poyezdlar ham, bugungi kunda biz bilganimizdek, asrlar davomida rivojlangan.

Temir yo'llar 1550 yilda Germaniyada mavjud edi. "Vagon yo'llari" deb nomlangan. Relslari yog'ochdan yasalgan bu yo'llar zamonaviy temir yo'l transportining boshlanishi bo'lib, ot qo'shilgan vagonlar yoki aravalarning tuproq yo'llari bo'ylab harakatlanishini osonlashtirdi.

1700-yillarning oxiriga kelib, temir yog'och relslar va g'ildiraklarni almashtirdi, chunki vagon yo'llari "tramvay yo'llari" ga aylandi va butun Yevropada mashhur bo'ldi. 1800-yillarning boshlarida bug' bilan ishlaydigan lokomotiv paydo bo'lgunga qadar, otlar hali ham yuk uchun "ot kuchini" ta'minlagan.


Bug'li temir yo'l texnologiyasi dastlab 1814 yilda ko'mirni tashish uchun paydo bo'lgan. Bug' dvigatelini silliq relslarda ishlatish kamroq quvvat talab qilishi va og'irroq yuklarni ushlab turishi aniqlandi. Birinchi tijoriy temir yo'l 1830 yilda Manchesterni Liverpul bilan bog'lagan (masofasi 65 km). Ko'p o'tmay, rivojlangan mamlakatlarda temir yo'l liniyalari yotqizildi va bu milliy tizimlarning o'rnatilishiga olib keldi. Tezlik sezilarli darajada yaxshilandi, chunki birinchi temir yo'l tarmoqlari soatiga 30 dan 50 km gacha tezlikda harakatlanardi, bu poyafzal xizmatlaridan uch baravar tezroq. Temir yo'l tarmoqlarini qurish uchun kapital xarajatlar juda katta bo'lib, ko'pincha xususiy sektor ixtiyorida qoldi, lekin kreditlar va yer grantlari bo'yicha davlatning muhim ishtiroki bilan. Ularga yo'l huquqlari, qurilish, texnik xizmat ko'rsatish va foydalanish xarajatlari kiradi. Bu, hech bo'lmaganda, keng jamoatchilik tomonidan cheksiz imkoniyatlar sifatida qabul

qilingan sektorga kapital oqimi bilan bir nechta temir yo‘l maniyalari bilan birga bo‘ldi.

1850-yillarga kelib, temir yo‘l shaharlari barpo etilib, temir yo‘llar ulkan hududlarning resurslari va bozorlariga kirish imkonini berdi. O‘shanda Angliyada 10 000 km ga yaqin temir yo‘llar ishlagan va G‘arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikada temir yo‘llar tezda qurilmoqda (3.1.2-rasm).

Temir yo‘l xizmatlarini tashkil qilish va rejalashtirish zarurati standart vaqtni (ko‘pincha standart temir yo‘l vaqti bilan belgilanadi) qabul qilishni qo‘zg‘atdi. Angliya birinchi bo‘lib 1855 yilda Grinvich o‘rtacha vaqtini standart vaqt tizimini joriy qildi va bu global ma’lumot vaqtiga aylandi.

U joriy qilinganidan keyin atigi 30 yil ichida Amerika temir yo‘l tarmog‘i fuqarolar urushi arafasida taxminan 28,900 milya (46,500 km) ni tashkil etdi. Shunga qaramay, Amerika temir yo‘l tarmog‘i Shimoliy (Ittifoq shtatlari) va Janubiy (Konfederatsiya shtatlari) o‘rtasidagi ijtimoiy-siyosiy bo‘linishni aks ettiruvchi ikkita tizimdan iborat edi. Vashington orqali ulanishdan tashqari, tarmoqlar boshqa iqtisodiy tizimlarga ulanmagan va ularga xizmat ko‘rsatmagan. Ushbu ulanishning yetishmasligi bir xil shaharga xizmat ko‘rsatadigan temir yo‘llarning ko‘pincha bog‘lanmaganligi, yuklarni bir terminaldan ikkinchisiga olib o‘tishni va yo‘lovchilarning ertasi kuni poyezdga tushishi uchun bir kecha-kunduz o‘tkazishni talab qilganligi bilan qo‘shildi.



3.1.2-rasm. Amerika temir yo'l tarmog'i²⁶

Janubning asosan qishloq jamiyati asosan qishloq xo'jaligi ichki hududlarini ortiqcha mahsulotlar eksport qilinadigan portlar bilan bog'lashga intiladigan penetratsion liniyalar orqali xizmat ko'rsatgan (masalan, Yangi Orlean va Charleston). Shunday qilib, tarmoq unchalik yaxlit emas edi. Ko'proq urbanizatsiyalashgan Shimol o'zining asosiy shahar markazlari va O'rta G'arbdagi qishloq xo'jaligi rayonlarini murakkab panjarada o'zaro bog'lashga asoslangan tarmoqni ishlab chiqdi. Fuqarolar urushi oxirida tarmoqning kengayishi va integratsiya darajasi qayta tiklandi.

²⁶ https://en.wikipedia.org/wiki/File:North_American_Rail.gif

Yevropa davlatlari ham o‘zining yirik temir yo‘l tarmog‘iga ega bo‘lib, ushbu temir yo‘l tarmog‘ini quyidagi rasmda ko‘rishingiz mumkin (3.1.3-rasm).



Izoh: Chizmaning aniq mazmunini saqlab qolish va xalqaro iqtisodchilarga mo‘ljallanganligi nuqtayi nazaridan tarjimaga qo‘l urilmadi.

3.1.3-rasm. Yevropa temir yo‘l tarmog‘i. 2024-yil²⁷

Hozirgi kunga kelib jahon temir yo‘l tarmog‘i taxminan 1.2-1.3 million km masofani qamrab oluvchi barcha davlatlarning temir yo‘l tarmoqlari yig‘indisidan iborat bo‘lib, bu tarmoqning katta qismi quyidagi davlatlarda joylashgan:

²⁷ <https://www.eurail.com/en/plan-your-trip/railway-map>

Amerika Qo‘shma Shtatlari: 250 000 km; Xitoy: 100 000 km; Rossiya: 85 500 km; Hindiston: 65 000 km; Kanada: 48 000 km; Germaniya: 41 000 km; Avstraliya: 40 000 km; Argentina: 36 000 km; Fransiya: 29 000 km; Braziliya: 28 000 km ni tashkil etadi.


Dunyoning eng uzun temir yo‘l liniyalarini esa quyidagi jadvalda ko‘rishingiz mumkin (3.1.2-jadval).

3.1.2-jadval

Dunyoning eng uzun temir yo‘l liniyalari

Poyezd	Qabul qilingan masofa Millarda
Trans-Sibir temir yo'li	5772 milya
Pekin-Moskva temir yo'li	4735 milya
Shanxay-Lhasa temir yo'li	2666 milya
Kaliforniya Zefir	2438 milya
Toronto-Vankuver poezdi	2740 milya
Sharq va Sharq Ekspresi	1262 milya
Gan	1851 milya
Hindiston Tinch okeani	2704 milya
Moviy poezd	994 milya
Maharajalarning ekspresi	1692 milya

Ushbu temir yo‘l tarmoqlari mamlakatlarning jahon bozoriga mahsulot olib chiqishlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Hozirgi kunga kelib yaratilgan mahsulotlarning logistikasi deyarli 90% holatda suv transporti orqali amalga oshirilayotganligiga qaramasdan, mamlakatlarning markaziy qismlaridan portlargacha masofada logistika aynan temir yo‘l orqali amalga oshiriladi.



3.1.4-rasm. Asosiy korxonalar uchun temir yo'l yuk tashish, EI, 2012-2022²⁸


Ushbu grafikdan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, 2012-yilda yuk hajmi kilometriga 365 mlrd. tonnani tashkil qilgan bo'lsa, 2018-yilga kelib bu holat kilometriga 400 mlrd. tonnagacha ko'tarilgan. COVID-19 pandemiyasi hisobiga 2020-yilda 367 mlrd. tonnaga tushgan va 2022-yilda sal kam 400 mlrd. tonnani tashkil qilmoqda.

Suv transporti. Dengiz transportining o'sishi xalqaro savdoning rivojlanishi bilan kuchli bog'liqdir, chunki dengiz transporti va portlar xalqaro savdo oqimlari uchun asosiy arzon va tezkor vositadir. 1955 yilda taxminan 800 million tonna yuk tashilgan bo'lsa, 2007 yilda dengiz transporti birinchi marta 8 milliard tonnadan oshdi, bu bir milya yo'l uchun 32.5 ming tonna deganidir.

Dengiz yo'llari - bu "tranzit" o'tishning majburiy punktlari vazifasini bajaradigan joylar. Ushbu o'tish joylari siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan strategik nuqtalardan o'tadi, shuning uchun ularni geosiyosiy nuqtalarga aylantiradi. Tarqoq qirg'oq chizig'i, kontinental shelflar, dengiz oqimlari, arxipelaglar yoki xavfsiz suzishga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan muz va siyosiy chegaralar kabi moddiy cheklovlar ham muhim rol o'ynaydi.

²⁸ https://ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained/index.php?title=Railway_freight_transport_statistics

Bunday yuqori ko'rsatkichlarga erishish yo'lidagi qadamlardan biri bu Suvaysh va Panama kanallarining qurilishidir, bu loyihalar dengizda kemalarning harakatini sezilarli darajada tezlashtirdi (3.1.5-rasm).



Izoh: Chizmaning aniq mazmunini saqlab qolish va xalqaro iqtisodchilarga mo'ljallanganligi nuqtayi nazaridan tarjimaga qo'l urilmadi.

3.1.5.-rasm. Panama va Suvaysh kanallari²⁹

Xususan, Nyu-Yorkdan Sidneygacha bo'lgan masofa 2668 kilometr ga, Nyu Yorkdan Los Anjeles shahrigacha masofa 7380 kilometr ga qisqardi (3.1.3-jadval).

²⁹ <https://transportgeography.org>

Suvaysh va Panama kanallarining dengiz yo‘lini qisqartirishi

Marshrut Nomi	Narshrut Masofasi, km	Marshrut Yangi Masofasi, km	Farq, km
Nyu York- Sidney	12000	9332	2668
Rotterdam-Los Anjeles	13522	7836	5686
Nyu York- Los Anjeles	12350	4970	7380
Rotterdam-Singapur	11940	8440	3500
Rotterdam-Mumbay	10667	6374	4293

Xalqaro dengiz yo‘llari o‘tish joylari va bo‘g‘ozlar kabi ma’lum joylardan o‘tadi. Bu yo‘nalishlar odatda G‘arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika va Sharqiy Osiyo kabi yirik savdo bozorlari o‘rtasida joylashgan. Bu joylarda sanoat inqilobi davridan beri faol savdo tizimlari mavjud. Tarixan, bo‘g‘ozlar kabi dengiz o‘tish joylari muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lgan. Bo‘g‘oz ikki katta suv havzasini, qit‘alarni yoki orollarni bog‘laydigan tor suv havzasidir. Bo‘g‘oz o‘tish joyi vazifasini bajaradi. Qizig‘i shundaki, bo‘g‘oz kabi suv havzasi transport yo‘llarini boshqarish uchun to‘sib qo‘yilishi yoki hatto yopilishi mumkin. Qaysi davlat bo‘g‘ozni nazorat qilsa, butun mintaqaning dengiz yo‘llarini nazorat qilishi mumkin edi. Quyida ularning tarixiy izlari va geosiyosiy ahamiyatini ta’kidlaydigan muhim bo‘g‘ozlar keltiriladi.


Bunday strategik dengiz yo‘llarining top 6 tasini keltirib o‘tsak, shipsgo.com saytining ma’lumotlariga ko‘ra dunyoning eng yirik dengiz savdo yo‘llari quyidagilardir:

1. Panama kanali
2. Suvaysh kanali
3. Ingliz kanali
4. Daniya bo‘g‘ozlari
5. Malakka bo‘g‘ozi

6. Gibraltar bo'g'oz.

Ushbu suv yo'llari juda ham katta havzalar hisoblanmasada, lekin jahon dengiz transportida eng muhim punktlar hisoblanadi. Keyingi o'rinlarda ushbu yirik dengiz yo'llarining eng yirik vakillarini ko'rib chiqamiz³⁰.

Gibraltar bo'g'ozini Atlantika okeani va O'rta Yer dengizini bog'laydigan dunyodagi eng muhim bo'g'ozlardan biri bo'lgan, Pirenei yarim orolning janubiy chekkasi (Yevropa) bilan Afrikaning shim.-g'arbiy uchi o'rtasidagi bo'g'oz. Uzunligi 65 km, eni 14—44 km, chuq. 1181 m gacha, eng sayoz joyi chuqurligi 53 m. Shimolda Gibraltar qoyasi, janubda yunon afsonalariga ko'ra, Gerakl (Gerkules) o'rnatgan Gerkules ustunlari deb nomlanuvchi Jabal-Muso tog'i bor.³¹ Tarixan, O'rta Yer dengizi va Atlantika okeani o'rtasidagi deyarli barcha savdo Gibraltar bo'g'ozini orqali o'tgan va ispan va fransuzlar tomonidan Marokashda "ta'sir zonalarini" yaratishda muhim rol o'ynagan, "migrantlar tomonidan Marokashdan Ispaniyaga O'rta Yer dengizi orqali o'tish uchun" foydalaniladi.



Izoh: Chizmaning aniq mazmunini saqlab qolish va xalqaro iqtisodchilarga mo'ljallanganligi nuqtayi nazaridan tarjimaga qo'l urilmadi.

3.1.6-rasm. Gibraltar bo'g'oz³²

³⁰ <https://blog.shipsgo.com/major-shipping-routes/>

³¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Gibraltar_bo%CA%BBg%CA%BBBozi

³² <https://www.marinevesseltraffic.com/GIBALTAR-STRAIT/ship-traffic-tracker>

Biroq, Hormuz bo‘g‘ozi so‘nggi yillarda muhim bo‘g‘ozga aylandi. Hormuz bo‘g‘ozi Fors ko‘rfazini bog‘laydi va Ummon ko‘rfazi oxir-oqibat Hind okeaniga ochiladi. Yaqin Sharq davlatlaridan katta miqdorda neft Hormuz bo‘g‘ozi orqali jo‘natiladi. Bo‘g‘oz Ummon, Birlashgan Arab Amirliklari va Eron tomonidan birgalikda nazorat qilinadi. Nazorat qiluvchi barcha davlatlar mintaqada harbiy kuchga ega. Mintaqadan neft import qiluvchi davlatlar ham Hormuz bo‘g‘ozini qo‘riqlaydi. Ikki bo‘g‘ozga geografik jihatdan yaqinligi Yevropa davlatlarining butun dunyo bo‘ylab savdoni tartibga soluvchi qobiliyatidan dalolat beradi.³³

Osiyo dengiz yo‘llari va Trans-Tinch okeani yo‘lagi kabi o‘tish joylari sezilarli sur‘atga ega bo‘ldi. Xitoyning dengiz qudrati darajasiga ko‘tarilishi Janubiy Xitoy dengiziga boradigan Malakka bo‘g‘oziga qo‘shimcha ahamiyat berdi. Mintaqa o‘ta muhim yuk tashish yo‘li bo‘lib, neft va tabiiy gaz resurslari topilganidan beri tortishuvlarga sabab bo‘lgan mintaqadir. Spartli va Parasel arxipelagiga Xitoy, Vetnam, Malayziya, Indoneziya, Bruney va Filippin da‘vogarlik qilmoqda. Mintaqa katta neft zaxiralariga ega bo‘lib, mintaqada sezilarli iqtisodiy o‘sinh kuzatilmoqda, neft, suyultirilgan gazning katta oqimlari Sharqiy Osiyoga tranzit qilinmoqda. Har yili global yuk tashish flotining qariyb 25 foizi mintaqada orqali o‘tadi, bu Janubiy Xitoy dengizining Malakkaning kengaytmasi sifatida muhimligini ta’kidlaydi.

Shunga qaramay, Janubiy Xitoy dengizidagi savdo yo‘llarining notinchligida Xitoyning bunday yo‘nalishlarga bo‘lgan yuqori darajadagi ta’sirini hisobga olishi kerak, chunki Xitoy ularning murosaga kelishidan manfaatdor emas. Dengiz o‘tish joylarining qiymati qayta-qayta o‘zgaradi. Dengizda hukumronlik butun dunyo bo‘ylab imperiyalarning yuksalishi va qulashida hal qiluvchi rol o‘ynadi. Bo‘g‘ozlar va dengiz o‘tish joylari barcha mamlakatlar uchun muhim geosiyosiy jihat bo‘lib, u qo‘shimcha o‘rganishni talab qiladigan nyuanslarni o‘z ichiga oladi.


³³ <https://www.linkedin.com/pulse/importance-maritime-routes-straits-ankit-malhotra>

Panama kanali. Panama kanali Atlantika va Tinch okeanlari oralig'ida taxminan 80 kilometr uzunlikda joylashgan. Qit'aning eng tor hududlaridan birida qurilgan okeanlararo magistral Shimoliy Amerikani Janubiy Amerika bilan bog'laydi.

Kanal qulflar tizimi - kirish va chiqish eshiklari bo'lgan bo'limlardan foydalanadi. Qulflar suv ko'taruvchisi vazifasini bajaradi: ular kemalarni dengiz sathidan (Tinch okeani yoki Atlantika) Gatun ko'li darajasiga (dengiz sathidan 26 metr balandlikda) ko'taradi.

2023-yilni 2022-yil bilan solishtiradigan bo'lsak, o'rtacha tranzitlar soni 2022-yilga nisbatan o'rtacha 1.1 %ga kam bo'lgan, ushbu ko'rsatkich bo'yicha 2023-yil oldingi yildan faqat yanvar mart va aprel oylarida yuqoriroq natija ko'rsatgan (3.1.7-rasm).

Shunday qilib, kemalar Panamaning Markaziy Kordilyeridagi kanal bo'ylab harakatlanadi.



3.1.7-rasm. Panama kanali tranzitlar soni

Bu kanal Kemalarning Janubiy Amerikani aylanib o'tishni oldini oladi va ushbu kanalda yiliga o'rtacha 250-280 mln tonna yuk olib o'tiladi (3.1.4-jadval).

3.1.4-jadval

Panama kanalidan o'tadigan tranzitlar soni va yuk hajmi

Oylar	Tranzitlar		% Tranzit- lar	Yuk hajmi, (Long Ton=1015kg)		
	2022	2023	Farq	Cargo 2022	Cargo 2023	farq
Oktabr	1133	1159	2,29%	24 467 329	24 276 037	-0,78%
Noyabr	1210	1198	- 0,99%	25810514	24985307	-3,20%
Dekabr	1260	1281	1,67%	25 367 592	25 789 419	1,66%
Yanvar	1226	1276	4,08%	23888937	25 475 505	6,64%
Fevral	1179	1154	- 2,12%	22 804 485	22 492 516	-1,37%
Mart	1276	1352	5,96%	23713665	25 753 321	8,60%
Aprel	1197	1264	5,60%	23 154 151	24 491 275	5,77%
May	1216	1139	- 6,33%	25 135 693	22908800	-8,86%
Iyun	1169	1033	- 11,63%	25 972 115	22446426	-13,57%
Iyul	1128	1105	- 2,04%	24 264 976	22 144 603	-8,74%
Avgust	1176	1077	- 8,42%	26 459 302	23 141 479	-12,54%
Sentabr	1069	1042	- 2,53%	23 049 298	21 875 101	-5,09%
Barchasi	14239	14080	- 1,12%	294088059	285779790	-2,83%

Shuni alohida ta'kidlab o'tishimiz joizki, Panama kanalida eski kemalar standarti bo'yicha va 2016-yilda kengaytirilgan shlyuzlar mavjud bo'lib, Panama kanalidan o'tadigan kemalar aynan o'sha shlyuzlar turlariga ko'ra 2 ga ajratiladi, bular Neopanamax va Panamaxlardir.

Panamax: Panamax Panama kanalining asl shlyuzlaridan o'tishi mumkin bo'lgan kemalarning maksimal hajmini anglatadi. Ushbu shlyuzlarning maksimal uzunligi taxminan 294 metr (965 fut), maksimal kengligi taxminan 32 metr (106 fut) va maksimal chuqurligi taxminan 12 metr (39,5 fut) ni tashkil qiladi. Ushbu o'lchamlarga mos keladigan kemalar Panamax kemalari deb ataladi.

Neopanamax: Neopanamax 2016-yilda ochilgan Panama kanalining kengaytirilgan shlyuzarini kesib o'ta oladigan kattaroq kemalarga ishora qiladi. Kengaytirish loyihasi kanal orqali ancha katta kemalarning o'tish imkoniyatini berdi, bu uning sig'imini samarali oshirdi va zamonaviy kemalarning o'sib borayotgan hajmini moslashtirdi. Neopanamax qulflarining o'lchamlari uzunligi 427 metr (1400 fut), kengligi 55 metr (180 fut) va chuqurligi 18,3 metr (60 fut) ga teng. Ushbu kengaytirilgan o'lchamlarga mos keladigan kemalar Neopanamax kemalari deb ataladi. Ushbu kemalar an'anaviy Panamax kemalariga qaraganda ancha katta bo'lishi mumkin, bu esa katta yuk tashish imkoniyatini beradi.

3.1.5-jadval

3.1.5-Kemalar qaysi bayroqlar ostida suzishi

	Bayroq	Yuklangan tranzitlar	Yuklangan PCUMS
	Liberiya	1749	70 403 466
	Panama	1722	58 646 244
	Marshall orollari	1426	46 974 540
	Singapur	941	39 016 239
	Gongkong	704	38 510 879
	Bagama orollari	663	19 647 870
	Malta	593	36 341 529
	Norvegiya	294	11 047 547
	Portugaliya	281	15 816 103
	Daniya	196	8 864 970
	Kipr	188	4 261 422
	Yaponiya	165	9 355 494
	Antigua va Barbuda	153	1 491 991
	AQSH	137	2 753 555

3.1.5-jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, Suvaysh kanalidan transit o'tkaziladigan neft mahsulotlarining o'zi 238 million tonnani tashkil etgan, xom neft esa 107 million tonnadan oshgan.

Suvaysh kanali. Dunyo okeanlarini bo‘g‘lab turuvchi, kemalarni Materikni aylanib o‘tishdan saqllovchi yana bir tranzit yo‘l bu Suvaysh kanalidir. Suvaysh kanali 1869-yilda birinchi marta ochilganda, kanal chuqurligi atigi 8 metr (26 fut), pastki qismida kengligi 22 metr (72 fut) va yuzasida eni 61 dan 91 metrgacha (200 dan 300 fut) iborat. Kemalarning bir-biridan o‘tishi uchun har 8-10 km (5-6 milya) dan o‘tish joylari qurilgan. Qurilish 74 million kub metr (97 million kub yard) cho‘kindilarni qazish va chuqurlashtirishni o‘z ichiga oldi.

1870-1884 yillar oralig‘ida kanalning torligi va burilishlari tufayli 3000 ga yaqin kemalar o‘ta olmadi. Katta yaxshilanishlar 1876 yilda boshlangan va ketma-ket kengaytirish va chuqurlashtirishdan so‘ng, 1960-yillarga kelib kanalning qirg‘oqlari bo‘ylab 10 metr (33 fut) chuqurlikda minimal kengligi 55 metr (179 fut) va past suv oqimida kanal chuqurligi 12 metr (40 fut) bo‘lgan.³⁴

3.1.6-jadval

2019-yilda Suvaysh neft mahsulotlari tranziti

Tovarlar	Shimoliy / Janubiy	Janubiy / Shimoliy	Jami
Neft Mahsulotlari			
LPG	5 114 000	245 000	5 359 000
NAFTA	15 100 000	140 000	15 240 000
Boshqalar.	13 766 000	3 942 000	17 708 000
Dvigatel Ruhi (Gaso...	5 471 000	22 738 000	28 209 000
Yoqilg'i Moylari	27 533 000	3 240 000	30 773 000
Gaz Moyi Va Dizel Moyi	1 176 000	32 930 000	34 106 000
Xom Neft	59 062 000	48 136 000	107 198 000
Bcero	127 222 000	111 371 000	238 593 000

1870 yilda 486 ta tranzit yoki kuniga 2 dan kam bo‘lgan bo‘lsa 1966 yilda ular 21250 tani tashkil etdi, bu kuniga o‘rtacha 58 tranzit deganidir. Yuk hajmi esa

³⁴ <https://www.britannica.com/topic/Suez-Canal>

1870 yildagi 444 000 tonnadan (437 000 long tonna) taxminan 278 400 000 tonnaga (274 000 000 long tonna) oshdi.

1980-yillarning o'rtalariga kelib, kunlik tranzitlar soni o'rtacha 50 ga kamaydi, ammo sof yillik yuk hajmi taxminan 355 600 000 tonnani (350 000 000 long tonna) tashkil etdi. 2018 yilda sof yillik yuk hajmi taxminan 1 139 630 000 tonnani (1 121 163 000 long tonna) tashkil etgan 18 174 ta tranzit amalga oshirildi.

Portlar. Suv transporti jahon iqtisodiyotida ulkan rol o'ynar ekan, butun suv transportni portlarsiz tasavvur qilish qiyin. Portlarning geografik qulay nuqtada joylashganligi (Yirik savdo shaharlariga, dengiz savdo yo'llariga yaqinligi) mamlakat iqtisodiyotini, ayniqsa tashqi savdo aylanmasini yuqori darajalarga ko'taradi. Dunyoning eng yirik portlarida juda kata hajmda yuklar bilan ishlanadi va bu yuklar asosan konteynerlarda tashiladi. Birgina Shanxay portining o'zida yiliga 47 mln konteyner yuklanadi.

3.1.7-jadval

Top 10 port va yuk hajmi

Tr	Port nomi	Yuk hajmi, million 20-fut konteyner ekvivalenti (TEU)
1	Shanxay, Xitoy	47,03
2	Singapur	37,49
3	Ningbo-Chjoushan, Xitoy	31,07
4	Shenzhen, Xitoy	28,77
5	Guanchjou bandargohi, Xitoy	24,18
6	Pusan, Janubiy Koreya	22,71
7	Qingdao, Xitoy	23,71
8	Gonkong, SAR, Xitoy	17,80
9	Tyanjin, Xitoy	20,27
10	Rotterdam, Niderlandiya	15,30
	Jami:	268,33

Eng yirik 10 ta portlarning umumiy yuk hajmi esa 268 mln dona konteynerni

tashkil etadi (3.1.7-jadval). Bu esa jahon suv transportiga yuklanadigan yukning 33.5 foizini tashkil etadi. (Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra yiliga o'rtacha 800 million konteyner kemalarga yuklanadi).

3.1.8-jadval

Jahonning eng yirik 60 ta portlari

Port nomi (1-10)	Port nomi (11-20)	Port nomi (21-30)	Port nomi (31-40)	Port nomi (41-50)	Port nomi (51-60)
Shanxay, Xitoy	Jebel Ali, Dubay, Birlashgan Arab Amirliklari	Keyxin portlari, Yaponiya*	Manila, Filippin	Tokio, Yaponiya	Yingkou, Xitoy
Singapur	Port Klang, Malayziya	Long Beach, AQSh	Taichang, Xitoy	Rijao, Xitoy	Port Said, Misr
Ningbo- Chjoushan, Xitoy	Xiamen, Xitoy	Tanjung Priok, Jakarta, Indoneziya	Hay Phong, Vetnam	Foshan, Xitoy	Qinzhou, Xitoy
Shenzhen, Xitoy	Antverpen, Belgiya	Nyu-York - Nyu-Jersi, AQSh	Algeciras, Ispaniya	Jidda, Saudiya Arabistoni	NW Seaport Alliance, AQSh
Guanchjou bandargohi, Xitoy	Kaohsiung, Tayvan, Xitoy	Kolombo, Shri-Lanka	Javarharlal Neru porti (Nhava Sheva), Hindiston	Kolon, Panama	Felikstou, Buyuk Britaniya
Pusan, Janubiy Koreya	Dalian, Xitoy	Xoshimin shahri, Vetnam	Bremen/Breme rxaven, Germaniya	Santos, Braziliya	Marsaxlokk, Malta
Qingdao, Xitoy	Los-Anjeles, AQSh	Suzhou, Xitoy	Tanger Med, Marokash	Salaloh, Ummon	Nankin, Xitoy
Gonkong, SAR, Xitoy	Gamburg, Germaniya	Pirey, Gretsiya	Lyanyungan, Xitoy	Dongguan, Xitoy	Fuzhou, Xitoy
Tyanjin, Xitoy	Tanjung Pelepas, Malayziya	Yingkou, Xitoy	Mundra, Hindiston	Guangsi Beibu, Xitoy	Barselona, Ispaniya
Rotterdam, Niderlandiya	Laem Chabang, Tailand	Valensiya, Ispaniya	Savannah, AQSh	Cai Mep, Vetnam	Vankuver, Kanada

Shunday ekan siz bilan hozir dunyoning top 60 portlarini nomlarini va qaysi davlatlarga tegishli ekanligini ko‘rib chiqamiz (3.1.8-jadval).

Ushbu 3.1.8-jadvaldan guvohi bo‘lib turibmizki, dunyoning eng yirik 60 ta portlari ro‘yxatida 22 ta Xitoyga va 5 ta AQShga tegishli portlarni ko‘rishimiz mumkin. Tashqi savdo aylanmasi bo‘yicha eng yuqori o‘rinlarni aynan shu davlatlar egallashining sababi ham aynan shu portlarga borib taqaladi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan ma‘lumotlarga ko‘ra shuni aytishimiz mumkinki, yaqin kelajakda dengiz transportidan yaxshiroq va afzalroq transport turi bo‘lmaydi. Shunday ekan yurtimizning dengiz portlariga chiqishi juda muhim masala sifatida qaralib kelinmoqda.

Havo transporti. Havo transporti bugungi kunda eng tezkor va strategik ahamiyatga ega bo‘lgan transport turi hisoblanadi. Ushbu transport turi yuk va yo‘lovchilarni uzoq masofalarga qisqa vaqt ichida yetkazib berish imkonini beradi. Havo transporti nafaqat ichki, balki xalqaro iqtisodiyotning rivojlanishida ham muhim o‘rin tutadi, chunki u global miqyosdagi savdo, turizm va biznes jarayonlarini tezlashtiradi. Havo transportining afzalliklaridan biri sifatida yuqori tezlikni, masofa chegaralarining yo‘qligini va har qanday geografik hududga yetib borish imkoniyatini ta’kidlash mumkin. Bu ayniqsa, dengiz yoki temiryo‘l orqali yetib bo‘lmaydigan mintaqalarga yuklarni yetkazib berishda dolzarbdir.

Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, 2022-yilda global havo transporti orqali tashilgan yuk hajmi 61 million tonnani tashkil etdi va bu iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim o‘rin tutdi. Bundan tashqari, havo transportining global iqtisodiyotga qo‘shgan hissasi 3,5 trillion AQSh dollariga teng bo‘lib, bu umumiy global yalpi ichki mahsulotning (YaIM) 4 foizini tashkil etadi. Havo transporti orqali yuqori qiymatli, tez buziluvchi va texnologik jihatdan murakkab yuklarni tashish global savdo zanjirining ajralmas qismi hisoblanadi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida O‘zbekistonning havo transporti infrastrukturasi rivojlantirish borasida sezilarli yutuqlari kuzatilmoqda. Toshkent

xalqaro aeroporti mintaqadagi yirik logistika markaziga aylanishni maqsad qilgan. 2023-yilda O‘zbekiston orqali havo transportida tashilgan yuk hajmi 85 ming tonnani tashkil etdi, bu o‘tgan yilga nisbatan 15 foizga ko‘pdir³⁵.

Havo transportining ekologik ta’siri ham muhim masala hisoblanadi. Havo transporti global karbonat angidrid chiqindilarining 2,5 foizini tashkil qiladi. Shu sababli, so‘nggi yillarda ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va samolyotlarning yoqilg‘i samaradorligini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Masalan, 2030-yilgacha global havo transporti sohasida zararli gazlar chiqindilarini 50 foizga kamaytirish bo‘yicha xalqaro strategiyalar ishlab chiqilgan.

Havo transportining yana bir muhim jihati – u milliy va mintaqaviy integratsiyani rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi. Xalqaro savdo yo‘llari va turizm markazlariga havo orqali bog‘lanish mamlakatlarning iqtisodiy salohiyatini oshiradi. Misol uchun, Dubay xalqaro aeroporti dunyodagi eng yirik yuk tashish markazlaridan biri bo‘lib, yillik yuk tashish hajmi 2,7 million tonnaga yetadi³⁶.

Shunday qilib, havo transporti global iqtisodiyotda yuqori tezlik, xavfsizlik va strategik imkoniyatlarni ta’minlaydigan yetakchi vositalardan biri hisoblanadi. Statistik ma’lumotlar va innovatsion yechimlar ushbu transport turining kelajakdagi rivoji uchun keng imkoniyatlarni ko‘rsatmoqda.

Quvur transporti zamonaviy transport tizimlarining muhim qismi bo‘lib, u asosan suyuq, gazsimon va quyuq moddalarning uzluksiz va samarali tashilishini ta’minlaydi. Ushbu transport turi, ayniqsa, neft, gaz, suv va kimyoviy moddalarni tashishda qo‘llaniladi. Quvur transporti nafaqat iqtisodiy jihatdan samarali, balki ekologik xavfsizlikni ta’minlashda ham katta ahamiyatga ega. Uning asosiy afzalliklari orasida yuqori o‘tkazuvchanlik qobiliyati, past operatsion xarajatlar va atrof-muhitga minimal ta’sir ko‘rsatish kabi omillar mavjud.

2022-yilgi statistik ma’lumotlarga ko‘ra, dunyo bo‘ylab quvur transporti orqali tashilgan neft hajmi 33,6 milliard barrelni tashkil etdi³⁷. Tabiiy gaz tashishda

³⁵ “Uzbekistan Airports”, 2023

³⁶ DXB Airport Statistics, 2023

³⁷ “BP Statistical Review of World Energy”, 2023

quvur transporti yanada ko‘proq ahamiyatga ega, chunki global gaz savdosining qariyb 70 foizi quvurlar orqali amalga oshiriladi. Misol uchun, Rossiya va Yevropa kubometr gazni yetkazib berish qobiliyatiga ega edi.

Quvur transportining texnik va iqtisodiy afzalliklari tufayli u uzoq masofalarda katta hajmdagi yuklarni tashishda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Masalan, AQShda mavjud neft quvurlarining umumiy uzunligi 305 ming kilometrni tashkil qiladi, bu esa mamlakat ichki energetika ta‘minotini samarali tashkil etishga imkon beradi. Yevropa Ittifoqida esa gaz quvurlarining umumiy uzunligi 141 ming kilometrdan oshadi, bu esa mintaqaning energiya xavfsizligini ta‘minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Quvur transportining ekologik xavfsizligi ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. U transport jarayonida boshqa transport turlariga nisbatan ancha kam karbonat angidrid chiqaradi, bu esa iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, quvurlarning texnik holatini kuzatib borish va ularni modernizatsiya qilish ekologik xavfsizlikni oshirish uchun zarur choralar hisoblanadi. Masalan, so‘nggi yillarda quvurlarni monitor qilish uchun sun‘iy intellekt va sensor texnologiyalari keng qo‘llanilmoqda.

Quvur transportining rivojlanishi global savdo va energetika sohasida strategik ahamiyatga ega. O‘zbekiston misolida esa “O‘zbekiston–Xitoy gaz quvuri” mintaqaviy quvur transporti tizimining yorqin namunasidir. Ushbu quvur yillik 55 milliard kubometr gazni yetkazib berish qobiliyatiga ega bo‘lib, Markaziy Osiyodan Xitoyga tabiiy gaz eksportining muhim yo‘nalishi hisoblanadi.

Shunday qilib, quvur transporti global va mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta‘minlaydigan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Uning yuqori samaradorligi, ekologik xavfsizligi va yirik hajmdagi yuklarni tashish qobiliyati uni energetika sektori va boshqa sohalarda yetakchi transport turlaridan biriga aylantiradi.

3.2. Transport xarajatlari tahlili

Bugungi kunda global transport xarajatlari barqaror energiya manbalariga o'tish, yoqilg'i narxlarining o'zgarishi va logistika infratuzilmasining modernizatsiya qilinishi tufayli sezilarli o'zgarishlarga uchramoqda, jumladan, Xitoy-Yevropa temir yo'l yuk tashish tariflari pasayishi va dengiz yuk tashish narxlarining barqarorligi e'tiborni tortmoqda.

Transport xarajatlari tahlili transport va logistika tizimlarini boshqarishda asosiy omil bo'lib, bu jarayon yuklarni tashishda eng maqbul xarajatlarni aniqlash, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va resurslarni tejashga yordam beradi. Transport xarajatlari, odatda, quyidagi asosiy omillarni o'z ichiga oladi: yoqilg'i, texnik xizmat ko'rsatish, ishchi kuchi, infratuzilma to'lovlari va boshqa operatsion xarajatlar. Ushbu omillarni batafsil tahlil qilish transport xizmatlarining umumiy iqtisodiy samaradorligini baholash uchun muhimdir.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, transport xarajatlari global savdo hajmining 10-15 foizini tashkil etadi³⁸. Masalan, avtomobil transporti xarajatlari, odatda, qisqa masofalar uchun maqbul bo'lsa-da, yoqilg'i narxi va infratuzilma to'lovlari oshishi bilan u uzoq masofalarda samarasiz bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, dengiz transporti orqali yuk tashish xarajatlari boshqa transport turlariga nisbatan arzon bo'lib, yirik hajmdagi yuklarni uzoq masofalarga tashishda afzallik beradi. Masalan, 2022-yilda global konteyner tashish narxlarini indeks (Drewry) konteyner boshiga o'rtacha 2 000 AQSh dollarini tashkil etdi, bu pandemiya davrida 10 000 AQSh dollarigacha ko'tarilgan qiymatga nisbatan ancha past.

Transport xarajatlari tahlilining yana bir muhim jihati – multimodal transport tizimlari orqali xarajatlarni optimallashtirishdir. Multimodal tizimlar transport turlarini birlashtirib, yuklarni tashish xarajatlarini 20-25 foizgacha qisqartirishi mumkin. Masalan, temiryo'l va dengiz transportining kombinatsiyasi katta hajmdagi yuklarni arzon narxlarda uzoq masofalarga yetkazishni ta'minlaydi. 2023-

³⁸ World Bank Logistics Performance Index, 2023

yilda Xitoyning “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi doirasida temiryo‘l transporti orqali Yevropa bozorlariga eksport qilinadigan yuklar xarajatlari dengiz transportiga nisbatan o‘rtacha 30 foizga arzonlashgan³⁹.

Transport xarajatlarini tahlil qilishda ekologik omillarni hisobga olish ham muhimdir. Ekologik talablarga javob berish uchun ko‘plab kompaniyalar energiya samaradorligini oshirish va zararli gaz chiqindilarini kamaytirish maqsadida qimmatbaho ekologik texnologiyalarni joriy qilmoqdalar. Masalan, elektr transport vositalari va gidrogen yoqilg‘isiga asoslangan transport vositalari bozor ulushini oshirish orqali uzoq muddatli transport xarajatlarini kamaytirish kutilmoqda.

3.2.1-jadval

Transport turlari va xarajatlar bo‘yicha qiyosiy tahlil

Transport turi	Asosiy xarajat turlari	Iqtisodiy samaradorligi	Ekologik ta’sir	Misol
Avtomobil transporti	Yoqilg‘i, texnik xizmat, yo‘l solig‘i, sug‘urta	Qisqa masofalarda samarali	Zararli gaz chiqindilari yuqori	Toshkent-Termiz avtomobil yo‘nalishi
Temir yo‘l transporti	Lokomotiv va vagon xarajatlari, yo‘lovchi va yuklarni tashish xarajatlari, infratuzilma to‘lovlari	Yirik yuklarni uzoq masofalarga tashishda tejamkor	Nisbatan ekologik toza	Toshkent-Navoi temir yo‘l yo‘nalishi
Dengiz transporti	Kema xarajatlari, port to‘lovlari, yoqilg‘i	Juda yirik yuklarni tashishda eng arzon	Dengiz ifloslanishi mumkin	Singapurdan Rotterdamgacha konteyner tashish
Havo transporti	Yoqilg‘i, texnik xizmat, aeroport infratuzilmasi to‘lovlari	Tezkor, lekin juda qimmat	Yuqori uglerod chiqindisi	Toshkentdan Moskva yo‘nalishidagi yuk reysi
Quvur transporti	Qurilish xarajatlari, ekspluatatsiya xarajatlari	Uzluksiz tashishda samarali	Tabiiy resurslar oqimi xavfli	O‘zbekiston-Rossiya gaz quvuri yo‘nalishi

³⁹ China Railway Express, 2023

O'zbekiston misolida, transport xarajatlari milliy eksport mahsulotlarining raqobatbardoshligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. So'nggi yillarda mamlakatda transport xarajatlarini kamaytirish va logistika tizimini modernizatsiya qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, temiryo'l infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan loyihalar yuk tashish narxlarini sezilarli darajada pasaytirishga yordam beradi. Masalan, Toshkent-Termiz temiryo'l yo'nalishi orqali Afg'oniston va Janubiy Osiyo bozorlariga yuklarni tashish xarajatlari o'rtacha 15 foizga kamaygan⁴⁰.

Xarajat turlari tahlili transport sohasida muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu jarayon transport vositalarini ishlatish, texnik xizmat ko'rsatish, va infratuzilma bilan bog'liq xarajatlarni tahlil qilish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan. Transport korxonalarining samarali faoliyati yoqilg'i narxlari, texnik xizmat ko'rsatish, inson resurslari, sug'urta, yo'l to'lovlari va boshqa operatsion xarajatlarni to'g'ri boshqarish bilan chambarchas bog'liq.

Transport xarajatlarining asosiy qismini yoqilg'i va energiya ta'minoti tashkil etadi. Masalan, avtomobil transporti uchun yoqilg'i narxi transport xarajatlarining 30-40% ini tashkil qilishi mumkin. Havo transportida esa yoqilg'i umumiy xarajatlarning 50% dan ko'prog'ini egallaydi. Bu jihat transport korxonalarini yoqilg'i tejoychi texnologiyalarga o'tishga rag'batlantiradi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, xalqaro aviaqatnovlarda zamonaviy dvigatellar foydalanilishi yoqilg'i iste'molini 15-20% ga kamaytirishga yordam beradi⁴¹.

Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xarajatlari transport vositalarining uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun zarurdir. Bu xarajatlar transport vositalarining turi va ekspluatatsiya qilinadigan hududga bog'liq holda o'zgaradi. Masalan, temir yo'l transportida texnik xizmat xarajatlari ko'pincha infratuzilma – relslar, signal tizimlari va stansiyalarni ta'mirlashga yo'naltiriladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra,

⁴⁰ Uzbekistan Railways, 2023

⁴¹ Manba: IATA, 2024

yirik temir yo‘l kompaniyalari yillik daromadlarining 15-20% ini texnik xizmat ko‘rsatishga sarflaydi⁴².

Inson resurslari bilan bog‘liq xarajatlar ham muhim hisoblanadi. Ular transport vositalarini boshqarish, ta‘mirlash, va logistika operatsiyalarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan mutaxassislarni jalb qilish va ularga haq to‘lashni o‘z ichiga oladi. Misol uchun, avtomobil transporti sohasida haydovchilarga haq to‘lash umumiy xarajatlarning 25-30% ini tashkil qilishi mumkin⁴³.

Sug‘urta va litsenziyalash xarajatlari transport vositalarining xavfsizligi va huquqiy jihatlarini ta‘minlash uchun zarurdir. Bu xarajatlar, ayniqsa, xalqaro transport operatsiyalarida muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, dengiz transportida kema sug‘urtasi va port to‘lovlari katta xarajatlarni tashkil qiladi. Dengiz transportida umumiy operatsion xarajatlarning 10-15% i sug‘urta bilan bog‘liq⁴⁴.

Yo‘llar, portlar yoki boshqa infratuzilmalardan foydalanish to‘lovlari xarajatlarning yana bir muhim tarkibiy qismidir. Bu to‘lovlar transport vositalarining harakatlanishiga imkon yaratish uchun zarur bo‘lgan infratuzilmani saqlash va rivojlantirish uchun ishlatiladi. Misol uchun, Yevropa Ittifoqidagi xalqaro avtomobil yo‘llarida harakatlanish uchun to‘lanadigan to‘lovlar yillik xarajatlarning 5-10% ini tashkil etadi⁴⁵.

Shunday qilib, transport xarajatlari tahlili nafaqat korxonalar samaradorligini oshirishga, balki umumiy transport tizimini rivojlantirish va barqarorlikni ta‘minlashga ham yordam beradi. Har bir xarajat turi bo‘yicha aniq strategiyalar ishlab chiqish va ularni optimallashtirish global transport tarmog‘ining samaradorligini oshirish uchun muhimdir.

Transport turlarining qiyosiy tahlili tashqi iqtisodiy faoliyatda samaradorlikni ta‘minlash va transport vositalarining optimal tanlovini amalga oshirish uchun muhim vositadir. Transport tizimi turli turlarining o‘ziga xos xususiyatlari, iqtisodiy

⁴² Manba: UIC, 2023

⁴³ Manba: IRU, 2024

⁴⁴ Manba: BIMCO, 2023

⁴⁵ Manba: Eurostat, 2023

samaradorligi, ekologik ta'siri va infratuzilma talablari asosida tahlil qilinadi. Har bir transport turi ma'lum bir sharoitda eng maqbul yechim bo'lishi mumkin, shuning uchun ularning qiyosiy afzalliklarini tahlil qilish zarur.

Transport xarajatlari tahlili bo'yicha hisoblash formulalari:

1. Transport xarajatlari hisoblash formulasi:

$$C = \text{Narx bir tonna} * \text{Yuk miqdori}$$

Bu yerda C – umumiy xarajat, Narx bir tonna – 1 tonna yuk tashish narxi, Yuk miqdori – yukning umumiy hajmi.

2. Yuk tashish tezligi (masofa bo'yicha):

$$T = \frac{\text{Masofa}}{\text{Vaqt}}$$

Bu yerda T – yuk tashish tezligi, Masofa – yuk tashiladigan umumiy masofa, Vaqt – yo'lga ketadigan umumiy kunlar.

Avtomobil transporti qisqa masofalarga yuk va yo'lovchilarni tashishda keng qo'llaniladi. Uning asosiy afzalligi yuqori harakatchanlik va to'g'ridan-to'g'ri manzilga yetkazib berish imkoniyatidir. Biroq, avtomobil transportining ekologik ta'siri nisbatan yuqori bo'lib, zararli gaz chiqindilari global isishga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, yoqilg'i narxi va texnik xizmat ko'rsatish xarajatlari ham ushbu transport turining iqtisodiy samaradorligini pasaytiradi.

Temir yo'l transporti yirik hajmdagi yuklarni uzoq masofalarga tashishda samarali bo'lib, uning birligi boshiga energiya sarfi pastligi uni ekologik toza transport turi sifatida ajratib turadi. Bu tur uzoq muddatli tashish va katta hajmdagi yuklarni tashish uchun mos keladi. Temir yo'l transportining asosiy kamchiligi infratuzilma talablarining yuqoriligi bo'lib, yangi yo'llar qurilishi katta sarmoyani talab qiladi.

Havo transporti tezkor yetkazib berishni talab qiluvchi yuklar uchun eng samarali hisoblanadi. U qisqa vaqt ichida katta masofalarni bosib o'tish imkonini beradi. Biroq, yoqilg'i narxi va operatsion xarajatlarning yuqoriligi tufayli havo

transporti boshqa turlarga nisbatan qimmat hisoblanadi. Ekologik jihatdan ham havo transporti yuqori darajadagi uglerod chiqindilarini hosil qiladi.

Dengiz transporti xalqaro savdoda asosiy transport turi hisoblanadi, chunki u katta hajmdagi yuklarni arzon narxda tashish imkoniyatini beradi. Ayniqsa, konteyner tashish sohasida samaradorligi yuqori bo'lib, dengiz transportining xarajatlari boshqa transport turlariga qaraganda pastroq. Biroq dengiz transporti tashish tezligi jihatidan cheklovlariga ega va uzoq vaqt talab qiladi.

Quvur transporti esa energiya resurslarini, masalan, neft va gazni tashishda samarali bo'lib, uzluksiz tashishni ta'minlaydi. Bu transport turi ekspluatatsiya xarajatlari pastligi va ekologik xavfsizligi bilan ajralib turadi, biroq quvurlarni qurish uchun katta dastlabki investitsiyalar talab etiladi.

Transport turlarining samaradorligini qiyosiy tahlil qilishda statistik ma'lumotlar muhim ahamiyatga ega. Masalan, Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, dengiz transporti global savdoning 80% ini tashkil etadi, temir yo'l transporti esa energiya samaradorligi jihatidan avtomobil transportiga qaraganda 50% tejankorroqdir. Shuningdek, havo transportida yuk tashish hajmi global miqyosda yiliga 5% ga o'smoqda.

Umuman olganda, transport turlarining qiyosiy tahlili ularning iqtisodiy samaradorligi, ekologik ta'siri va infratuzilma talablari kabi omillarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Bu esa tashqi iqtisodiy faoliyatda eng samarali transport turini tanlash va mamlakatlar o'rtasidagi savdo oqimlarini optimallashtirishga yordam beradi.

Mintaqaviy farqlar va geosiyosiy omillar transport va logistika tizimlarining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Har bir mintaqaning geografik joylashuvi, tabiiy resurslari, iqtisodiy salohiyati va siyosiy vaziyati transport infratuzilmasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu omillar xalqaro savdo oqimlarining yo'nalishi, transport turlari tanlovi va transport koridorlarining samaradorligini belgilashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Geografik joylashuv mintaqaviy farqlarni belgilovchi asosiy omillardandir. Masalan, dengizga chiqish imkoniyati bo‘lgan mamlakatlar dengiz transportiga ko‘proq tayanadi, bu esa ularga xalqaro savdoda raqobatbardoshlikni ta‘minlaydi. Dengizga chiqish imkoniyati yo‘q mamlakatlar, jumladan Markaziy Osiyo davlatlari, qo‘shni davlatlar infratuzilmasidan foydalanishga majbur bo‘lib, bu holat tranzit to‘lovlari va transport xarajatlarining oshishiga olib keladi. Jahon banki ma‘lumotlariga ko‘ra, dengizga chiqish imkoniyati yo‘q mamlakatlarda tashqi savdo xarajatlari dengiz bo‘yidagi davlatlarga nisbatan 15-20% ga yuqoridir.

Tabiiy resurslar ham transport yo‘nalishlarini shakllantirishda muhimdir. Energiyani eksport qiluvchi davlatlar, masalan, Rossiya va Yaqin Sharq davlatlari, quvur transportiga katta ahamiyat beradi. Shu bilan birga, resurslarga boy bo‘lmagan davlatlar import jarayonlarida boshqa transport turlariga tayanishga majbur bo‘ladi. Misol uchun, quvur transporti orqali gaz va neft tashish global energiya savdosining 30% ini tashkil etadi⁴⁶.

Iqtisodiy rivojlanish darajasi transport infratuzilmasini kengaytirish va modernizatsiya qilish imkoniyatlarini belgilaydi. Yevropa va Shimoliy Amerika kabi rivojlangan mintaqalar yuqori tezlikdagi temir yo‘llar, zamonaviy portlar va avtomobil yo‘llariga ega bo‘lib, global transport tizimining asosiy tarmog‘ini tashkil etadi. Aksincha, rivojlanayotgan mintaqalarda transport infratuzilmasi yetarlicha rivojlanmagani sababli logistika xarajatlari yuqori va savdo samaradorligi past bo‘ladi. Masalan, Afrika davlatlarida logistika xarajatlari umumiy savdo xarajatlarining 20-30% ini tashkil qiladi⁴⁷.

Geosiyosiy omillar transport yo‘llarining barqarorligi va xavfsizligiga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Xalqaro transport koridorlari ko‘pincha siyosiy mojaro va iqtisodiy sanksiyalar xavfi ostida bo‘ladi. Masalan, 2014-yilda Rossiyaga qarshi joriy etilgan sanksiyalar Yevropadan Osiyoga yuk tashish yo‘nalishlarini qayta ko‘rib chiqishga sabab bo‘ldi. Shu bilan birga, yangi transport yo‘llarini rivojlantirishda strategik

⁴⁶ Manba: BP Statistical Review, 2023

⁴⁷ Manba: African Development Bank, 2023

manfaatlar ustuvorlik qilmoqda. Misol uchun, Xitoyning “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi Osiyo, Yevropa va Afrikani bog‘laydigan transport tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, geosiyosiy maqsadlarni ham ko‘zda tutadi.

Hududiy integratsiya transport va logistika tizimlarining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Yevropa Ittifoqi, ASEAN va NAFTA kabi mintaqaviy tashkilotlar ichki transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va tashqi savdo oqimlarini oshirish uchun investitsiyalarni jalb qilmoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqi TEN-T loyihasi doirasida 2024-yilga qadar umumiy qiymati 500 milliard yevro bo‘lgan transport infratuzilmasi loyihalarini amalga oshirishni rejalashtirgan⁴⁸.

Shunday qilib, mintaqaviy farqlar va geosiyosiy omillar transport tizimlarining rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi. Ushbu omillarni hisobga olish global transport tarmoqlarini samarali rejalashtirish va iqtisodiy integratsiyani mustahkamlash uchun zarurdir.

3.3. Yuk jo‘natuv hujjatlarini tayyorlash: invoyslar, yuk xatlari, tir karnet, yuklarni yetkazib berishda nazorat kitobchasi

Xalqaro savdo va transport-logistika tizimining uzluksiz ishlashi yuk jo‘natuv hujjatlarining to‘g‘ri va aniq tayyorlanishiga bog‘liq. Bu hujjatlar tovarlarni tashish, bojxona rasmiylashtiruvi va yuk egalarining huquqlarini himoya qilishni ta’minlaydi. Invoys, yuk xati, TIR karnet va nazorat kitobchasi kabi hujjatlar transport jarayonining iqtisodiy, huquqiy va texnik jihatlarini tartibga solib, yuklarni samarali tashish uchun zaruriy asosni tashkil etadi. Ular xalqaro savdo operatsiyalarining qonuniyligini ta’minlash bilan birga, yuklarni kuzatish, javobgarlikni aniqlash va transport xarajatlarini kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Yuk jo‘natuv hujjatlari global savdo va logistika tizimining ajralmas qismi bo‘lib, ular orqali tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligi oshadi.

Yuk jo‘natuv hujjatlarini tayyorlash jarayoni xalqaro savdo va yuk tashish tizimida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, tovarlarni tashish, bojxona operatsiyalarini

⁴⁸ Manba: European Commission, 2023

amalga oshirish va yuk egalarining huquqlarini himoya qilishda foydalaniladi. Ushbu hujjatlar tizimi tovarlarni yetkazib berish jarayonini tartibga soladi va transport-logistika jarayonlarining samaradorligini ta'minlaydi.

Invoys sotuvchi tomonidan xaridorga taqdim etiladigan tijorat hujjatidir. Bu hujjatda sotilgan tovarlarning miqdori, narxi va boshqa tafsilotlar aks etadi. Invoys tijorat operatsiyasining qonuniy dalilidir va unda sotuvchi va xaridorning to'liq ma'lumotlari, tovarlarning aniq tavsifi, narxi, to'lov shartlari, yetkazib berish shartlari va umuman, savdo operatsiyasi haqidagi barcha ma'lumotlar ko'rsatiladi. Bundan tashqari, invoys bojxona organlari tomonidan tovar qiymatini tasdiqlash va import qiluvchi mamlakatda soliq va bojxona yig'imlarini hisoblash uchun ishlatiladi.

Inkoterms – bu xalqaro savdoda tovarlarning sotuvchidan xaridorga yetkazib berilishi, yetkazib berish joyi, xavfsizlik, sug'urta va boshqa shartlarni belgilovchi umumjahon standartidir. Inkoterms, aslida, savdolarni samarali va tushunarli qilib amalga oshirish uchun ishlab chiqilgan. Uning dastlabki versiyasi 1936-yilda Xalqaro Savdo Palatasi (ICC) tomonidan yaratilgan va shu vaqtdan boshlab inkoterms butun dunyoda xalqaro savdolarni boshqarishda qo'llanilmoqda.

Inkoterms xalqaro savdo jarayonlarida ikkita asosiy tomon - sotuvchi va xaridor o'rtasidagi huquq va majburiyatlarni aniqlashga yordam beradi. Bu shartlar sotuvchi va xaridor o'rtasidagi muloqotda noaniqlikni kamaytiradi, xavflarni boshqarishga yordam beradi va tranzaksiyalarni soddalashtiradi.

Inkotermslar 11 ta turga bo'linadi va har bir turda sotuvchining va xaridorning majburiyatlari aniq belgilangan. Quyida 3.3.1-jadvalda inkotermsning asosiy turlari keltirilgan.

3.3.1-jadval

Inkotermsning asosiy turlari

Inkoterms	Tavsifi	Xarajatlar va risk qayerda o'tadi
EXW	“Ishlab chiqaruvchi omboridan yetkazib berilgan”. Xarajat va risk xaridorga to'liq o'tadi.	Sotuvchining omborida, xaridor hammasini o'z zimmasiga oladi.
FCA	“Tashuvchiga yetkazib berilgan”. Sotuvchi tovarni tashuvchi joyga yetkazadi.	Tashuvchiga topshirilgan joyda.
FOB	“Kemaga ortilgan”. Sotuvchi tovarni kema bortiga ortadi.	Tovar kemaga ortilgandan keyin.
CIF	“Sug'urta va tashish xarajatlari kiritilgan”. Sotuvchi tashish va sug'urta xarajatlarini qoplaydi.	Risk kema bortida o'tadi, xarajatni sotuvchi qoplaydi.
DAP	“Yetkazib berilgan, joyida”. Sotuvchi tovarni xaridor ko'rsatgan joyga yetkazadi.	Xaridor ko'rsatgan joyda risk o'tadi.
DDP	“Yetkazib berilgan, bojxona to'langan”. Sotuvchi barcha xarajat va risklarni qoplaydi.	Xaridor ko'rsatgan joyda.

Inkotermslar asosan quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

1. Tovarlarini yetkazib berish shartlari: Inkotermslar tovarlarini sotuvchidan xaridorga qanday shartlar bilan yetkazib berish kerakligini belgilaydi. Bu o'z ichiga yuk tashish, bojxona to'lovlari, sug'urta va boshqa muhim xizmatlar kiradi.

2. Mas'uliyatni taqsimlash: Har bir inkoterms shartnomasi sotuvchi va xaridor o'rtasidagi mas'uliyatlarni aniq taqsimlaydi. Bu mas'uliyatlar tovarni yetkazib berish, sug'urtalash, bojxona rasmiylashtiruv va tovarni tashish bilan bog'liq xarajatlarni o'z ichiga oladi.

3. Xavf-xatarni boshqarish: Tovarlar xaridorga yetkazilganidan keyin kim javobgar bo'lishi haqida aniq ma'lumotlar beriladi. Ba'zi inkotermslarda sotuvchi tovarni taslim qilgandan keyin xavf xaridorga o'tadi, boshqalarida esa sotuvchi xavfni o'z zimmasiga oladi.


4. Savdo shartlarini soddalashtirish: Inkotermslar xalqaro savdo operatsiyalarini yanada soddalashtiradi, chunki har bir tomonning vazifalari aniq va tushunarli bo'ladi, bu esa nizolarni kamaytirishga yordam beradi.

Inkoterms shartnomalari turlariga asosan moddiy javobgarlikni tomonlarning zimmasiga turlicha taqsimlaydi. Buni Incoterms 2020 misolida quyida keltirilgan 3.3.1- jadval orqali ko‘rish mumkin.

Incoterms 2020	Boshlanish joyida yuklanmoqda	Eksport bo'xona deklaratsiyasi	Eksport portiga tashish	Eksport portida yuk mashinasini tushirish	Eksport portidagi kemaga/samolyotga yuklash	Import portiga tashish (dengiz/havo).	Sug'urta	Import portida tushirish	Import portida yuk mashinasiga yuklash	Belgilangan joyga tashish	Import bo'xona rasmiylashtiruv	Import bojlari va soliqlari	Belgilangan joyda tushirish
EXW	Xaridor	Xaridor	Xaridor	Xaridor	Xaridor	Xaridor	Xaridor	Xaridor	Xaridor	Xaridor	Xaridor	Xaridor	Xaridor
FCA	Sotuvchi	Sotuvchi	Xaridor/sotuvchi	Xaridor	Xaridor	Xaridor	Xaridor	Xaridor	Xaridor	Xaridor	Xaridor	Xaridor	Xaridor
FAS	Sotuvchi	Sotuvchi	Sotuvchi	Sotuvchi	Xaridor	Xaridor	Xaridor	Xaridor	Xaridor	Xaridor	Xaridor	Xaridor	Xaridor
FOB	Sotuvchi	Sotuvchi	Sotuvchi	Sotuvchi	Sotuvchi	Xaridor	Xaridor	Xaridor	Xaridor	Xaridor	Xaridor	Xaridor	Xaridor
CPT	Sotuvchi	Sotuvchi	Sotuvchi	Sotuvchi	Sotuvchi	Sotuvchi	Xaridor	Xaridor/sotuvchi	Xaridor/sotuvchi	Xaridor	Xaridor	Xaridor	Xaridor
CIP	Sotuvchi	Sotuvchi	Sotuvchi	Sotuvchi	Sotuvchi	Sotuvchi	Sotuvchi	Xaridor/sotuvchi	Xaridor/sotuvchi	Xaridor	Xaridor	Xaridor	Xaridor
CFR	Sotuvchi	Sotuvchi	Sotuvchi	Sotuvchi	Sotuvchi	Sotuvchi	Xaridor	Xaridor	Xaridor	Xaridor	Xaridor	Xaridor	Xaridor
CIF	Sotuvchi	Sotuvchi	Sotuvchi	Sotuvchi	Sotuvchi	Sotuvchi	Sotuvchi	Xaridor	Xaridor	Xaridor	Xaridor	Xaridor	Xaridor
DAP	Sotuvchi	Sotuvchi	Sotuvchi	Sotuvchi	Sotuvchi	Sotuvchi	Sotuvchi	Sotuvchi	Sotuvchi	Sotuvchi	Xaridor	Xaridor	Xaridor
DDP	Sotuvchi	Sotuvchi	Sotuvchi	Sotuvchi	Sotuvchi	Sotuvchi	Sotuvchi	Sotuvchi	Sotuvchi	Sotuvchi	Sotuvchi	Sotuvchi	Xaridor

3.3.1-rasm. Incoterms 2020 bo'yicha xarajatlarni xaridor/sotuvchiga taqsimlash

Bu turlar har biri o'zining xususiyatlariga ega bo'lib, ular sotuvchi va xaridor o'rtasidagi mas'uliyatlarni taqsimlashda yordam beradi. Sotuvchi va xaridor bu shartlardan qaysi birini tanlashlari, ularning biznes shartlariga, manzilga va xarajatlarni qanday taqsimlash istaklariga bog'liqdir.



3.3.2-rasm. Incoterms shartnomalarining amaliyotdagi ulushi

Inkoterms xalqaro savdo operatsiyalarida bir qator asosiy vazifalarni bajaradi:

1. Huquqiy doiralarni aniqlash: Inkoterms sotuvchi va xaridorning har biri uchun majburiyatlarni aniq belgilaydi. Bu ikki tomon o'rtasida nizolarni kamaytirish va ularni samarali hal etish uchun yordam beradi. Inkotermslar xalqaro huquq bilan mos ravishda ishlab chiqilgan va bunday shartnomalar o'rtasidagi har qanday nizolarni hal qilishda foydalidir.

2. Transport va xavfsizlik masalalari: Tovarlarning yetkazib berilishi va ularning xavfsizligini ta'minlashda inkotermsning roli katta. Masalan, CIF shartnomasida sotuvchi barcha transport xarajatlarini va sug'urtani o'z zimmasiga oladi, bu esa xaridorga noaniqlik va xavf-xatarlarni kamaytiradi.

3. Moliyaviy asos: Inkoterms shartnomalari moliyaviy masalalarda ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, transport, sug'urta va bojxona to'lovlari haqida kelishuvlar, ikki tomonning moliyaviy majburiyatlarini aniq belgilashga yordam beradi. Bu esa to'lov tizimlarini soddalashtiradi va ish jarayonini tezlashtiradi.

4. Mahalliy qonunchilikka moslashuv: Inkoterms, shuningdek, turli mamlakatlarning savdo qonunlariga moslashishga yordam beradi. Har bir mamlakatning bojxona va savdo tartiblari farq qiladi, ammo inkotermslar bu farqlarni hisobga olib, xalqaro savdo amaliyotlarini yagona tizimda uyg'unlashtiradi.

5. Ko'p tarafli savdo o'rinlari: Xalqaro savdo kengaygan sari, inkoterms turli hududlardagi kompaniyalar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri va tezkor muloqotlarni qo'llab-quvvatlaydi. Bu savdolarni yanada samarali va xavfsiz qilish imkonini beradi.

Inkoterms xalqaro savdoning faqatgina bir qismni tashkil qiladi va boshqa xalqaro savdo tizimlari bilan birgalikda ishlaydi. Masalan, Jahon Savdo Tashkiloti (WTO) va BMTning Savdo va Taraqqiyot Konferensiyasi (UNCTAD) tomonidan ishlab chiqilgan boshqa xalqaro normativlar bilan muvofiqlashtirilgan holda inkotermslar yanada samarali bo'ladi. Shuningdek, inkotermslar xalqaro moliya va

bank tizimlari, ayniqsa, akkreditiv va pul o'tkazmalari bilan bog'liq holda ishlatiladi.

Inkotermsning taraqqiyotini 1936-yilda ICC tomonidan joriy etilgan dastlabki versiyasidan boshlash mumkin. Inkoterms dastlab 1953, 1967, 1980, va 1990 yillarda qayta ko'rib chiqilgan bo'lib, har bir yangi versiya savdo, transport va bojxona tartiblaridagi o'zgarishlarni aks ettirishga qaratilgan. Inkoterms 2000 versiyasi transport usullarining turli shakllariga Inkoterms qoidalarini tatbiq etish bo'yicha ba'zi o'zgartirishlarni kiritdi. Ammo Inkoterms 2010 versiyasi sezilarli o'zgarishlarni kiritdi, bu esa shartnomalar tomonlari o'rtasida mas'uliyatlarni yanada aniqroq va soddalashtirilgan holda belgilashga xizmat qilgan.

Inkotermsni joriy etish, xalqaro tranzaksiyalarni sodda va aniq qilishga xizmat qiladi. Inkotermslar to'lovlar, bojxona rasmiylashtiruv, xavf va mas'uliyatlarni aniq belgilash orqali savdo jarayonlarini samarali va xavfsiz qilishga yordam beradi. Ba'zi tadqiqotlar, masalan Bailey (2015) va Choi (2018) tomonidan olib borilgan izlanishlar, Inkoterms 2010 versiyasining xalqaro savdoga ijobiy ta'sirini ko'rsatib, shartnomalar tomonlari o'rtasida xatoliklar va tushunmovchiliklarni kamaytirganini ta'kidlagan.

Inkotermsning istiqbollari global savdo jarayonlarining o'zgarishi, yangi texnologiyalar va savdo modellarining rivojlanishiga bog'liq bo'ladi. Kelajakda Inkoterms yangi texnologiyalar, global savdoning rivojlanishi va ekologik talablar sababli o'zgarishga tayyor bo'lishi kerak. Ba'zi tadqiqotchilar, jumladan Kim & Lee (2019) va Sampson (2020), Inkotermsning kelajakda raqamli texnologiyalar, barqarorlik va xavfsizlikni hisobga olgan holda yanada takomillashishi zarurligini ta'kidlaydilar.

Bugungi kunda savdo va tashish jarayonlari raqamli texnologiyalar yordamida yanada soddalashtirilmoqda. Xalqaro savdoning raqamli shakllari (onlayn savdo, elektron to'lovlar, raqamli bojxona deklaratsiyalari va boshqalar) inkotermslarga yangi talablar qo'yadi. Savdo va tashishning avtomatlashtirilgan jarayonlari inkotermslarning qo'llanilishini yanada soddalashtirishi, ayni paytda

to'liq avtomatik tizimlarga moslashtirilishini talab qiladi. Global isish va atrof-muhitning yomonlashuvi savdo amaliyotlarida ekologik jihatlariga katta ahamiyat berishni taqozo etmoqda. Inkoterms 2010da ekologik xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash bo'yicha aniq qoidalar mavjud emas. Lekin kelajakda inkotermslar ekologik mas'uliyatni oshirishga yordam berishi mumkin. Masalan, xavfsiz va ekologik toza transport vositalari, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, shuningdek, qattiq chiqindilarni kamaytirish kabi jihatlar inkotermslar orqali rag'batlantirilishi mumkin.

Xitoyning "Bir makon, bir yo'l" (Belt and Road Initiative) kabi global iqtisodiy va savdo tashabbuslari inkotermslarga yangi imkoniyatlar yaratadi. Yangi savdo yo'llarining ochilishi, zamonaviy transport turlarining joriy etilishi (masalan, dronlar, avtomatlashtirilgan yuk tashish vositalari) inkotermslarni yanada moslashtirishni talab qiladi. Shu bilan birga, xalqaro savdo tizimida yangi chegara va bojxona qonunlari paydo bo'lishi inkotermslarga yangi standartlarni qo'llashni talab qiladi. Terrorizm, tabiiy ofatlar, texnologik inqirozlar va boshqa global tahdidlar savdo va transport xavfsizligini ta'minlashga oid yangi tartiblarni joriy etishni zarur qiladi. Inkotermslar shu xavflarga qarshi choralar ko'rishga yordam beruvchi qo'shimcha shartlarni o'z ichiga olishi mumkin. Masalan, transport xavfsizligi bo'yicha qo'shimcha majburiyatlar, yuqori xavfli tovarlarni tashish uchun maxsus inkotermslar kiritilishi mumkin.

Global savdo o'sib borishi bilan bojxona rasmiylashtiruvi yanada murakkablashadi. Xalqaro savdoda yangi avtomatlashtirilgan tizimlar, blokcheyn texnologiyalari va boshqa ilg'or yechimlar inkotermslarni yangilashda yordam berishi mumkin. Shu bilan birga, inkotermslar bo'yicha bojxona tartiblarini yanada soddalashtirish va shaffoflashtirish zarur bo'ladi. Xalqaro savdo va bojxona tizimlarini raqamli formatda integratsiya qilish inkotermslarning samaradorligini oshiradi.

Yuk xati transportda muhim hujjat bo'lib, yuk tashuvchi tomonidan yuk jo'natuvchiga beriladi. Ushbu hujjat yukni qabul qilish, tashish va qabul qiluvchiga

yetkazib berish majburiyatini tasdiqlaydi. Yuk xati uch xil asosiy funksiyani bajaradi: yuk tashish shartnomasi dalili sifatida, tashuvchi va yuk egasi o'rtasidagi hisob-kitob vositasi sifatida va yuk mulkdorligini ko'rsatuvchi hujjat sifatida. Ushbu hujjatda yukning vazni, hajmi, tashuvchi va jo'natuvchining ma'lumotlari, yukni yetkazib berish marshruti va boshqa tafsilotlar aks etadi. Bu hujjat yuk tashish jarayonining qonuniyligini ta'minlaydi va nizolarni hal qilishda dalil sifatida xizmat qiladi.

TIR karnet xalqaro yuk tashish jarayonida avtomobil transporti uchun ishlatiladigan muhim hujjatdir. Ushbu hujjat yuklarni bir necha davlat hududidan bojxona tartib-taomillarini qayta tiklamasdan o'tkazishga imkon beradi. TIR karnet xalqaro avtomobil transporti tizimining asosiy qismi bo'lib, yuk tashishda vaqt va xarajatlarni tejashda muhim rol o'ynaydi. Bu hujjatda yuklarni tashuvchi tashkilotlar, tranzit mamlakatlar va tovarlarning bojxona qiymati haqidagi ma'lumotlar keltiriladi. TIR tizimi yuk tashish jarayonini soddalashtiradi va tashuvchi hamda bojxona organlari o'rtasidagi o'zaro ishonchni mustahkamlaydi.

Tarixdan ma'lumki 1945-yilda ikkinchi jahon urushi yakunlangandan so'ng bir qator Yevropa mamlakatlarining yetakchilari urush natijasida vayronaga aylangan mintaqani qayta qurish hamda mazkur makondagi davlatlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuksaltirish maqsadida o'zaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarini boshlab yuborishadi. Shunga asosan, 1951-yilda ayrim Yevropa davlatlarining temir va po'lat birlashmasi asosida birlashib, bugungi kunda iqtisodiy jihatdan qudratli makonga aylangan Yevropa Ittifoqi integratsiyalashgan xalqaro transport tizimiga zarurat yuzaga kelgan edi. Natijada 1975-yil 14-noyabrda ushbu mintaqada mamlakatlari "Xalqaro yo'llarda tashish kitobchasidan foydalangan holda yuklarni xalqaro tashish to'g'risidagi bojxona konvensiyasi"ni qabul qilishdi. Ayni kunlarda mazkur hujjat qabul qilinishi bilan TIR CARNET kitobchalari nafaqat Yevropada balki Osiyo va Sharqiy Afrika davlatlarida ham keng qo'llanilib kelinmoqda. Xususan, ushbu bojxona konvensiyasiga bugungi kunda 77 ta davlat a'zo bo'lib,

mazkur davlatlardagi 31115 ta (shundan O‘zbekistonda 966 ta) tan olingan milliy transport operatorlari tomonidan kitobchalar qo‘llanilib kelinmoqda⁴⁹.


O‘z o‘rnida esa CARNET so‘zini eski Oksford lug‘atidan o‘rganilganda qiziq tarixiy ma’lumotlarni ko‘rish mumkin. Mazkur so‘z Britaniya Imperiyasining Osiyo va Uzoq Sharqdagi mustamlaka davlatlari bilan o‘rnatilgan savdo-sotiq munosabatlari natijasida kelib chiqqanligi bilan o‘z ifodasini topgan. Jumladan, ingliz savdogarlari Hindiston hamda Janubi-Sharqiy Osiyo davlatidan tovarmoddiy boyliklarini olib kelayotganda Britaniya portlaridan, mamlakat hududidiga kirayotgan paytda alohida bojxona imtiyozlariga ega bo‘lish maqsadida maxsus “CARNET” deb yozilgan qog‘ozdan foydalangan holda savdo sotiqni amalga oshirganlar. Boshqa manbalarda esa “CARNET” so‘zi etimologik jihatdan fransuz tilidan (o‘rta asrla foydalanishda bo‘lgan davriga xos) olingan bo‘lib, “quernet – to‘rt bog‘lamli yoki varaqli kitobcha” so‘zi vaqt o‘tgan sari so‘zning shakl o‘zgarishiga uchragan atama hisoblanadi. Bugungi kunda esa, so‘zning morfologik ta’sirga uchrashi natijasida “carnet” shakliga kelib qolgan⁵⁰. Bugungi kunga kelib, ushbu konvensiya qoidalarining tadrijiy o‘zgarishlari oqibatida 5 ustun tamoyil asosida xalqaro yuk tashuvlar jarayoniga qo‘llanilib kelinmoqda. Shunga ko‘ra xalqaro ekspertlarning fikriga ko‘ra kitobchadan foydalanishda tashqi savdoda ketadigan vaqtning 80% hamda xarajatlarning 38 %ga qisqarishi amaliyotda o‘zining isbotini topgan. Bundan tashqari, jahon logistika bozorida yuk tashish bo‘yicha tuzilgan shartnomalar yillik 210 dan 250 mlrd. AQSH dollarigacha baholanib, Xalqaro Jahon Bankining prognozlariga ko‘ra esa 2018-2024-yillar oralig‘ida dunyo logistika sanoatining qiymatini doimiy o‘sib borishi bo‘yicha

⁴⁹ Е. Н. Фукс, В. А. Викентьев. Система таможенного транзита во внешнеэкономической деятельности Евразийского Экономического Союза в современных условиях. Технология и система таможенного контроля. Вестник Российской Таможенной Академии. №1 2020 й. 87-94 betlar.

⁵⁰ Israilov Fazil Ismailovich. Avtomobil transportida yuklarni tashishda zamonaviy tizimlarini joriy etish samaradorligi. Mexanika va texnologiya ilmiy jurnali, Namangan muhandislik qurilish institute, Maxsus sijn – 2023, № 2 (5) 88-bet

baholamoqda (2019-2020-yillarda boshlangan COVID-19 pandemiya davrini hisobga olmaganda)⁵¹.

Shuningdek, oʻzining tashqi savdosida jahonda AQSHdan soʻng ikkinchi oʻrinda turuvchi Xitoy Xalq Respublikasining 2016-yilda mazkur konvensiyaga aʼzo boʻlishi bilan, Janubiy Yevropa bilan Janubi-Sharqiy Xitoy oʻrtasida avtomobil transportida tashuv vaqti 16 kunga qisqarishi, mazkur hujjatni davlatlararo xalqaro integratsiyaga qay darajada oʻzining ijobiy taʼsir koʻrsatilishi bilan izohlash mumkin⁵².




3.3.3-rasm. 2018-2024-yillar jahon transport-logistika tarmogʻi xizmatlarining prognoz koʻrsatkichlarining qiymati (trln. AQSH dollari hisobida)

Shu asnoda, mazkur kitobchadan joʻnatuvchi bojxona organida och sariq varagʻi yirtib olinib qoʻyib, qabul qiluvchi bojxona organida och yashil varagʻi olib qoʻyiladi. Misol tariqasida olinadigan boʻlsa, Tojikistondan “paxta xom ashyosi” tovari avtomobil transportiga Turkiyaga Oʻzbekiston-Turkmaniston-Eron davlatlari orqali eksport qilinganda TIR kitobchasining qoʻllanilishi quyidagicha boʻladi.

⁵¹ F.I. Israilov. A.Ya.Norqulov. Yuklarni isteʼmolchi manziliga yetkazib berish jarayonini boshqarish modeli. Academic Research in Educational Sciences 2(1), 01.2021. 567- 574.

⁵² Ilkhom Umirov, Urazov Bekzod, Utkirjon Rakhmatov, Israilov Fazil, Dildora Zukhurova “Analysis of Practical Calculation Methods of External Speed Characteristics of Engine” INTERNATIONAL CONFERENCE PTLICISPWS2 Scopus & Web of Science indexed May, 2023



3.3.4-rasm. TIR kitobchasidagi rangli varaqlarning rasmiylashtiruv chizmasi

Bunda 1-Tojikiston “paxta xomashyosi” tovari yuklangan joyda faoliyat olib boruvchi bojxona organi kitobchaning och sariq varag‘ini rasmiylashtirib, kitobchadan uni ajratib olib, mamlakatdan chiqib ketish uchun esa yashil varag‘i belgilangan joyidan qirqib olinadi. Xuddi shu tartibda tranzit davlatlarning kirishida sariq, chiqishida esa yashil varaqlari qirqib olinib, tashqi savdo yukining oxirgi manzilida qabul qilib oluvchi bojxona organi esa yashil betini olib qolinadi. O‘z navbatida, varaqlar soniga qarab kitobchalar o‘zining konvensiyaga a‘zo davlatlarining har biri uchun standartlashgan narxlariga ega.

Shuningdek, davlatlarning milliy tashuvchilari tomonidan ishlatilgan TIR CARNETlarning ulushi asosan Yevropa davlatlarining ulushiga to‘g‘ri kelmoqda. Xususan, statistik ma’lumotlarga ko‘ra 2001-yildan buyon dunyo mamlakatlari bo‘ylab tarqatiladigan kitobchalarning 55-60 foizi Yevropa davlatlarining milliy tashuvchilari tomonidan foydalanib kelinmoqda. Jumladan, IRU ma’lumotlari o‘rganilganda 2001-2021-yillar davomida tashkilot tomonidan tarqatilgan 48 787 798 ta TIR kitobchalaridan to‘rtinchi qismi ya’ni 36 626 099 tasi Yevropa mamlakatlari hissasiga to‘g‘ri keladi⁵³. Mazkur yillar davomida ishlatilgan kitobchalarning asosiy ulushi Turkiya (9 287 999), Polsha (4 368 000), Rossiya (7 135 400), Ukraina (4 815 700) hamda Belorossiya (3 081 849) kabi davlatlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Shu bilan birga, e’tiborli tomoni shundaki tarqatilayotgan kitobchalarning ko‘lami 2012-yildan so‘ng keskin tushib ketganligini ko‘rish

⁵³ <https://www.iru.org/news-resources/newsroom/tir-trade-corridor-betweenchina-and-spain-ready-business> // TIR trade corridor between China and Spain ready for business

mumkin. Xususan, ishlatilgan kitobchalar soni 2010-2021-yillar oralig'ida raqamlarda ko'riladigan bo'lsa yildan-yilga 15-20 foizga kamayib bormoqda.

3.3.2-jadval


2010-2021-yillarda IRU tomonidan O'zbekiston hamda dunyoning ayrim davlatlariga tarqatilgan TIR CARNET kitobchalarining soni

	2012-y	2013-y	2014-y	2015-y	2016-y	2017-y	2018-y	2019-y	2020-y	2021-y
Turkiya	685000	540500	385500	325100	213900	200000	189000	200000	55000	96999
Rossiya	598000	529700	300400	163900	137800	122600	121000	95200	83200	62000
Eron	85000	105000	90000	85000	118000	115000	165000	85000	120000	100000
Ukraina	376800	434000	95000	154500	140700	143600	106000	103500	71500	109500
O'zbekiston	17500	7500	9000	9000	27000	14000	32400	43000	89000	115000
Jami	3158300	2920150	1945050	1500450	1223400	1154650	1020650	858100	679300	

O'zbekiston Respublikasida mazkur jarayon O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-iyundagi "Bojxona ma'muriyatchiligini isloh etish va O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi PF- 6005-sonli Farmonidagi aniq belgilangan tadbirlarda o'z ifodasini topgan.

Xususan, mazkur Farmon asosida "e-TIR" loyihasi sinov tariqasida ilk bor 2020-yilning noyabr oyida O'zbekiston va Qozog'iston, 2021-yilning may oyidan esa, O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi tashuvlarda qo'llanila boshlandi.

Kelgusida O'zbekiston bilan Pokiston, Eron, Xitoy, Qirg'iziston o'rtasidagi tashuvlarda ham ushbu loyiha amaliyotga joriy etilishi rejalashtirilgan. Shuningdek e'tiborli tomoni shundaki, oxirgi yillarda O'zbekiston milliy tashuvchilari tomonidan TIR kitobchalaridan foydalanish sezilarli darajada oshganligini ko'rish mumkin. Chunonchi, 2001-2021-yillar mobaynida o'zbek tashuvchilari 415700 ta TIR kitobchalaridan foydalanilgan bo'lsa, shundan 2021-yilda 115000 ta kitobchadan foydalanib, boshqa davlatlarga nisbatan eng ko'p TIR KARNETlardan xalqaro tashuvlarda o'z o'rnini ijobiy tomonga o'zgarayotganligini ko'rsatmoqda.



3.3.5-rasm. 2010-2021-yillarda ishlatilgan TIR CARNET kitobchalarining soni

Xususan, quyidagi diagramma orqali o‘zbek tashuvchilarining so‘nggi 10 yillikda foydalanilgan kitobchalarning dinamikasini bilish mumkin. Shu bilan birga kitobchalarning milliy tashuvchilar tomonidan eksport yo‘nalishida xalqaro tashuvlarda qo‘llanilganda tranzit davlatlarida bojxona kuzatuv va ba’zi bojxona tartibotlaridan ozod etilishini nazarda tutish lozim. Jumladan, bugungi kunda O‘zbekiston bilan chegaradosh barcha davlatlarda (shuningdek O‘zbekistonda ham) mazkur kitobchani qo‘llagan holda xalqaro yuklar tashilganda bojxona kuzatuv va nazorati shakllaridan ozod etilishi ma’lum. O‘z navbatida, yuqorida qayd etilganidek TIR KARNET kitobchasining milliy tashuvchilari tomonidan qo‘llanilishi xalqaro yuk tashuvlar vaqtining 80, xarajatlarining esa 38 foizga qisqarishini ta’kidlash joiz. Tahlillarga kelib chiqib, mazkur kitobchadan qo‘llanilganda xalqaro tashuvlarda mamlakat imidjini va salohiyatini yaxshilash maqsadida muhim huquqiy vosita bo‘lib qolmoqda.

Nazorat kitobchasi yuklarni tashish jarayonida kuzatish va nazorat qilish uchun mo‘ljallangan. Bu hujjat transport vositasining marshrut bo‘ylab harakatlanishi davomida yukning holati va joylashuvini qayd qilishga xizmat qiladi. Nazorat kitobchasida transport vositasi haqida ma’lumotlar, yukning qabul qilinishi

va yetkazib berilishi haqidagi yozuvlar, yuk egasining va tashuvchining aniq ma'lumotlari hamda yukning aniq tavsifi ko'rsatiladi. Ushbu hujjat yuklarni tashishda javobgarlikni aniqlash va tovarlarni marshrut bo'ylab kuzatishda yordam beradi.

Shunday qilib, invoys, yuk xati, TIR karnet va nazorat kitobchasi xalqaro yuk tashishda asosiy hujjatlar bo'lib, ular transport jarayonini qonuniy, xavfsiz va samarali qilishda muhim o'rin tutadi. Ushbu hujjatlarni to'g'ri tayyorlash va foydalanish transport-logistika tizimining barqarorligini ta'minlaydi.

3.4. Tezkorlik va sifat, optimal narxlarda transport xizmatlarini tashkil etish masalalari

Tezkorlik va sifat, optimal narxlarda transport xizmatlarini tashkil etish masalalari bugungi kunda transport sohasida muhim ahamiyat kasb etadi. Transport tizimining samaradorligini oshirish, mijozlar talablarini qondirish va iqtisodiy jihatdan foydali xizmatlarni taqdim etish nafaqat korxonalar, balki umuman iqtisodiyot rivojlanishida ham katta rol o'ynaydi.

Tezkorlik va sifat transport xizmatlarining asosiy mezonlaridan biridir. Ushbu omillar transport kompaniyalarining raqobatbardoshligini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tezkorlik mijozlar talabiga mos ravishda yuk yoki yo'lovchilarni maqsadga o'z vaqtida yetkazib berishni anglatadi. Ayniqsa, logistika zanjirining samaradorligi tovarlarning vaqtida yetkazib berilishiga bog'liq. Bu jarayonda turli transport turlari, jumladan avtomobil, temir yo'l, havo va dengiz transportlarining moslashuvchanligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Sifat esa transport xizmatlarining xavfsizligi, ishonchliligi va qulayligini o'z ichiga oladi. Masalan, yo'lovchilar uchun qulaylik, yuk tashishda esa xavfsizlik va zarar yetkazmaslik transport xizmatlarining sifatli ekanligini belgilaydi. Bundan tashqari, xizmat ko'rsatishning tezkorligi va sifatini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalarni, jumladan raqamli tizimlarni joriy etish zarur.

Transport infratuzilmasi	Logistika boshqaruvi	Raqamli texnologiyalar	Xavfsizlik va sifat	Narx siyosati
•Magistral yo‘llar •Aeroport va portlar •Temir yo‘l tarmoqlari	•Ko‘p modalli transport •Yuk tashish marshallarini optimallashtirish •Real vaqt kuzatuv	•Elektron hujjatlashtirish •GPS va IoT tizimlari •Avtomatlashtirilgan yuk taqsimoti	•Transport vositalarining nazorati •Xavfsizlik standartlari •Mijozlar qoniqishini ta’minlash	•Tariflarni optimallashtirish •Tejamkor texnologiyalarni qo‘llash •Subsidiyalar va imtiyozlar

3.4.1-rasm. Tezkorlik va sifat, optimal narxlarda transport xizmatlarini tashkil etishning asosiy elementlari

Raqamli tizimlar yordamida tashish jarayonlarini avtomatlashtirish, real vaqt rejimida monitoring qilish va mijozlar bilan samarali aloqani yo‘lga qo‘yish mumkin.

Optimal narx siyosati ham transport xizmatlarini tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Narxlarni belgilashda kompaniyalar transport xarajatlari, mijozlar talabi, bozordagi raqobat muhiti va xizmat ko‘rsatish darajasini hisobga olishlari kerak. Shuningdek, xizmatlarning tejamkorligini ta’minlash uchun yoqilg‘i sarfini kamaytirish, marshallarni optimallashtirish va yuk tashish quvvatini maksimal darajada samarali ishlatish lozim. Optimal narx nafaqat mijozlar uchun qulay, balki kompaniyalar uchun foydali bo‘lishi kerak.

3.4.1-jadval

Tezkorlik, sifat va narxni ta’minlashda asosiy omillar

Omillar	Ta’rifi	Misollar
Transport infratuzilmasi	Yo‘llar, portlar, temir yo‘l tarmoqlari, aeroportlarning holati va rivojlanganligi.	Magistral yo‘llar modernizatsiyasi, logistika markazlari.
Texnologiyalar	Raqamli va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari.	GPS tizimlari, elektron yuk kuzatuv tizimlari.
Narx siyosati	Xizmatlarning iqtisodiy jihatdan foydaliligi va mijozlar uchun qulayligi.	Tariflarni segmentatsiyalash, subsidiyalar qo‘llash.
Xavfsizlik va sifat	Transport vositalarining ishonchligi va xizmat ko‘rsatishning xavfsizligi.	Xavfsizlik kameralari, qattiq inspeksiya standartlari.
Kadrlar malakasi	Transport xizmatlarini amalga oshiruvchi xodimlarning bilim va ko‘nikmalari.	Kadrlar uchun treninglar, xalqaro sertifikatlash.

Shuni ta'kidlash lozimki, yuqoridagi omillarni muvaffaqiyatli uyg'unlashtirish uchun transport xizmatlarini boshqarish va rejalashtirish jarayonlarini mukammallashtirish kerak. Bu jarayonda kadrlarning malakasini oshirish, xalqaro tajribalarni o'rganish va innovatsion yechimlarni amaliyotga joriy etish katta ahamiyatga ega.

Narx siyosatini optimallashtirish transport xizmatlarini tashkil etishda muhim bosqich hisoblanadi. Bu jarayon transport kompaniyasining raqobatbardoshligini ta'minlash bilan birga mijozlar uchun qulay narxlarni taklif qilish imkonini beradi. Narx siyosatini optimallashtirishning asosiy maqsadi xizmatlar uchun tejamkor va samarali tariflarni shakllantirishdir.

Birinchi navbatda, narxlarni optimallashtirish uchun transport jarayonida sarflanadigan xarajatlarni tahlil qilish zarur. Ushbu xarajatlarga yoqilg'i-yonilg'i, texnik xizmat ko'rsatish, ishchi kuchi xarajatlari va transport vositalarini ta'mirlash kiradi. Xarajatlarni tahlil qilish orqali ularni kamaytirish yo'llari aniqlanadi. Masalan, energiya samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy yoqilg'i tejoychi texnologiyalarni joriy etish yoki ekologik toza transport vositalarini qo'llash imkon beradi.

Ikkinchidan, transport vositalarining maksimal yuklanishini ta'minlash orqali xarajatlarni kamaytirish mumkin. Bo'sh reyslarning oldini olish va yuklarni optimal marshallar bo'ylab tashishni rejalashtirish bu borada muhimdir. Bu nafaqat xarajatlarni kamaytiradi, balki ekologik jihatdan ham foydalidir, chunki kamroq yoqilg'i sarflanadi va atmosferaga chiqariladigan zararli gazlar miqdori kamayadi.

Shuningdek, bozordagi talab va taklifni tahlil qilish asosida moslashuvchan tariflar joriy etilishi lozim. Masalan, xizmatlar narxini mavsumiy talablar yoki mijozlarning turli guruhlariga qarab moslashtirish transport kompaniyasining daromadlarini oshirishga yordam beradi. Yirik mijozlar yoki uzoq muddatli hamkorlik shartnomalariga ega kompaniyalarga chegirmalar taklif etish ham samarali usuldir.

Narx siyosatini optimallashtirishda davlat tomonidan taqdim etiladigan subsidiyalar va imtiyozlardan foydalanish ham muhim. Hukumat tomonidan transport sohasiga yo'naltirilgan yordam dasturlari, masalan, soliq yengilliklari yoki kreditlar, kompaniyalar xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin.

Bundan tashqari, narx siyosatini raqamli texnologiyalar yordamida boshqarish imkoniyatlari kengaymoqda. Elektron hujjatlashtirish va avtomatlashtirilgan tizimlar narxlarni aniqlash va mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayonini tezlashtirishga xizmat qiladi. Ushbu texnologiyalar mijozlarga o'z ehtiyojlariga mos xizmatlarni tanlash va o'z vaqtida to'lovlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Transport xizmatlarini tashkil etishda bir qator asosiy muammolar mavjud bo'lib, ularning bartaraf etilishi sohaning rivoji uchun muhimdir. Eng dolzarb muammolardan biri transport infratuzilmasining eskirishi bo'lib, bu yo'llar, temir yo'llar va portlarning zamonaviy talabga javob bermasligini anglatadi. Bu esa xizmatlarning tezkorligi va samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xizmat sifati va xavfsizligining pastligi ham dolzarb muammo bo'lib, texnik xizmat ko'rsatishning yetarli darajada tashkil etilmagani va xavfsizlik standartlarining pastligi yo'lovchi va yuk tashish jarayonlarining ishonchliligini kamaytiradi. Shuningdek, yuk va reyslarni boshqarishda tejamkorlikning pastligi, ya'ni bo'sh reyslarning ko'pligi va logistika jarayonlarining noto'g'ri rejalashtirilishi xarajatlarni oshiradi. Bundan tashqari, yuqori xarajatlar sababli mijozlar uchun qulay tariflarning ta'minlanmasligi ham muhim muammolardan biridir.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun bir qator yechimlar taklif qilinmoqda. Avvalo, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish uchun investitsiyalarni jalb qilish va davlat-xususiy sheriklik asosida loyihalarni amalga oshirish zarur. Bu infratuzilma holatini yaxshilab, xizmatlarning tezkorligini oshirishga yordam beradi. Xizmat sifati va xavfsizligini ta'minlash maqsadida xavfsizlik standartlarini kuchaytirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish lozim. Transport vositalarining yuklanishini optimallashtirish va raqamli tizimlar

yordamida logistika jarayonlarini avtomatlashtirish esa tejamkorlikni oshiradi va bo'sh reyslarni kamaytiradi. Xarajatlarni kamaytirish uchun energiya tejamkor texnologiyalarni qo'llash va davlat subsidiyalaridan foydalanish transport xizmatlari narxini pasaytirishga yordam beradi. Ushbu yechimlar transport sohasidagi muammolarni bartaraf etib, xizmat sifatini yangi bosqichga olib chiqishda va sohaning raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, tezkorlik va sifatni ta'minlagan holda optimal narxlarda transport xizmatlarini tashkil etish iqtisodiyotning barcha sohalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu nafaqat mijozlarning qoniqishini oshiradi, balki transport kompaniyalarining raqobatbardoshligini mustahkamlashga va milliy iqtisodiyot rivojlanishiga xizmat qiladi.

Asosiy tushunchalar

Xalqaro magistrallar – davlatlararo transport tarmoqlarini bog'lovchi asosiy yo'llar bo'lib, yuk va yo'lovchi tashishda muhim rol o'ynaydi.

Avtomobil transporti – yuk va yo'lovchilarni qisqa va o'rta masofalarga tezkor yetkazib berish uchun ishlatiladigan transport turi bo'lib, moslashuvchanligi va keng qamrovli yo'llar tarmog'i bilan ajralib turadi.

Temir yo'l transporti – yirik hajmdagi yuklarni uzoq masofalarga xavfsiz va nisbatan arzon narxda tashish imkonini beruvchi transport turi.

Suv transporti – daryolar, kanallar, ko'llar va dengizlar orqali yuk va yo'lovchilarni tashishga xizmat qiluvchi transport turi bo'lib, asosan yirik va og'ir yuklarni tashishda ishlatiladi.

Havo transporti – yuk va yo'lovchilarni tezkor yetkazib berish uchun ishlatiladigan transport vositasi bo'lib, yuqori narxi va global qamrovi bilan ajralib turadi.

Quvur transporti – neft, gaz va boshqa suyuqlik yoki gazsimon moddalarni uzoq masofalarga samarali yetkazib berish uchun foydalaniladigan transport tizimi.

Dengiz yo‘llari – xalqaro yuk tashishda asosiy ahamiyatga ega bo‘lgan global savdo yo‘nalishlari bo‘lib, ulkan hajmdagi yuklarni tashishda ishlatiladi.

Tranzitlar soni – mamlakat yoki mintaqa orqali o‘tuvchi yuk va yo‘lovchilarning umumiy hajmini ifodalovchi ko‘rsatkich bo‘lib, tranzit salohiyatini belgilashda muhim hisoblanadi.

Portlar – dengiz va daryo transportida yuklarni qabul qilish, saqlash va jo‘natish uchun mo‘ljallangan strategik logistik markazlar.

Tabiiy resurslar – mamlakat yoki hududning iqtisodiy salohiyatini belgilovchi yerosti va yerusti boyliklari bo‘lib, transport va logistika rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Iqtisodiy rivojlanish darajasi – mamlakatning transport infratuzilmasi va logistika tizimi qanchalik rivojlanganligini ko‘rsatuvchi asosiy omillardan biri.

Geosiyosiy omillar – xalqaro transport yo‘nalishlari, bojxona rejimlari va savdo yo‘llariga ta’sir ko‘rsatuvchi siyosiy va strategik holatlar.

Inkoterms – xalqaro savdoda tovarlarni yetkazib berish shartlarini belgilovchi universal qoidalar majmui.

Invoys – eksport-import operatsiyalarida tovar narxi, hajmi va yetkazib berish shartlarini aks ettiruvchi hujjat.

Yuk xati – yuk jo‘natuvchi va yuk oluvchi o‘rtasidagi transport shartlarini tasdiqlovchi rasmiy hujjat.

TIR karnet – xalqaro avtomobil transportida bojxona to‘lovlaridan ozod qiluvchi maxsus ruxsatnoma hujjati bo‘lib, yuk tashishda soddalashtirilgan bojxona nazoratini ta’minlaydi.

Nazorat kitobchasi – yuk tashish jarayonida yuklarning bojxona va boshqa rasmiy tekshiruvlaridan o‘tganligini tasdiqlovchi hujjat.

Optimal narx siyosati – transport va logistika xizmatlarida xarajatlarni minimallashtirish hamda bozorda raqobatbardosh narxlarni shakllantirish strategiyasi.

Nazorat savollari:

1. Transport turlari, ularning afzalliklari va kamchiliklari haqida gapirib bering.
2. Har bir transport turining xalqaro iqtisodiyotdagi o‘rnini tushuntiring.
3. Dunyoning eng uzun temir yo‘l liniyalarini sanab bering.
4. Dunyoning eng yirik dengiz savdo yo‘llari nechta?
5. Transport xarajatlari tahlilini har bir transport turi bo‘yicha qiyosiy tahlil qilib bering.
6. Quvur transport turidan foydalanish bo‘yicha statistik ko‘rsatkichlardan foydalanib tavsiflab bering.
7. Yuk jo‘natuv hujjatlari tarkibi nimalardan tashkil topgan?
8. Inkoterm shartnomalarining amaliyotdagi ulushi qanday taqsimlangan?
9. TIR karnet hujjati haqida batafsil gapirib bering.
10. Tezkorlik, sifat va narxni ta’minlashda asosiy omillar nimalardan iborat?

Case Study

Masala 1: “UzCargo” kompaniyasi meva va sabzavotlarni Yevropaga eksport qiladi. Mahsulotlar transportida asosan avtomobil va temir yo‘llardan foydalaniladi. Ammo transport xarajatlari yuqori bo‘lib, bu mahsulotlarning raqobatbardoshligini pasaytiradi. Kompaniya xarajatlarni kamaytirib, mahsulotni tez va sifatli yetkazib berishni maqsad qilmoqda.

Topshiriqlar:

1. Kompaniya transport xarajatlarini qanday optimallashtirishi mumkin?
2. Mahsulotlarni sifatli saqlash va yetkazib berishni ta’minlash uchun qanday transport tizimini tanlash lozim?
3. Yuk jo‘natuv hujjatlarini (invoyslar, yuk xatlari va boshqalar) tayyorlash jarayonini avtomatlashtirish bo‘yicha qanday choralar ko‘rish mumkin?

Masala 2: Bir korxona Xitoydan Yevropaga mahsulot eksport qilmoqda. Yuk tashish uchun kompaniya ikkita transport yo‘nalishini tanlash imkoniyatiga ega:

1. **Variant A:** Temir yo‘l transporti orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri Yevropaga.
2. **Variant B:** Xitoydan dengiz transporti orqali Kavkazga, so‘ng avtomobil transporti orqali Yevropaga.

Quyidagi ma’lumotlar mavjud:

Variant A (temir yo‘l): 1 tonna yuk uchun \$200, masofa 7,000 km, vaqt 14 kun.

Variant B (kombinatsiyalashgan): Dengiz transportida 1 tonna yuk uchun \$120, masofa 6,000 km, vaqt 20 kun; avtomobil transportida 1 tonna yuk uchun \$80, masofa 2,000 km, vaqt 5 kun.

Kompaniya 100 tonna yukni eksport qilishni rejalashtirmoqda va yuk tez yetib borishi, xarajatlar kam bo‘lishi kerak.

Topshiriqlar:

1. Har bir yo‘nalish bo‘yicha umumiy transport xarajatlarini hisoblang.
2. Yuk tashish tezligi va narxni optimallashtirgan holda qaysi yo‘nalishni tanlash kerakligini aniqlang.

4-BOB. GLOBALLASHUV JARAYONIDA ENG QISQA VA XAVFSIZ KORIDORLARNI ANIQLASH VA ULARDAN FOYDALANISHNI TASHKILLASHTIRISH

- 4.1. Xalqaro transport koridorlarini optimallashtirish va eng qisqa yo‘nalishlarni aniqlash usullari
- 4.2. Transport yo‘nalishlarining xavfsizligini ta‘minlash va geosiyosiy barqarorlik masalalari
- 4.3. Xalqaro transport koridorlaridan samarali foydalanishda sug‘urtalashning ahamiyati
- 4.4. Raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar yordamida optimal yo‘nalishlarni aniqlash imkoniyatlari

4.1. Xalqaro transport koridorlarini optimallashtirish va eng qisqa yo‘nalishlarni aniqlash usullari

Globalizatsiya jarayonlarining jadallashishi va xalqaro savdoning rivojlanishi transport-logistika tizimlarini samarali boshqarishning ahamiyatini oshirmoqda. Xalqaro transport koridorlarini optimallashtirish nafaqat yuk tashish xarajatlarini kamaytirish, balki tranzit vaqtini qisqartirish, ekologik barqarorlikni ta‘minlash va iqtisodiy o‘shishga hissa qo‘shish imkonini beradi. So‘nggi yillarda O‘zbekiston va Markaziy Osiyo mintaqasida transport infratuzilmasini takomillashtirish bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekistonning “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi” doirasida transport va logistika tizimlarini modernizatsiya qilish, yangi xalqaro transport yo‘nalishlarini yaratish hamda mavjud yo‘nalishlarni optimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

Bugungi kunda dunyoda transport tizimlarini optimallashtirishning ilg‘or texnologiyalari joriy etilmoqda. Xususan, sun‘iy intellekt, raqamli logistika tizimlari va IoT (Internet of Things) texnologiyalaridan foydalanish orqali yuk tashish jarayonlarini real vaqt rejimida kuzatish va tahlil qilish imkoniyati yaratilmoqda.

Shu bilan birga, Yevropa Ittifoqi, Xitoy va boshqa davlatlar yashil transport tizimlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. Masalan, "Belt and Road Initiative" dasturi doirasida Yevropa va Osiyo o'rtasidagi transport yo'nalishlari takomillashtirilmoqda va O'zbekiston ushbu jarayonlarda faol ishtirok etmoqda.

Xalqaro transport koridorlarini optimallashtirishda turli usullar qo'llaniladi. Ulardan biri **matematik modellash** va **algoritmlar** bo'lib, eng qisqa yo'nalishlarni aniqlash va yuk oqimlarini samarali boshqarishga yordam beradi. Masalan, Dijkstra algoritmi orqali eng qisqa marshrut hisoblab chiqiladi. Bu usul Google Maps yoki Yandex.Navigator kabi tizimlarda avtomobillar uchun eng yaxshi yo'lni topishda qo'llaniladi. Shuningdek, tarmoq oqimlari nazariyasi yirik yuk tashish tizimlarida, masalan, Yevropa va Osiyo o'rtasidagi temiryo'l yo'nalishlarini rejalashtirishda ishlatiladi. Hevristik algoritmlar esa katta miqdordagi yuklarni global darajada taqsimlash uchun Amazon va DHL kabi logistika kompaniyalari tomonidan tatbiq etiladi.

Xalqaro transport koridorlarini optimallashtirish va eng qisqa yo'nalishlarni aniqlash uchun quyidagi asosiy usullar qo'llaniladi (4.1.1-rasm).

1.	• Matematik modellash va algoritmlar
2.	• Geografik axborot tizimlari (GIS)
3.	• Sun'iy intellekt va mashinaviy o'rganish
4.	• Iqtisodiy va logistika optimallashtirish usullari
5.	• Hukumat siyosati va xalqaro hamkorlik

4.1.1-rasm. Xalqaro transport koridorlarini optimallashtirish va eng qisqa yo'nalishlarni aniqlash usullari

Geografik axborot tizimlari (GIS) transport yo'nalishlarini optimallashtirishda muhim rol o'ynaydi. Raqamli xaritalar va yo'l tahlili orqali yuk tashish yo'nalishlari tahlil qilinadi. Masalan, O'zbekistonning "Trans-Aziya"

transport koridori uchun GIS texnologiyalari orqali eng samarali yo‘nalishlar aniqlangan. Bundan tashqari, real vaqt monitoring tizimlari yuklarni kuzatish va transport vositalarining joylashuvini aniq bilish imkonini beradi. Masalan, Yevropada IoT texnologiyalari yordamida yuk mashinalari holati va harakati kuzatib boriladi, bu esa logistika jarayonlarini samarali boshqarishga yordam beradi.

So‘nggi yillarda **sun‘iy intellekt va mashinaviy o‘rganish** transport tarmog‘ida keng qo‘llanilmoqda. Xususan, AI asosida ishlovchi tizimlar yuk tashish hajmini oldindan prognozlash va yo‘nalishlarni optimallashtirish imkonini beradi. Masalan, Xitoyning “JD Logistics” kompaniyasi mashinaviy o‘rganish texnologiyalaridan foydalangan holda har bir shahar uchun optimal yetkazib berish marshrutlarini avtomatik tarzda belgilaydi. Bundan tashqari, Tesla kabi avtonom transport vositalari avtomatlashtirilgan logistika tizimlarining rivojlanishiga asos yaratmoqda.

4.1.1-jadvalda xalqaro transport koridorlarini optimallashtirish va eng qisqa yo‘nalishlarni aniqlashning asosiy usullari tavsifi jamlangan.

4.1.1-jadval

Xalqaro transport koridorlarini optimallashtirish va eng qisqa yo‘nalishlarni aniqlashning asosiy usullari tavsifi

Usul	Tavsif
Matematik modellashtirish va algoritmlar	- Graf nazariyasi: Dijkstra va Bellman-Ford algoritmlari orqali eng qisqa yo‘nalish aniqlanadi. - Tarmoq oqimlari nazariyasi: Maksimal oqim va minimal xarajatli marshrutlar hisoblanadi. - Hevristik yondashuvlar: Genetik algoritmlar, koloniya algoritmi orqali optimal yo‘nalish topiladi.
Geografik axborot tizimlari (GIS)	- Raqamli xaritalar va yo‘l tahlili: GIS texnologiyalari orqali optimal marshrutlar aniqlanadi. - Real vaqt monitoringi: GPS va IoT orqali yuklarning harakati kuzatib boriladi.
Sun‘iy intellekt va mashinaviy o‘rganish	- Prognozlash modellaridan foydalanish: Yuk oqimlari va transport talablarini oldindan bashorat qilish. - Avtomatlashtirilgan logistika tizimlari: AI yordamida yuklarni optimal taqsimlash.
Iqtisodiy va logistika optimallashtirish usullari	- Narxga asoslangan yo‘nalish tanlash: Transport va tranzit xarajatlarini minimallashtirish. - Ko‘p modalli transport tizimlari: Dengiz, temiryo‘l, avtomobil va havo transporti kombinatsiyasidan foydalanish.

Hukumat siyosati va xalqaro hamkorlik	- Tranzit kelishuvlari va bojxona yengilliklari: Xalqaro shartnomalar orqali yuk tashishni tezlashtirish. - Raqamli bojxona tizimlari: Blockchain va elektron deklaratsiyalar orqali bojxona jarayonlarini optimallashtirish.
--	--

Transport tizimlarini samarali boshqarishda **iqtisodiy va logistika optimallashtirish usullari** ham muhim o‘rin tutadi. Masalan, yuk tashish narxlarini va tranzit to‘lovlarini hisobga olib, eng arzon yo‘nalishlar tanlanadi. O‘zbekiston misolida olib qaraganda, Xitoy – O‘zbekiston – Yevropa yo‘nalishi bo‘ylab temiryo‘l transportidan foydalanish yuk tashish xarajatlarini kamaytirishga imkon yaratmoqda. Shuningdek, multimodal transport tizimlari – dengiz, avtomobil, havo va temiryo‘l transportining kombinatsiyalashuvi orqali yuk tashish jarayonlari tezlashmoqda. Misol uchun, Yevropa Ittifoqida yuklarni dengiz orqali yetkazib berishdan keyin temiryo‘l orqali taqsimlash tizimi keng qo‘llaniladi.

Shuningdek, **hukumat siyosati va xalqaro hamkorlik** xalqaro transport koridorlarini optimallashtirishda asosiy o‘rin egallaydi. Xalqaro tranzit kelishuvlari orqali yuk tashish jarayonlari soddalashtiriladi. Masalan, “Belt and Road Initiative” dasturi doirasida O‘zbekiston Xitoy va Yevropa davlatlari bilan hamkorlik qilib, transport infratuzilmasini rivojlantirmoqda. Bojxona tizimlarining raqamlashtirilishi esa xalqaro savdoni tezlashtirishga yordam beradi. Masalan, Singapur bojxona xizmatida blockchain texnologiyasidan foydalanilib, yuklarning harakati to‘liq avtomatlashtirilgan.

Shunday qilib, xalqaro transport koridorlarini optimallashtirishda matematika, sun‘iy intellekt, iqtisodiy yondashuvlar, logistika texnologiyalari va hukumat islohotlari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Har bir usul transport tizimlarini samarali va barqaror qilishda o‘z o‘rniga ega bo‘lib, ularni kombinatsiyalash eng optimal natijalarga erishishga yordam beradi.

4.2. Transport yo‘nalishlarining xavfsizligini ta’minlash va geosiyosiy barqarorlik masalalari

Transport yo‘nalishlarining xavfsizligini ta’minlash va geosiyosiy barqarorlik masalalari bugungi kunda xalqaro savdo va logistika tizimlarining uzluksiz ishlashida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mintaqaviy mojarolar, siyosiy beqarorlik, tabiiy ofatlar va kiberxavfsizlik tahdidlari global transport tarmoqlariga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, Rossiya-Ukraina mojarosi, Qizil dengizdagi yuk tashish xavfsizligi muammolari hamda Yaqin Sharqdagi beqarorlik xalqaro savdo oqimlarining o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda. Shu sababli, mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar muqobil transport yo‘laklarini rivojlantirish, bojxona tartiblarini soddalashtirish hamda xavfsizlik choralarini kuchaytirish bo‘yicha strategik choralar ko‘rmoqda. O‘zbekiston ham mintaqadagi geosiyosiy vaziyatni inobatga olib, xavfsiz tranzit yo‘nalishlarini yaratish va transport infratuzilmasini mustahkamlashga e’tibor qaratmoqda.

Transport yo‘nalishlarining xavfsizligini ta’minlash va geosiyosiy barqarorlik masalalari global logistika va savdo tizimlarining uzluksiz ishlashi uchun juda muhim hisoblanadi. So‘nggi yillarda mintaqaviy mojarolar, tabiiy ofatlar, bojxona to‘siqlari va kiberxavfsizlik muammolari transport yo‘laklariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, Rossiya-Ukraina mojarosi xalqaro transport marshrutlarini qayta ko‘rib chiqishga majbur qildi va Trans-Kaspiy yo‘lagi kabi muqobil yo‘nalishlarni rivojlantirish zaruratini keltirib chiqardi. Shuningdek, Qizil dengizdagi yuk kemalariga qilingan hujumlar dengiz transporti xavfsizligini ta’minlash uchun xalqaro dengiz patrul xizmatlarini kuchaytirishni talab qilmoqda.

Tabiiy ofatlar ham transport infratuzilmasiga katta zarar yetkazishi mumkin. Masalan, 2023-yilda Turkiyada sodir bo‘lgan zilzila natijasida temir yo‘l va avtomobil yo‘llari jiddiy zarar ko‘rdi, bu esa yuk tashish jarayonlarini sekinlashtirdi. Bunday holatlarga qarshi kurashish uchun infratuzilmani mustahkamlash va favqulodda vaziyatlarga oldindan tayyorgarlik ko‘rish zarur. Shuningdek, xalqaro transport yo‘nalishlarida bojxona tartiblarining murakkabligi tranzit jarayonlarini

sekinlashtiradigan muhim omillardan biridir. Bunga yechim sifatida bojxona tartiblarini soddalashtirish va elektron hujjatlashtirish tizimlarini joriy etish taklif qilinmoqda. Masalan, O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasida “yashil yo‘l” tamoyili asosida tezkor bojxona tekshiruvlari joriy etilib, yuk tashish jarayonlari soddalashtirilmoqda.

Bugungi raqamli davrda transport tarmoqlarining xavfsizligini ta’minlashda kiberxavfsizlik muhim rol o‘ynamoqda. So‘nggi yillarda xakerlik hujumlari global transport tizimlariga katta tahdid solmoqda. Masalan, 2023-yilda AQShning yirik portlari kiberhujumlarga uchradi va natijada yuk tashish jarayonlari sezilarli darajada kechikdi. Shu sababli, transport tizimlarida kiberxavfsizlik choralari kuchaytirilishi, shifrlash va monitoring tizimlari takomillashtirilishi zarur.

4.2.1-jadvalda transport yo‘nalishlarining xavfsizligi va geosiyosiy barqarorlik masalalari batafsil yoritib berilgan.

4.2.1-jadval

Transport yo‘nalishlarining xavfsizligi va geosiyosiy barqarorlik masalalari

Yo‘nalish	Muammolar	Yechimlar va chora-tadbirlar	Misollar
Mintaqaviy mojarolar	Harbiy nizolar va siyosiy beqarorlik transport yo‘nalishlarini xavf ostiga qo‘yadi.	Muqobil yo‘laklarni rivojlantirish, tranzit yo‘nalishlarini diversifikatsiya qilish.	Rossiya-Ukraina mojarosi tufayli Yevropa va Osiyo o‘rtasida yangi yo‘nalishlar izlanmoqda (Trans-Kaspiy yo‘lagi).
Terrorizm va jinoyatchilik	Strategik transport yo‘laklari bo‘ylab noqonuniy harakatlar va hujumlar xavfi mavjud.	Xavfsizlik choralarini kuchaytirish, xalqaro hamkorlikni oshirish.	Qizil dengizda yuk kemalariga qilingan hujumlarga qarshi xalqaro dengiz patruli tashkil etilishi.
Tabiiy ofatlar va iqlim o‘zgarishi	Zilzilalar, suv toshqinlari va boshqa ofatlar transport tarmoqlarining uzilishiga olib keladi.	Infratuzilmani mustahkamlash, favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik ko‘rish.	2023-yilda Turkiyada yuz bergan zilzila natijasida temir yo‘l va avtomobil yo‘llari zarar ko‘rdi.
Bojxona va huquqiy to‘siqlar	Byurokratik kechikishlar va bojxona tartiblarining murakkabligi tranzit jarayonlarini sekinlashtiradi.	Bojxona tartiblarini soddalashtirish, elektron hujjatlashtirish joriy etish.	O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasida “yashil yo‘l” tamoyili asosida tezkor bojxona tekshiruvlari joriy qilindi.

Kiberxavfsizlik tahdidlari	Transport tizimlarining raqamlashtirilishi bilan bog‘liq xakerlik hujumlari va ma’lumotlar xavfsizligi muammolari.	Kiberxavfsizlik choralari ko‘rish, shifrlash va monitoring tizimlarini kuchaytirish.	2023-yilda AQShning yirik portlari kiberhujumlarga uchradi, bu esa yuk tashish jarayonlarini kechiktirdi.
Tranzit mamlakatlar bilan hamkorlik	Siyosiy kelishmovchiliklar transport yo‘nalishlarining uzilishiga olib kelishi mumkin.	Xalqaro shartnomalar va hamkorlikni rivojlantirish.	O‘zbekiston, Turkmaniston va Eron orqali Yaqin Sharqqa chiqish imkoniyatlarini kengaytirish.

Bundan tashqari, tranzit mamlakatlar bilan barqaror hamkorlik transport yo‘nalishlarining uzluksiz ishlashi uchun muhim ahamiyatga ega. Siyosiy kelishmovchiliklar va savdo cheklovlari muayyan yo‘nalishlarning ishdan chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois O‘zbekiston Turkmaniston va Eron orqali Yaqin Sharqqa chiqish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, Xitoy va Janubi-Sharqiy Osiyo bozorlariga bog‘liq alternativ marshrutlarni ishlab chiqish ustida faol ish olib bormoqda. Xulosa qilib aytganda, transport yo‘nalishlarining xavfsizligi va geosiyosiy barqarorlikni ta’minlash uchun xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda muqobil yo‘laklarni diversifikatsiya qilish muhim strategik yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda.

Transport yo‘nalishlarining xavfsizligini ta’minlash va geosiyosiy barqarorlik masalalari bugungi kunda global miqyosda juda muhim. Xavfsizlikni ta’minlash faqat davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar bilan cheklanib qolmay, balki mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va yangi texnologiyalarni qo‘llash orqali ham amalga oshirilmoqda. 2023-yilda jahon bo‘yicha transportda sodir bo‘ladigan halokatlar soni 1,35 milliondan oshgan, bu esa global iqtisodiyotga yillik 1,7 trillion dollarlik zarar keltiradi. Markaziy Osiyo mintaqasida 2022-yilda transport xavfsizligi bo‘yicha statistik ma’lumotlarga ko‘ra, yuk tashish transportining xavfsizligi 15% ga oshgan, ammo avtobus va yengil transport vositalari bo‘yicha avariya soni 7% ga kamaygan. Bu, avtotransport infratuzilmasining yangilanishi va yangi xavfsizlik tizimlarining joriy

qilinishi bilan bog‘liqdir. Geosiyosiy barqarorlik nuqtai nazaridan, 2023-yilda transport sohasidagi geosiyosiy tahdidlar 30% ga oshgan, asosan yangi transport koridorlarining tashkil etilishi va global savdo yo‘llaridagi to‘siqlar bilan bog‘liq. O‘zbekistonda Xitoy va Rossiya bilan yangi transport yo‘nalishlarining ochilishi, mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Xavfsizlikni ta‘minlashda innovatsion texnologiyalarni joriy etish, masalan, “aqlli” transport tizimlari va kuzatuv tizimlarining rivojlanishi, halokatlarni kamaytirishga yordam beradi. Geosiyosiy barqarorlikni saqlashda transport sohasidagi diplomatik kelishuvlar va mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlik ham muhim o‘rin tutadi. O‘zbekistonning “Transport Diplomatiyasi” tamoyili mintaqaviy xavfsizlikni ta‘minlashda muhim vosita sifatida qaralmoqda. Shunday qilib, transport yo‘nalishlarining xavfsizligini ta‘minlash va geosiyosiy barqarorlikni saqlash nafaqat iqtisodiy o‘rishga xizmat qiladi, balki mintaqaviy va global miqyosda xavfsizlikni ta‘minlashda ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

4.3. Xalqaro transport koridorlaridan samarali foydalanishda sug‘urtalashning ahamiyati

Hozirgi global iqtisodiy tizimning rivojlanishi va xalqaro savdoning kengayishi natijasida transport koridorlari xalqaro hamkorlikning asosiy unsurlaridan biriga aylandi. Xalqaro transport koridorlari – bu mamlakatlar o‘rtasidagi savdo va yuk tashish jarayonlarini samarali tashkil etish uchun mo‘ljallangan, transport va logistika tizimlarini birlashtiruvchi infratuzilma tarmoqlaridir. Ular nafaqat iqtisodiy aloqalarni rivojlantiradi, balki mamlakatlar o‘rtasidagi madaniy va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlaydi. Xalqaro transport koridorlari (XTK) jahon iqtisodiyotida alohida o‘rin tutadi, ular yuklarning eng samarali tarzda muntazam xalqaro tashish va tranzitini ta‘minlashga mo‘ljallangan bo‘lib, bu koridorni tashkil qiluvchi davlatlar o‘rtasidagi xalqaro huquqiy munosabatlarni batafsil tartibga solishdir.

Shu bilan birga, xalqaro transport koridorlari faoliyati ko‘plab xavf-xatarlarni o‘z ichiga oladi. Xavf-xatarlar yuklarning yo‘qolishi, shikastlanishi, transport vositalarining avariya uchirishi, ekologik muammolar va boshqa turli kutilmagan holatlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ushbu xavf-xatarlarni minimallashtirish va moliyaviy yo‘qotishlarning oldini olishda sug‘urta mexanizmlari muhim o‘rin tutadi.

Transport koridori - bu milliy yoki xalqaro transport tizimining bir qismi bo‘lib, u alohida geografik hududlar o‘rtasida muhim xalqaro yuk va yo‘lovchi tashishni ta‘minlaydi, ushbu yo‘nalishda ishlaydigan barcha transport turlarining harakatlanuvchi tarkibi va statsionar qurilmalarini, shuningdek ushbu transportni amalga oshirish uchun texnologik va tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni o‘z ichiga Oladi.

Transport koridorlari faoliyatini sug‘urtalash – bu nafaqat moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash, balki koridorlar ishtirokchilarining manfaatlarini himoya qilishda ham asosiy omil hisoblanadi. Sug‘urtalash tizimi transport jarayonidagi har bir bosqich uchun maxsus ishlab chiqilgan chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu tizim nafaqat transport vositalari va yuklarni, balki xizmat ko‘rsatish infratuzilmasini ham xavflardan himoya qilishga qaratilgan.

Yevropa va Osiyodagi transport koridorlarini sug‘urtalash tajribasi

Yevropa transport koridorlari Trans-Yevropa Transport tarmog‘ining (TEN-T) bir qismi sifatida mintqa bo‘ylab uzluksiz va barqaror transportni osonlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu koridorlarning samaradorligi va ishonchliligini ta‘minlash uchun sug‘urta va xatarlarni boshqarish protseduralari ajralmas hisoblanadi. Transport koridorlarini sug‘urtalash quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Xatarlarni kompleks boshqarish. TEN-T loyihalari ko‘pincha ko‘p modali transport tizimlarini (temir yo‘l, avtomobil, dengiz va havo) o‘z ichiga oladi, bu infratuzilmaning shikastlanishi, ekologik xavflar va operatsion uzilishlar kabi

majburiyatlarni qoplashni talab qiladi. Bunga yuqori qiymatli yuk va multimodal logistika uchun maxsus qamrov kiradi.

Davlat-xususiy sheriklik (Public-Private Partnerships (PPPs). Ko‘plab TEN-T koridorlar PPPs orqali ishlab chiqilgan. Sug‘urta mexanizmlari xususiy pudratchilar va davlat organlari o‘rtasida xatarlarni teng taqsimlash, loyihaning uzluksizligi va moliyaviy himoyasini ta‘minlash uchun ishlab chiqilgan.

Majburiy javobgarlikni qoplash. Koridorlar ichidagi operatorlar, ayniqsa dengiz va temir yo‘l sohalarida, Yevropa Ittifoqining transport xavfsizligi qoidalariga muvofiq, uchinchi shaxslarga yetkazilishi mumkin bo‘lgan zararni qoplash uchun javobgarlikni sug‘urtalashga majburdirlar.

Infratuzilmaga xos siyosat: siyosat tabiiy ofatlar, baxtsiz hodisalar va vandalizmga qarshi temir yo‘l yo‘llari, yo‘llar, ko‘priklar va terminallar kabi infratuzilma elementlarini qamrab olishga mo‘ljallangan bo‘lib, hodisalar yuz berganda tezda tiklanishni ta‘minlaydi.

Cost, Insurance, and Freight (CIF) xalqaro yuk tashish shartnomasi bo‘lib, u sotuvchi tomonidan yuk tranzit paytida xaridor buyurtmasining xarajatlarini, sug‘urtasini va yukini qoplash uchun to‘lanadigan to‘lovlarni ifodalaydi. Xarajat, sug‘urta va yuk faqat suv yo‘li, dengiz yoki okean orqali tashiladigan tovarlarga tegishli. Tovarlar oldi-sotdi shartnomasida ko‘rsatilgan xaridor portiga eksport qilinadi. Tovar idishga yuklangandan so‘ng, yo‘qotish yoki shikastlanish xavfi sotuvchidan xaridorga o‘tkaziladi. Biroq, yukni sug‘urtalash va yukni to‘lash sotuvchining javobgarligi bo‘lib qolmoqda.

CMR avtomobil yuklariga xosdir, CIF esa dengiz yoki ichki suv yo‘llariga tegishli. CMR tashuvchining javobgarligi va istisnolarini belgilaydi, lekin ko‘pincha yo‘l bo‘ylab tarqaladi. CMR konsignatsiya eslatmasini talab qiladi; CIF konosament, sug‘urta sertifikatlari va schyot-fakturalar kabi hujjatlarni talab qiladi.

Osiyodagi transport yo‘laklarini sug‘urtalash protseduralari murakkab va mintaqalarga qarab farq qiladi, bu ishtirokchi mamlakatlarning xilma-xilligi,

infratuzilmasi va savdo amaliyotini aks ettiradi. Ushbu protseduralarning bir nechta asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

Tranzit kafolatlari: Markaziy va Janubiy Osiyodagi kabi ko‘plab koridorlar tir (Transports Internationaux Routiers) tizimiga tayanadi, bu esa global kafolat tizimi orqali bojxona protseduralarini kamaytirish orqali tranzitni osonlashtiradi. TIR karneti bojxona hujjati va kafolati bo‘lib, chegara o‘tish joylaridagi jarayonlarni soddalashtiradi.

Vakolatli iqtisodiy Operator (AEO) dasturlari: ba’zi koridorlar, shu jumladan Markaziy Osiyo mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik (CAREC) dasturi doirasida AEO sxemalarini amalga oshiradi. Ushbu dasturlar oldindan tasdiqlangan korxonalarga soddalashtirilgan bojxona protseduralaridan foyda olish, kechikishlarni kamaytirish va xavfsizlikni kuchaytirish imkonini beradi.

Xatarlarni boshqarish vositalari: Osiyo koridorlari bo‘ylab sug‘urta qoplamasi ko‘pincha yuklarni sug‘urtalash, transportyorlar uchun javobgarlikni qoplash va siyosiy xavflarni, ayniqsa beqarorlikka moyil bo‘lgan mintaqalarda sug‘urtalashni o‘z ichiga oladi.

		LETTRE DE VOITURE INTERNATIONALE INTERNATIONAL CONSIGNMENT NOTE			
1. Sender (name, address, country) / Expeditor (nume, adresa, tara) Rage Solutions Strada 1, Tg Mures, Mures, Romania CUI:23423		6. Carrier (name, address, country, other references) / Expeditor (nume, adresa, tara) Car's Number / Numar Masina: Driver's Name / Nume Sofer:			
2. Sender (name, address, country) / Destinatar (nume, adresa, tara) test					
3. Sender (name, address, country) / Locul incarcarii Place / Locul: Country / Tara: Time of departure / Ora plecarii _____		7. Successive carriers / Transportatori succesivi			
4. Delivery of the goods: / Locul livrarii Place / Locul: Country / Tara: Time of arrival / Ora sosirii _____		8. Taking over the goods: / Locul incarcarii			
5. Sender's instructions / Instructiuni ale expeditorului		9. Documents handed to the carrier by the sender / Documente primite de transportator de la expeditor			
10. Marks and Nos	11. Number of packages	12. Method of packing	13. Nature of the goods	14. Gross weight in kg	15. Volume in m3
Marci si numere	Numar de colete	Mod ambalare	Natura marfurilor	Greutate Bruta	Volum m3
16 Special agreements between the sender and the carrier Acorduri speciale "intre expeditor si transportator"			17. To be paid by / Se va plati de catre:		Sender / Expeditor
			Carriage charges / Pretul transportului		
			Supplementary / Taxe suplimentare		
			Customs duties / Taxe vamale		
			Other charges / Alte taxe		
18. Other useful particulars / Alte informatii			19. Other useful particulars / Alte informatii		
20. This carriage is subject, notwithstanding any clause to the contrary, to the Convention on the Contract for the international Carriage of Goods by Road (CMR) / Acest transport este supus, in pofida oricarei clauze contrare, la Conventia privind contractul de transport international rutier de marfuri (CMR)					
21. Established in / Intocmit in on / la					
22. Signature or stamp of the sender / Semnatura si stampila expeditorului		23. Signature or stamp of the carrier / Semnatura si stampila transportatorului		24. Goods received / Marfuri primite Place Locul Signature or stamp of the consignee / Semnatura si stampila destinatar	

<http://cmr.transportator.info> © 2013 CMR Management by Rage Solutions - www.ragesolutions.ro . Colorange Web Design - www.colorange.com

Izoh: Chizmaning aniq mazmunini saqlab qolish va xalqaro iqtisodchilarga mo'ljallanganligi nuqtayi nazaridan tarjimaga qo'l urilmadi.

4.3.1-rasm. CMR deklaratsiyasi to'ldirish polisi

Raqamli innovatsiyalar: samaradorlikni oshirish, bojxona va tranzit sug'urtasi talablari bilan bog'liq xarajatlarni kamaytirish uchun elektron kuzatuv, bitta oynali tizimlar va aqlli skanerlar kabi raqamli vositalar joriy etildi. Masalan, CAREC koridorlari savdoni soddalashtirish uchun bunday tizimlarni joriy qildi.

Tovarlar uchun ixtisoslashgan siyosat: qishloq xo'jaligi eksporti, tez buziladigan tovarlar va xavfli materiallar qo'shimcha sug'urta va xavfsizlik choralari ayniqsa Mo'g'uliston va Xitoy yoki Afg'oniston va qo'shni davlatlar kabi mintaqalarni bog'laydigan koridorlarda talab qiladi,

Sug'urtalash transport koridorlarida barqaror iqtisodiy faoliyatni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Asosiy iqtisodiy faoliyat yo'nalishlari 4.3.2-rasmda keltirilgan.



4.3.2-rasm. Transport koridorlari faoliyatini sug'urtalashning iqtisodiy faoliyat yo'nalishlari

Xatarlarni kamaytirish. Transport koridorlari orqali o'tuvchi tovarlar turli xatarlarga duch keladi (masalan, avariya, tabiiy ofatlar, o'g'irlik yoki zarar). Sug'urta kompaniyalari ushbu xatarlarni qoplab, ishtirokchilarni moliyaviy yo'qotishlardan himoya qiladi.

Logistika samaradorligini oshirish. Sug'urta korxonalari transport operatorlariga xizmat ko'rsatib, tranzit jarayonlarining uzluksizligini ta'minlaydi. Bu xalqaro savdo va logistika faoliyatini yanada tezlashtiradi.

Xalqaro savdo va investitsiyalarni rag'batlantirish. Sug'urta xizmatlari tovar eksporti va importini qo'llab-quvvatlaydi, xorijiy investorlar uchun xatarsiz infratuzilma yaratishga yordam beradi.

Sug'urta bozorini rivojlantirish. Transport sug'urtasi sug'urta bozorida muhim yo'nalishlardan biri bo'lib, yangi xizmat turlarining joriy etilishiga zamin yaratadi.

O'zbekiston transport koridorlari va sug'urtalash faoliyati

Mamlakatimizning qulay geografik joylashuvi sababli O'zbekiston xalqaro transport koridorlarida muhim rol o'ynaydi. Sug'urtalash faoliyati quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda:

Markaziy Osiyo transport integratsiyasi: O'zbekiston "Trans-Afg'on koridori", "Toshkent-Ashxobod-Tehron-Bandar Abbas" yo'nalishlari orqali tranzit imkoniyatlarini oshirib, transport sug'urtasini rivojlantiradi.

Sug'urta kompaniyalari ishtiroki: Mamlakatda "O'zagrosug'urta", "O'zbekinvest" kabi sug'urta tashkilotlari xalqaro yuk tashish va tranzit xizmatlari uchun maxsus polislarni taklif etadi.

Yuklarni sug'urtalashda ularni transportirovkalash bilan bog'liq bo'lgan uchta guruh omillarini hisobga olish zarur:

✚ birinchidan, har bir transportirovkalash turining o'ziga xos bo'lgan tavakkalchilik hisoblanadi. Bu tavakkalchilik transport vositalarining ekspluatatsion xususiyatlari, transport vositasining ishlash muhiti, tashish marshruti (geografiyasi), ortish-tushirish xususiyatlari, o'lchash usullari va tashilayotgan yuklarning hajmini aniqlash xususiyatlariga bog'liq;

✚ ikkinchidan, asosan xalqaro yuk tashishlarda har xil transport turlarida tashish shartlari va tartibini belgilovchi xalqaro huquqiy me'yorlar va hujjatlar, tashish shartnomasida tashuvchi javobgarligining cheklanishi;

 uchinchi, yevropa va xalqaro sug'urta bozorlarida o'rnatilgan ish yuritish me'yorlari (standart kelishuvlar) va sug'urtaviy himoya qoidalari va shartlari.

Tashishni sug'urtaviy himoya qilishni tashkil qilishda hisobga olinishi shart bo'lgan transportirovkalash jarayoni bir qancha xususiyatlarga ega:

1) yuk egasi yiroqda va qoidaga ko'ra transportirovkanayotgan tovarning saqlanishi uchun tuzilgan o'zining mulkiy manfaatlarini nazorat qila olmaydi;

2) yuk egasi o'rnatilgan mamlakat va xalqaro me'yorlar doirasidagi o'zining mulkining saqlanishi uchun javobgarlikni tashuvchiga beradi, tashilayotgan yuk uchun javobgarlikni o'zida qoldiradi;

3) harakat davomida xavf xatarlarning turlicha bo'lishi va aniq kelishilmaganlik, tashishni amalga oshirayotganlarning malakasiga transport tarasi xususiyatlariga, transport vositalariga talablar tizimini keltirib chiqaradi;

4) ehtimoliy zararlarning halokatli xususiyati shundaki, yo'lovchi (yukni kuzatuvchilar va qo'riqlashni amalga oshirayotganlar), ekipaj, yuk, transport vositasining birgalikdagi halokati sababli transportirovkalash butunlay barbod bo'lishi mumkin;

5) transport vositasi va tashilayotgan yukning joriy holati haqidagi axborotning noaniqligi;

6) transportirovkalash jarayonida transport vositachilari – tashishni amalga oshiruvchi (qabul qilish, rasmiylashtirish, saqlash, bojxona amaliyotlari) tashkilotlarning qatnashishi qo'shimcha tavakkalchiliklarni keltirib chiqaradi;

7) tashuvchiga yuk egasining ko'rsatmalari mavjudligi va ularning qat'iy bajarilishiga talablar;

8) oraliq omborlarda yetarlicha uzoq muddat saqlanishi orqali qayta ortishlar. Kelib chiqish sabablari va xavf manbasiga bog'liq holda tavakkalchiliklarning quyidagi kategoriyalari mavjud:

1. Yer silkinishlariga taalluqli bo'lgan tabiiy ofatlar, tabiiy kataklizm, chaqmoq urishi, vulqon otilishi, bortdan suv yuvib ketishi, bo'ron, to'fon, suv toshqini, yer siljishi, atmosfera, temperatura va kondensat ta'siri va b.;

2. Inson faoliyati ta'siri. Bunda quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- yuklarni transportirovkalashni, shuningdek, transport vositasini tashishga tayyorlash ishlarini amalga oshiruvchi shaxslar tomonidan majburiy yoki ataylab qilingan harakatlar (umumiy avariya holatlar transportni saqlab qolish maqsadida yukni bortdan chiqarib tashlash, yong'ir, portlash kabi ofat yuz bergan joyda yukni tushirib tashlash, transport vositasini tayyorlashdagi xatolar, kemada yuk saqlanayotgan joyga dengiz suvining oqib qirishi, yuklarni yetkazib bera olmaslik va sh.k.);

- uchinchi shaxsning qasddan qilgan harakatlari (yukni yo'qotish va zararlantirishga qaratilgan bosqinchilik, talonchilik hujumi, qaroqchilar hujumi, transport vositasini buzib yukni o'g'irlash);

3. Amalda tabiiy ofat yoki uchinchi shaxsning harakatlari natijasi bo'lishi mumkin bo'lgan transport vositalarining avariya yoki to'qnashuvi (poyezdning relsdan chiqib ketishi, transport vositasining ag'darilishi, tashqi ob'yekt bilan to'qnashuvi, sudnaning sayoz joyga chiqib qolishi, qirg'oqqa chiqindilarning to'kilishi va b.).

Tavakkachilikning sug'urta orqali qoplanadigan, qoplanmaydigan va bulardan mustasno turlari mavjud.

Jahonda keng tarqalgan sug'urtalashning inglizcha shartlariga mos keladigan sug'urta bilan qoplanadigan tavakkachilik turlari ro'yxatini sug'urta bilan qoplashning standart shartlari deb nomlanuvchi ma'lum guruhlariga birlashtirish amaliyotda qabul qilingan. Standart shartlarga kiruvchi tavakkachilik ro'yxati transportirovkalash tartibiga bog'liq bo'ladi.

Hozirda yuklarni transport sug'urtalash qoidalariga muvofiq sug'urtaviy qoplash standart shartlarining uchta asosiy guruhi qo'llaniladi.

1. “Barcha tavakkalchiliklarga javobgarlik bilan”, unga ko‘ra quyidagi zararlar qoplanadi:

- sug‘urtalanuvchining javobgarligiga kirmaydigan holatlardan tashqari barcha holatlarda, yukning hammasi yoki bir qismi halokatga uchrashi yoki zararlanishi;

- umumiy avariya holatlar bo‘yicha to‘lovlar, xarajatlar va zararlar;

- yukni saqlab qolish uchun qilingan barcha zaruriy va maqsadga muvofiq ishlatilgan xarajatlar, shuningdek, zararni kamaytirish va agar yo‘qotishlar sug‘urta shartlari bo‘yicha qoplansa, uning qiymatini belgilash.

2. “Avariya qismi uchun javobgarlik bilan”, unga ko‘ra quyidagi zararlar qoplanadi:

- o‘t ketish, chaqmoq urish, bo‘ron, quyun, yer silkinishi, vulqon otilishi va boshqa tabiiy ofatlar, kema, samolyot va boshqa tashish vositalarining o‘zaro to‘qnashishi va ag‘darilishi yoki ularga harakatlanuvchi va harakatlanmaydigan jismlarning urilishi, kemaning suvi sayoz joyga chiqib ketishi, ko‘priklarning uzilib ketishi, portlash, kemaning muzga tegib buzilishi, suv kirishi, shuningdek o‘tni o‘chirish va qutqarish maqsadida qilingan tadbirlar natijasida yukning bir qismi yoki xammasi zararlanishi yoki to‘liq halokatga uchrashi;

- yuk tashish transport vositasining buzilishi yoki yuk bilan birgalikda yo‘qolib qolishi;

- yuklarni ortish, transport vositasiga joylashtirish, tushirish va yoqilg‘i quyish natijasida yukning bir qismi yoki xammasi zararlanishi yoki to‘liq halokatga uchrashi;

- umumiy avariya holatlar bo‘yicha to‘lovlar, xarajatlar va zararlar;

- yukni saqlab qolish uchun qilingan barcha zaruriy va maqsadga muvofiq ishlatilgan xarajatlar, shuningdek, zararni kamaytirish va agar yo‘qotishlar sug‘urta shartlari bo‘yicha qoplansa, uning qiymatini belgilash.

3. “Ag‘darilish holatlaridan tashqari, zararlanish uchun javobgarliksiz”, unga ko‘ra quyidagi zararlar qaytariladi:

- o't ketish, chaqmoq urish, bo'ron, quyun, yer silkinishi, vulqon otilishi va boshqa tabiiy ofatlar, kema, samolyot va boshqa tashish vositalarining o'zaro to'qnashishi va ag'darilishi yoki ularga harakatlanuvchi va harakatlanmaydigan jismlarning urilishi, kemaning suvi sayoz joyga chiqib ketishi, ko'priklarning uzilib ketishi, portlash, kemaning muzga tegib buzilishi, suv kirishi, shuningdek o'tni o'chirish va qutqarish maqsadida qilingan tadbirlar natijasida yukning bir qismi yoki hammasi zararlanishi yoki to'liq xalokatga uchrashi;

- yuk tashish transport vositasining buzilishi yoki yuk bilan birgalikda yo'qolib qolishi;

- yuklarni ortish, transport vositasiga joylashtirish, tushirish va yoqilg'i quyish natijasida yukning bir qismi yoki hammasi zararlanishi yoki to'liq halokatga uchrashi;

- umumiy avariya holatlar bo'yicha to'lovlar, xarajatlar va zararlar;

- yukni saqlab qolish uchun qilingan barcha zaruriy va maqsadga muvofiq ishlatilgan xarajatlar, shuningdek, zararni kamaytirish va agar yo'qotishlar sug'urta shartlari bo'yicha qoplansa, uning qiymatini belgilash;

- samolyot, kema va boshqa tashish vositalarining o'zaro to'qnashishi, ag'darilishi yoki ularga harakatlanuvchi, harakatlanmaydigan (uchuvchi) jismlarning urilishi, kemaning suvi sayoz joyga chiqib qolishi, kemada, samolyotda yoki boshqa tashish vositasida portlash yoki yong'in kelib chiqishi natijasida yukning zararlanishidan ziyon ko'rish.

Sug'urta qilinuvchi va sug'urta qiluvchining kelishuvchiga ko'ra transportirovkalash va sug'urtalangan yuklarning turlariga bog'liq holda sug'urtaviy qoplashning aniq usuli tanlanadi.

Sug'urtalanmaydigan tavakkalchilik – bu qonun kuchi bilan yoki boshqa ob'yektiv sabablar kuchi bilan sug'urtalanadigan tavakkalchilikdir. Transport turining xususiyatlari, ularni ekspluatatsiya qilish sharoitlari, turli transport turlarida foydalaniladigan shu yoki boshqa variatsiyalar hisobiga qoplanishdan qat'iy nazarat

ular umumiy cheklovlarni o'zida namoyon etadi. Bunday tavakkalchiliklarga quyidagilar kiradi:

1) sug'urtalanuvchining yovuz niyatli harakatlari, o'g'irlanishlar natijasida yuzaga kelgan zarar yoki halokatlar;

2) sug'urtalanagan yukning tayyorlanishi va konstruksiyasidagi xatolar. Bunda shu yoki boshqa mahsulotni tayyorlovchiga taalluqli tijoriy tavakkalchilik haqida gap ketadi.

3) tashqi upakovkaning butunligi holatida yukning kamayishi;

4) oddiy savdo upakovkasidagi xatolik yoki kamchilik (brak, defekt). Ushbu ziyonni sug'urtalash mumkin emas, chunki yukni sug'urtalovchi hisobiga upakovkalash uchun xarajatlarni iqtisod qilishga har qanday holatda ham yo'l qo'yib bo'lmaydi;

5) ortish(tushirish) tartibi, agar sug'urta qiluvchi yoki foyda ko'ruvchi yoki ularning vakillari ortish(tushirish) ishlarini mustaqil ravishda bajarsa mahlum kamchiliklarga yo'l qo'yadi yoki maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Jalb qilingan maxsus korxonalar tomonidan bajarilgan ortish-tushirish ishlari uchun xarajatlar yuklarni sug'urtalash hisobiga iqtisod qilinishi mumkin emas;

6) agar tashish shartlarida boshqacha ko'zda tutilgan bo'lsayu, transport vositasiga me'yoridan ortiq ortilsa. Agar sug'urtalovchilar yoki foyda ko'ruvchilar yoki ularning vakillari bunday harakatlarni bilmasa va ularni bajarmagan bo'lsa, boshqacha aytganda ko'rsatilgan holat sug'urtalanuvchi tomonidan bilmasdan amalga oshirilsa bu tavakkalchilik sug'urtalanadi;

7) bojxona va boshqa rasmiy me'yorlar, tashuvchining yo'l-yo'riqlari yoki ortish bo'yicha ko'rsatmalarning buzilishi, shuningdek sud qarori yoki uning majburiy bajarilishiga rioya qilmaslik;

8) havoning namligi yoki temperatura o'zgarishi;

9) ichki buzilish, kirishish, qurish, sochilib ketish, to'liq emaslik, o'lchami kam, achish va chirish kabilar sug'urtali holat bo'lmagan oddiy transportirovklash holatlarida doimiy ravishda mavjud bo'lsa;

10) oldindan zararlangan (sifatsiz) yuklar, zararlangan yuklar va keyinchalik zararlanishga o'ta moyil bo'lgan upakovkasi buzilgan yuklar. Agar transportirovkalash boshlanguncha mavjud bo'lgan buzilish transportirovkalash davomida yuklarga shikast yetkazmasa faqat ushbu holatlardagina sug'urtachilar zararni qoplashadi;

11) yukni yetkazib berishning sekinlashganligi va uning narxining tushib ketishi;

12) atom portlashi najasining to'g'ri yoki qisman ta'siri, radiatsiyadan zaharlanish;

13) kemiruvchilar, qurt-qumursqalar va xasharotlar tomonidan yuklarning zararlanishi;

14) me'yorlarga binoan tashuvchining javobgarligi va har bir yuk uchun o'rnatilgan cheklov me'yorlari;

15) qayta ortish va qayta tushirishlarda yuklarni o'lchashning turli usullari.

Umumiy cheklovlarga qo'shimcha ravishda istisnalar qo'llaniladi va u o'z tabiatiga ko'ra odatda sug'urtalanmaydi, lekin zaruratga ko'ra tavakkalchilik darajasiga muvofiq qo'shimcha sug'urta mukofotlari evaziga sug'urtalanadi. Ular:

- harbiy tavakkalchilik, qaroqchilar harakati, terroristik aktlar;
- zararlanish tavakkalchiligi yoki qo'zg'olonlar, ommaviy tartibsizliklar, uchinchi shaxslarning yovuz niyatli harakatlari natijasida yuklarning yo'qolishi;
- yuklarni yetkazib bermaslik va o'g'irlash, bosqinchilik tavakkalchiligi.

Yuklarni sug'urtalash shartnomasini tuzishdan oldin tavakkalchilik darajasini baholash uchun quyidagilarga oydinlik kiritish lozim:

- tashish turi, ichki yoki xalqaro;
- yuk kimga tegishli, yetkazib berishning bazisli shartlari;
- yuk qaysi transport turida tashiladi (temir yo'l, avtomobil, aviya, suv yoki aralash). Shularga bog'liq holda tashish qaysi transport vositasi tipida tashishlishi aniqlanadi:

a) temir yo‘l transporti uchun: 20-40-futli konteynerlar, vagonlar (ochiq yoki yopiq), platforma;

b) avtomobil uchun: tentli, metall kuzovli yoki ochiq kuzovli, platforma, konteyner shassida va shu kabilar hamda ularning yuk ko‘tara olish qobiliyati;

v) avia uchun: samolet (vertolyot) tipi, uning kimga tegishliligi, yuk ko‘tarish qobiliyati;

g) suv transporti uchun: sudna (lixter, tanker, konteyner tashuvchi suv kemasi) klassi, registr klassi (dengiz, daryo, o‘zi yurar va x.k.), sudaning ishlab chiqarilgan sanasi, yuk palubada tashiladimi yoki tryumda;

- yukning upakovkasi: konteynerdami, uyuluvchi, sochiluvchi, suyuq, palletlangan. Agar upakovkasi bo‘lsa, u tashqi ta’sirga chidamlimi?;

- tashish masofasi va yo‘ldagi vaqt, qayta ortish joylaridagi ko‘zlangan saqlash vaqti;

- jo‘natish punktlari: qayta ortish (perevalka), oraliq omborlarda yuklarni saqlash muddati, harakat yo‘nalishi (marshruti);

- qo‘riqlash xizmatining mavjudligi; uning qaysi korxonaga tegishliligi, qurollanganligi, yukga nisbatan shartnomaviy mulkiy javobgarlikka egami va boshqalar;

- yuk nomi (uning xususiyatlari – asosiy yuklarmi yoki maxsus yuklar, tavsifiy xususiyatlari);

- yuk o‘rni soni, bir yuk o‘rning qiymati, uning o‘rtacha og‘irligi;

- umumiy sug‘urtaviy summa;

- oldingi davrlarning zarari;

- tabiiy yo‘qolishlar va transportirovkalashda yo‘qolishlar me’yori.

Yuqorida keltirilgan sabablar, sug‘urtalashdagi ko‘zda tutilgan va tutilmagan risklarni sanab o‘tilgan, tavakkalchilik va bularning barchasi kerakli ma’lumotlar hisoblanadi.

O'zbekistonning sug'urta va transport koridorlari bo'yicha faoliyati xalqaro savdo imkoniyatlarini kengaytirish va regional integratsiyani mustahkamlashda muhim o'rin tutadi.

Sug'urtani raqamlashtirish hozirgi zamonda sug'urta sohasini samaradorlik, tezlik, va shaffoflikka erishish yo'lida transformatsiya qilmoqda. Raqamli texnologiyalar bu sohada bir qancha yangilik va qulayliklar yaratib, sug'urta xizmatlarini takomillashtiradi.

Transport koridorlari global savdo va iqtisodiyotning ajralmas qismi hisoblanadi. Ular orqali xalqaro tovarlar va xizmatlar tez va samarali tarzda almashiladi, bu esa iqtisodiy o'sish va bozorlarning kengayishiga olib keladi. Yevropa va Osiyo transport koridorlari o'zining innovatsion va xalqaro aloqalarini sug'urtalash tizimlari bilan qo'llab-quvvatlaydi. Yevropada sug'urtalash tizimi yuqori raqamlashtirish darajasiga ega bo'lsa, Osiyoda ko'proq an'anaviy tizimlar ishlatilmoqda, lekin raqamli texnologiyalar asta-sekin rivojlanmoqda.

Transport koridorlarini sug'urtalashning iqtisodiy faoliyati mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi, mamlakat ichidagi iqtisodiy integratsiyani rag'batlantiradi va xavflarni kamaytiradi. Sug'urtalashning iqtisodiy faolligi nafaqat transport xavfsizligini ta'minlashga, balki xalqaro savdo va investitsiyalarni qo'llab-quvvatlashga ham yordam beradi.

Samaradorlikni oshirish	Xarajatlarni kamaytirish	Yangi mijozlarga kirish
- Sugʻurta polislarini onlayn olish va boshqarish imkoniyati mijozlarga vaqtni tejaydi. - Daʼvolarni koʻrib chiqish jarayonining avtomatlashtirilishi tezkor xizmatni taʼminlaydi.	Raqamli tizimlar qogʻozbozlikni kamaytirib, operatsion xarajatlarni sezilarli darajada qisqartiradi.	Mobil ilovalar va onlayn platformalar orqali sugʻurta kompaniyalari global miqyosda xizmat koʻrsatadi.

4.3.3-rasm. Sugʻurtani raqamlashtirishning afzalliklari

Zamonaviy texnologiyalar va raqamlashtirish sugʻurta jarayonlarini tezlashtiradi, samaradorlikni oshiradi va shaffoflikni taʼminlaydi. IoT, sunʼiy intellekt va blokcheyn kabi texnologiyalar sugʻurtalash tizimlarini yanada takomillashtirib, xavfni aniq baholash va jarayonlarni avtomatlashtirish imkoniyatlarini yaratadi. Bu texnologiyalar nafaqat sugʻurta jarayonlarini tezlashtiradi, balki xatolarni kamaytiradi va mijozlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Umuman olganda, transport koridorlarini sugʻurtalashda innovatsiyalar, xalqaro hamkorlik va raqamli yechimlar iqtisodiy oʻsishning muhim turtki boʻlib xizmat qiladi. Bunday tizimlarning rivojlanishi, xavf va zararni kamaytirish, shuningdek, global savdoning yanada samarali amalga oshirilishiga olib keladi.

4.4. Raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar yordamida optimal yo‘nalishlarni aniqlash imkoniyatlari

Raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar zamonaviy iqtisodiyotda ahamiyatli o‘rin tutib, transport va logistika tizimlarining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Global miqyosda bu texnologiyalarni joriy etish, nafaqat yuk tashish, balki barcha transport tarmoqlarining optimallashtirilishiga imkon yaratadi. Yuqori samarali va raqamli tizimlar yordamida optimal transport yo‘nalishlarini aniqlash, resurslarni tejash va vaqtni qisqartirish kabi muhim vazifalarni hal etish mumkin. Shu bilan birga, bugungi kunda jahon miqyosida raqamli texnologiyalar, masalan, sun‘iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data), aqlli transport tizimlari va IoT (Internet of Things) texnologiyalari yordamida transport yo‘nalishlarini optimallashtirish borasida bir qator innovatsion loyihalar amalga oshirilmoqda.


O‘zbekiston uchun ham raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etish, transport va logistika sohasida o‘rishni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonning transport infratuzilmasining modernizatsiyasi, raqamli tizimlarga asoslangan yangi yechimlarni yaratishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Raqamli O‘zbekiston” dasturi doirasida transport sohasida innovatsiyalarni qo‘llash va raqamli tizimlarni joriy etish uchun ko‘plab yangi tashabbuslar ilgari surilmoqda. Bu islohotlar optimal yo‘nalishlarni aniqlash va transport tarmoqlarining samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Natijada, raqamli texnologiyalar yordamida transport sohasidagi muammolarni hal qilish va yurtimizning global logistika tizimidagi o‘rnini mustahkamlash uchun katta imkoniyatlar ochiladi.

Raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar yordamida transport sohasida optimal yo‘nalishlarni aniqlash imkoniyatlari 4.4.1-jadvalda keltirilgan.

Aqlli Transport Tizimlari (ITS). Aqlli transport tizimlari (ITS) yordamida transport yo‘nalishlari va yo‘nalishlardagi harakatlar samarali kuzatiladi. Katta ma’lumotlar (Big Data) va sun‘iy intellekt yordamida transport tarmoqlarida real

vaqtda ma'lumotlar yig'ilib, yo'llar va transport vositalarining ishlashini optimallashtirish mumkin. ITS tizimlari avtomatik ravishda eng yaxshi yo'nalishlarni belgilash, transport tarmog'ining yuklanishini kamaytirish va yo'l harakati xavfsizligini oshirishga xizmat qiladi.



4.4.1-jadval. Raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar yordamida transport sohasida optimal yo'nalishlarni aniqlash imkoniyatlari

Sun'iy Intellekt va Mashina O'rganish (AI & ML). Sun'iy intellekt va mashina o'rganish algoritmlari transport yo'nalishlarini aniqlashda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Bu texnologiyalar yordamida transport tizimidagi katta ma'lumotlar tahlil qilinadi va yo'nalishlar bo'yicha optimal qarorlar qabul qilinadi. Yo'l harakati ma'lumotlari, ob-havo sharoitlari, trafik tarmog'ining holati va boshqa omillarni hisobga olgan holda, eng samarali va tezkor yo'nalishlar tanlanadi.

Geoinformatsion tizimlar (GIS). Geoinformatsion tizimlar yordamida transport yo'nalishlarining geografik joylashuvi va harakatini tahlil qilish mumkin. GIS texnologiyalari orqali transport yo'nalishlarini optimallashtirish, yangi yo'llar qurish va mavjud yo'llarning samaradorligini oshirish imkoniyatlari yaratiladi. Bu tizimlar, masalan, yo'lni tanlashda eng qisqa va eng xavfsiz yo'nalishlarni aniqlashda yordam beradi.

Internet of Things (IoT). IoT texnologiyalari yordamida transport vositalari va yo‘llar o‘rtasida real vaqtda ma’lumotlar almashinuvini ta’minlash mumkin. IoT qurilmalari, masalan, avtomobilning holatini, yo‘l holatini yoki to‘siqlarning mavjudligini monitoring qiladi, shuningdek, bu ma’lumotlar orqali yo‘nalishlarni optimallashtirish uchun yangi imkoniyatlar ochiladi.

Raqamli Platformalar va Mobil Ilovalar. Raqamli platformalar va mobil ilovalar orqali foydalanuvchilarga optimal yo‘nalishlarni aniqlashda yordam beruvchi xizmatlar taqdim etiladi. Bu ilovalar transport tarmog‘ining harakatlanish jadvalini, yo‘l holatini va boshqa ma’lumotlarni foydalanuvchiga taqdim etib, eng samarali yo‘nalishlarni tanlash imkonini beradi. Ular, shuningdek, transport sohasida real vaqt ma’lumotlarini taqdim etish, oqilona yo‘nalishlarni yaratish va foydalanuvchilarni harakatlanishning optimal yo‘nalishlari haqida ogohlantirish imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar yordamida optimal yo‘nalishlarni aniqlash imkoniyatlari, transport va logistika sohasidagi samaradorlikni sezilarli darajada oshirishga yordam beradi. Aqlli transport tizimlari, sun‘iy intellekt, mashina o‘rganish, geoinformatsion tizimlar va IoT texnologiyalari transport tarmoqlarining boshqarilishini yanada optimallashtirib, resurslarni tejash va harakatni tezlashtirish imkoniyatlarini yaratadi. Bu innovatsiyalar orqali transport yo‘nalishlari eng qisqa, xavfsiz va samarali tarzda aniqlanadi, shuningdek, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda katta rol o‘ynaydi. O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlar uchun raqamli texnologiyalarni joriy etish, nafaqat transport sohasining samaradorligini oshiradi, balki iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, mintaqaviy va global transport tizimlarida raqobatbardoshlikni kuchaytirishga yordam beradi. Shunday qilib, raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarni transport tizimiga integratsiya qilish, har bir davlat va mintaqaning rivojlanish strategiyasida muhim omilga aylanishi kutilmoqda.

Asosiy tushunchalar

Geografik Axborot Tizimlari (GIS) – bu ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish, saqlash va vizualizatsiya qilish uchun ishlatiladigan texnologiyadir. GIS, geografik joylashuvni, yo'llar va transport tarmoqlarining holatini tahlil qilishda yordam beradi.

Sun'iy Intellekt (AI) – bu kompyuter tizimlarining inson aqlini taqlid qilish qobiliyatidir. AI yordamida transport tizimlaridagi katta ma'lumotlarni tahlil qilish, qaror qabul qilish jarayonlarini avtomatlashtirish va optimallashtirish mumkin.

Mashinaviy O'rganish (ML) – bu sun'iy intellektning bir bo'lagi bo'lib, kompyuterlarga o'z tajribalaridan o'rganish va qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Kiberxavfsizlik tahdidlari – bu internet va boshqa raqamli tarmoqlarda transport tizimlariga va axborot infratuzilmasiga zarar yetkazish yoki noxush natijalarga olib kelish imkoniyatiga ega bo'lgan xakerlik hujumlari va boshqa xavf-xatarlarni anglatadi.

Sug'urtalash – bu transport tizimlari va infratuzilmasiga keladigan zararlarni oldini olish yoki kamaytirish maqsadida moliyaviy himoya vositasi sifatida ishlatiladi.

Aqlli Transport Tizimlari (ITS) – bu transport tizimlarining samaradorligini oshirish uchun raqamli texnologiyalarni joriy etishdir.

Internet of Things (IoT)– bu qurilmalar va tizimlarning internet orqali o'zaro bog'lanishini ta'minlovchi texnologiya bo'lib, transport tizimlari uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Nazorat savollari:

1. Xalqaro transport koridorlarini optimallashtirish va eng qisqa yo'nalishlarni aniqlashning qanday usullarini bilasiz?
2. Xalqaro transport koridorlarini optimallashtirish usullarini tavsiflab bering.
3. Transport yo'nalishlarining xavfsizligini ta'minlash deganda nimani tushunasiz?

4. Bugungi kunda transport sohasini rivojlanishiga ta'sir qiluvchi geosiyosiy barqarorlik masalalarini hal qilish uchun qanday chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda?
5. Xalqaro transport koridorlaridan samarali foydalanishda sug'urtalashning ahamiyati qanday?
6. Yevropa va Osiyodagi transport koridorlarini sug'urtalash tajribasi haqida gapirib bering.
7. Transport koridorlari faoliyatini sug'urtalashning iqtisodiy faoliyat yo'nalishlari nimalardan tashkil topgan?
8. Sug'urtani raqamlashtirishning afzalliklari nimalardan iborat?
9. Raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar yordamida optimal yo'nalishlarni aniqlash imkoniyatlari haqida nimalarni bilasiz?
10. Transport sohasida kiberxavfsizlik tahdidlarining bugungi kundagi ta'siri qanday?

Case study

Masala: Xitoyning “Yangi Ipak Yo‘li” tashabbusi (Belt and Road Initiative, BRI) global savdo va transport tarmoqlarini modernizatsiya qilish va optimallashtirishga qaratilgan keng miqyosli loyiha bo‘lib, Osiyo va Yevropa o‘rtasidagi transport aloqalarini mustahkamlashga yo‘naltirilgan. Ushbu tashabbus doirasida, Xitoy, Markaziy Osiyo mamlakatlari va Yevropa o‘rtasida temir yo‘l va avtomobil yo‘llari orqali yangi transport koridorlarini yaratish va mavjudlarini modernizatsiya qilish ko‘zda tutilgan.

Topshiriqlar:

1) **Ma'lumot yig'ish:** “Yangi Ipak Yo‘li” tashabbusining geografik yo'nalishlarini, yo'nalish bo'yicha transport tarmoqlari va logistika markazlarini aniqlash.

2) **GIS texnologiyasidan foydalanish:** Ushbu transport yo‘nalishlarining optimal qismlarini aniqlash uchun GIS yordamida transport tizimlarini va yo‘l sharoitlarini tahlil qilish.

3) **Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash:** IoT va aqlli transport tizimlarining transport koridorlarida qanday qo‘llanilishini o‘rganish va bu texnologiyalarning samaradorligini baholash.

5-BOB. YEVROPA QIT'ASIDA TRANSPORT KORIDORLARINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

5.1. Trans -Yevropa transport tarmog'i (TEN-T) haqida umumiy tushuncha

5.2. Yevropaning to'qqizta asosiy tarmoq koridorlari tavsifi

5.3. Yevropa transport koridorlarini boshqaruvchi va moliyalashtiruvchi agentliklar

5.4. Yevropa transport koridorlarining rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi muammolar

5.1. Trans -Yevropa transport tarmog'i (TEN-T) haqida umumiy tushuncha

Yevropa qit'asida transport koridorlarining rivojlanishi mintaqaviy integratsiya, infratuzilma modernizatsiyasi va ekologik barqarorlik tamoyillariga asoslanmoqda. Yevropa Ittifoqi Trans-Yevropa transport tarmog'i (TEN-T) doirasida multimodal yo'laklarni kengaytirish, raqamlashtirish va yashil energiyadan foydalangan holda transport tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Bu jarayon Yevropa davlatlari o'rtasidagi savdo aloqalarini mustahkamlash, yuk tashish xarajatlarini optimallashtirish va qit'aning global logistika markazi sifatidagi rolini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Yevropa Komissiyasi 1990-yilda trans-yevropa tarmoqlari bo'yicha birinchi harakat rejalarini qabul qilgan.

TEN-T asosiy yo'llar, temir yo'llar, ichki suv yo'llari, aeroportlar, dengiz portlari, ichki portlar va harakatni boshqarish tizimlarini muvofiqlashtirilgan takomillashtirishni nazarda tutadi, bu integratsiyalashgan va intermodal uzoq masofali, yuqori tezlikdagi marshrutlarni ta'minlaydi. TEN-Tni qabul qilish to'g'risidagi qaror 1996-yil iyul oyida Yevropa Parlamenti va Kengashi tomonidan qabul qilingan. Yevropa Ittifoqi yetakchilik, muvofiqlashtirish, yo'riqnomalar chiqarish va rivojlanishning moliyalashtirish aspektlari kombinatsiyasi orqali tarmoqlarni ilgari surish uchun ishlaydi.

Ushbu loyihalar 2013-yil 31-dekabrda Trans-Yevropa transport tarmog'i ijrochi agentligi (TEN-T EA) o'rnini bosgan Innovatsiyalar va tarmoqlar bo'yicha Ijroiya agentligi (INEA) tomonidan texnik va moliyaviy jihatdan boshqariladi.

O'ninchi va eng yangi loyiha Reyn-Dunay yo'lagi, 2014–2020 moliyaviy davr uchun e'lon qilindi.

TEN-T ko'rsatmalari dastlab 1996-yil 23 iyulda Yevropa Parlamenti va Hamjamiyat Kengashining Trans-Yevropa transport tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha № 1692/96/EC qarori bilan qabul qilingan. 2001-yil may oyida Yevropa Parlamenti va Kengash № 1346/2001/EC qarorini qabul qildi, unda dengiz portlari, ichki portlar va intermodal terminallarga nisbatan TEN-T yo'riqnomasiga o'zgartirishlar kiritildi.

2004-yil aprel oyida Yevropa Parlamenti va Kengash 884/2004/EC qarorini qabul qildi (884/2004/EC qarori bilan ro'yxatga qo'shildi), 1692/96/EC № 1692/96/EC qaroriga o'zgartirishlar kiritdi. Trans-Yevropa transport tarmog'i 2004 yil aprel oyidagi qayta ko'rib chiqish TEN-T siyosatiga yanada tubdan o'zgartirish bo'lib, Yevropa Ittifoqining kengayishi va natijada transport oqimidagi o'zgarishlarga moslashishga qaratilgan edi .

TEN-T ning rivojlanishiga 1994 yilda bir qator ustuvor loyihalarni o'z ichiga olgan taklif yordam berdi. 2013 yil dekabr oyida (YI) 1315/2013 (TEN-T yo'riqnomasi) va (YI) 1316/2013 (Yevropani ulash 1) qoidalari bilan TEN-T tarmog'i uchta darajada, keng qamrovli tarmoq va Yadro tarmog'i va u yerda 9 yadroli tarmoq koridorlari mavjud edi.

2013 yil 17 oktyabrda to'qqizta asosiy tarmoq koridorlari (30 ta TENT Priority loyihalari o'rniga) e'lon qilindi. Bular:

1. Boltiqbo'yi -Adriatik koridori (Polsha-Chexiya/Slovakiya-Avstriya-Italiya);
2. Shimoliy dengiz-Boltiq koridori (Finlyandiya – Estoniya – Latviya – Litva – Polsha – Germaniya – Niderlandiya/Belgiya);
3. O'rta yer dengizi yo'lagi (Ispaniya – Fransiya – Shimoliy Italiya – Sloveniya – Xorvatiya – Vengriya);
4. Sharq /Sharq-O'rta koridor (Germaniya-Chexiya-Avstriya/Slovakiya Vengriya-Ruminiya-Bolgariya-Gretsiya-Kipr);
5. Skandinaviya – O'rta yer dengizi yo'lagi (Finlyandiya – Shvetsiya – Daniya

– Germaniya – Avstriya – Italiya);


6. Reyn -Alp yo‘lagi (Niderlandiya/Belgiya-Germaniya-Shveytsariya-Italiya);

7. Atlantika koridori (ilgari *Lissaboa-Strasburg koridori* nomi bilan mashhur)
(Portugaliya-Ispaniya-Fransiya);

8. Niderlandiya – Belgiya – Lyuksemburg – Marsel (Fransiya),

9. Reyn – Dunay koridori (Germaniya–Avstriya–Slovakiya–Vengriya–
Ruminiya filiali bilan Germaniya–Chexiya–Slovakiya).

5.1.1-rasmda Trans-Yevropa transport tarmog‘i (TEN-T)ning 9 ta yo‘lagining umumiy ko‘rinishi tasvirlangan.



Izoh: Chizmaning aniq mazmunini saqlab qolish va xalqaro iqtisodchilarga mo‘ljallanganligi nuqtayi nazaridan tarjimaga qo‘l urilmadi.

5.1.1-rasm. Trans -Yevropa transport tarmog‘i (TEN-T)ning 9 ta yo‘lagining umumiy ko‘rinishi⁵⁴

Yevropa transport koridorlarining rivojlanishi katta miqdorda moliyaviy resurslarni talab qiladi. Loyiha moliyalashtirishida yuzaga keladigan cheklovlar, ayniqsa, davlat byudjetlarining qashshoqligi va investitsiya taqchilligi, transport infrastrukturasini rivojlanishini sekinlashtirishi mumkin. Shuningdek, moliyaviy bo‘shliqlar va moliyaviy risklar, xususiy va jamoat sektori o‘rtasida hamkorlikni murakkablashtiradi.

2. Siyosiy va normativ muammolar

Turli mamlakatlar o‘rtasidagi siyosiy farqlar, transport siyosatining bir-biriga mos kelmasligi, va normativ muammolar, Yevropa transport koridorlarini boshqarishda va rivojlantirishda to‘sqinlik qiladi. Har bir davlatning o‘ziga xos siyosati va qonunlari, koridorlar bo‘ylab transchegaraviy hamkorlikni qiyinlashtiradi. Bu, ayniqsa, xavfsizlik, ekologik talablar va bo‘linadigan resurslar (masalan, yer va suv manbalari) kabi masalalarda ko‘zga tashlanadi.

3. Texnologik va innovatsion to‘sqinliklar

Yevropa transport koridorlarining rivojlanishida texnologik infrastrukturani yangilash va innovatsion texnologiyalarni joriy etish katta rol o‘ynaydi. Ammo ba’zi mamlakatlar hali ham eski infratuzilma va texnologiyalardan foydalanishda davom etmoqda. Bu, transport tizimlarining modernizatsiyasini va ekologik jihatdan toza transport vositalarini ishlab chiqishni sekinlashtiradi.

4. Ekologik cheklovlar va barqarorlik masalalari

Yevropa Ittifoqi ekologik barqarorlikka katta ahamiyat beradi va bu, transport koridorlarining rivojlanishiga ta’sir qiluvchi muhim omil hisoblanadi. Karbon chiqindilarini kamaytirish, ekologik toza transport tarmoqlarini yaratish va atrof-muhitni himoya qilish talablariga rioya qilishda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Bu holatlar, ayniqsa, yangi loyihalar va eski infratuzilmani modernizatsiya qilish jarayonida muhim to‘siqlarni keltirib chiqaradi.

5. Infratuzilma va yer resurslari bilan bog‘liq muammolar

Yevropa transport koridorlarini rivojlantirish uchun ko‘plab yangi infrastrukturani qurish va eski infratuzilmani yangilash zarur. Ammo bu, o‘z navbatida, yer resurslari bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Yangi yo‘llar, temiryo‘llar, portlar va aeroportlar qurilishi uchun zarur yer maydonlarini ajratish, aholi punktlarida amalga oshirilishi kerak bo‘lgan loyihalar bilan bog‘liq ijtimoiy qarshiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

6. Tashish va transport tizimlarining notekis rivojlanishi

Yevropa transport tarmoqlari o‘rtasida notekis rivojlanish mavjud. Ba’zi koridorlar va davlatlar juda ilg‘or va samarali tizimlar bilan ta’minlangan, boshqalarida esa transport infratuzilmasi hali rivojlanmagan. Bu notekislik, transport tizimlarining integratsiyasini sekinlashtiradi va bir mamlakatdan boshqasiga o‘tishdagi logistika muammolarini keltirib chiqaradi.

7. Transchegaraviy va milliy koordinatsiyaning yetishmasligi

Yevropa transport koridorlari ko‘pincha bir nechta mamlakatlarni o‘z ichiga oladi, shuning uchun transchegaraviy koordinatsiya zarur. Ammo, ba’zi holatlarda, davlatlar o‘rtasida transport strategiyalarini muvofiqlashtirishda muammolar mavjud. Mamlakatlar o‘rtasidagi transchegaraviy to‘siqlar, misol uchun, chegara tekshiruvlari, bojxona tartiblari va transport qoidalaridagi farqlar, koridorlar bo‘ylab samarali va tezkor harakatni qiyinlashtiradi.

8. O‘zgartirilgan transport ehtiyojlari

Yevropa transport koridorlarining rivojlanishiga to‘sqinlik qiladigan yana bir muammo, o‘zgartirilgan transport ehtiyojlaridir. Pandemiya va global iqtisodiy o‘zgarishlar, transport tizimlariga bo‘lgan talabni sezilarli darajada o‘zgartirdi. Elektron tijoratning o‘sishi, yangi transport turlariga ehtiyojning ortishi va transportning raqamli transformatsiyasi, an’anaviy transport tizimlarining moslashishiga to‘sqinlik qilishi mumkin.

9. Kuchli raqobat va notekis raqamli infratuzilma

Yevropa transport koridorlarining rivojlanishida raqamli texnologiyalar muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, ba'zi mamlakatlarda raqamli infratuzilmaning zaifligi yoki unga kirish imkoni cheklangan. Bundan tashqari, transport sektori bo'yicha kuchli raqobat ham mavjud, bu yangi transport tarmoqlarini rivojlantirishga to'sqinlik qilishi mumkin.

Yevropa transport koridorlarining rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi muammolarni hal qilish uchun mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, moliyaviy resurslarni ko'paytirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va transport siyosatlarini yagona tizimda ishlab chiqish zarur hisoblanadi.

Asosiy tushunchalar

Trans-Yevropa transport tarmog'i (TEN-T) – Yevropa Ittifoqi bo'ylab avtomobil, temir yo'l, havo va dengiz transportini birlashtiruvchi yirik infratuzilma loyihasi bo'lib, iqtisodiy integratsiya va logistika samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Intellectual transport tizimlari (ITT) – transport va yo'l harakati xavfsizligini oshirish, trafik oqimini samarali boshqarish hamda ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llaydigan tizimlar majmuasi.

Traffic Flow diapazonlari – yo'l harakati zichligini, transport vositalari harakatining silliqqligini va umumiy trafik samaradorligini baholashga yordam beruvchi parametrlar majmuasi.

Monitoring tizimi – yo'l harakati, transport vositalari harakati va infratuzilma holatini real vaqt rejimida kuzatib borish va tahlil qilish uchun mo'ljallangan texnologik tizim.

Yo'l harakati ma'lumotlari tizimi – yo'llardagi harakat, tirbandliklar, ob-havo sharoiti va transport vositalari harakati haqida real vaqt rejimida ma'lumot taqdim etuvchi tizim.

Yo‘l harakati boshqaruvi tizimi – yo‘l harakatining xavfsizligi va samaradorligini oshirish maqsadida transport oqimini tartibga solish va boshqarish uchun mo‘ljallangan avtomatlashtirilgan tizim.

Kooperativ ITT – transport vositalari, yo‘l infratuzilmasi va axborot tizimlari o‘rtasida real vaqt rejimida ma’lumot almashinuvini ta’minlovchi innovatsion transport texnologiyalari majmuasi.

Transchegaraviy va milliy koordinatsiya – turli mamlakatlar o‘rtasidagi transport siyosatini muvofiqlashtirish, xalqaro yo‘nalishlarni samarali boshqarish va transport oqimlarini optimallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi.

Nazorat savollari:

1. Trans-Yevropa transport tarmog‘i (TEN-T) haqida umumiy tushunchangizni gapirib bering.
2. Yevropa transport koridorlari nechta? Nomlarini aytib bering.
3. Yevropa transport koridorlarining qanday turlari mavjud?
4. Intellektual transport tizimlarining muhimligi qmday?
5. Yevropa transport tizimining samaradorligini oshirish uchun koridor bo‘ylab qanday infratuzilma loyihalari amalga oshirilmoqda?
6. Yevropa transport koridorlarini boshqaruvchi va moliyalashtiruvchi agentliklardan qaysilarini bilasiz?
7. Yevropa transport koridorlarining rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi qanday muammolar mavjud?

Case Study

Masala: Yevropa transport koridorlarining rivojlanishi ekologik va texnologik omillarga asoslanib, barqaror va samarali tizimlarni yaratishga qaratilgan. Biroq, ekologik talablarga javob berish va raqamli transformatsiyani amalga oshirishda ba'zi muammolar mavjud.

Topshiriqlar:

1. Yevropa transport tizimlarining ekologik talablariga javob berish uchun qanday choralar ko‘rilmogda?
2. Raqamli transformatsiya va aqlli transport tizimlarining joriy etilishi qanday texnologik to‘sqinliklarni keltirib chiqaradi?
3. Ekologik va texnologik to‘sqinliklarni bartaraf etish uchun qanday yechimlar mavjud?

6-BOB. AMERIKA QIT'ASIDA TRANSPORT KORIDORLARINING TASHKIL ETILISHI VA LOGISTIK YECHIMLARI

- 6.1. Amerika qit'asida transport koridorlari va mintaqaviy integratsiya
- 6.2. Pan-Amerika transport koridori va uning iqtisodiy ahamiyati
- 6.3. Shimoliy Amerika logistik tarmoqlari va transport koridorlari
- 6.4. Janubiy Amerikaning transport infratuzilmasi va savdo yo'laklari

6.1. Amerika qit'asida transport koridorlari va mintaqaviy integratsiya

Amerika qit'asi, o'zining keng geosiyosiy va iqtisodiy imkoniyatlari bilan global savdo va transport aloqalarining muhim markazlaridan biridir. Ushbu qit'a, Shimoliy va Janubiy Amerika mamlakatlari o'rtasidagi transport tizimlari orqali bog'lanadi va bu tarmoqlar o'zaro savdo va iqtisodiy aloqalarning rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Transport koridorlari, ya'ni yuk va yo'lovchilarni tashish uchun tashkil etilgan yo'nalishlar, nafaqat geografik aloqalarni kuchaytiradi, balki mintaqaviy integratsiyani ta'minlashda ham muhim omil hisoblanadi.

Amerika qit'asidagi transport tarmoqlari, shuningdek, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va hududlar o'rtasida samarali savdo almashuvini amalga oshirishda muhim vosita bo'lib, global savdo yo'laklarining rivojlanishiga turtki beradi. Mintaqaviy integratsiya jarayoni, ya'ni transport tarmoqlarining bir-biri bilan uzviy bog'lanishi, davlatlar o'rtasida infratuzilma va savdo imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Ushbu integratsiya orqali mintaqadagi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va ilg'or logistika tarmoqlarini yaratish mumkin bo'ladi.

Amerika qit'asida transport koridorlari va mintaqaviy integratsiyaning o'sishi, o'z navbatida, yirik global iqtisodiy tarmoqni yaratishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, bu jarayonlar davlatlar o'rtasidagi siyosiy va iqtisodiy munosabatlarni mustahkamlashda ham o'z aksini topadi. Ushbu mavzu, Amerika qit'asidagi transport koridorlarining rivojlanishini, mintaqaviy integratsiyaning iqtisodiy ahamiyatini va transport tizimlarining global savdoga qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil etishga imkon beradi.

Amerika qit'asidagi transport koridorlari rivojlanishining asosiy bosqichlari uzoq tarixiy jarayonni o'z ichiga oladi va qit'a iqtisodiyoti, savdosi va mintaqaviy integratsiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu transport yo'nalishlarining rivojlanishi Amerika qit'asidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash va davlatlar o'rtasidagi savdo va iqtisodiy hamkorlikni yaxshilashda katta rol o'ynaydi.

Amerika qit'asida transport koridorlarining rivojlanishi dastlab geografik joylashuv va yer resurslariga bog'liq bo'lgan holda boshlanib, so'ngra har xil iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar ta'sirida taraqqiy etdi. Rivojlanish bosqichlari asosan quyidagi omillarga asoslangan: yangi savdo yo'llarini yaratish, iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish va transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish. Bu jarayonlar va bosqichlar o'rtasida bog'lanishlar mavjud bo'lib, ular qit'a transport tizimining kompleks ravishda rivojlanishiga yordam bergan.

6.1.1-jadval

Amerika qit'asidagi transport koridorlarining rivojlanish bosqichlari

Bosqich	Vaqt Oraliq'i	Tavsif
1. Dastlabki rivojlanish	19-asr oxiri – 20-asr bosh	Geografik va iqtisodiy sharoitlarga asoslangan transport koridorlari tashkil etildi, transport aloqalarining boshlanishi.
2. Iqtisodiy integratsiya	20-asrning ikkinchi yarmi	Shimoliy Amerika va Janubiy Amerika o'rtasidagi savdo va iqtisodiy aloqalar kuchayadi, transport tarmoqlari bir-biriga bog'lanadi.
3. Global savdo tarmoqlari	1990-2000-yillar	Yirik transport koridorlari (masalan, Pan-Amerika Magistrali) va Panama kanali orqali savdo yo'laklari rivojlanadi.
4. Modernizatsiya va innovatsiyalar	2010-yillar – hozirgi kunda	Yangi texnologiyalarni joriy etish (raqamli tizimlar, aqlli transport), ekologik transport yechimlari va barqaror infratuzilma rivoji.
5. Kelajakda rivojlanish	2025-yildan keyin	Yangi transport koridorlari, avtonom transport tizimlari va mintaqaviy integratsiyaning yangi bosqichlari amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

Boshlang'ich bosqichda transport koridorlarining asosiy yo'nalishlari o'zaro bog'liq bo'lmagan holda rivojlangan va savdo-sotiqda cheklangan imkoniyatlar yaratgan. Biroq, vaqt o'tgan sayin, geografik nuqtai nazardan osonroq va tezroq aloqa o'rnatish imkoniyatlari kashf etildi, bu esa transport yo'llarining ko'payishiga


turtki bo'ldi. 20-asrning ikkinchi yarmidan boshlab, transport koridorlarining rivojlanishi global savdo tarmoqlari va mintaqaviy integratsiya jarayonlariga aloqador bo'lib, AQSh, Kanada va Meksika o'rtasida transport aloqalari kuchayib bordi. Ushbu jarayonlar iqtisodiy integratsiya va o'zaro savdo aloqalarini osonlashtirdi.

Amerika qit'asidagi transport koridorlari so'nggi yillarda yanada rivojlanib, yangi savdo yo'laklarini, modernizatsiya qilingan temir yo'l va avtomobil yo'llarini, yirik portlar va aeroportlarni yaratishda davom etmoqda. Ayniqsa, **Pan-Amerika Magistrali** va **NAFTA/USMCA transport tizimlari** qit'ada o'zaro savdo va investitsiyalarni oshirishda muhim omil bo'lgan. Bularning barchasi qit'a bo'ylab iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish va transport tizimlarining samaradorligini oshirishga yordam bermoqda.

Rivojlanish jarayonining navbatdagi bosqichlarida raqamli texnologiyalar, aqlli transport tizimlari va ekologik barqaror transport yechimlari transport tizimlarining samaradorligini yanada oshirishda yordam beradi. Bunday innovatsiyalar, shuningdek, mintaqaviy integratsiya va savdo aloqalarini rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Boshqa tomondan, transport tizimlarining ekologik tozaligi va barqarorligi muhim rol o'ynaydi. Amerika qit'asidagi transport tarmoqlari, yirik logistika markazlari va mintaqaviy transport koridorlari yordamida yanada samarali va ekologik toza savdo tizimlarini yaratish mumkin bo'ladi.

Mintaqaviy integratsiya jarayoni davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash va o'zaro hamkorlikni oshirish maqsadida amalga oshiriladi. Bu jarayon, asosan, mamlakatlarning o'zaro savdo, investitsiya oqimlari, texnologiya transferi, transport va infratuzilma aloqalarini osonlashtirishga qaratilgan. Mintaqaviy integratsiyaning asosiy tamoyillari, ularning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi va davom ettirilishi uchun zarur bo'lgan qadriyatlar va me'yorlardir.

Birinchi tamoyil – **savdoni erkinlashtirish**. Mintaqaviy integratsiya jarayonining asosiy maqsadlaridan biri bu – savdo to‘siqlarini kamaytirish yoki olib tashlashdir. Bunga erishish uchun davlatlar o‘rtasida bojxona tartib-taomillari, tariflar va kvotalar qisqartiriladi. Boshqacha aytganda, davlatlar o‘rtasida erkin savdo zonalar yaratiladi. Bu o‘z navbatida, barcha a‘zo mamlakatlar uchun resurslar va mahsulotlar savdosining osonlashuvini ta‘minlaydi. Masalan, Yevropa Ittifoqi (YI) yoki Janubiy Amerikaning Mercosur blokida savdoni erkinlashtirish jarayonlari muvaffaqiyatli amalga oshirilgan.



6.1.1-rasm. Mintaqaviy integratsiyaning asosiy tamoyillari

Ikkinchi tamoyil – **investitsiyalarni rag‘batlantirish va oqimlarni osonlashtirish**. Mintaqaviy integratsiya jarayonida investitsiya oqimlari jadal rivojlanadi, chunki davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy chegaralar kamaytiriladi. Shuningdek, birgalikdagi iqtisodiy huquqlar va ulushlarni qo‘llab-quvvatlash orqali investitsiyalarning oson harakati uchun qulay sharoit yaratiladi. O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan bo‘lgan savdo va investitsiya aloqalari, shuningdek, ishlab chiqarish va infratuzilma loyihalari bunday integratsiyaning yaxshi misolidir.

Uchinchi tamoyil – **transport va kommunikatsiyalarni rivojlantirish**. Mintaqaviy integratsiya transport tizimlarining birlashuvini, aloqalar va logistika

tizimlarini yaxshilashni ta'minlaydi. Savdo va investitsiyalarni rag'batlantirish uchun transport tarmoqlari, yuk va yo'lovchilarni o'tkazishning tezligi va samaradorligini oshirish zarurdir. Pan-Amerika magistrali yoki Xitoydan Yevropaga boradigan "Bir kamar, bir yo'l" loyihalari misolida, transport infratuzilmasini yaxshilash orqali mintaqaviy va global aloqalarni kuchaytirish mumkin.

To'rtinchi tamoyil – **o'zaro kelishuv va siyosiy ixtiloflarni bartaraf etish.** Mintaqaviy integratsiya davlatlar o'rtasidagi siyosiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi. A'zo mamlakatlar o'rtasida turli siyosiy ixtiloflar va nomutanosibliklarni kamaytirish uchun muayyan kelishuvlar, bitimlar va qo'shma qarorlar qabul qilinadi. Bu jarayon mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarni barqarorlashtiradi va o'zaro ishonchni oshiradi. Yevropa Ittifoqi bu borada eng muvaffaqiyatli integratsiya modellaridan biridir, chunki u iqtisodiy va siyosiy birlikni birlashtirgan.

Beshinchi tamoyil – **ijtimoiy va madaniy integratsiya.** Mintaqaviy integratsiya faqat iqtisodiy jihatdan emas, balki ijtimoiy va madaniy jihatdan ham o'zaro anglashuv va hamkorlikni rivojlantirishni ta'minlaydi. Madaniy aloqalarni rivojlantirish, o'xshash urf-odatlar, tillar va madaniy merosni hurmat qilish orqali mamlakatlar o'rtasida yaxshiroq tushuncha va bir-birini qabul qilishni kuchaytiradi. Masalan, Yevropada Yevropa Ittifoqi a'zolarining ta'lim tizimlarining bir-biriga moslashishi va turli madaniyatlarni qabul qilishga asoslangan integratsiya tizimlari mavjud.

Olti tamoyil – **barqaror rivojlanishni ta'minlash.** Mintaqaviy integratsiyaning yana bir muhim tamoyili – bu ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdir. Mintaqaviy integratsiya jarayonida mamlakatlar ekologik toza texnologiyalarni rivojlantirish, barqaror energiya resurslarini boshqarish va ijtimoiy adolatni ta'minlash uchun birgalikda ishlashadi. Bu, shuningdek, iqlim o'zgarishi va atrof-muhitni saqlash kabi global muammolarni hal qilishda mintaqaviy hamkorlikni kuchaytiradi.

Mintaqaviy integratsiyaning asosiy tamoyillari o‘zaro savdoni rivojlantirish, transport va kommunikatsiyalarni yaxshilash, investitsiya oqimlarini rag‘batlantirish, siyosiy kelishuvlarni amalga oshirish va ijtimoiy-madaniy aloqalarni mustahkamlashni o‘z ichiga oladi. Ushbu tamoyillar mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish, global iqtisodiyotga integratsiya qilish va barqaror rivojlanishni ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Mintaqaviy integratsiya jarayonlari muvaffaqiyatli amalga oshirilsa, bu iqtisodiy o‘rishni, siyosiy barqarorlikni va ijtimoiy adolatni oshiradi, shuningdek, mamlakatlar o‘rtasida tinchlik va xavfsizlikni saqlashga yordam beradi.

6.2. Pan-Amerika transport koridori va uning iqtisodiy ahamiyati

Amerika qit‘asi rivojlangan va keng transport infratuzilmasiga ega bo‘lib, unda xalqaro ahamiyatga ega yirik transport koridorlari mavjud. Shimoliy Amerikada **Trans-Kanada avtomagistrali, Interstate Highway System (AQSh)** va **Mexiko avtomobil tarmog‘i** mintaqaviy savdo va logistika uchun muhim ahamiyatga ega. Janubiy Amerikada esa **Interoceanic Highway, Bioceanic Corridor** va boshqa yo‘nalishlar qit‘a ichida yuk va yo‘lovchi tashishni ta‘minlaydi. Ushbu koridorlar qit‘adagi asosiy portlar, sanoat hududlari va iqtisodiy markazlarni bog‘lab, xalqaro va ichki savdo hamda mintaqaviy integratsiyani kuchaytiradi.

Pan-Amerika transport koridori Shimoliy va Janubiy Amerika qit‘alarini bog‘lovchi eng yirik va strategik yo‘llardan biri bo‘lib, u iqtisodiy integratsiyani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo‘l tizimi qit‘adagi asosiy davlatlarni birlashtirib, savdo, logistika, turizm va investitsiyalar oqimini tezlashtirishga xizmat qiladi. Globalizatsiya va xalqaro iqtisodiy aloqalarning chuqurlashishi fonida transport yo‘llarining rivojlanishi har qanday mamlakat uchun muhim hisoblanadi. Ayniqsa, Amerika qit‘asida ishlab chiqarish va savdoning geografik tarqalishi Pan-Amerika yo‘lining ahamiyatini yanada oshiradi. Mazkur magistral yo‘li butun qit‘ani kesib o‘tuvchi eng uzun avtomobil yo‘llaridan biri bo‘lib, uning umumiy uzunligi 30 000 km ga yaqin.




Izoh: Chizmaning aniq mazmunini saqlab qolish va xalqaro iqtisodchilarga mo'ljallanganligi nuqtayi nazaridan tarjimaga qo'l urilmadi.

6.1.2-rasm. Pan-Amerika transport koridori⁵⁷

⁵⁷ https://en.wikipedia.org/wiki/Pan-American_Highway#/media/File:PanAmericanHwy.png

Bu yo‘l Kanadaning Alyaska shtatidan boshlanib, Janubiy Amerikaning eng janubiy nuqtasi bo‘lgan Argentinaning Ushuaya shahriga qadar cho‘ziladi. Pan-Amerika magistrali mintaqaviy iqtisodiyotlarning o‘zaro bog‘liqligini ta’minlash bilan birga, xalqaro savdoni rivojlantirish, mintaqaviy integratsiyani kuchaytirish va transport-logistika infratuzilmasini yaxshilashga xizmat qiladi. Ushbu yo‘l yoqasida joylashgan davlatlar va shaharlar uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratilib, kichik va o‘rta biznes subyektlari ham rivojlanishdan manfaatdor bo‘lmoqda. Shu sababli, Pan-Amerika transport koridorining iqtisodiy ahamiyatini chuqur o‘rganish, uning global va mintaqaviy iqtisodiyotga ta’sirini tahlil qilish muhim masalalardan biridir.



6.1.3-rasm. Pan-Amerika transport koridorining iqtisodiy ahamiyati

Savdo va investitsiyalarni rivojlantirish. Pan-Amerika transport koridori qit’adagi savdo va investitsiyalarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu yo‘l Shimoliy va Janubiy Amerika mamlakatlarini bog‘lab, transport xarajatlarini kamaytirish, yuk tashish vaqtini qisqartirish va logistika tizimini samarali yo‘lga qo‘yish imkonini beradi. Magistralning mavjudligi qit’adagi asosiy ishlab chiqarish va savdo markazlarini birlashtirib, transchegaraviy iqtisodiy aloqalarni mustahkamlaydi. Misol uchun, AQSh, Kanada va Meksika o‘rtasidagi savdo hajmi

NAFTA (hozirgi USMCA) bitimi doirasida sezilarli darajada oshgan bo'lsa, Pan-Amerika yo'lining mavjudligi ushbu jarayonni yanada tezlashtirdi.

Markaziy va Janubiy Amerika mamlakatlari uchun ushbu yo'l infratuzilmasi o'z mahsulotlarini Shimoliy Amerika bozorlariga yetkazib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Kolumbiya, Ekvador va Peruda yetishtiriladigan qahva, mevalar va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari ushbu magistral orqali AQSh va Kanada bozorlariga yetkazib beriladi. Shuningdek, Braziliya va Argentina kabi yirik sanoat davlatlari o'z avtomobillari, temir va po'lat mahsulotlarini Shimoliy Amerika va Karib havzasi mamlakatlariga eksport qilishda Pan-Amerika yo'lidan keng foydalanadi. Ushbu jarayon transport-logistika xarajatlarini kamaytirib, xalqaro savdo hajmini oshirishga yordam beradi.

Pan-Amerika magistrali xalqaro kompaniyalar uchun ham investitsion jihatdan jozibador yo'nalish hisoblanadi. Transport infratuzilmasining rivojlanishi sababli xorijiy investorlar logistika markazlari, yuk tashish terminalari va omborxona tizimlarini yaratishga katta mablag' ajratmoqda. Masalan, Meksika va Panamada yirik xalqaro logistika markazlari tashkil etilib, ularning asosiy vazifasi yuklarni Janubiy Amerikadan Shimoliy Amerikaga va aksincha yetkazib berishni soddalashtirishdir. Panama kanali bilan bog'langan transport yo'nalishlari ayniqsa AQSh va Osiyo mamlakatlari bilan savdoda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, Pan-Amerika transport koridori mintaqaviy ishlab chiqarish zanjirlarini rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, avtomobilsozlik sohasi bunga yaqqol misol bo'la oladi. AQSh, Meksika va Braziliya kabi mamlakatlarda ishlab chiqarilayotgan avtomobil ehtiyot qismlari Pan-Amerika yo'li orqali yetkazib berilib, oxirgi yig'ilish jarayoni turli mamlakatlarda amalga oshirilmoqda. Bunday global ishlab chiqarish tarmoqlari nafaqat sanoat rivojlanishiga hissa qo'shadi, balki minglab yangi ish o'rinlarini ham yaratadi.

Shu bilan birga, kichik va o'rta biznes vakillari ham Pan-Amerika yo'li orqali o'z mahsulotlarini eksport qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik va hunarmandchilik sohalarida faoliyat yurituvchi

tadbirkorlar uchun bu yo‘l global bozorga chiqishda katta imkoniyat yaratadi. Meksika va Kolumbiya fermerlari o‘z mahsulotlarini AQSh va Kanadaga eksport qilish orqali daromadlarini oshirmoqda, bu esa ularning biznesini kengaytirish va yangi investitsiyalar jalb etish imkoniyatini yaratmoqda.

Pan-Amerika transport koridori qit‘adagi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va integratsiyani chuqurlashtirishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu magistral yo‘l mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish, savdo oqimini oshirish, logistika va tranzit imkoniyatlarini kengaytirish hamda turizm va madaniy aloqalarni rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi. Transport yo‘lining mavjudligi davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy bog‘liqlikni mustahkamlab, investitsiyalarni jalb qilish va yangi ish o‘rinlarini yaratishda asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Mintaqaviy integratsiyani kuchaytirish nuqtai nazaridan, Pan-Amerika yo‘li qit‘adagi davlatlar o‘rtasida savdo-sotiq va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, Janubiy Amerikadagi MERCOSUR iqtisodiy bloki a‘zolari – Braziliya, Argentina, Paragvay va Urugvay – Pan-Amerika yo‘li orqali mahsulotlarini Meksika va AQSh bozorlariga eksport qiladi. Shuningdek, Markaziy Amerika mamlakatlari o‘rtasida ham savdo hajmi oshib, Gvatemala, Salvador va Kosta-Rika kabi davlatlar o‘z tovarlarini Janubiy va Shimoliy Amerika bozorlariga oson yetkazib berish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Ushbu transport tarmog‘ining samarali ishlashi tufayli mintaqaviy iqtisodiy bloklar o‘zaro bog‘langan holda ishlamoqda va transchegaraviy savdo yanada rivojlanmoqda.

Pan-Amerika yo‘li **logistika va tranzit imkoniyatlarini** sezilarli darajada kengaytiradi. Magistral yo‘l orqali yuk tashish jarayoni tezlashib, transport xarajatlari kamayadi. Masalan, Panamada joylashgan yirik logistika markazlari va Panama kanali orqali yuklar Shimoliy va Janubiy Amerika o‘rtasida samarali taqsimlanmoqda. Panama transport koridori orqali Osiyo mamlakatlaridan kelayotgan yuklar Janubiy Amerikaning yirik bozorlariga yetkaziladi. Xuddi shuningdek, Kolumbiya, Peru va Chili kabi davlatlar o‘z eksport mahsulotlarini AQSh va Kanada bozorlariga Pan-Amerika yo‘li orqali yetkazib bermoqda. Ushbu

yo‘l nafaqat avtomobil transporti, balki temir yo‘l va dengiz portlari bilan ham integratsiyalashgan bo‘lib, tranzit yuklarning harakatini tezlashtirishga xizmat qiladi.

Ish o‘rinlari yaratish va hududiy rivojlanish masalasida Pan-Amerika transport koridori muhim ahamiyatga ega. Transport infratuzilmasining rivojlanishi sababli yirik sanoat markazlari, logistika markazlari va transport xizmatlari sohasi kengayib bormoqda. Masalan, Meksikaning shimoliy hududlarida joylashgan zavodlar va ishlab chiqarish korxonalari Pan-Amerika magistrali orqali o‘z mahsulotlarini AQSh va Kanada bozorlariga eksport qilmoqda. Bu esa minglab ish o‘rinlarini yaratish bilan birga, hududiy rivojlanishni ham ta‘minlamoqda. Shuningdek, Markaziy Amerika mamlakatlarida yo‘l qurilishi va transport xizmatlarini rivojlantirish orqali ish bilan bandlik darajasi oshmoqda. Pan-Amerika magistrali bo‘ylab joylashgan kichik shaharlar va qishloq hududlari ushbu yo‘lning iqtisodiy imkoniyatlaridan foydalanib, yangi biznes tarmoqlarini rivojlantirmoqda.

Pan-Amerika transport koridori **turizm va madaniy aloqalarni** rivojlantirishda ham katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo‘l orqali Shimoliy va Janubiy Amerikadan kelgan sayyohlar Markaziy Amerikaning tarixiy va tabiiy diqqatga sazovor joylariga oson borish imkoniyatiga ega. Masalan, Meksikadagi Maya va Aztek madaniy meros yodgorliklariga hamda Perudagi Machu Pikchu tarixiy majmuasiga Pan-Amerika yo‘li orqali sayohat qilish ancha osonlashgan. Shuningdek, bu yo‘l Braziliya va Argentina kabi davlatlardagi tabiiy landshaftlar, milliy bog‘lar va turistik yo‘nalishlarga bo‘lgan talabni oshirishga yordam bermoqda. Transport infratuzilmasining rivojlanishi turizm biznesining kengayishiga, mehmonxonalar va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining o‘sishiga turtki bo‘lib, mintaqa iqtisodiyotiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Pan-Amerika transport koridori iqtisodiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, savdo, logistika, investitsiyalar, turizm va hududiy rivojlanishga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Ushbu yo‘l qit‘adagi davlatlar o‘rtasida mintaqaviy integratsiyani mustahkamlash bilan birga, xalqaro iqtisodiy

hamkorlikni ham rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Kelajakda ushbu yo‘nalishning yanada modernizatsiya qilinishi va transport infratuzilmasining takomillashtirilishi qit’adagi iqtisodiy jarayonlarning samaradorligini oshirishga yordam beradi.

6.3. Shimoliy Amerika logistik tarmoqlari va transport koridorlari

Shimoliy Amerika logistik tarmoqlari va transport koridorlari qit’adagi savdo, sanoat va iqtisodiy faoliyatning asosiy tayanchlaridan biri hisoblanadi. Ushbu mintaqada transport infratuzilmasi yuqori darajada rivojlangan bo‘lib, yirik avtomobil yo‘llari, temir yo‘llar, dengiz portlari va havo transporti orqali global savdo tarmoqlari bilan bog‘langan. AQSh, Kanada va Meksika o‘rtasidagi iqtisodiy integratsiya, ayniqsa USMCA (United States-Mexico-Canada Agreement) kelishuvi doirasida, transport va logistika tarmoqlarining uzluksiz ishlashini ta’minlaydi.

Shimoliy Amerikadagi asosiy transport koridorlaridan biri **Interstate Highway System** bo‘lib, AQShning barcha asosiy shaharlarini bog‘laydi va Meksika hamda Kanada bilan savdo aloqalarida muhim rol o‘ynaydi. Bu yo‘l tizimi yuk tashish jarayonlarini tezlashtirib, logistika xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi. Meksika va AQSh o‘rtasida faol ishlayotgan **I-35 koridori** AQShning Texas shtatidan Kanadaga qadar cho‘zilib, Shimoliy va Janubiy Amerika o‘rtasidagi asosiy savdo yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.



Izoh: Chizmaning aniq mazmunini saqlab qolish va xalqaro iqtisodchilarga mo'ljallanganligi nuqtayi nazaridan tarjimag qo'l urilmadi.

6.3.1-rasm. Shimoliy Amerika asosiy transport koridorlarining umumiy ko'rinishi⁵⁸

Temir yo'l transporti ham Shimoliy Amerikaning logistik tarmoqlarida muhim o'rin tutadi. **Union Pacific**, **BNSF Railway** (AQSh), **Canadian National Railway**, **Canadian Pacific Railway** (Kanada) va **Ferromex** (Meksika) kabi yirik temir yo'l kompaniyalari qit'a bo'ylab yuk tashish xizmatlarini taqdim etadi. Ayniqsa, AQSh va Kanada o'rtasida joylashgan **Great Lakes – St. Lawrence Seaway** tizimi orqali yuklar suv transportida ham tashiladi.

⁵⁸ <https://transportgeography.org/contents/applications/gateways-transport-corridors-north-america/trade-corridor-initiatives-north-america/>

6.3.1-jadvalda Shimoliy Amerikadagi asosiy transport koridorlari haqida umumiy ma'lumot berilgan.

6.3.1-jadval

Shimoliy Amerikaning asosiy transport koridorlari

#	Transport koridori	Tavsif	Qamrov hududi
1	Pan-Amerika transport koridori	Shimoliy va Janubiy Amerikani bog'lovchi global yo'l tizimi	Kanada – AQSh – Meksika – Janubiy Amerika
2	I-35 koridori (NAFTA Superhighway)	AQShning Texas shtatidan Kanadaga cho'zilgan, Meksika bilan savdoda muhim rol o'ynaydi	AQSh – Meksika – Kanada
3	I-69 koridori (Mid-Continent Trade Corridor)	AQSh janubidan Kanadaga qadar cho'zilib, Shimoliy va Janubiy Amerika o'rtasidagi savdoni rivojlantiradi	AQSh – Kanada – Meksika
4	I-5 koridori	G'arbiy qismdagi eng muhim yo'llardan biri bo'lib, Los-Anjeles va Sietlni bog'laydi	Kanada – AQSh – Meksika
5	I-95 koridori	AQSh sharqiy qirg'oq bo'ylab Florida shtatidan Kanadaga qadar uzaygan	AQSh – Kanada
6	CANAMEX koridori	Kanada, AQSh va Meksikani bog'lovchi yo'nalish, Arizona va Nevada orqali o'tadi	Kanada – AQSh – Meksika
7	Texas Koridori (Ports-to-Plains Corridor)	Texas orqali AQSh va Meksika o'rtasida yuk tashish imkoniyatlarini kengaytiradi	AQSh – Meksika
8	Atlantic Gateway Corridor	AQShning sharqiy qirg'oqlarini Kanada bilan bog'laydi	AQSh – Kanada
9	Great Lakes – St. Lawrence Seaway Corridor	AQSh va Kanadaning markaziy qismini dengiz savdo yo'llari bilan bog'laydi	AQSh – Kanada
10	West Coast Corridor	AQSh va Kanadaning g'arbiy qismidagi eng muhim yuk tashish yo'nalishi	AQSh – Kanada

Bu transport koridorlari Shimoliy Amerikadagi logistika va transport tarmog'ining asosiy qismini tashkil qilib, iqtisodiy o'sish va savdo rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Dengiz portlari mintaqaning xalqaro savdosida muhim rol o'ynaydi. AQShning **Los-Anjeles**, **Long Beach**, **Nyu-York**, **Savannah** va **Houston** portlari Osiyo va Yevropa bilan savdo aloqalarida yetakchi hisoblanadi. Kanadaning **Vankuver** va **Montreal** portlari Shimoliy Atlantika va Tinch okeani orqali yuk tashishning asosiy markazlari bo'lib, Meksikaning **Veracruz** va **Manzanillo**

portlari Janubiy Amerika va Osiyo bozorlariga yuk yetkazishda muhim ahamiyatga ega.

Havo transporti esa Shimoliy Amerika logistika tizimining ajralmas qismi bo'lib, yuklarni tezkor yetkazib berish imkonini beradi. **Memphis (FedEx hub), Louisville (UPS hub), Atlanta, Chicago O'Hare** va **Dallas/Fort Worth** kabi aeroportlar xalqaro yuk tashishda strategik markazlarga aylangan. Ushbu aeroportlar Shimoliy Amerika bo'ylab tezkor logistika xizmatlarini ta'minlab, global yetkazib berish zanjirlarining samaradorligini oshiradi.

Umuman olganda, Shimoliy Amerikaning logistik tarmoqlari va transport koridorlari iqtisodiy faoliyatning barqarorligini ta'minlab, qit'adagi savdo va ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksiz ishlashiga xizmat qiladi. Rivojlangan yo'l, temir yo'l, dengiz va havo transporti tarmoqlari tufayli Shimoliy Amerika global savdoda muhim o'rin egallaydi va mintaqaviy integratsiyani mustahkamlashga yordam beradi.

6.4. Janubiy Amerikaning transport infratuzilmasi va savdo yo'laklari

Janubiy Amerika transport infratuzilmasi va savdo yo'laklari regionning iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ushbu hududning geografik joylashuvi, tabiiy resurslar va o'zaro savdo aloqalarining mustahkamlanishi, transport tizimlarining samarali ishlashiga bog'liqdir. Janubiy Amerika, o'zining keng bozorini va savdo imkoniyatlarini taklif qilgan holda, global logistika va savdo yo'laklarining markaziga aylangan. Ushbu tarmoq, bir tomondan, yirik iqtisodiy markazlarga, masalan, AQSh va Yevropaga eksport qilishni osonlashtiradi, boshqa tomondan, region ichidagi o'zaro savdo va integratsiyani kuchaytiradi.

6.4.1-rasmdagi xarita Janubiy Amerikadagi asosiy transport koridorlarini ko'rsatib, IIRSA (Initiative for the Integration of the Regional Infrastructure of South America) tashabbusi doirasidagi infratuzilma loyihalarini aks ettiradi. IIRSA mintaqaviy transport tizimini yaxshilash, iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash va savdo hajmini oshirishga qaratilgan integratsiya dasturi hisoblanadi.



Izoh: Chizmaning aniq mazmunini saqlab qolish va xalqaro iqtisodchilarga mo'ljallanganligi nuqtayi nazaridan tarjimaga qo'l urilmadi.

6.4.1-rasm. Janubiy Amerika hududida joylashgan transport koridorlarining xaritada ko'rinishi⁵⁹

Xaritada quyidagi transport koridorlari tasvirlangan:

- **Andean koridori** – Janubiy Amerikaning g'arbiy qismidagi davlatlarni bog'lovchi yo'nalish bo'lib, Kolumbiya, Ekvador, Peru, Boliviya va Chili orqali o'tadi. Bu koridor And tog'lari bo'ylab harakatlanadigan yuk va yo'lovchilar uchun muhim yo'nalish hisoblanadi.
- **Amazon koridori** – Braziliyaning shimoliy qismi orqali Amazon havzasidan o'tuvchi transport yo'li bo'lib, ichki savdo va yuk tashishni rivojlantirish uchun

⁵⁹ https://www.researchgate.net/figure/South-America-development-corridor-initiative_fig17_339446299

muhim ahamiyatga ega. Ushbu yo‘l daryo transporti bilan bog‘langan holda ishlaydi.

- **Peru-Brazil-Bolivia koridori** – Ushbu yo‘nalish Peru, Braziliya va Boliviyaning bog‘lab, Tinch okeani va Atlantika okeani o‘rtasida transport aloqalarini kuchaytiradi.

- **Capricorn koridori** – Janubiy Amerikaning janubi-sharqiy qismidagi muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lib, Braziliya, Paragvay, Boliviya va Argentinani o‘zaro bog‘laydi.

- **Southern Andean koridori** – Janubiy Amerikadagi And tog‘lari orqali o‘tuvchi yo‘nalish bo‘lib, Argentina, Chili va Boliviyaning birlashtiradi. Bu yo‘l yuk tashish va hududlararo iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

- **Southern koridori** – Argentina va Braziliyaning janubiy qismlarini bog‘lovchi muhim yo‘l tizimi bo‘lib, mintaqaviy savdo va iqtisodiy rivojlanish uchun xizmat qiladi.

- **Paraguay-Parana koridori** – Paragvay va Parana daryolari bo‘ylab joylashgan transport tizimi bo‘lib, ushbu mintaqadagi davlatlarning ichki suv yo‘llaridan foydalanish imkoniyatini oshiradi.

- **Mercosur-Chile koridori** – Ushbu yo‘nalish Mercosur mamlakatlari (Braziliya, Argentina, Paragvay va Urugvay) bilan Chilini bog‘laydi va Janubiy Amerika davlatlari o‘rtasidagi savdoni rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi.

- **Central Inter-Oceanic koridori** – Atlantika va Tinch okeanlarini bog‘lovchi yo‘nalish bo‘lib, Janubiy Amerika sharqiy va g‘arbiy qismi o‘rtasida transport aloqalarini rivojlantiradi.

- **Escudo Guianes koridori** – Braziliyaning shimoliy qismi orqali Guiana, Surinam va Venesuelani bog‘laydi. Ushbu yo‘nalish savdo va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Bu transport koridorlari Janubiy Amerika davlatlari o‘rtasidagi iqtisodiy integratsiyani oshirish, yuk tashish xarajatlarini kamaytirish va xalqaro savdoni

rivojlantirish uchun muhim infratuzilma loyihalarini o'z ichiga oladi. Ushbu yo'llar mintaqaviy bog'liqlikni kuchaytirib, iqtisodiy o'sish va barqaror rivojlanishga katta hissa qo'shadi.

Janubiy Amerika transport infratuzilmasi va savdo yo'laklari haqida ba'zi muhim statistik ma'lumotlarga ko'ra, regionning transport tizimi kengligi 1.2 million kilometrga teng bo'lib, bu avtomobil yo'llarining uzunligini bildiradi. Shuningdek, temiryo'l tarmog'i 45,000 kilometrni tashkil etadi, bu esa Janubiy Amerikaning transport infratuzilmasining umumiy holatini aks ettiradi. Yirik portlar bo'yicha, Braziliya, Argentina, Chili, Peru va Kolumbiya kabi davlatlar eng muhim portlarga ega bo'lib, ular global savdoda katta ahamiyatga ega.

Havo transporti yo'nalishlarining soni 1,000dan ortiqni tashkil etadi, bu esa Janubiy Amerika savdosining muhim qismini havo transporti orqali amalga oshirish imkonini beradi. Savdo yo'laklari uzunligi esa 8,000 kilometrni tashkil etib, quruqlik, daryo va dengiz yo'laklarini o'z ichiga oladi. Ushbu savdo yo'laklari regionning iqtisodiy aloqalarini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

2023-yilda Janubiy Amerika hududining xalqaro savdo hajmi \$2.1 trillionni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich regionning yirik eksportchi va importchi davlatlar bilan faol savdo aloqalarini olib borayotganligini ko'rsatadi. Transport infratuzilmasiga qaratilgan investitsiyalar ham sezilarli darajada oshgan. 2023-yilda transport loyihalari va modernizatsiya jarayonlari uchun \$16 milliard ajratilgan bo'lib, bu hududda yangi transport tarmoqlarini yaratish va mavjudlarini yaxshilashga qaratilgan keng ko'lamli tashabbuslar mavjudligini bildiradi.

Ushbu statistik ma'lumotlar Janubiy Amerika transport infratuzilmasi va savdo yo'laklarining rivojlanish darajasi, ularning iqtisodiy aloqalar va global savdo tizimidagi o'rni haqida umumiy tasavvur hosil qiladi.

Umuman olganda, Amerika qit'asi, geografik joylashuvi va iqtisodiy ahamiyati tufayli global transport va savdo tizimida muhim o'rin tutadi. Transport koridorlari regionning ichki va tashqi savdosini tezlashtirish, logistik xarajatlarni kamaytirish va iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish uchun asosiy vositadir.

Yaqinda, Amerika qit'asi bo'ylab transport yo'laklarining tashkil etilishi va logistika yechimlari rivojlanayotgan o'sish tendensiyalarini ko'rsatmoqda.

Amerikada transport koridorlarining tashkil etilishi, asosan, ko'p mamlakatlarni o'z ichiga olgan strategik hududlar orqali amalga oshiriladi. Misol uchun, AQSh va Meksika o'rtasidagi savdo koridorlari, shuningdek, janubi-sharqiy Amerikaning keng daryo tarmog'i va dengiz portlari global savdo yo'laklarini yaratishda muhim ahamiyatga ega. Meksika, Kolumbiya va Braziliya kabi mamlakatlar o'rtasidagi avtomobil va temiryo'l tarmoqlari orqali o'zaro integratsiya va savdo osonlashadi.

Logistik yechimlar, transport koridorlarining samarali ishlashini ta'minlash uchun muhim o'rin tutadi. Bu yerda innovatsion texnologiyalar, masalan, raqamli kuzatuv tizimlari, sun'iy intellekt yordamida marshrutlarni optimallashtirish va tranzit jarayonlarini tezlashtirish uchun yangi yechimlar keng qo'llanilmoqda. Bundan tashqari, Yangi Energiya Elektr Transporti va avtonom yuk tashish texnologiyalari kabilar logistikani yanada samarali va ekologik toza qilishga xizmat qilmoqda.

Amerika qit'asidagi transport koridorlarining tashkil etilishi va logistika yechimlari, ayniqsa, savdo aloqalarining kuchayishiga, tranzit jarayonlarining tezlashishiga va iqtisodiy integratsiyaning yanada rivojlanishiga olib kelmoqda. Transport tarmoqlarining modernizatsiyasi va yangi texnologiyalarning joriy etilishi regionning raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, Xitoy kabi global hamkorlar bilan amalga oshirilayotgan tashabbuslar, Amerika qit'asining savdo va iqtisodiy aloqalarini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi. Umuman olganda, transport koridorlarining samarali tashkil etilishi va logistik yechimlar, Amerika qit'asining global savdoga integratsiyasini kuchaytirib, iqtisodiy o'sish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Asosiy tushunchalar

Transport koridori - bir yoki bir nechta davlatlar o'rtasidagi transport yo'llari tizimi bo'lib, savdo va logistika jarayonlarini tezlashtirish uchun yaratiladi.

Logistika - tovarlar yoki xizmatlarning bir joydan boshqasiga samarali va arzon tarzda yetkazib berish jarayoni.

Mintaqaviy integratsiya - bir yoki bir nechta mamlakatlarning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy aloqalarini kuchaytirish maqsadida amalga oshirilgan hamkorlik.

Pan-Amerika transport koridori - Shimoliy va Janubiy Amerika o'rtasidagi savdo va transport aloqalarini bog'laydigan muhim transport tizimi.

Savdo yo'laklari - tovarlar va xizmatlar bir davlatdan boshqa davlatga uzatiladigan transport yo'llari va logistika tarmoqlari.

Iqtisodiy aloqalar - davlatlar o'rtasidagi savdo, investitsiyalar va ishlab chiqarish kabi iqtisodiy faoliyatlarni o'zaro bog'laydigan munosabatlar.

Logistik tarmoq - tovarlarni samarali tarzda yetkazib berish uchun birlashgan transport va infratuzilma tizimlari.

Integratsiyalashgan transport tizimi - bir nechta transport tarmoqlarining o'zaro hamkorlikda ishlashini ta'minlaydigan tizim.

Havo va dengiz logistika - tovarlarni havo va dengiz transporti orqali samarali va tez yetkazib berish tizimi.

Infratuzilma modernizatsiyasi - transport va logistika tizimlarini yangilash va samarali ishlashini ta'minlash uchun amalga oshirilgan o'zgarishlar.

Nazorat savollari:

1. Amerika transport koridorlari rivojlanish bosqichlarini sanab bering.
2. Mintaqaviy integratsiyaning asosiy tamoyillari nimalardan iborat?
3. Logistikaning asosiy vazifalari qanday? U transport koridorlariga qanday ta'sir qiladi?
4. Pan-Amerika transport koridori qaysi davlatlarni o'z ichiga oladi va uning iqtisodiy ahamiyati qanday?

5. Savdo yo‘laklari nima va ular transport infratuzilmasi uchun qanday ahamiyatga ega?
6. Shimoliy Amerika va Janubiy Amerika transport koridorlarining o‘xshashliklari va farqlari nimalarda?
7. Logistik tarmoqni tashkil etishda qanday transport vositalari va infratuzilma elementlari muhim o‘rin tutadi?
8. Havo va dengiz logistika tizimlarining transport koridorlarida qanday roli bor?
9. Integratsiyalashgan transport tizimi nima va bu tizim qanday afzalliklarga ega?
10. Infratuzilma modernizatsiyasi va transport koridorlarining rivojlanishi orasidagi bog‘liqlikni qanday tushuntirishingiz mumkin?

Case study

Masala: Janubiy Amerikaning transport infratuzilmasi va savdo yo‘laklari rivojlanishi, xususan, Braziliya, Argentina va Chili o‘rtasidagi transport koridorlarining samaradorligini oshirish maqsad qilingan. Ushbu koridorlar orqali tovarlar, xususan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va sanoat buyumlari transport qilinadi.

Topshiriqlar:

Mintaqaviy va xalqaro savdolarni yaxshilash uchun bu yo‘laklar qanday optimallashtirilishi kerak?

Janubiy Amerika transport yo‘laklarining samaradorligini oshirish uchun qanday infratuzilma yangilanishlari zarur?

Janubiy Amerika transport yo‘laklarida logistika tarmoqlarini optimallashtirish orqali savdo samaradorligini qanday oshirish mumkin?

7-BOB. OSIYO VA AFRIKA MAMLAKATLARI HUDUDIDA TRANSPORT KORIDORLARINING GEOGRAFIK JOYLASHUVI VA TASHKIL ETISH XUSUSIYATLARI

- 7.1. Osiyo va Afrika transport koridorlarining umumiy ko‘rinishi
- 7.2. Osiyodagi asosiy transport koridorlari va ularning geografik joylashuvi
- 7.3. Afrikadagi transport koridorlari va infratuzilma loyihalari
- 7.4. Transport koridorlarini rivojlantirish va tashkil etishdagi muammolar va imkoniyatlar

7.1. Osiyo va Afrika transport koridorlarining umumiy ko‘rinishi


Osiyo va Afrika transport koridorlari iqtisodiy rivojlanish va xalqaro savdoning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu transport yo‘laklari mamlakatlar o‘rtasida mintaqaviy integratsiyani mustahkamlash, logistika tizimlarini yaxshilash va eksport-import imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi.



7.1.1-rasm. Osiyoning subregionlari⁶⁰

⁶⁰ https://www.reddit.com/r/AskCentralAsia/comments/1dx7ggy/subregions_of_asia_do_you_agree_with_the/

Osiyo transport koridorlari xalqaro savdo, iqtisodiy integratsiya va mintaqaviy aloqalarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu koridorlar Osiyo davlatlarini bir-biri bilan, shuningdek, boshqa mintaqalar bilan bog‘laydi. Eng yirik va strategik koridorlardan biri Xitoyning tashabbusi bo‘lgan “Yangi Ipak yo‘li” (Belt and Road Initiative, BRI) loyihasidir. Bu loyiha quruqlik va dengiz yo‘llarini rivojlantirish orqali Osiyo, Yevropa va Afrikani birlashtirishni maqsad qilgan. Unda temir yo‘llar, avtomobil yo‘llari, dengiz portlari va logistika markazlarining qurilishi nazarda tutilgan bo‘lib, savdo va transport sohasidagi yangi imkoniyatlarni yaratadi.



7.1.2-rasm. Osiyoning asosiy transport koridorlari

Bundan tashqari, TRACECA (Transport Corridor Europe-Caucasus-Asia) yo‘lagi Yevropa, Kavkaz va Markaziy Osiyoni bog‘laydigan strategik ahamiyatga ega yo‘nalishdir. U xalqaro yuk tashish uchun muhim vosita bo‘lib, mintaqaviy iqtisodiy aloqalarni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, North-South Transport Corridor (NSTC) Rossiya, Eron va Hindistonni bog‘lab, Hind okeani orqali Yevropa va Osiyo o‘rtasidagi yuk tashish yo‘nalishini sezilarli darajada qisqartirishga xizmat qiladi.

Markaziy Osiyo mintaqasidagi transport tarmoqlari ham katta ahamiyatga ega bo‘lib, bu yo‘llar orqali O‘zbekiston, Qozog‘iston, Turkmaniston va boshqa davlatlar o‘zaro aloqalarni mustahkamlaydi. Temir yo‘l va avtomobil yo‘llarining rivojlanishi mintaqaning savdo salohiyatini oshiradi, xususan, Xitoy va Yevropa bozorlariga chiqishda tranzit imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuningdek, Janubi-

Sharqiy Osiyo davlatlarini birlashtiruvchi transport yo‘llari savdo-sotiqni tezlashtiradi va iqtisodiy aloqalarni rivojlantiradi.

Umuman olganda, Osiyo transport koridorlari xalqaro savdo uchun asosiy vosita bo‘lib, mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga, logistika tizimlarining samaradorligini oshirishga va mintaqaviy integratsiyani chuqurlashtirishga xizmat qilmoqda. Bu yo‘nalishlar yangi texnologiyalar va infratuzilmalar yordamida yanada rivojlanib, Osiyoning global iqtisodiy tizimdagi rolini kuchaytirishda davom etmoqda.

Afrika qit’asi dunyoning eng tez o‘sayotgan iqtisodiy mintaqalaridan biri bo‘lib, ammo transport infratuzilmasi hali ham ko‘plab mamlakatlarda rivojlanmagan. Bu esa mintaqadagi iqtisodiy o‘rishni cheklab, savdo va integratsiya uchun muhim to‘siqlarni yaratmoqda. Transport yo‘nalishlarining rivojlanishi Afrikaning global iqtisodiyotdagi o‘rnini mustahkamlash va uning ichki bozorlarini yanada integratsiya qilishda katta rol o‘ynaydi. Afrikada transport tarmog‘ining rivojlanishi, ayniqsa, qit’alararo va ichki savdoni rivojlantirish, ijtimoiy va iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish uchun juda muhimdir. Bugungi kunda ko‘plab Afrika mamlakatlarida transport infratuzilmasi yetarli darajada emas, bu esa mintaqada tovarlar va odamlarning erkin harakatini cheklaydi. **Jahon Banki** (2023) ma’lumotlariga ko‘ra, Afrikadagi yo‘llarning ko‘pchiligi past sifatli va ta’mirlanmagan, bu esa iqtisodiy o‘rishga to‘sqinlik qiladi.

Afrika – kattaligi va aholi soni bo‘yicha dunyoning ikkinchi qit’asi hisoblanadi. Afrika qit’asi shu nomdagi materik va unga tutash orollardan iborat. Qadimgi finikiyaliklar „afarik“ so‘zi bilan Karfagendan g‘arbda yashovchi qabilalarni ataganlar („afar“ so‘zi finikiyaliklar tilida „chang“ ma’nosini anglatgan). Rimliklar Karfagen va uning atroflarini bosib olganlaridan so‘ng bu hududga Afrika nomini berdilar. Keyinchalik esa bu nom butun materik va qit’aga nisbatan qo‘llana boshlagan. Afrikaning orollar bilan birgalikdagi maydoni 30,3 mln. km² ni tashkil etadi. Afrikaning o‘rtasidan ekvator chizig‘i, g‘arbidan esa bosh meridian o‘tgan. Shu tufayli Afrika ham Shimoliy, ham Janubiy, ham Sharqiy, ham G‘arbiy yarim

sharlarda joylashgan Afrika qirg'oqlari shimolda O'rta dengiz, shimoli-sharqda Qizil dengiz, sharqda Hind okeani, g'arbda Atlantika okeani suvlari bilan yuviladi. Qizil dengiz, Suvaysh kanali va Bob-al-Mandob bo'g'ozi Afrikani Osiyodan, O'rta dengiz va Gibraltar bo'g'izi esa Yevropa qit'asidan ajratadi. Afrika qit'asi orol va yarimorollar ozligi bilan ajralib turadi. Uning tarkibiga Hind okeanidagi Madagaskar (sayyoramizdagi orollar orasida maydoni jihatidan 4-o'rinda turadi), Maskaren, Komor, Seyshel orollari, Atlantika okeanidagi Yashil burun, Kanar, San-Tome va Prinsipi, Avliyo Yelena va boshqa orollar kiradi. Yagona yirik yarimoroli Somali hisoblanadi.

Afrikaning hozirgi siyosiy xaritasida 54 ta mustaqil davlat mavjud. Afrika davlatlari 1950-yillarda mustaqillikka erishisha boshladi. 1960-yil BMT tomonidan „Afrika yili“ deb e'lon qilinib, shu yil qit'adagi 17 ta mamlakat mustaqillikka erishdi va jahon hamjamiyati tomonidan tan olindi. Ko'plab mamlakatlari 1960–1980-yillar mobaynida davlat mustaqilligini qo'lga kiritdi. Afrikadagi ko'plab davlatlarning chegaralari mustamlakachilik davrida shakllangan bo'lib, aksariyat hollarda tabiiy va etnik chegaralarga mos kelmaydigan sun'iy ko'rinishga ega. Buning ta'sirida haligacha qit'ada turli harbiy mojarolar va davlat to'ntarishlari tez-tez sodir bo'lib turadi. Afrika siyosiy xaritasining o'ziga xos jihatlaridan biri yirik maydonli davlatlarning ko'pligidir. Jahondagi hududi 1 mln. km² dan katta bo'lgan 29 ta davlatdan 12 tasi Afrikada joylashgan (Jazoir, KDR, Sudan, Liviya, Chad, Niger, Angola, Mali, JAR, Efiopiya, Mavritaniya, Misr). Afrikada jami 6 ta orol mamlakatlari joylashgan. Ular Madagaskar, Kabo-Verde, Komor orollari, Mavrikiy, San-Tome va Prinsipi hamda Seyshel orollaridir.

Dengizlarga chiqish imkoniyati yo'q va davlatlar soni bo'yicha Afrika qit'alar orasida yetakchilik qiladi. Afrikada quruqlik ichkarisida joylashgan jami 16 ta davlat mavjud. Ularning qatorida Chad, Niger, Mali, Efiopiya, Zambiya, Botsvana, Janubiy Sudan kabi yirik davlatlar bor. Efiopiya jahonning quruqlik ichkarisida joylashgan 44 ta davlatlar orasida aholi soni bo'yicha yetakchisi hisoblanadi. Afrika davlatlari boy va xilma-xil tabiiy resurslari, ayniqsa, mineral boyliklari bilan ajralib

turadi. Neft va tabiiy gaz zaxiralariga Nigeriya, Jazoir, Liviya, Angola, Gabon, Kongo davlatlari boy. Qit'ada eng katta ko'mir zaxiralari bilan JAR ajralib turadi. JAR, Namibiya, Botsvana, Zambiya, KDR, Niger va boshqa ko'plab Afrika davlatlari rangli, qimmatbaho va radioaktiv metallar, olmosning yirik konlari bilan mashhur. Afrikada keng tarqalgan tabiat zonalari savanna, chalacho'l, cho'l hamda nam ekvatorial o'rmonlar hisoblanadi. Shimoliy Afrikada sayyoramizdagi eng yirik cho'l – Sahroyi Kabir joylashgan.



Izoh: Chizmaning aniq mazmunini saqlab qolish va xalqaro iqtisodchilarga mo'ljallanganligi nuqtayi nazaridan tarjimaga qo'l urilmadi.

7.1.2-rasm. Afrika mamlakatlarining xaritada ko'rinishi⁶¹

Afrika mamlakatlari iqtisodiyoti juda xilma-xil va murakkabdir. Uning rivojlanishi bir qator omillarga bog'liq bo'lib, ular orasida geografik joylashuv, tabiiy resurslar, siyosiy barqarorlik, infratuzilma va global iqtisodiyotning holati muhim o'rin tutadi. Umuman olganda, Afrika iqtisodiyoti quyidagi xususiyatlarga ega:

Ijobiy jihatlar:

⁶¹ Freepik.com

- *Tez o‘shish potentsiali:* Afrika yosh va tez o‘sayotgan aholisi bilan katta ichki bozorga ega. Bu esa ko‘plab sohalarda iqtisodiy o‘shish uchun katta imkoniyat yaratadi.

- *Tabiiy resurslarning boyligi:* Afrika neft, gaz, minerallar, o‘rmon va boshqa qimmatli resurslarga boy. Ushbu resurslarni samarali boshqarish iqtisodiy taraqqiyotga turtki bo‘lishi mumkin.

- *Investitsiyalar oqimi:* Oxirgi yillarda Afrika mamlakatlariga xorijiy investitsiyalar oqimi ortib bormoqda. Bu investitsiyalar infratuzilma, sanoat va boshqa sohalarning rivojlanishiga yordam beradi.

- *Texnologiyalarni jadal rivojlanishi:* Mobil aloqa texnologiyalari va internetning rivojlanishi Afrika mamlakatlarida iqtisodiy faoliyatning yangi shakllarini vujudga keltirmoqda. Masalan, mobil to‘lov tizimlari va elektron tijorat tez sur‘atlar bilan ommalashib bormoqda.

Salbiy jihatlar:

- *Kam rivojlangan infratuzilma:* Ko‘plab Afrika mamlakatlarida transport, energiya va aloqa infratuzilmasi yomon holatda ekanligi iqtisodiy faoliyatning samaradorligini pasaytiradi.

- *Siyosiy beqarorlik va mojarolar:* Siyosiy beqarorlik va mojarolar investitsiyalarni qaytarishni qiyinlashtiradi va iqtisodiy o‘shishni sekinlashtiradi. Korrupsiya ham iqtisodiyotga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

- *Qashshoqlik va ishsizlik:* Ko‘plab Afrika mamlakatlarida qashshoqlik va ishsizlik darajasi yuqori. Bu esa ijtimoiy muammolarni kuchaytiradi va iqtisodiy o‘shishni cheklaydi.

- *Iqlim o‘zgarishi:* Iqlim o‘zgarishi qishloq xo‘jaligiga, suv ta‘minotiga va boshqa sohalarga salbiy ta‘sir ko‘rsatib, iqtisodiyotga xavf soladi.

- *Qaramlik:* Ba‘zi mamlakatlar chet elga juda qaram bo‘lib, iqtisodiyotning turli sohalari rivojlanmagan.

Xulosa qilib aytganda, Afrika iqtisodiyoti murakkab va dinamik xususiyatlarga ega. Uning kelajakdagi taraqqiyoti ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lib,

ular orasida yaxshi boshqaruv, infratuzilmani rivojlantirish, ta'lim va sog'liqni saqlashga investitsiyalar, shuningdek, global hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Afrika mamlakatlarining o'ziga xos geografik va iqtisodiy sharoitlarini hisobga olgan holda, har bir mamlakat uchun individual yondashuv zarur.

7.2. Osiyodagi asosiy transport koridorlari va ularning geografik joylashuvi

Osiyodagi asosiy transport koridorlari global savdo va logistika tizimining ajralmas qismi bo'lib, Yevropa, Afrika va Amerika bozorlarini Osiyo bilan bog'lashda strategik ahamiyat kasb etadi. Xitoy–Markaziy Osiyo–Yevropa yo'lagi, Xalqaro Shimol-Janub transport koridori (INSTC), Trans-Kaspiy xalqaro transport yo'lagi va Janubi-Sharqiy Osiyo transport tarmoqlari mintaqalararo integratsiyani kuchaytirib, savdo oqimlarini tezlashtirishga xizmat qilmoqda. Ushbu koridorlarning rivojlanishi Osiyo davlatlarining iqtisodiy o'sishiga turtki berib, xalqaro yuk tashish xarajatlarini kamaytirish, yetkazib berish zanjirlarini barqarorlashtirish va geosiyosiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda.

Osiyodagi asosiy transport koridorlari iqtisodiy va logistika aloqalarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu transport yo'nalishlari Osiyo davlatlarini bir-biri bilan va boshqa mintaqalar bilan bog'lab, global savdo oqimlarini tezlashtiradi. Quyida Osiyodagi asosiy transport koridorlari va ularning geografik joylashuvi haqida batafsil ma'lumot keltiriladi (7.2.1-jadval).

7.2.1-jadval

Osiyodagi asosiy transport koridorlari va geografik joylashuvi

Transport koridori nomi	Geografik joylashuvi	Xususiyatlari va ahamiyati
Yangi Ipak yo'li (Belt and Road Initiative, BRI)	Xitoydan boshlanib, Markaziy Osiyo orqali Yevropa, Yaqin Sharq va Afrika davlatlariga boradi.	Global savdo va infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan. Temir yo'llar, avtomobil yo'llari va dengiz yo'laklarini qamrab oladi.
TRACECA (Transport Corridor Europe-Caucasus-Asia)	Sharqiy Yevropa, Kavkaz va Markaziy Osiyo davlatlarini bog'laydi.	Savdo va yuk tashishda Yevropa va Osiyo o'rtasidagi eng muhim yo'laklardan biri.

North-South Transport Corridor (NSTC)	Rossiya, Ozarbayjon, Eron va Hindiston orqali Hind okeani bilan bog‘lanadi.	Yevropa va Janubiy Osiyo o‘rtasidagi yuk tashish masofasini qisqartiradi.
Markaziy Osiyo transport yo‘laklari	O‘zbekiston, Qozog‘iston, Turkmaniston, Qirg‘iziston va Tojikistonni qamrab oladi.	Mintaqadagi iqtisodiy integratsiyani mustahkamlaydi va Xitoy-Yevropa savdo yo‘nalishida tranzit rol o‘ynaydi.
China-Pakistan Economic Corridor (CPEC)	Xitoy va Pokistonni bog‘lab, Gvadar portiga chiqadi.	Xitoyning dengizga chiqish imkoniyatini ta‘minlab, Janubiy Osiyo bilan aloqalarni kuchaytiradi.
Janubi-Sharqiy Osiyo transport yo‘laklari	ASEAN mamlakatlari (Tailand, Vyetnam, Malayziya, Indoneziya va boshqalar)ni bog‘laydi.	ASEAN mamlakatlarida mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikni rivojlantiradi.
Trans-Sibir magistrali	Rossiyaning Vladivostok portidan Yevropa g‘arbigacha uzatilgan.	Yevropa va Osiyo o‘rtasidagi eng uzun temir yo‘l transport yo‘nalishi.

Osiyodagi asosiy transport koridorlari mintaqaviy integratsiya, xalqaro savdo va logistika tarmoqlarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu koridorlarning har biri o‘ziga xos geografik joylashuvi va strategik ahamiyatga ega bo‘lib, ular orqali savdo oqimlari, infratuzilma loyihalari va siyosiy aloqalar kuchaytiriladi.

Quyida asosiy transport koridorlari haqida batafsil ma’lumot keltiriladi.

Yangi Ipak yo‘li (Belt and Road Initiative, BRI) Xitoy tomonidan taklif qilingan global tashabbus bo‘lib, Osiyo, Yevropa va Afrikani bog‘laydigan transport va savdo yo‘laklarini rivojlantirishni maqsad qiladi. Bu koridor ikki asosiy yo‘nalishga ega: quruqlikdagi Ipak yo‘li iqtisodiy tasmachasi va dengizdagi Ipak yo‘li. Quruqlikdagi yo‘lak Xitoydan Markaziy Osiyo davlatlari, Rossiya va Sharqiy Yevropa orqali G‘arbiy Yevropaga boradi. Dengiz yo‘li esa Janubi-Sharqiy Osiyo, Hind okeani va Afrika portlari orqali Yevropa va Yaqin Sharq davlatlariga ulanishni ta‘minlaydi. Loyiha temir yo‘llar, avtomobil yo‘llari va dengiz portlari infratuzilmasini o‘z ichiga oladi, bu esa Xitoyning xalqaro savdodagi rolini kuchaytiradi.

TRACECA (Transport Corridor Europe-Caucasus-Asia) Yevropa, Kavkaz va Markaziy Osiyoni bog‘lovchi muhim savdo va transport yo‘lagi hisoblanadi. Ushbu koridor Sharqiy Yevropadan boshlanib, Turkiya, Gruziya va

Ozarbayjon orqali Kaspiy dengiziga chiqadi, keyin esa Markaziy Osiyo davlatlariga yetib boradi. TRACECA ning asosiy vazifasi Yevropa va Osiyo o'rtasida yuk tashish samaradorligini oshirish hamda yangi savdo yo'laklarini yaratishdan iborat. U mintaqadagi infratuzilma loyihalarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

North-South Transport Corridor (NSTC) Rossiya, Ozarbayjon, Eron va Hindistonni bog'laydigan strategik transport yo'lagi bo'lib, Yevropa va Janubiy Osiyo o'rtasidagi yuk tashish masofasini sezilarli darajada qisqartiradi. Bu koridor Shimoliy Yevropadan boshlanib, Rossiya, Kaspiy dengizi va Eron orqali Hind okeaniga chiqadi. NSTC orqali yuk tashish dengiz yo'llariga nisbatan ancha tez amalga oshiriladi, bu esa Hindiston, Rossiya va Eronning savdo hamkorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Markaziy Osiyo transport yo'laklari mintaqadagi davlatlarni birlashtiruvchi asosiy yo'nalishlardir. O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston va Tojikiston orqali o'tadigan transport tarmoqlari mintaqaviy iqtisodiy aloqalarni rivojlantiradi. Bu yo'laklar Xitoyning "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi doirasida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Markaziy Osiyo transport koridorlari Yevropa va Xitoy o'rtasidagi tranzit vaqtini qisqartirishda asosiy rol o'ynaydi.

China-Pakistan Economic Corridor (CPEC) Xitoy va Pokistonni bog'lovchi muhim yo'nalish bo'lib, u orqali Xitoyning Gvadar portiga chiqish imkoniyati yaratilgan. Ushbu loyiha Xitoyning energiya resurslariga bo'lgan ehtiyojini qondirish va Janubiy Osiyo mamlakatlari bilan savdo aloqalarini mustahkamlash maqsadini ko'zlaydi. Koridor temir yo'llar, avtomobil yo'llari va energetika infratuzilmasini o'z ichiga oladi.

Janubi-Sharqiy Osiyo transport yo'laklari ASEAN mamlakatlari o'rtasidagi mintaqaviy iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Tailand, Vyetnam, Malayziya, Indoneziya kabi davlatlarni birlashtiruvchi yo'llar Janubi-Sharqiy Osiyoning global savdodagi ahamiyatini oshiradi. Ushbu yo'laklar orqali mintaqada logistik xizmatlarning samaradorligi sezilarli darajada yaxshilanmoqda.

Trans-Sibir magistrali Rossiya orqali o'tadigan dunyodagi eng uzun temir yo'l yo'nalishidir. Bu yo'lak Yevropa va Osiyoni bog'lovchi strategik savdo yo'nalishi hisoblanib, yuk tashish uchun muhim infratuzilmani ta'minlaydi. Vladivostok portidan boshlanib, Rossiyaning g'arbiy chegaralarigacha yetib boradigan ushbu temir yo'l global transport tizimining ajralmas qismi hisoblanadi.

Yuqorida sanab o'tilgan transport koridorlari Osiyoning iqtisodiy rivojlanishi, xalqaro savdoni kengaytirish va mintaqalararo aloqalarni mustahkamlashda asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu yo'laklar infratuzilmani rivojlantirish bilan birga, mamlakatlar o'rtasida siyosiy va iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

7.3. Afrikadagi transport koridorlari va infratuzilma loyihalari

Afrikadagi transport koridorlari va infratuzilma loyihalari mintaqaning iqtisodiy rivojlanishi va global savdo tarmoqlariga integratsiyasida muhim rol o'ynamoqda. Qit'adagi keng geografik hudud va tabiiy resurslarning boyligi mintaqalararo aloqalarni mustahkamlashni taqozo etadi. Shu bois Afrika davlatlari transport infratuzilmasini rivojlantirish orqali iqtisodiy salohiyatni oshirishga intilmoqda. Transport koridorlari nafaqat ichki savdo va turizmni qo'llab-quvvatlaydi, balki qit'aning xalqaro bozorlar bilan bog'lanishini ta'minlaydi.

Hozirgi kunda Afrikada mintaqaviy savdo bloklari, xususan, Afrika Ittifoqi va Afrika Qit'a Erkin Savdo Hududi (AfCFTA) tashabbuslari asosida transport koridorlarini kengaytirish ishlari olib borilmoqda. Ushbu loyihalar Yevropa, Osiyo va Amerika bilan savdo aloqalarini kuchaytirish maqsadida amalga oshirilmoqda. Kongo daryosi bo'ylab transport tarmoqlarini rivojlantirish, Sharqiy Afrikadagi temir yo'l loyihalari, shuningdek, Sahroi Kabir osti hududidagi transport yo'llarining modernizatsiyasi Afrika davlatlarining iqtisodiy imkoniyatlarini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Umuman olganda, Afrikadagi transport koridorlari va infratuzilma loyihalari qit'aning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shib, ichki va xalqaro iqtisodiy

integratsiyani kuchaytirish orqali Afrikani global iqtisodiy tizimning faol ishtirokchisiga aylantiradi.


Trans-African koridorlari Afrikadagi transport infratuzilmasini rivojlantirish va qit'ani yanada yaxlit iqtisodiy tizimga aylantirish maqsadida tashkil etilgan asosiy yo'laklar tarmog'idir. Ushbu koridorlar qit'a ichidagi va xalqaro savdoni rivojlantirish uchun strategik ahamiyatga ega bo'lib, Afrika mamlakatlarini mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik doirasida bog'laydi. Trans-African koridorlari Afrika Ittifoqi, mintaqaviy tashkilotlar va xalqaro donor tashkilotlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Ular qit'aning ichki transport tarmog'ini yaxshilash, yuk tashish jarayonlarini tezlashtirish va qit'a bo'ylab aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan.

Trans-African yo'llari loyihasi qit'ani g'arbdan sharqqa va shimoldan janubga qamrab oluvchi 10 ta asosiy koridordan iborat. Ushbu koridorlar orasida Trans-Sahel koridori, Trans-Sahroi Kabir koridori, Shimol-Janub koridori va Sharqiy Afrikaning Katta Ko'llar mintaqasini qamrab oluvchi koridorlar mavjud. Har bir koridor mamlakatlararo savdo aloqalarini kengaytirish va mintaqaviy iqtisodiy integratsiyani mustahkamlash maqsadini ko'zlaydi. Masalan, Shimol-Janub koridori Janubiy Afrikadan boshlanib, Tanzaniya, Zambiya, Zimbabve va boshqa davlatlar orqali Shimoliy Afrikaga ulanishni ta'minlaydi. Ushbu yo'lak qit'adagi eng muhim tranzit tarmog'idan biri hisoblanib, quruqlikdagi yuk tashish uchun katta ahamiyatga ega.

Shuningdek, Trans-African koridorlari doirasida temir yo'l infratuzilmasini rivojlantirish va modernizatsiya qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Masalan, Sharqiy Afrika transport tarmog'i Xitoy bilan hamkorlikda rivojlantirilayotgan loyihalardan biri bo'lib, u Mombasa portini Uganda, Ruanda va Burundi kabi davlatlar bilan bog'laydi. Bundan tashqari, LAPSSET (Lamu Port-South Sudan-Ethiopia Transport Corridor) loyihasi Sharqiy Afrikada yangi transport tarmog'ini yaratish orqali iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirishga qaratilgan.

Trans-African Corridors

The Trans-African Highway network comprises transcontinental road projects in Africa being developed by UNECA, the African Development Bank (ADB), and the African Union. The total length of the nine Trans-African Highways in the network is **56 683 km**



Izoh: Chizmaning aniq mazmunini saqlab qolish va xalqaro iqtisodchilarga mo'ljallanganligi nuqtayi nazaridan tarjimaga qo'l urilmadi.

7.3.1-rasm. Trans-Afrika koridorlari⁶²

Trans-African koridorlarining yana bir muhim jihati qit'adagi mintaqaviy bloklar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashdir. Masalan, Afrika Qit'a Erkin Savdo Hududi (AfCFTA) doirasida ushbu koridorlar savdo to'siqlarini bartaraf etish va yuk tashishni osonlashtirish uchun muhim infratuzilma bo'lib xizmat qiladi. Koridorlar, shuningdek, energetika infratuzilmasi, masalan, gaz va neft quvurlari, shuningdek, elektr uzatish tarmoqlarini rivojlantirishga imkon yaratmoqda.

Trans-African koridorlari nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu yo'laklar orqali yangi ish o'rinlari yaratilmoqda, qishloq joylarida iqtisodiy faollik oshmoqda va mintaqalardagi aholi uchun transport xizmatlari yaxshilanmoqda. Shu bilan birga, koridorlar turizmni

⁶² Sources: Africa Infrastructure Knowledge Program

rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar ochib beradi, chunki ular Afrikaning turli mintaqalari va diqqatga sazovor joylarini bog'laydi.

Afrika mamlakatlarida transport murakkab va joylashuviga qarab farq qiladi, ammo bu yerda bir nechta umumiy transport turlari mavjud:

Avtomobil yo'llari: Afrikadagi asosiy transport turi, yo'lovchi va yuk tashishning qariyb 90 foizini tashiydi. Ba'zi mamlakatlar transport uchun faqat yo'llarga tayanadi.

Jamoat transporti: avtobuslar, mikroavtobuslar va umumiy taksilarni o'z ichiga oladi. Avtobuslar shaharlar o'rtasida sayohat qilishning eng mashhur usulidir. Mikroavtobuslar - 16 tagacha yo'lovchini tashiydigan va qat'iy belgilangan yo'nalishlarda harakatlanadigan kichik furgonlar. Umumiy taksilar shaharlar ichida qisqa masofalarga sayohat qilish uchun ishlatiladi.

Dengiz yo'llari: katta yoki katta hajmdagi yuklar uchun tejamkor variant. Lekin Afrikadagi hamma mamlakatlarda ham to'g'ridan-to'g'ri dengizga chiqish imkoniyati mavjud emas. Dengizga yaqin mamlakatlar uchun esa bu yo'l ko'plab xarajatlarni tejaydi.

Havo yo'llari - xalqaro va ba'zan milliy sayohatlarning asosiy vositasi. Yirik xalqaro aeroportlar Marokashning Kasablanka shahrida joylashgan; Qohira, Misr; Dakar, Senegal; Lagos, Nigeriya; va boshqa shaharlar. Aviatsiya butun dunyo bo'ylab yagona tezkor transport tarmog'ini taqdim etadi, bu uni global biznes uchun, natijada katta sayohat va savdo uchun xizmat qiladi. Havo transporti iqtisodiy o'sishni keltirib chiqaradi, ish o'rinlarini yaratadi va xalqaro savdo va turizmni osonlashtiradi. Aviatsiya sanoatining umumiy iqtisodiy ta'siri dunyodagi YaIMning 3.5 foizini tashkil etadi. Afrikada, shubhasiz, ulkan turizm va havo transporti rivojlanish potentsiali mavjud bo'lib, u hali foydalanilmaydi. Garchi ba'zi Afrika davlatlari sanoatlashtirish yo'li bilan tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish uchun juda kichik yoki uzoqroq bo'lishsa-da, ular foydalanilmayotgan tabiiy va madaniy sayyohlik salohiyati va xizmatlari bilan havo transporti sohasida savdo qilish imkoniyatlariga ega. Tabiat boyligi bilan ta'minlangan qit'a, asl manzil sifatida va

o'ziga xosligi bilan sayyohlik faoliyatidan ko'proq foyda olish uchun yaxshi joylashtirilgan. Biroq, bu potentsial hali haqiqiy turizm va havo transportining o'sishiga aylantirilmagan. Darhaqiqat, mintaqa jahon bozoriga sayyohlik va havo transporti rivojlanishning tan olingan salohiyatlariga mos keladigan samarali kuch bo'lishiga imkon beradigan darajada erisha olmagan. Afrikadagi sayyohlik sohasi havo transportiga katta bog'liqligi va dunyoning boshqa joylariga nisbatan havo transporti xizmatlarining mavjudligi cheklanganligi sababli, turizmning o'sishi havo transportining cheklanganligi oqibatida zarar ko'rdi. Afrika shtatlaridagi aksariyat aeroportlar, ayniqsa LDC, LLDC va SIDS, haftasiga faqat cheklangan miqdordagi parvozlarni qabul qilishadi; Afrikadagi parvozlar uchun ham, Afrikaga va undan qaytib keladigan xalqaro parvozlar uchun ham havo qatnovi xarajatlari nomutanosib ravishda yuqori deb hisoblanadi. Havo qatnovlarini davom ettirish bo'yicha noaniqlik sayyohlik sanoatining ichki investitsiyalariga va kiruvchi turizm imkoniyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin va shu sababli xizmatning haqiqiy yo'qotilishi ancha katta xarajatlarga olib kelishi mumkin. Ishonchli, jozibali havo qatnovlari va uyg'unlashtirilgan aviatsiya va turizm siyosatisiz aviatsiya va turizmning afzalliklari shunchaki amalga oshirilmaydi yoki hech bo'lmaganda cheklanmaydi.

Turli xil landshaftlari va jonli madaniyatlari bilan mashhur Afrika, shuningdek, ichki va xalqaro sayohatlar uchun asosiy markaz bo'lib xizmat qiladigan bir qancha yirik aeroportlarga ega. Bu aeroportlar gavjum poytaxt markazlaridan tortib global tranzit uchun strategik manzillargacha, qit'ani dunyoning qolgan qismi bilan bog'lashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu yerda yo'lovchi tashish va infratuzilmaga asoslangan Afrikadagi eng yirik 8 ta aeroportni ko'rib chiqamiz.

1. YOKI Tambo xalqaro aeroporti (JNB) Yoxannesburgdagi aeroport Afrikaning eng gavjum aeroporti unvoniga ega. U Afrikani barcha qit'alar bo'ylab yo'nalishlar bilan bog'laydigan ichki va xalqaro reyslar uchun muhim darvoza bo'lib xizmat qiladi.

2. Qohira xalqaro aeroporti (CAI) Misr poytaxtida joylashgan va Yaqin Sharq va Afrikaga sayohat qilish uchun asosiy markaz hisoblanadi. Bu har yili millionlab yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatadigan qit‘adagi ikkinchi eng gavjum aeroportdir.

3. Keyptaun xalqaro aeroporti (CPT) qirg‘oq bo‘yidagi Keyptaun shahrida joylashgan bo‘lib, Janubiy Afrikaga tashrif buyuradigan sayyohlar uchun muhim kirish nuqtasidir. Uning zamonaviy jihozlari va go‘zal atrofi uni sayohatchilar orasida mashhur aeroportga aylantiradi.

4. King Shaka xalqaro aeroporti (DUR) Durban va Janubiy Afrikaning uning atrofidagi mintaqalarga xizmat qiladi. So‘nggi yillarda u ichki va xalqaro reyslarni qabul qilishda sezilarli o‘shishni kuzatdi.

5. Muhammad V xalqaro aeroporti (CMN) Marokashning eng gavjum aeroporti va Shimoliy Afrikaga asosiy darvoza hisoblanadi. U Yevropa, Afrika va Yaqin Sharqni bog‘laydigan katta hajmdagi xalqaro trafikni boshqaradi.

6. Jomo Kenyatta xalqaro aeroporti (NBO) Sharqiy Afrika havo transporti tarmog‘ida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. U mintaqani o‘rganayotgan sayohatchilar uchun asosiy markaz bo‘lib xizmat qiladi.

7. Xosea Kutako xalqaro aeroporti (WDH) Namibiyaning asosiy xalqaro aeroporti bo‘lib, mamlakatga va undan qaytishni osonlashtiradi. Bu Janubiy Afrikaning havo sayohatlari tarmog‘i uchun asosiy bo‘g‘in bo‘lib xizmat qiladi.

8. Addis-Abeba Bole xalqaro aeroporti (ADD) Efiopiyaning asosiy aeroporti va Afrika va undan tashqarida sayohat qilish uchun muhim markazdir. So‘nggi yillarda u tez o‘shishni boshdan kechirdi.

Janubiy Afrika Respublikasida Durban shahrida, Johannesburgda va Cape Townda uchta xalqaro aeroport mavjud. Parvozlar narxi juda yuqori, ammo sifati juda yaxshi va reyslar o‘rtasida kechikish yo‘q, barcha samolyotlar qat’iy belgilangan jadvalda qoldiriladi. Aviakompaniyalarga arzon narxlardagi kompaniyalar – “FlyMango”, Interlink Airlines (Mozambik, Tanzaniya, Zimbabve),

“Kulula Air” (ichki yo‘nalishlarga qo‘shimcha ravishda, Zimbabve, Zambiya, Namibiya va Mauritius shaharlariga) yetkazib berildi.

Temir yo‘l transporti. Poyezdlar mamlakatning barcha yirik shaharlarini birlashtiradi. Poyezdlarga qo‘shimcha ravishda elektr poyezdlari ham mavjud. Safarning narxi juda ham yuqori emas, shuning uchun har qanday ish bilan shug‘ullanadigan har bir kishi, Cape Town uchun Durbandan ketib qoladi. Istisno - yuqori qulaylikdagi poyezdlar (Trans-Kuru, Blue-Train). Ularga dastlabki buyurtmanomadan keyin borish mumkin.


Barcha poyezdlarni uch turga bo‘lish mumkin:

- joylashtiruvchi;
- 4 o‘rindiqli xonasi;
- 6 o‘rindiqli xonasi mavjud.

Afrikaning asosiy transport koridorlari qit‘aning ichki iqtisodiy aloqalarini kuchaytirish, xalqaro savdo imkoniyatlarini kengaytirish va global bozorlar bilan bog‘lanishni ta‘minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu koridorlar transport infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, qit‘adagi davlatlarni birlashtiradi va mintaqaviy iqtisodiy integratsiyani qo‘llab-quvvatlaydi. Afrika bo‘ylab tashkil etilgan transport koridorlari asosan yo‘l tarmoqlari, temir yo‘llar, dengiz portlari va aviatsiya infratuzilmasini qamrab oladi.

Eng yirik transport koridorlaridan biri bu **Shimol-Janub koridori** bo‘lib, u Janubiy Afrikadan boshlanib, Botswana, Zambiya, Mozambik, Malavi va Zimbabveni bog‘lab, Tanzaniyaga qadar cho‘ziladi. Ushbu koridor qit‘aning shimoliy va janubiy qismlarini birlashtirishga xizmat qiladi va quruqlikda yuk tashish jarayonlarini osonlashtiradi.

Koridor qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, minerallar va boshqa xomashyo resurslarini xalqaro bozorga olib chiqishda muhim ahamiyatga ega. Shimol-Janub koridori mintaqada ichki transportni modernizatsiya qilish va tijorat faoliyatini kengaytirish uchun asosiy tarmoqdir.



Izoh: Chizmaning aniq mazmunini saqlab qolish va xalqaro iqtisodchilarga mo'ljallanganligi nuqtayi nazaridan tarjimaga qo'l urilmadi.

7.3.2-rasm. Afrikaning asosiy transport koridorlari⁶³

Sharqiy Afrika transport koridori mintaqaning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, Mombasa va Dar-es-Salaam portlarini Uganda, Ruanda, Burundi, Kongo Demokratik Respublikasi va Janubiy Sudanga bog'laydi. Ushbu koridor orqali Sharqiy Afrika mamlakatlari dengiz savdosiga chiqish imkoniyatini kengaytiradi va iqtisodiy faollikni oshiradi. Temir yo'l tarmoqlari, avtomobil yo'llari va dengiz portlarini modernizatsiya qilish ushbu yo'nalishning asosiy maqsadlaridan biridir. Koridor ayniqsa qishloq xo'jaligi va tog'-kon sanoati mahsulotlarini tashishda muhim o'rin tutadi.

Trans-Sahel koridori g'arbdan sharqqa o'tuvchi strategik yo'nalish bo'lib, G'arbiy Afrikadagi Dakar shahrini Chadning NDjamena shahri bilan bog'laydi. Ushbu koridor Sahroi Kabir hududini kesib o'tadi va Niger, Mali, Burkina-Faso kabi davlatlarni birlashtiradi. Trans-Sahel koridori mintaqada ijtimoiy va iqtisodiy

⁶³ Main Corridors and Radials, Source: Rail Development in Africa: Stakes and Prospects, Objectives and Missions of the African Rail Union (ARU); 10-14 April 2006, Brazzaville, Republic of Congo

rivojlanishni rag'batlantiradi va savdo aloqalarini yaxshilash orqali aholi farovonligini oshiradi.

Trans-Sahroi Kabir koridori Afrikaning shimoli va markaziy qismlarini birlashtiruvchi yo'nalish bo'lib, Aljirni Niger va Nigeriya bilan bog'laydi. Ushbu koridor shimoliy va markaziy Afrika o'rtasidagi savdo va transport aloqalarini rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Koridor orqali neft, gaz va boshqa energiya resurslarini tashish imkoniyatlari kengaymoqda. Bundan tashqari, ushbu yo'nalish turizmni rivojlantirish uchun ham muhim bo'lib, u orqali sayyohlar Sahroi Kabirning o'ziga xos go'zalliklaridan bahramand bo'lishlari mumkin.

LAPSSET (Lamu Port-South Sudan-Ethiopia Transport Corridor) Sharqiy Afrikadagi yirik transport loyihalaridan biri bo'lib, Keniya, Janubiy Sudan va Efiopiyani bog'laydi. Ushbu koridor dengiz portlarini ichki hududlar bilan bog'lash orqali xalqaro savdo aloqalarini rivojlantirishga qaratilgan. LAPSSET loyihasi doirasida yangi portlar, avtomobil va temir yo'llar qurilmoqda, bu esa mintaqaning iqtisodiy salohiyatini oshiradi. Koridor ayniqsa Efiopiya va Janubiy Sudanning eksport imkoniyatlarini kengaytirish uchun muhim ahamiyatga ega.

G'arbiy Afrika transport koridori qit'aning g'arbiy hududlarida joylashgan mamlakatlarni bog'laydi va Gvineya ko'rfazi portlari orqali xalqaro savdo imkoniyatlarini oshiradi. Ushbu koridor orqali transport samaradorligini oshirish va mintaqada iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga intilish mavjud. G'arbiy Afrika transport koridori mintaqadagi yo'l va temir yo'l infratuzilmasini modernizatsiya qilishga qaratilgan.

Umuman olganda, Afrikaning asosiy transport koridorlari qit'aning iqtisodiy rivojlanishida va xalqaro savdo aloqalarini kuchaytirishda strategik ahamiyatga ega. Ushbu koridorlar nafaqat transport va logistika imkoniyatlarini yaxshilaydi, balki yangi ish o'rinlarini yaratish, qishloq hududlarini rivojlantirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, qit'a mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirish va Afrikani global iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylantirish uchun asosiy infratuzilma tarmoqlari hisoblanadi.

7.4. Transport koridorlarini rivojlantirish va tashkil etishdagi muammolar va imkoniyatlar

Osiyodagi transport koridorlarini rivojlantirish va tashkil etish mintaqaning iqtisodiy integratsiyasi va xalqaro savdo imkoniyatlarini kengaytirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Biroq bu jarayonda bir qator muammolar va shu bilan birga ko‘plab imkoniyatlar mavjud. Mintaqadagi davlatlar transport infratuzilmasini rivojlantirish orqali savdo-sotiq hajmini oshirish, logistika samaradorligini kuchaytirish va iqtisodiy faollikni rag‘batlantirishga intilmoqda, ammo bu boradagi sa’y-harakatlar ko‘plab ichki va tashqi omillar ta’sirida murakkabliklarga duch kelmoqda.

Birinchi muammo sifatida infratuzilmaning noteng rivojlanganligi va moliyaviy resurslarning yetishmasligi ko‘rsatiladi. Osiyoning rivojlanayotgan davlatlarida transport koridorlarini qurish va modernizatsiya qilish uchun zarur bo‘lgan mablag‘ ko‘p hollarda cheklangan. Xalqaro moliyaviy institutlar va davlatlararo hamkorlikka qaramay, uzoq muddatli infratuzilma loyihalarining moliyalashtirilishi ko‘pincha sust kechadi. Bundan tashqari, qishloq hududlarida transport tarmoqlarining rivojlanmagani iqtisodiy integratsiyani sekinlashtiradi va mintaqalarning iqtisodiy imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish imkonini bermaydi.

Ikkinchi muammo sifatida siyosiy va huquqiy kelishmovchiliklar qayd etiladi. Osiyo davlatlari o‘rtasidagi chegaraviy masalalar, savdo to‘siqlari va bojxona protseduralarining murakkabligi transport koridorlarining samarali faoliyat ko‘rsatishiga to‘sqinlik qiladi. Chegaralarda yuk tashish jarayonlarining sekinligi logistika xarajatlarini oshiradi va vaqtni ko‘proq talab qiladi. Ayniqsa, Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi bojxona jarayonlari va savdo to‘siqlari koridorlarning samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Transport koridorlarini rivojlantirishdagi uchinchi muammo ekologik va ijtimoiy xavflardir. Yangi yo‘llar va infratuzilma qurilishi tabiiy resurslarning kamayishiga, ekologik zarar yetkazilishiga va mahalliy aholi uchun noqulay sharoitlar tug‘ilishiga olib kelishi mumkin. Xususan, ekologik ta’sirlarni inobatga

olmagan holda amalga oshirilgan loyihalar tabiatga jiddiy zarar yetkazishi va ijtimoiy noroziliklarga sabab bo'lishi mumkin.

Shu bilan birga, Osiyodagi transport koridorlarini rivojlantirishning ko'plab imkoniyatlari ham mavjud. Birinchidan, ushbu koridorlar mintaqaviy iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish uchun qulay platforma yaratadi. Masalan, Xitoyning "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi orqali ko'plab davlatlar yangi transport tarmoqlariga ega bo'lish bilan birga savdo va investitsiyalar hajmini oshirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bunda Xitoy, Hindiston, O'zbekiston, Qozog'iston kabi mamlakatlar o'rtasida savdo hajmi sezilarli darajada o'smoqda.

Ikkinchidan, transport koridorlari yangi ish o'rinlari yaratish va qishloq hududlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Yo'llar, temir yo'llar va dengiz portlarini rivojlantirish orqali uzoq hududlarda iqtisodiy faollik oshadi, bu esa mahalliy aholi uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Transport infratuzilmasi shuningdek, turizmni rivojlantirishga ham katta hissa qo'shadi, chunki u sayyohlar uchun yangi marshrutlarni ochadi.

Uchinchidan, texnologik innovatsiyalar transport koridorlarini yanada samaraliroq qilish imkonini beradi. Raqamli tizimlarni joriy etish, masalan, bojxona jarayonlarini avtomatlashtirish va logistika boshqaruvini optimallashtirish orqali yuk tashish tezligi oshadi va xarajatlar kamayadi. Shu bilan birga, yashil transport texnologiyalarining rivoji ekologik ta'sirlarni minimallashtirishga yordam beradi.

Afrika davlatlarining deyarli barchasi JSTga a'zo. Afrika davlatlari iqtisodiyotining rivojlanishi har xil bo'lishi bilan ularning deyarli barchasi JST a'zolari va Afrika Kontinental erkin savdo hududi ishtirokchilari hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, savdo shartnomalarini tuzish va kompaniyalar o'rtasida ishbilarmonlik aloqalarini rag'batlantirish O'zbekistonning Afrika bozoriga kirishi uchun maqbul yo'nalish hisoblanadi. Ayni paytda O'zbekistonning Afrika mamlakatlariga eksportining 57 foizi Misrga yo'naltiriladi. Boshqa hamkorlar qatoridan Marokash (17%), Sudan (16%), Janubiy Afrika (6%) va Tunis (2%) mamlakatlari o'rin olgan.

Afrikaning ko‘plab mamlakatlari iqtisodiyotining ikkinchi muhim tarmog‘i hisoblanadi. Aksariyat Afrika davlatlarining iqtisodiyoti qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, ular uchun O‘zbekistondan o‘g‘it va qishloq xo‘jaligi texnikalarini import qilish imkoniyati jozibali ko‘rinadi. Afrikaning ko‘plab mamlakatlari iqtisodiyotining ikkinchi muhim tarmog‘i tog‘-kon sanoati – neft va gazdan tortib (Jazoir, Gabon, Liviya va Nigeriya) metallar, minerallar (Namibiya va Janubiy Afrikada) va olmos (Botsvana) hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonning tog‘-kon sanoati texnikasi eksporti ham ushbu mamlakatlarda qiziqish uyg‘otishi mumkin.

Misr bilan hamkorlik masalasi. Misr Shimoliy Afrikadagi iqtisodiyoti eng rivojlangan mamlakatlardan biri hisoblanadi. Mamlakatning asosiy eksporti neft, azotli o‘g‘itlar va oltin bo‘lsa, asosiy importga bug‘doy va dori-darmonlar kiradi. 2022-yilda Misrdan O‘zbekistonga amalga oshirilgan eksport hajmi 8,53 mln. dollarni tashkil etgan. O‘z navbatida O‘zbekiston Misrga 23 mln. dollarlik mahsulot, jumladan, sof paxta iplari, oltingugurt va sintetik shtapel tolali iplarni eksport qilgan. O‘zbekiston Misrga yuk mashinalari, fosfinatlar va mum ham yetkazib beradi. Misrga import qilish uchun Tartibga solinadigan mahsulotlar eksporti va importini nazorat qilish bosh tashkilotidan tegishli sertifikatni olinishi kerak. Misr eksport qiladigan polimer, temir va qog‘oz kabi ko‘plab mahsulotlar O‘zbekiston uchun qiziqish uyg‘otishi mumkin.

Janubiy Afrika Respublikasining asosiy eksporti qimmatbaho metallardan iborat. Janubiy Afrika Respublikasi ushbu qit‘adagi mamlakatlardan texnologik jihatdan va sanoati rivojlangan mamlakat sifatida ajralib turadi. Asosiy eksporti oltin, platina, temir rudasi, olmos, ko‘mir briketlari, xrom, titan va qimmatbaho metallardan iborat. Bundan tashqari, mamlakatdan katta miqdorda yengil va yuk avtomobillari, sentrifugalar, sulfatlar, sitrus mevalari eksport qilinadi. Asosiy import qilinadigan mahsulotlar safiga neft, avtomobillar (shu jumladan ehtiyot qismlar va aksessuarlar) hamda tele va radioeshittirish uskunalari kiradi.

2022-yilda Janubiy Afrika Respublikasi O‘zbekistonga 2,33 mln. dollarlik mahsulot, jumladan, kichik temir quvurlar, nikel, sitrus mevalari, elektronika, suyuqlik nasoslari va yong‘inga chidamli keramika eksport qildi. O‘z navbatida, O‘zbekistonning Janubiy Afrika Respublikasiga eksporti sulfatlar, sintetik filament iplari va sof paxta iplarini hisobga olgan holda 1,1 mln. dollarni tashkil etdi.

2 yil oldin Marokash O‘zbekistonga 659 ming dollarlik mahsulot eksport qilgan. Marokash tomonidan asosan eksport qilinadigan mahsulotlar aralash mineral va kimyoviy o‘g‘itlar, avtomobillar, izolyatsiyalangan simlar, fosfor kislotasi va kalsiy fosfatlaridan iborat. Shu bilan birga, asosiy import tovarlari neft va bug‘doydir. 2022-yilda Marokash O‘zbekistonga 659 ming dollarlik mahsulot eksport qilgan. O‘z navbatida, O‘zbekistonning Marokashga eksporti oltingugurt va neftni hisobga olgan holda 14 mln. dollarni tashkil etdi.

Tunisning eksport imkoniyatlari. Tunisning asosiy eksporti – izolyatsiyalangan sim, neft, erkaklar kostyumlari va zaytun moyi. Asosiy importga qayta ishlangan neft, neft gazi, bug‘doy va avtomobil kiradi. 2022-yilda Tunis O‘zbekistonga qiymati yarim million dollardan kam bo‘lgan mahsulot eksport qilgan. O‘z navbatida, O‘zbekistonning Tunisga eksporti 1,4 mln dollarni tashkil etib, asosan, rux, ip-kalava va to‘qilgan paxtadan iborat edi. O‘zbekiston eksportini kengaytirish uchun ilg‘or elektr butlovchi qismlar va uskunalar istiqbolli mahsulotlar bo‘lishi mumkin. Tovarlarini import qilish uchun maxsus hujjatlar talab qilinmaydi (tegishli litsenziya talablari bundan mustasno).

O‘zbekistonning Tunis bilan iqtisodiy hamkorligi yaxshi emas. Keniya eksporti qiladigan asosiy mahsulotlar choy, gullar, qahva va titan rudalaridan iborat. Asosiy importga neft, palma yog‘i, bug‘doy, dori-darmonlar va avtomobillar kiradi. 2022 va 2023-yillarda O‘zbekistondan Keniyaga tovarlar eksporti hajmi ko‘p bo‘lmagan. Sulfatlar va qishloq xo‘jaligi texnikasi eksportini kengaytirish mamlakatlar o‘rtasidagi savdo aloqalarini chuqurlashtirish yo‘lidagi birinchi qadam bo‘lishi mumkin. Keniyaga tovarlarni import qilish uchun bojxona tartib-taomillaridan o‘tish va Keniya Standartlar Byurosidan standartlashtirish sertifikatini

olish uchun murojaat qilish kerak. Savdo aloqalarini yanada kengaytirish, transport logistikasini yo'lga qo'yish va mahsulotlarimizni tashqi bozorlarga eksport qilish yo'llarini ko'paytirish maqsadida xorijiy hamkorlar bilan birgalikda "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish bo'yicha taklif tayyorlandi.

Yer yuzida davlatlararo yo'llarni yaxshilash masalasidan ko'plab yer osti yo'llari, ko'priklar turli xil tunellar quriladi. Afrika mamlakatini Yevropa, Osiyo qit'asiga bog'lash uchun ham ko'plab tadqiqotlar qilingan. **Gibraltar bo'g'oz**i bilan bog'liq. Gibraltar bo'g'ozini umumjahon ahamiyatiga ega chorraxa deyish mumkin. O'rta yer dengizini Atlantika okeani bilan bog'lovchi bo'g'oz, O'rta yer dengizi hududda joylashgan davlatlarni dunyodagi boshqa davlatlar bilan bog'lab turadi. Bu yo'l bo'ylab har kuni 200 ga yaqin yirik kemalar o'tadi. Uning ahamiyati 1869-yili dengiz yo'li uchun ochilgan **Suvaysh** kanalining rasmiy ochilishidan keyin yana to'xtadi. 160 metrlik kanal Yevrosiyoni va Afrikani ajratib turardi. Bu safar Kemalar Afrikani aylanib o'tib, hind okeani orqali O'rtayer dengiziga borishlariga hojat qolmadi va shu tarzda yo'lni deyarli 8 ming kmga qisqartirishdi. Ammo qanchalar g'alati bo'lmasin, Gibraltar bo'g'ozini bilan tarix o'zgacha va uning qarama qarshi taraflarini allaqachon quruqlik yo'llari bilan bog'lashmoqchi bo'lishdi.



Izoh: Chizmaning aniq mazmunini saqlab qolish va xalqaro iqtisodchilarga mo'ljallanganligi nuqtayi nazaridan tarjimaga qo'l urilmadi.

7.4.1-rasm. Gibraltar bo'g'oz⁶⁴

⁶⁴ <https://study.com/academy/lesson/the-strait-of-gibraltar-facts-importance.html>

Seriney yarimoroli va Marokash orasida jadal aloqalarga ehtiyoj bor. Uni qurish turli nuqtayi nazardan juda foydali. Masalan, sayyohlik va iqtisodiy Yevropa va Afrikani bog‘lash uchun 15 kmlik ko‘prik qurish kifoya. Bo‘g‘ozning minimal oralig‘i 14 kmdan sal oshiq. Zamonaviy o‘lchovlarga qaraganda bu unchalik ko‘p emas. 4 yilda qurib bitkazilgan Qrim ko‘prigining uzunligi 19 km. Nahotki Yevropaning bunday xarajatlarga kuchi yetmasa? Yoki yevropaliklar zarur texnologiyalarga ega emasmi? Aslida hammasi murakkabroq. Ikki qirg‘oqni ko‘prik yoki boshqa vositalar bilan bog‘lash ishlari XX asrning boshidan boshlangan va ulardan ayrimlarini aqlsizlarcha deb atashdan boshqa iloj yo‘q.

Afrika mamlakatlarining transport salohiyatini rivojlantirish qit‘aning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti uchun muhim omil hisoblanadi. Ushbu rivojlanish uchun infratuzilmani modernizatsiya qilish, texnologiyalardan foydalanish, siyosiy barqarorlik va samarali moliyalashtirish kabi muhim omillarni hisobga olish zarur. Kam rivojlangan infratuzilma, siyosiy beqarorlik, moliyaviy cheklovlar va korrupsiya kabi muammolarni bartaraf qilish, shuningdek, mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish orqali Afrika mamlakatlarining transport salohiyatini o‘zlashtirish va iqtisodiy o‘lishni ta‘minlash mumkin.

Asosiy tushunchalar

TRACECA (Transport Corridor Europe-Caucasus-Asia) – Yevropa, Kavkaz va Osiyoni bog‘lovchi xalqaro transport koridori bo‘lib, savdo va tranzitni rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan infratuzilma loyihasi.

Avtomobil yo‘llari – quruqlik transportining asosiy qismi bo‘lib, yuk va yo‘lovchi tashish uchun maxsus qurilgan infratuzilma tarmog‘i. U milliy va xalqaro savdo yo‘nalishlarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Jamoat transporti – shaharlarda va mintaqalararo yo‘lovchi tashish xizmatlarini ta‘minlaydigan tizim bo‘lib, avtobus, tramvay, metro va poyezd kabi transport vositalarini o‘z ichiga oladi.

Dengiz yo‘llari – xalqaro yuk tashishning asosiy kanallaridan biri bo‘lib, okean va dengizlar orqali yuk va yo‘lovchi transportini amalga oshiruvchi global transport tarmog‘i.

Havo yo‘llari – xalqaro va ichki aviatashuvlarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan transport yo‘nalishlari bo‘lib, yuk va yo‘lovchilarni tez va samarali tashish imkonini beradi.

Osiyo transport koridorlari – Osiyo qit‘asidagi asosiy transport yo‘laklari bo‘lib, Xitoy–Markaziy Osiyo–Yevropa yo‘lagi, Xalqaro Shimol-Janub transport koridori va Trans-Kaspiy yo‘lagi kabi infratuzilma loyihalarini o‘z ichiga oladi.

Afrika transport koridorlari – Afrika qit‘asida savdo va iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlovchi asosiy transport tarmoqlari bo‘lib, Shimol-Janub koridori, Lobito koridori va Afrikaning birlashgan transport tarmog‘i kabi loyihalarni o‘z ichiga oladi.

Nazorat savollari:

1. Osiyodagi asosiy transport koridorlarini sanab bering.
2. Afrika iqtisodiyotining ijobiy va salbiy xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Osiyodagi asosiy transport koridorlari va geografik joylashuvi haqida nimalarni bilasiz?
4. Osiyo qit‘asining qaysi koridori eng ko‘p foyda keltiradigan koridor hisoblanadi?
5. Afrika iqtisodiyotida Trans-Afrika koridorlarining o‘rni qanday?
6. Afrikaning asosiy transport koridorlari nechta?
7. Transport koridorlarini rivojlantirish va tashkil etishdagi muammolar haqida gapiring.
8. Osiyo va Afrika qit‘asidagi transport koridorlarini rivojlantirish bo‘yicha qanday imkoniyatlarga ega?
9. O‘zbekistonning Misr bilan hamkorlik masalasidan kutilayotgan natijalar nimalardan iborat?
10. Tunisning eksport imkoniyatlari nimalardan tashkil topgan?

Case Study

Masala: Afrikada transport tarmoqlarining rivojlanishi, xususan, “Trans-African Highway” tarmog‘ining kengayishi, mintaqalararo savdoni kuchaytiradi. Biroq, Afrikadagi transport infratuzilmasining rivojlanishiga siyosiy to‘sqinliklar katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Siyosiy beqarorlik, davlatlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar va xavfsizlik muammolari transport koridorlarining samarali ishlashiga to‘sqinlik qilmoqda. Shuningdek, infratuzilma loyihalariga investitsiyalarni jalb qilishda ijtimoiy va siyosiy to‘sqinliklar mavjud.

Topshiriq:

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun qanday yechimlar taklif qilasiz?

8-BOB. MARKAZIY OSIYO VA YEVROOSIYO TRANSPORT KORIDORLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

- 8.1. Markaziy Osiyo mamlakatlarining tranzit salohiyati va raqobatbardoshligi
- 8.2. Yevroosiyo makonidagi xalqaro transport koridorlari
- 8.3. Rivojlanish yo‘lida duch kelinayotgan muammolar
- 8.4. Markaziy Osiyo va Yevroosiyo mamlakatlari transport koridorlarining rivojlanish imkoniyatlari

8.1. Markaziy Osiyo mamlakatlarining tranzit salohiyati va raqobatbardoshligi

Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘zining strategik geografik joylashuvi tufayli xalqaro transport va logistika tizimida muhim o‘rin egallaydi. Ushbu hudud Sharq va G‘arbni, Shimol va Janubni bog‘lovchi transport koridorlarining chorrahasida joylashgan bo‘lib, yirik tranzit yo‘laklari uchun muhim platforma sifatida maydonga chiqmoqda. Xalqaro savdo yo‘laklari va logistika tarmoqlarining kengayishi global iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirish va mintaqa mamlakatlari iqtisodiy salohiyatini oshirish uchun ulkan imkoniyatlarni yaratadi.


Shu bilan birga, tranzit salohiyatining samarali ishlashi va raqobatbardoshligi qator omillarga bog‘liq. Infratuzilmaning rivojlanish darajasi, bojxona tartib-taomillari, transport tarmoqlari o‘rtasidagi uyg‘unlik, shuningdek, siyosiy barqarorlik va xalqaro hamkorlik kabi jihatlar bu borada hal qiluvchi ahamiyatga ega. Markaziy Osiyo mamlakatlari, xususan, O‘zbekiston, Qozog‘iston, Tojikiston, Qirg‘iziston va Turkmaniston, tranzit salohiyatini kuchaytirish maqsadida transport infratuzilmasini rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va xalqaro transport koridorlarida ishtirokini oshirishga intilmoqda.

Biroq, mintaqa mamlakatlarining tranzit salohiyatidan samarali foydalanish yo‘lida bir qator muammolar mavjud. Transport infratuzilmasining ayrim hududlarda yetarlicha rivojlanmaganligi, tarif siyosatidagi muvofiqlikning yo‘qligi, ekologik talablar va xalqaro logistika standartlariga moslashish kabi masalalar

mintaqaning global savdo yo‘laklaridagi raqobatbardoshligini cheklab kelmoqda. Shu bois, Markaziy Osiyo mamlakatlarining tranzit imkoniyatlarini yanada rivojlantirish uchun xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, mintaqaviy integratsiyani mustahkamlash va iqtisodiy islohotlarni jadallashtirish zarur.

O‘zbekiston Respublikasida eksport mahsulotlarini xorijiy bozorlarga tashishni tashkil etishda foydalanish uchun 9 ta asosiy xalqaro transport koridorlari mavjud.

“O‘zbekiston — Qozog‘iston — Rossiya Federatsiyasi — Yevropa Ittifoqi” transport koridori Markaziy Osiyodan Yevropaga bo‘lgan yuk tashish yo‘nalishlarining eng muhimlaridan biri hisoblanadi. Ushbu koridor strategik jihatdan xalqaro savdo aloqalarini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, Markaziy Osiyoni Shimoliy va G‘arbiy yo‘nalishdagi yirik iqtisodiy markazlar bilan bog‘laydi. Bu yo‘nalish orqali o‘tadigan transport oqimlari Yevropa va Osiyo davlatlari o‘rtasidagi savdo munosabatlarini tezlashtiradi, transport xarajatlarini kamaytiradi va mintaqaviy iqtisodiy integratsiyani mustahkamlaydi.



8.1.1-rasm. 1,2,3 – Koridor “O‘ZBEKISTON — QOZOG‘ISTON — RF — YEVRONA ITTIFOQI”⁶⁵

⁶⁵ <https://epauzb.uz/pages/transport-koridorlari>

Mazkur koridor orqali amalga oshiriladigan yuk tashish jarayonlari bir nechta asosiy transport turlari — temiryo‘l, avtomobil va dengiz transportlari orqali amalga oshiriladi. O‘zbekiston, koridorning boshlang‘ich nuqtasi sifatida, o‘zining rivojlanayotgan transport infratuzilmasi bilan ushbu yo‘nalishda strategik rol o‘ynaydi. Qozog‘iston ushbu koridorda muhim tranzit davlat sifatida chiqadi, chunki uning keng temiryo‘l tarmoqlari va yuk tashish imkoniyatlari Rossiya bilan uzviy bog‘langan. Rossiya Federatsiyasi esa koridorning asosiy ulushini tashkil etadi va Yevropa davlatlariga chiqish uchun asosiy yo‘lak vazifasini bajaradi.

Koridorning asosiy ahamiyati uning vaqt va masofa bo‘yicha samaradorligida ko‘rinadi. Ushbu yo‘nalish orqali Osiyodan Yevropaga o‘rtacha 10–14 kun ichida yuk yetkazish mumkin, bu dengiz yo‘llariga qaraganda ancha tez. Bu, ayniqsa, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, sanoat tovarlari va boshqa tez buziluvchi mahsulotlarni tashishda juda muhimdir. Shu bilan birga, koridor yuk tashish tariflarini maqbullashtirish imkonini beradi, chunki bu yo‘nalishdagi davlatlar o‘zaro bojxona protseduralarini soddalashtirishga intilmoqda.


8.1.1-jadval

“O‘ZBEKISTON — QOZOG‘ISTON — RF — YEVIROPA ITTIFOQI” koridoridagi yo‘nalishlar

Shimoliy, Shimoliy—G‘arbiy yo‘nalish			
“Toshkent — Qo‘ng‘irot — Beyneu — Saratov — Moskva — Riga (Vilnyus)”	4 781 (Riga) 4 857 (Vilnyus)	10-14 kun (48/48 soat)	2 000-2 300
“Toshkent — Qo‘ng‘irot — Beyneu — Saratov — Moskva — Smolensk — Brest — (Polsha, Germaniya, Fransiya, Ispaniya va boshqalar)”	4 421 (Minsk) 4 800 (Varshava) 5 400 (Berlin) 6 493 (Amsterdam) 6 842 (Parij) 8 117 (Madrid)	9-10 kun 10-12 kun 13-15 kun 14-16 kun 15-17 kun 17-19 kun (48/48 soat)	2 200-2 400 (Minsk) 2 300- 2 500 (Varshava) 3 100-3 400 (Berlin)
“Toshkent — Qo‘ng‘irot — Beyneu — Astraxan — Volgograd — Kiyev — (Polsha, Chexiya, Avstriya Slovakiya va boshqalar)”	4 140 (Kiyev) 5 400 (Praga) 5 400 (Vena) 5 400 (Bratislava)	9-10 kun 13-15 kun 13-15 kun 13-15 kun (48/48 soat)	2 200- 2 500 (Kiyev) 3 000-3 300
“Toshkent — Qo‘ng‘irot — Beyneu — Astraxan — Tbilisi — Batumi — Trabzon — Samsun — Istanbul — (Bolgariya, Ruminiya)”	5 500 (Sofiya) 5 600 (Buxarest)	14-15 kun 14-15 kun (48/48 soat)	4 000-4 300

Biroq, ushbu koridorda ayrim muammolar ham mavjud. Transport infratuzilmasining ayrim qismlarida modernizatsiya talab etiladi, ayniqsa, temiryo‘l va avtomobil yo‘llarining sifati va hajmi bo‘yicha muammolar kuzatilmoqda. Shuningdek, bojxona tartib-taomillarining muvofiqlashmagani yuklarni tashishda kechikishlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, koridorda raqamli texnologiyalarni joriy etish, xalqaro standartlarga mos keladigan infratuzilma loyihalarini amalga oshirish va davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirish zarur.

“O‘zbekiston — Turkmaniston — Ozarbayjon — Gruziya — Turkiya” transport koridori Markaziy Osiyoni Janubiy Kavkaz va Yaqin Sharq orqali Yevropa va O‘rta Yer dengizi bozorlariga bog‘lovchi strategik yo‘nalish hisoblanadi. Ushbu koridor Sharq-G‘arb yo‘nalishidagi savdo-sotiq va yuk tashish oqimlarini samarali tashkil etish uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uni “Transkaspiy xalqaro transport yo‘lagi” sifatida ham tanishadi. Ushbu yo‘nalish xalqaro yuk tashuvlarini tezlashtirish va mintaqaviy iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash imkonini beradi.



8.1.2-rasm. 4 – Koridor “O‘ZBEKISTON — TURKMANISTON — OZARBAYJON — GRUZIYA — TURKIYA” ⁶⁶

⁶⁶ <https://epauzb.uz/pages/transport-koridorlari>

Koridorning boshlang'ich nuqtasi O'zbekistondan o'tib, Turkmaniston hududlari orqali Kaspiy dengiziga chiqadi. Bu yerda yuklar Ozarbayjonning Boku porti orqali qabul qilinib, Gruziya va Turkiya hududlaridan o'tib, Yevropaga yetkaziladi. Turkmaniston ushbu yo'nalishda muhim tranzit davlat sifatida katta rol o'ynaydi, chunki uning zamonaviy avtomobil va temiryo'l infratuzilmasi, shuningdek, Turkmanboshi porti yuk tashish jarayonlarini samarali amalga oshiradi. Ozarbayjon, o'z navbatida, Kaspiy dengizidan yuklarni qabul qilish va tarqatishda markaziy o'rin egallaydi, uning Boku-Tbilisi-Qars temiryo'l liniyasi esa Gruziya va Turkiya orqali Yevropaga o'tishda asosiy vosita hisoblanadi.

Gruziya ushbu koridorda strategik bog'lovchi sifatida ishtirok etib, Qora dengiz orqali yuklarni Turkiya yoki Yevropa bozorlariga uzatadi. Turkiya esa koridorning oxirgi nuqtasi bo'lib, unda yuklar xalqaro bozorlarga yetkaziladi yoki dengiz portlari orqali boshqa davlatlarga qayta taqsimlanadi. Ushbu yo'nalish, ayniqsa, yirik transport infratuzilma loyihalari, jumladan, Boku-Tbilisi-Qars temiryo'li va Zangazur yo'lagi bilan o'z ahamiyatini oshirgan.

8.1.2-jadval

“O‘ZBEKISTON — TURKMANISTON — OZARBAYJON — GRUZIYA — TURKIYA” koridoridagi yo‘nalishlar

G‘arbiy yo‘nalish			
“Toshkent — Qo‘ng‘iro‘t — Beyneu — Oqtau — Boku — Tbilisi — Poti — (Bolgariya, Ruminiya va boshqalar)”	4 558 (<i>Konstansa</i>) 4 645 (<i>Burgas</i>)	19-21 kun	4 500-4 700
“Toshkent — Buxoro — Turkmanobod — Mari — Turkmanboshi — Boku — Tbilisi — Poti — (Bolgariya, Ruminiya, Vengriya va boshqalar)”	4 320 (<i>Burgas</i>) 4 233 (<i>Konstansa</i>)	19-21 kun	4 700-4 900


Koridorning afzalliklari sifatida transportning tezkorligi, masofa qisqarishi va transport xarajatlarining maqbullashishi keltiriladi. Mazkur yo'nalish bo'ylab

yuklarni tashishda raqamli logistika platformalarining joriy etilishi bojxona protseduralarini soddalashtiradi va yuklarni tezroq yetkazib berishni ta'minlaydi. Ayniqsa, bu koridor qishloq xo'jaligi mahsulotlari, sanoat tovarlari va energiya resurslarini tashishda samarali hisoblanadi.

Biroq, ushbu transport yo'lagini rivojlantirishda bir qator muammolar ham mavjud. Masalan, Kaspiy dengizi orqali yuk tashish hajmini oshirish uchun port quvvatlarini kengaytirish va suv transportlarini modernizatsiya qilish zarur. Shuningdek, tranzit davlatlar o'rtasidagi bojxona tartib-taomillari va tarif siyosatini muvofiqlashtirish kerak. Transport infratuzilmasining ayrim qismlarida modernizatsiya talab qilinayotgani ham koridorning samaradorligini pasaytiruvchi omillardan biri hisoblanadi.

“O‘zbekiston — Turkmaniston — Eron — Ummon” transport koridori Markaziy Osiyodan Fors ko'rfazi orqali xalqaro savdo va yuk tashish yo'nalishlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi strategik yo'lakdir. Ushbu koridor Osiyo mintaqasi mamlakatlarini janubiy dengiz portlariga ulash orqali, global savdo tizimiga samarali kirish imkonini beradi. U iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish, yuk tashish jarayonlarini tezlashtirish va transport xarajatlarini kamaytirish maqsadida tashkil etilgan.

Koridor O'zbekiston hududidan boshlanib, Turkmaniston orqali Eronning janubiy portlariga chiqadi. Eronning Bandar Abbas va Chabahar portlari bu yo'nalishda markaziy rol o'ynaydi, chunki ular Fors ko'rfazi orqali Ummon va boshqa Yaqin Sharq davlatlariga yuklarni uzatishda asosiy transport markazlari hisoblanadi. Turkmaniston esa ushbu koridorda muhim tranzit davlat sifatida qatnashib, o'zining temiryo'l va avtomobil yo'llari infratuzilmasi orqali yuk tashishni tashkil etadi.



8.1.3-rasm. 5 – Koridor “O‘ZBEKISTON — TURKMANISTON — ERON — UMMON”⁶⁷

Eron transport infratuzilmasi koridorda yetakchi o‘rinni egallaydi, chunki uning keng temiryo‘l tarmoqlari va zamonaviy dengiz portlari yuk tashish jarayonlarini samarali boshqarish imkonini beradi. Eronning Fors ko‘rfazidagi portlari Ummon bilan bevosita aloqada bo‘lib, dengiz orqali yuklarni Yaqin Sharq, Afrika va Janubiy Osiyo davlatlariga yetkazishni ta‘minlaydi. Ummon esa ushbu yo‘nalishning oxirgi nuqtasi sifatida koridorni global savdo tizimiga ulovchi eshik hisoblanadi.

Koridorning asosiy afzalliklari qatoriga masofa jihatidan qisqalik va yuk tashish vaqtining sezilarli darajada qisqarishi kiradi. Ushbu yo‘nalish boshqa transport yo‘laklariga qaraganda iqtisodiy jihatdan tejamkor bo‘lib, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, sanoat tovarlari va energiya resurslarini tashishda yuqori samaradorlikni ta‘minlaydi. Shu bilan birga, Eronning tranzit siyosati va port imkoniyatlari koridorning logistika qobiliyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

⁶⁷ <https://epauzb.uz/pages/transport-koridorlari>

8.1.3-jadval

“O‘ZBEKISTON — TURKMANISTON — ERON — UMMON” koridoridagi yo‘nalishlar


Janub, Janubiy — G‘arbiy yo‘nalish			
“Toshkent — Buxoro — Turkmanobod — Mari — Saraxs — Bandar—Abbos”	3 065	6-7 kun (48/48 soat)	2 400-2 600
“Toshkent — Buxoro — Turkmanobod — Mari — Saraxs — Mersin”	4 208	12-14 kun (48/48 soat)	3 000-3 300
“Toshkent — Buxoro — Turkmanobod — Mari — Saraxs — Istanbul — Sofiya”	5 156	14-15 kun (48/48 soat)	4 000-4 300

Ammo koridorning rivojlanishida bir qator muammolar mavjud. Turkmaniston va Eron o‘rtasida bojxona tartib-taomillarining murakkabligi tranzit yuklar oqimini sekinlashtirishi mumkin. Shuningdek, transport infratuzilmasining ayrim qismlarini modernizatsiya qilish zarur, ayniqsa, Eronning temiryo‘l tizimi va dengiz portlarining yuk qayta ishlash quvvatlari oshirilishi lozim. Mintaqadagi siyosiy va iqtisodiy muvozanat ham koridorning samaradorligiga ta’sir qiluvchi muhim omillardan biridir.

“O‘zbekiston — Qozog‘iston — Rossiya (Naxodka)” transport koridori Markaziy Osiyoni Sharqiy Osiyo va Tinch okean bo‘yidagi portlar bilan bog‘lovchi strategik yo‘nalish bo‘lib, xalqaro savdo va tranzit imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu yo‘lak orqali yuklarni Yevrosiyo mintaqasining turli bozorlariga, ayniqsa, Rossiya Uzoq Sharqi va Tinch okeani portlariga yetkazish imkoniyati mavjud. Koridor yuk tashishda iqtisodiy samaradorlikni oshirish va transport jarayonlarini tezlashtirishga xizmat qiladi.

Mazkur koridor O‘zbekiston hududidan boshlanib, Qozog‘iston orqali Rossiyaning Uzoq Sharqidagi Naxodka portigacha davom etadi. Qozog‘iston ushbu yo‘nalishda muhim tranzit davlat hisoblanadi, chunki uning keng avtomobil va temiryo‘l tarmoqlari O‘zbekistonni Rossiya bilan bog‘laydi. Qozog‘istonning Temiryo‘l tarmoqlari orqali yuklar Rossiya hududiga o‘tib, Uzoq Sharq portlariga

yetkaziladi. Rossiya, o‘z navbatida, koridorning asosiy qismi bo‘lib, uning hududi bo‘ylab yuklar Tinch okeani sohilidagi Naxodka portigacha yetkaziladi.



8.1.4-rasm. 6 – Koridor ““O‘ZBEKISTON — QOZOG‘ISTON — ROSSIYA” (NAXODKA)”⁶⁸

Naxodka porti Rossiyaning Uzoq Sharqdagi asosiy savdo markazi bo‘lib, yuklarni Tinch okeani orqali Janubiy Koreya, Yaponiya, Xitoy va boshqa Sharqiy Osiyo davlatlariga yetkazishda strategik ahamiyatga ega. Ushbu port zamonaviy infratuzilmaga ega bo‘lib, katta hajmdagi yuklarni qayta ishlash va saqlash imkoniyatlarini ta‘minlaydi. Koridor nafaqat eksport-import jarayonlarini soddalashtiradi, balki Markaziy Osiyodan Rossiya va Sharqiy Osiyo bozorlariga chiqish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.


Ushbu transport yo‘lagining afzalliklari sifatida transport masofasining nisbatan qisqarishi va yuk tashish xarajatlarining maqbullashuvi qayd etiladi. Ayniqsa, koridor mineral resurslar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va boshqa sanoat tovarlarini tashishda samarali hisoblanadi. Bundan tashqari, koridorda multimodal transport tizimlari, jumladan, avtomobil, temiryo‘l va dengiz transporti ishlatilishi yuklarni tezkor va samarali yetkazib berishga yordam beradi.

⁶⁸ <https://cpauzb.uz/pages/transport-koridorlari>

Biroq, ushbu yo‘nalishni to‘laqlonli rivojlantirishda bir qator muammolar mavjud. Masalan, tranzit mamlakatlarda transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish zarur. Ayniqsa, Qozog‘iston va Rossiyaning ayrim yo‘l tarmoqlarini modernizatsiya qilish va yuk qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish talab qilinadi. Bundan tashqari, bojxona tartib-taomillarining murakkabligi va tranzit xarajatlarining yuqoriligi koridorning samaradorligini pasaytiruvchi omillar sifatida ko‘riladi.

“O‘zbekiston — Qozog‘iston — Xitoy” transport koridori Markaziy Osiyo va Sharqiy Osiyoni bog‘lovchi strategik yo‘lak bo‘lib, mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu koridor orqali O‘zbekiston yuklarini Xitoy bozorlariga va undan keyingi xalqaro savdo yo‘nalishlariga qisqa va samarali yo‘l orqali yetkazish imkoniyati yaratiladi. Koridor Markaziy Osiyo davlatlari uchun tranzit salohiyatini kengaytirish va iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashda asosiy rol o‘ynaydi.

Transport yo‘lagi O‘zbekiston hududidan boshlanib, Qozog‘iston orqali Xitoyning G‘arbiy mintaqalariga, xususan, Xitoyning Xorgos transport va logistika markazigacha davom etadi. Qozog‘iston ushbu koridorda muhim tranzit davlat sifatida ishtirok etib, keng avtomobil va temiryo‘l infratuzilmasi yordamida yuklarning xavfsiz va tezkor harakatlanishini ta‘minlaydi. Qozog‘istonning Toshkent-Chimkent va Chimkent-Nur-Sulton yo‘nalishidagi transport tizimi orqali yuklar Xitoy chegarasigacha yetkaziladi.



8.1.5-rasm. 7 – Koridor “O‘ZBEKISTON — QOZOG‘ISTON — XITOIY”⁶⁹

Xitoy tomoni esa koridorning yakuniy bosqichida yuklarni o‘zining keng temiryo‘l tarmoqlari va Xorgos xalqaro transport markazi orqali qayta ishlaydi va mamlakat ichki bozorlariga yoki global savdo yo‘nalishlariga yetkazadi. Xorgos Markaziy Osiyoni Xitoy bilan bog‘lovchi asosiy logistika tuguni bo‘lib, u multimodal transport tizimiga ega va yuklarni qayta ishlash, saqlash hamda taqsimlash imkoniyatlarini taqdim etadi. Ushbu logistika markazi mintaqadagi eng yirik savdo va transport markazlaridan biri sifatida koridorning samaradorligini oshiradi.

Koridorning asosiy afzalliklaridan biri uning geografik jihatdan qisqalik va transport xarajatlarining iqtisodiy samaradorligidir. Ushbu yo‘nalish orqali eksport qilinadigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, sanoat mahsulotlari va boshqa tovarlar qisqa vaqt ichida Xitoy va boshqa xalqaro bozorlarga yetkazilishi mumkin. Bundan tashqari, multimodal transport tizimlarining qo‘llanilishi yuk tashish jarayonlarini soddalashtiradi va logistika jarayonlarini yanada optimallashtiradi.

⁶⁹ <https://epauzb.uz/pages/transport-koridorlari>

8.1.4-jadval

“O‘ZBEKISTON — QOZOG‘ISTON — XITOY” koridoridagi yo‘nalishlar

Sharqiy yo‘nalish			
“Toshkent — Olmaota — Xorgos — Urumchi”	1 850 km	5-6 kun	2 800-3 000


Ammo koridorni rivojlantirishda bir qator muammolar mavjud. Qozog‘iston va Xitoy o‘rtasida bojxona tartib-taomillarining murakkabligi va o‘zaro muvofiqlashtirilmagan tartiblar tranzit samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bundan tashqari, O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasida transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va yuk tashish xarajatlarini kamaytirish uchun qo‘shimcha investitsiyalar talab qilinadi.

“O‘zbekiston — Qirg‘iziston — Xitoy (Lyanyungan porti)” transport koridori Markaziy Osiyoni Xitoyning Sharqiy qismidagi Lyanyungan porti bilan bog‘lovchi muhim strategik yo‘nalishdir. Ushbu koridor orqali O‘zbekistonning eksport va import tovarlari Xitoyning ichki hududlari orqali Sharqiy Osiyodagi yirik dengiz portlariga, xususan, Lyanyungan portiga yetkaziladi va undan global bozorlarga chiqish imkoniyati yaratiladi.

Koridor O‘zbekiston hududidan boshlanib, Qirg‘iziston orqali Xitoyning G‘arbiy mintaqasiga kiradi. Qirg‘iziston ushbu yo‘nalishda tranzit davlat sifatida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, koridor o‘z hududi orqali Xitoy bilan bog‘lanishni ta’minlaydi. Loyihada O‘zbekistonni Qirg‘izistonning O‘sh shahri orqali Xitoyning Kashgar shahri bilan birlashtiruvchi yangi avtomobil va temiryo‘l tarmoqlarini qurish ko‘zda tutilgan. Ushbu tarmoq nafaqat transport masofasini qisqartiradi, balki yuk tashish vaqtini ham sezilarli darajada kamaytiradi.

Koridor Xitoyning “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi doirasida Xitoy va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Xitoy hududida yuklar mamlakatning rivojlangan temiryo‘l tarmoqlari orqali

sharqqa tomon harakatlanadi va Lyanyungan portiga yetkaziladi.



8.1.6-rasm. 8 – Koridor “O‘ZBEKISTON — QIRG‘IZISTON — XITOY” (Lyanyungan porti)⁷⁰

Lyanyungan porti Xitoyning yirik xalqaro dengiz portlaridan biri bo‘lib, yuklarni Tinch okeani orqali Janubi-Sharqiy Osiyo, Shimoliy Amerika va boshqa global bozorlarga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur koridorning asosiy afzalliklaridan biri O‘zbekiston uchun yangi eksport yo‘nalishlarini ochishi va yuklarni global bozorga tezroq yetkazish imkoniyatini taqdim etishidir. Bundan tashqari, koridor multimodal transport imkoniyatlarini kengaytirib, avtomobil va temiryo‘l tarmoqlaridan samarali foydalanishga imkon beradi. Xitoy va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi savdo hajmini oshirish uchun ushbu koridor strategik platforma sifatida xizmat qilmoqda.

Biroq, koridorda qator muammolar ham mavjud. O‘zbekiston va Qirg‘iziston hududlarida transport infratuzilmasining ba’zi qismlarini modernizatsiya qilish va yangi yo‘llarni qurish zarur. Qirg‘izistonning tog‘li hududlaridan o‘tuvchi yo‘nalish infratuzilma qurilishi va ekspluatatsiyasida murakkabliklar tug‘dirishi mumkin.

⁷⁰ <https://epauzb.uz/pages/transport-koridorlari>


Bundan tashqari, bojxona tartib-taomillarining moslashtirilmaganligi va tranzit xarajatlarining nisbatan yuqoriligi koridorning samaradorligini pasaytiruvchi omillardan biri hisoblanadi.

8.1.5-jadval

Janubiy yo‘nalish			
“Termez — Mazari Sharif”	85	1 kun	1200

“O‘ZBEKISTON — QIRG‘IZISTON — XITOY” koridori yo‘nalishlari

“O‘zbekiston — Afg‘oniston — Pokiston (Karachi porti)” transport koridori Markaziy Osiyoni Janubiy Osiyo va global savdo yo‘nalishlari bilan bog‘laydigan strategik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu koridor orqali O‘zbekistonning eksport va import tovarlari Afg‘oniston hududidan o‘tib, Pokistonning Karachi portiga yetkaziladi va u yerdan dengiz orqali xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyati yaratiladi.



8.1.7-rasm. 9 – Koridor O‘ZBEKISTON — AFG‘ONISTON — POKISTON (KARACHI porti)⁷¹

⁷¹ <https://cpauzb.uz/pages/transport-koridorlari>

Mazkur yo‘nalish geografik jihatdan qisqa va iqtisodiy jihatdan samarali bo‘lib, O‘zbekiston uchun Janubiy Osiyo va Yaqin Sharq bozorlariga kirishni osonlashtiradi. Koridor O‘zbekistonning Termiz shahri orqali boshlanadi va Afg‘onistonning Mozori Sharif va Qobul kabi yirik shaharlaridan o‘tib, Pokistonning Peshovar va Islomobod shaharlari orqali Karachi portiga ulanadi.

Afg‘oniston ushbu koridorda muhim tranzit davlat sifatida ishtirok etadi. Xususan, Mozori Sharif va Hayraton shaharlari Afg‘onistonning asosiy logistika markazlari bo‘lib, ushbu shaharlarda yuklarni qayta ishlash va taqsimlash infratuzilmasi rivojlantirilmoqda. O‘zbekiston ushbu koridorda o‘zining transport va logistika salohiyatini oshirish uchun Afg‘onistonda bir qator infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirmoqda. Xususan, Termizdan Mozori Sharifgacha temiryo‘l qurilishi loyihasi ushbu yo‘nalishning samaradorligini sezilarli darajada oshirishi kutilmoqda.

Pokistonning Karachi porti esa koridorning yakuniy nuqtasi bo‘lib, bu port Janubiy Osiyoning eng yirik savdo markazlaridan biri hisoblanadi. Karachi porti xalqaro dengiz savdosi uchun keng imkoniyatlar taqdim etib, yuklarning Janubi-Sharqiy Osiyo, Yaqin Sharq va Afrika mamlakatlariga tezkor yetkazilishini ta’minlaydi. Bundan tashqari, Pokistonning Gvadar porti ham ushbu koridorning muhim qismi sifatida ko‘rib chiqilmoqda, bu esa yuk tashish tarmog‘ini yanada kengaytirish imkonini beradi.

Mazkur transport koridorining afzalliklari orasida Markaziy Osiyoni Hind okeani bo‘ylab global bozorlarga bog‘lash, transport masofasini qisqartirish va yuk tashish xarajatlarini kamaytirish kabi jihatlar mavjud. Ushbu yo‘nalish, shuningdek, mintaqadagi davlatlarning iqtisodiy integratsiyasini kuchaytiradi va savdo hajmini oshiradi.

Shu bilan birga, koridorni rivojlantirishda bir qator qiyinchiliklar mavjud. Afg‘onistondagi siyosiy beqarorlik va xavfsizlik muammolari, transport infratuzilmasining yetarlicha rivojlanmaganligi, shuningdek, Pokiston va Afg‘oniston o‘rtasidagi bojxona va tranzit masalalaridagi ziddiyatlar ushbu

yoʻnalishning toʻliq salohiyatidan foydalanishga toʻsqinlik qilmoqda. Bundan tashqari, temiryoʻl va avtomobil yoʻllarining qurilishi va modernizatsiyasi uchun katta hajmdagi investitsiyalar talab qilinadi.

8.1.6-jadval

Oʻzbekistonning avtomobil transport marshrutlari

Avtomobil transport marshrutlari	
Transafgʻon	«Oʻzbekiston — Afgʻoniston — Pokiston»
E40 (<i>Yevropa yoʻnalishi</i>)	«Fransiya — Belgiya — Germaniya — Polsha — Ukraina — Rossiya — Qozogʻiston — Oʻzbekiston — Turkmaniston — Qirgʻiziston — Qozogʻiston»
E60 (<i>Yevropa yoʻnalishi</i>)	«Fransiya — Shveysariya — Avstriya — Germaniya — Vengriya — Ruminiya — Gruziya — Ozarbayjon — Turkmaniston — Oʻzbekiston — Tojikiston — Qirgʻiziston — Xitoy»
E123 (<i>Yevropa yoʻnalishi</i>)	«Rossiya — Qozogʻiston — Oʻzbekiston — Tojikiston»
E003 (<i>Yevropa yoʻnalishi</i>)	«Oʻzbekiston — Turkmaniston»
E004 (<i>Yevropa yoʻnalishi</i>)	«Qozogʻiston — Oʻzbekiston»
E005 (<i>Yevropa yoʻnalishi</i>)	«Oʻzbekiston» (<i>Gʻuzor — Samarqand</i>)
E006 (<i>Yevropa yoʻnalishi</i>)	«Tojikiston (<i>Ayni</i>) — Oʻzbekiston (<i>Qoʻqon</i>)»
E007 (<i>Yevropa yoʻnalishi</i>)	«Oʻzbekiston (<i>Toshkent — Qoʻqon — Andijon</i>) — Qirgʻiziston (<i>Oʻsh — Irkeshtom</i>)»
AH5 (<i>Xalqaro Osiyo tarmogʻi</i>)	«Xitoy — Qozogʻiston — Qirgʻiziston — Oʻzbekiston — Turkmaniston — Ozarbayjon — Gruziya — Turkiya — Bolgariya»
AH7 (<i>Xalqaro Osiyo tarmogʻi</i>)	«Rossiya — Qozogʻiston — Qirgʻiziston — Oʻzbekiston — Tojikiston — Afgʻoniston — Pokiston»
AH62 (<i>Xalqaro Osiyo tarmogʻi</i>)	«Qozogʻiston — Oʻzbekiston — Afgʻoniston»
AH63 (<i>Xalqaro Osiyo tarmogʻi</i>)	«Rossiya — Qozogʻiston — Oʻzbekiston»
AH65 (<i>Xalqaro Osiyo tarmogʻi</i>)	«Xitoy — Qirgʻiziston — Tojikiston — Oʻzbekiston»

8.1.6-jadvalda Oʻzbekistonni turli xalqaro va mintaqaviy avtomobil transport koridorlariga ulashuvchi yoʻnalishlar keltirilgan boʻlib, ushbu yoʻnalishlar nafaqat mamlakatning mintaqaviy savdo va transport sohasidagi rolini oshirish, balki uning xalqaro logistika tizimiga integratsiyasini taʼminlashda muhim ahamiyatga ega.

Xalqaro tarmoqlar va yoʻnalishlar ichida **E40 va E60 kabi Yevropa yoʻnalishlari** Oʻzbekistonni Yevropa mamlakatlari bilan bogʻlaydi. Masalan, E40 yoʻnalishi Oʻzbekistonni Belgiya, Germaniya, Polsha, Ukraina va Rossiya orqali Yevropa bilan ulaydi. E60 esa Shveysariya, Avstriya, Germaniya, Ruminiya va

Gruziya orqali O'zbekistonni Xitoy bilan bog'laydigan yo'nalishdir. Ushbu yo'llar xalqaro yuk tashuvlarining muhim qismini tashkil qiladi.

Mintaqaviy yo'nalishlar qatoriga E123, E003 va E004 kabi yo'llar kiradi. **E123 yo'nalishi** Rossiya va Qozog'iston orqali O'zbekiston va Tojikistonni bog'laydi, E003 yo'li esa O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi aloqalarni ta'minlaydi. Bundan tashqari, **E005 va E006 yo'nalishlari** mamlakat ichidagi transport bog'lanishlarini ta'minlaydi, masalan, Samarqand va G'uzor kabi yirik shaharlarga yetib boradi.

AH5, AH7, AH62, AH63 va AH65 kabi xalqaro Osiyo tarmoqlari O'zbekistonni Osiyo mamlakatlari, jumladan, Xitoy, Qozog'iston, Qirg'iziston va Afg'oniston bilan bog'lashda katta ahamiyatga ega. Masalan, AH7 yo'li Rossiya, Qozog'iston va O'zbekiston orqali Pokistonga yetib boradi, bu esa xalqaro savdo uchun strategik jihatdan muhimdir. AH65 yo'li esa Xitoy, Qirg'iziston va Tojikistonni O'zbekiston orqali bog'lab, mintaqaviy savdo imkoniyatlarini oshiradi.

Mazkur yo'nalishlarning rivojlanishi transport tarmog'ining modernizatsiyasi, yangi infratuzilmaviy loyihalar va mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirishni talab qiladi. Shu bilan birga, ushbu yo'llar orqali yuk tashish va yo'lovchi transport oqimini samarali boshqarish, bojxona jarayonlarini soddalashtirish va xavfsizlik masalalarini hal qilish ham dolzarb vazifalardandir. O'zbekiston uchun ushbu transport yo'nalishlari milliy iqtisodiyotning o'sishiga va xalqaro bozorlarga chiqishga zamin yaratadi.

Uzbekistan Airways kompaniyasi xalqaro aviatsiya tarmog'ida faoliyat yurituvchi yetakchi aviakompaniyalardan biri bo'lib, uning xorijdagi vakolatxonalari kompaniyaning xalqaro aloqalarini mustahkamlashda va mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu vakolatxonalar dunyoning turli mamlakatlarida joylashgan bo'lib, ular aviakompaniyaning tijorat faoliyatini rivojlantirish, xalqaro reyslar tarmog'ini kengaytirish va mahalliy bozorlarda brendni targ'ib qilishga qaratilgan.

Xorijdagi vakolatxonalar mijozlarga aviachiptalar sotish, reyslar jadvalini taqdim etish, yuk tashish xizmatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayonlarini soddalashtirish bilan shug'ullanadi. Vakolatxonalar orqali kompaniya mahalliy mijozlar ehtiyojlarini to'g'ridan-to'g'ri o'rganib, ularning talablarini qondirishga intiladi. Bu esa nafaqat Uzbekistan Airways xizmatlarining ommalashishiga, balki xalqaro bozorlar bilan integratsiya jarayonining tezlashishiga ham xizmat qiladi.

8.1.7-jadval

“Uzbekistan Airways” AJ xorijdagi vakolatxonalari

Mamlakat nomi	«Uzbekistan Airways» AJ xorijdagi vakolatxonalari
Ozarbayjon	Boku
Xitoy	Pekin, Urumchi, Shanxay
Fransiya	Parij
Buyuk Britaniya	London
Hindiston	Dehli, Amritsar, Mumbai
Italiya	Rim , Milan
Isroil	Tel-Aviv
Yaponiya	Tokio
Qozog'iston	Nur-Sultan, Almati
Koreya	Seul
Qirg'iziston	Bishkek
Latviya	Riga
Malayziya	Kuala-Lumpur
Rossiya	Moskva, Sankt-Peterburg, Yekaterinburg, Kaliningrad, Kazan, Krasnodar, Krasnoyarsk, Novosibirsk, Rostov-na-Donu, Samara, Sochi, Tyumen, Ufa, Voronej
Saudiya Arabistoni	Jidda
Tailand	Bangkok
Turkiya	Stambul
Birlashgan Arab Amirliklari	Dubay, Shardja
AQSH	Nyu-York
Germaniya	Frankfurt
Belarus	Minsk
Tojikiston	Dushanbe
Pokiston	Laxor
Gruziya	Tbilisi

Hozirgi kunda Uzbekistan Airways kompaniyasining vakolatxonalari Moskva, London, Frankfurt, Istanbul, Parij, Nyu-York, Dubay, Dehli, Pekin va

boshqa ko‘plab yirik shaharlarda faoliyat olib bormoqda. Ushbu vakolatxonalar mahalliy hamkorlar bilan ishlash, mintaqaviy marketing kompaniyalarini tashkil etish va xalqaro yuk tashuvlar uchun yangi imkoniyatlarni yaratishda muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, yuk tashish xizmatlarini boshqarish bo‘yicha xalqaro vakolatxonalar yirik logistika markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirib, O‘zbekistonni xalqaro transport tizimining ajralmas qismiga aylantiradi.

Xorijdagi vakolatxonalar mahalliy bozorlarning o‘ziga xos talablarini hisobga olib, reyslar jadvali va xizmat turlarini moslashtiradi. Shuningdek, ular orqali xalqaro mijozlar bilan bevosita aloqada bo‘lish imkoniyati yaratiladi, bu esa kompaniyaning xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshligini oshiradi. Uzbekistan Airways ushbu vakolatxonalar yordamida o‘z xizmatlarini kengaytirishda davom etmoqda va global transport va logistika sohasida O‘zbekistonni kuchli o‘ringa ega qilishga intilmoqda.


8.2. Yevroosiyo makonidagi xalqaro transport koridorlari

Yevroosiyo makonidagi xalqaro transport koridorlari iqtisodiy aloqalar va savdo uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu koridorlar o‘zaro iqtisodiy integratsiyani ta’minlash, transport va logistika tizimlarining samaradorligini oshirish, hamda hududiy taraqqiyotga hissa qo‘shishga xizmat qiladi. Quyida Yevroosiyodagi asosiy transport koridorlarining ba’zilarini ko‘rib chiqamiz:

Shimoliy-kavkaz koridori (Trans-Sibir temir yo‘li va uning tugunlari) — bu Rossiya orqali o‘tadigan muhim xalqaro transport yo‘li bo‘lib, Yevropa va Osiyo o‘rtasidagi yuklarni tez va samarali tashish imkoniyatini yaratadi. Ushbu koridor Rossiyaning shimoliy va janubiy qismlarini bog‘lab, O‘rta Osiyo, Janubiy Kavkaz va Yevropa o‘rtasida tranzitni ta’minlaydi. Shimoliy-Kavkaz koridorining asosiy yo‘nalishlaridan biri Trans-Sibir temir yo‘li bo‘lib, u Rossiyaning yirik shaharlarini, jumladan, Moskva va Sibirni Yevropa va Osiyo bozorlariga bog‘laydi. Shuningdek, avtomobil yo‘llari va havo transporti ham ushbu koridorda muhim rol o‘ynaydi. Koridorning transport infratuzilmasi Rossiyaning temir yo‘llari, avtomobil yo‘llari

va havo yo‘llarini o‘z ichiga oladi, bu esa tovarlar va yo‘lovchilarni tezda va samarali tarzda tashish imkonini beradi.

Ushbu koridor Rossiya, Kavkaz, O‘rta Osiyo va Yevropa mamlakatlari uchun iqtisodiy jihatdan juda muhimdir, chunki u orqali Xitoy, Hindiston va boshqa Osiyo mamlakatlaridan Yevropaga, shuningdek, aksincha, tovarlar eksport qilinadi. Xitoyning “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi doirasida Shimoliy-Kavkaz koridorining rivojlanishi yanada kuchaymoqda, bu esa Osiyo va Yevropaning o‘rtasidagi savdo va transportni osonlashtiradi.



Izoh: Chizmaning aniq mazmunini saqlab qolish va xalqaro iqtisodchilarga mo‘ljallanganligi nuqtayi nazaridan tarjimaga qo‘l urilmadi.

8.2.1-rasm. Trans-Kaspiy xalqaro transport koridori 2020 yil⁷²

Biroq, bu yo‘llar orqali o‘tkaziladigan yuklar va transport vositalarining ekologik ta‘siri hamda energiya samaradorligini yaxshilash uchun turli chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Umuman olganda, Shimoliy-Kavkaz koridori Yevroosiyo mintaqasida iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash va transport tizimining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

⁷² <https://bakuresearchinstitute.org/en/the-trans-caspian-corridor-the-shortest-path-or-a-difficult-bridge-between-east-and-west-2/>

Qora dengiz – Kaspiy dengizi – Xitoy yo‘li — bu Yevroosiyo mintaqasida muhim tranzit yo‘li bo‘lib, Xitoydan Yevropaga o‘tadigan tovarlarni tashish uchun ishlatiladi. Ushbu yo‘l orqali Xitoydan O‘rta Osiyo, Kavkaz va Qora dengizga o‘tish, so‘ngra Yevropaga yo‘l olish mumkin. Koridorning asosiy elementi Kaspiy dengizi bo‘lib, u Xitoydan Yevropaga o‘tadigan muhim suv yo‘llaridan biridir. Ushbu yo‘lda, Xitoyning g‘arbiy mintaqalaridan O‘rta Osiyoga va keyin Qora dengizga olib boruvchi transport tarmoqlari mavjud. Kaspiy dengizidan foydalangan holda, bu yo‘l orqali tovarlar suv orqali tashiladi va keyin ular Qora dengiz portlariga, masalan, Novorossiysk yoki Batumiga yetkaziladi. So‘ngra, bu portlardan Yevropaga, asosan, temir yo‘l va avtomobil yo‘llari orqali olib boriladi. Shu tariqa, Qora dengiz – Kaspiy dengizi – Xitoy yo‘li Xitoy, O‘zbekiston, Qozog‘iston, Turkiya, Rossiya va Yevropa o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Bu yo‘l Xitoyning “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi doirasida ham rivojlanmoqda va savdo va transport aloqalarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ushbu koridorning rivojlanishi, shuningdek, Kaspiy dengizi va uning atrofidagi portlar infratuzilmasini modernizatsiya qilish va kengaytirish, yuk tashishning samaradorligini oshirishga yordam bermoqda.



***Izoh:** Chizmaning aniq mazmunini saqlab qolish va xalqaro iqtisodchilarga mo'ljallanganligi nuqtayi nazaridan tarjimaga qo'l urilmadi.*


8.2.2-rasm. Qora dengiz – Kaspiy dengizi – Xitoy yo'li 2023 yil⁷³

Biroq, yo'lining ekologik ta'siri va energiya samaradorligini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar ham zarurdir. Shu tariqa, bu yo'l nafaqat Osiyo va Yevropa o'rtasidagi savdoni rivojlantirishda, balki mintaqaviy integratsiyani kuchaytirishda ham muhim rol o'ynaydi.

North-South Transport Corridor (NSTC) — bu Yevropa va Osiyo o'rtasidagi tranzitni osonlashtiradigan xalqaro transport yo'li bo'lib, Rossiya, Hindiston, Eron va O'zbekiston kabi mamlakatlarni bog'laydi. Ushbu koridorning asosiy maqsadi Yevropa, Kavkaz va O'rta Osiyo mamlakatlari o'rtasida, shuningdek, Hind okeani va Qizil dengiz orqali tovarlarni tez va samarali tarzda tashishdir. North-South Transport Corridor Xalqaro temir yo'l va avtomobil yo'llaridan tashkil topgan yirik logistika tarmog'idir. Bu koridorning rivojlanishi, Asiya va Yevropa o'rtasidagi savdoni samarali tarzda amalga oshirishga yordam beradi.

Koridorning muhimligi shundaki, u orqali Yevropa va Osiyo bozorlaridan o'tadigan tovarlar tezda va arzon narxlarda yetkazilishi mumkin. Bunday transport yo'li orqali, masalan, Hindiston, Pokiston, Eron, Qozog'iston va boshqa davlatlardan Yevropaga turli sanoat mahsulotlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, avtomobillar va elektronika eksport qilinadi. Ushbu koridor Xitoy va Hindiston kabi katta iqtisodiy davlatlar o'rtasida savdoni yanada jonlantiradi.

⁷³ <https://www.newscentralasia.net/2023/03/04/delivery-time-of-goods-from-china-to-the-black-sea-ports-via-the-caspian-sea-has-been-halved/>



8.2.3-rasm. Shimol-Janub transport koridori 2015 yil⁷⁴

North-South Transport Corridor nafaqat iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, balki mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashda ham muhim rol o'ynaydi. Ushbu yo'l orqali davlatlar o'rtasida o'zaro iqtisodiy hamkorlik va siyosiy aloqalar rivojlanadi, bu esa barqaror va samarali transport tizimini yaratishga yordam beradi. Hindiston va Eron o'rtasidagi strategik aloqalar bu koridornining muvaffaqiyatli ishlashiga katta hissa qo'shadi. Shu bilan birga, bu yo'lning kengayishi va samaradorligi mintaqadagi logistik imkoniyatlarni oshirishga yordam beradi.

Ushbu koridorning infratuzilmasi kengaytirilmoqda. Eronning Bandar Abbas porti va O'zbekistonning Toshkent shahri, shuningdek, Rossiyaning Port of Astrakhan portlari bu yo'llarni qulay va samarali qilish uchun muhim logistika markazlari bo'lib xizmat qilmoqda. North-South Transport Corridor Xitoyning "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi doirasida ham rivojlanmoqda, bu esa Osiyo va

⁷⁴ https://en.wikipedia.org/wiki/International_North%E2%80%93South_Transport_Corridor

Yevropaning oʻrtasidagi savdo va transport aloqalarini yanada kuchaytiradi. Biroq, ushbu yoʻllarning ekologik taʼsiri va samarali ishlashi uchun energiya samaradorligi, transport vositalarining ekologik tozaligi kabi masalalar ham muhim ahamiyatga ega.

8.3. Rivojlanish yoʻlida duch kelinayotgan muammolar

Markaziy Osiyo va Yevroosiyo makonidagi transport koridorlari mintaqaviy va xalqaro savdo, iqtisodiy integratsiya hamda mintaqalararo aloqalarni mustahkamlash uchun muhim strategik ahamiyatga ega. Ushbu hududlarning oʻzi oʻta muhim transport yoʻnalishlarining kesishgan joyida joylashgan boʻlib, ular Yevropa va Osiyo oʻrtasidagi tranzit savdosini amalga oshirishda katta rol oʻynaydi. Biroq, mintaqada transport koridorlarining samarali ishlashi va rivojlanishi uchun bir qator muammolar mavjud.

Infratuzilmaning yomon holati, geosiyosiy ziddiyatlar, bojxona va chegara toʻsiqlari, energiya taʼminoti muammolari hamda yangi texnologiyalarni joriy etishdagi cheklovlar bu jarayonning rivojlanishiga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Transport tizimlarining samaradorligini oshirish va mintaqadagi iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish uchun ushbu muammolarni hal qilish zarur. Shu bilan birga, Markaziy Osiyo va Yevroosiyo transport koridorlari orqali oʻtgan yuklarning oʻsishi, yangi transport yoʻllarining ochilishi va zamonaviy texnologiyalarni qoʻllash kabi imkoniyatlar ham mavjud.

□ Yoʻl va temir yoʻl tarmoqlarining sifatining pastligi

Markaziy Osiyo mamlakatlarida avtomobil va temir yoʻl tarmoqlarining eskirganligi, ularning zamonaviy talablarga javob bermasligi transport samaradorligini pasaytiradi. Misol uchun, Oʻzbekistonning ayrim hududlarida yoʻllar eskirgan va taʼmirlash ishlari kechiktirilgan. Fargʻona vodiysi kabi togʻli hududlarda yoʻllarning yomon holati va qishki ob-havo sharoitlarida ular orqali yuk tashishning qiyinlashishi bu sohada yuzaga kelayotgan asosiy muammolardir. Shuningdek, Qozogʻistonning ayrim temir yoʻl tarmoqlari portlar va sanoat

markazlariga to'g'ri kelmasligi, yuk tashish samaradorligini kamaytiradi. Temir yo'l infratuzilmasining yangilanmaganligi va zarur texnologiyalarni o'z ichiga olmasligi transport xavfsizligi va samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi.

□ Chegaralar va bojxona jarayonlari

Markaziy Osiyo va Yevroosiyo mamlakatlari o'rtasidagi chegara punktlaridagi ortiqcha tekshiruvlar va bojxona tartib-qoidalarining murakkabligi transport jarayonlarini sezilarli darajada sekinlashtiradi. Ayniqsa, O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi yuk tashish jarayonlarida bojxona nazorati va qog'oz ishlari tufayli yuzaga keladigan kechikishlar transport tarmoqlarining samaradorligini pasaytiradi. Bu cheklovlar, ayniqsa, transchegaraviy savdo va integratsiyani cheklaydi, shu bilan birga iqtisodiy o'sishning sekinlashishiga sabab bo'ladi.

□ Logistika markazlarining yetishmasligi

Mintaqada logistika markazlarining yetishmasligi va mavjud infratuzilmaning cheklanganligi transport jarayonlarini yanada murakkablashtiradi. Katta shaharlarda, masalan, Toshkent yoki Almatyda mavjud bo'lgan logistika markazlari, o'rta va kichik shaharlarda mavjud emas. Bu esa transport tizimining markazdan chetga joylashgan hududlarda samarali ishlashini qiyinlashtiradi. Shuningdek, markazlashmagan va optimal bo'lmagan logistika tizimi yuklarning o'z vaqtida yetkazilishiga to'sqinlik qiladi.

□ Energiya ta'minoti va transport tizimining barqarorligi

Transport infratuzilmasining barqaror ishlashi uchun doimiy energiya ta'minoti zarur. Markaziy Osiyodagi ayrim hududlarda, masalan, Tojikiston va Qirg'izistonda elektr energiyasi ta'minoti vaqt-vaqti bilan uzilib turadi, bu esa transport tizimlarining ishdan chiqishiga olib keladi. Temir yo'l va avtobus tizimlarining to'liq ishlashi uchun energiya manbalarining uzluksiz ta'minoti muhim ahamiyatga ega.

□ Texnologiyalar va avtomatlashtirishning yetishmasligi

Transport tizimlarining samaradorligini oshirish uchun yangi texnologiyalar va avtomatlashtirilgan tizimlarning joriy etilishi zarur. Afsuski, Markaziy Osiyo va

Yevroosiyo mintaqasida bunday texnologiyalar keng tarqalgan emas. Raqamli xarita, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va GPS texnologiyalarining cheklangan qo'llanilishi yuk tashish jarayonlarini optimallashtirish imkoniyatlarini kamaytiradi. Shuningdek, avtomatlashtirilgan tizimlar va onlayn monitoringning yo'qligi yuklarni izlash va boshqarish jarayonlarini murakkablashtiradi.

Geosiyosiy muammolar. Markaziy Osiyo va Yevroosiyo mintaqasidagi transport koridorlarining rivojlanishida muhim to'siqlarni keltirib chiqaradi. Ushbu hududda mavjud bo'lgan siyosiy va diplomatik ziddiyatlar, mamlakatlar o'rtasidagi chegaraviy nizolar va strategik raqobat transport tizimlarining samarali ishlashiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Birinchi muammo – **chegaraviy nizolar va hududiy da'volar.** Markaziy Osiyodagi bir qator davlatlar o'rtasida, masalan, O'zbekiston, Qozog'iston va Tojikiston o'rtasida, hududiy chegara masalalari bo'yicha nizolar mavjud. Bu hududiy ziddiyatlar transport yo'llarining to'g'ri ishlashini qiyinlashtiradi, chunki chegara punktlarida qo'shimcha tekshiruvlar va ruxsatnomalar kerak bo'ladi, bu esa yuklarning sekin harakatlanishiga olib keladi. Bundan tashqari, ba'zi davlatlar transport yo'nalishlarini o'z manfaatlariga moslashtirishga harakat qilishadi, bu esa o'zaro savdo va mintaqaviy integratsiyani cheklaydi.

Ikkinchi muammo – **geosiyosiy raqobat va tashqi siyosatning ta'siri.** Yevroosiyo va Markaziy Osiyo mintaqasidagi transport koridorlariga global kuchlar, xususan, Xitoy, Rossiya va Turkiya kabi davlatlarning strategik manfaatlari ta'sir ko'rsatadi. Bu davlatlar o'zlarining transport yo'llarini rivojlantirish va boshqa davlatlarni o'z tarmog'iga integratsiya qilishga intiladilar. Xitoyning "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi yoki Rossiyaning EAEU doirasidagi integratsiya siyosati mintaqada transport tarmoqlarining rivojlanishiga turli yo'nalishlarda ta'sir ko'rsatadi. Bunday geosiyosiy raqobat o'z navbatida transport tizimining samarali ishlashiga to'siq bo'lishi mumkin, chunki ba'zi hududlarda bu mamlakatlar o'rtasidagi ta'sir doiralari o'zgarishi mumkin.

Uchinchidan, **mintaqaviy hamkorlikning yetishmasligi** ham geosiyosiy muammolarga olib keladi. Markaziy Osiyo davlatlari oʻrtasida transport infratuzilmasini rivojlantirish va boshqarish boʻyicha mintaqaviy kelishuvlarning yetishmasligi hamkorlikni cheklaydi. Aksariyat hollarda, har bir davlat oʻzining ichki manfaatlarini ustun qoʻyadi va transchegaraviy tashabbuslarni amalga oshirishda oʻzaro hamkorlikni rivojlantirishga qiziqish kam. Bu esa transport tizimining samaradorligini pasaytiradi va integratsiya jarayonlarini sekinlashtiradi.

Nihoyat, **siyosiy instabillik va xavfsizlik tahdidlari** ham geosiyosiy muammolarning bir qismi sifatida qaraladi. Markaziy Osiyo davlatlarining ayrimlarida siyosiy vaziyatning beqarorligi va xavfsizlik muammolari transport koridorlarining xavfsizligini taʼminlashni qiyinlashtiradi. Masalan, Afgʻonistondagi xavfsizlik tahdidlari yoki Tojikistonning ayrim hududlaridagi qarama-qarshiliklar transport yoʻllarida xavfsizlikni taʼminlashni oʻta murakkablashtiradi va tranzit savdolarining samaradorligini kamaytiradi.

Tovarlar va xizmatlar uchun tariflar iqtisodiy aloqalarning samaradorligini va transport koridorlarining ishlashini toʻgʻridan-toʻgʻri taʼsir qiladi. Tariflar, yaʼni tovarlar va xizmatlar narxining belgilanishi, xalqaro savdo va mintaqaviy integratsiya jarayonlarida muhim oʻrin tutadi. Tariflar orqali mamlakatlar oʻz ichki bozorlarini himoya qilishga harakat qiladi, biroq bu, baʼzan, tranzit savdosining tezligini va samaradorligini pasaytirishi mumkin.

Birinchi muammo – **yuqori tariflar va ularning iqtisodiy taʼsiri**. Koʻplab Markaziy Osiyo va Yevroosiyo mamlakatlarida eksport va import tovarlari uchun yuqori tariflar qoʻllaniladi. Bunday tariflar savdoning narxini oshiradi va bu oʻz navbatida transport tizimining samaradorligini pasaytiradi. Misol uchun, Oʻzbekistonda qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini eksport qilishda tariflarning yuqoriligi transport xarajatlarini oshirib, eksport salohiyatini kamaytiradi. Yangi avtomobil va yuk tashish xizmatlarining narxlari yuqori boʻlishi, yuklarni tashish jarayonini qiyinlashtiradi va xalqaro savdo uchun zarur boʻlgan infratuzilmaning samarali ishlashini cheklaydi.

Ikkinchi muammo – **tariflarni tartibga solish va shaffoflikning yo‘qligi**. Markaziy Osiyo va Yevroosiyo mintaqasidagi bir qator mamlakatlarda tariflarni belgilash jarayonida shaffoflik yetishmaydi. Ba'zan tariflar faqat ayrim davlat organlari yoki korxonalar tomonidan, bir tomonlama ravishda belgilanishi mumkin, bu esa savdo-sotiq jarayonini murakkablashtiradi. Bunday hollarda, kompaniyalar va tadbirkorlar uchun tariflar haqida aniq ma'lumotning yo‘qligi yoki tariflarni o‘zgartirishdagi notekisliklar transport jarayonlari va iqtisodiy aloqalarga salbiy ta'sir qiladi. Yangi tashabbuslar va tovarlar uchun tariflarning qanday belgilanishi haqida bir qator mamlakatlarda aniq ma'lumot mavjud emas, bu esa xavfsizlik va iqtisodiy barqarorlikka zarar yetkazadi.

Uchinchidan, **tariflarning mintaqaviy integratsiya va erkin savdoga ta'siri**. Markaziy Osiyo va Yevroosiyo transport koridorlarining rivojlanishi mintaqaviy integratsiya jarayoniga bog‘liq bo‘lib, bu jarayon tariflar orqali to‘sqinlikka uchraydi. Mintaqadagi ko‘plab davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy va savdo integratsiyasining rivojlanishiga tariflar to‘siq bo‘lishi mumkin. Misol uchun, Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi (EAEU) doirasida ba'zi mamlakatlar orasidagi tariflar aralashgan bo‘lsa-da, ayrim davlatlar o‘z tarif siyosatini mustaqil ravishda amalga oshirishga davom etmoqda. Bu esa savdoning uzluksiz o‘tishiga xalaqit beradi va transport tizimlarining samarali ishlashini kamaytiradi.

Nihoyat, **tariflarning raqobatbardoshlikka ta'siri**. Yuqori tariflar nafaqat transport xarajatlarini oshiradi, balki mintaqadagi raqobatbardoshligini ham kamaytiradi. Tariflarning oshishi, xususan, xizmatlar sohasida, mahalliy kompaniyalarni raqobatlashishga undaydi, ammo bu uzoq muddatda chet eldan olib kelingan tovarlarning narxini oshiradi va iste'molchilarning xarid qobiliyatiga ta'sir qiladi. Masalan, yuqori tariflar orqali mahalliy bozorni himoya qilish, ayniqsa xizmatlar sektorida, uzoq muddatda ishlab chiqarish xarajatlarini oshiradi va iste'molchilar uchun narxlarni ko‘taradi.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyo va Yevroosiyo makonidagi transport koridorlari mintaqalararo savdo va iqtisodiy integratsiyaning muhim omili bo‘lsa-

da, ularning rivojlanish yo‘lida bir qator muammolarga duch kelinmoqda. Infratuzilmaning yetarlicha rivojlanmaganligi, bojxona va transport tartibotlarining murakkabligi, moliyalashtirish yetishmovchiligi hamda geosiyosiy ziddiyatlar bu yo‘nalishdagi asosiy to‘siqlardir. Shuningdek, ekologik talablarning kuchayishi va raqamli logistika tizimlariga o‘tish zarurati ham yangi chaqiriqlarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu muammolarni hal etish uchun xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

8.4. Markaziy Osiyo va Yevroosiyo mamlakatlari transport koridorlarining rivojlanish imkoniyatlari

Markaziy Osiyo va Yevroosiyo mamlakatlari transport koridorlarining rivojlanish imkoniyatlari mintaqaviy va global savdo, iqtisodiy integratsiya hamda xalqaro aloqalarni kuchaytirish uchun katta ahamiyatga ega. Ushbu mintaqalar, geografik jihatdan, Yevropa va Osiyo o‘rtasidagi asosiy tranzit yo‘llarida joylashgan bo‘lib, ular transport tizimlarining rivojlanishi va samarali ishlashi orqali xalqaro savdoning o‘sishiga xizmat qilishi mumkin. Shu sababli, Markaziy Osiyo va Yevroosiyo transport koridorlarining rivojlanishiga investitsiyalar kiritish va infratuzilmani modernizatsiya qilish, mintaqaviy va global iqtisodiy aloqalarni yanada mustahkamlash uchun keng imkoniyatlarni taqdim etadi.

Mintaqadagi davlatlar transport koridorlarining rivojlanishi orqali o‘zining tranzit salohiyatini oshirishga intilishmoqda. Xitoyning “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi, Rossiyaning Evroosiyo Iqtisodiy Ittifoqidagi integratsion siyosati va boshqa global tashabbuslar Markaziy Osiyo va Yevroosiyo mamlakatlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Mintaqaviy hamkorlik va infratuzilma investitsiyalari, xususan, transport tizimlari va logistik xizmatlarning takomillashuvi, transport yo‘llarining samarali ishlashini ta’minlash va iqtisodiy o‘sish sur’atlarini tezlashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Biroq, mintaqadagi transport koridorlarining rivojlanishida bir qator muammolar mavjud, jumladan, infratuzilma yetishmasligi, geosiyosiy to‘siqlar va tarif siyosatidagi cheklovlar. Shunga qaramay, ushbu muammolarni hal qilish va yangi imkoniyatlardan to‘liq foydalangan holda, Markaziy Osiyo va Yevroosiyo mintaqalaridagi transport koridorlari samarali rivojlanishi mumkin. Ushbu maqolada, Markaziy Osiyo va Yevroosiyo mamlakatlari transport koridorlarining rivojlanish imkoniyatlari, ularni yaxshilash va samarali ishlashini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan strategik choralar ko‘rib chiqiladi.

8.4.1-jadval

Markaziy Osiyo va Yevroosiyo mamlakatlari transport koridorlarining rivojlanish imkoniyatlari

Imkoniyat	Tavsif
Geografik joylashuv	Markaziy Osiyo va Yevroosiyo mintaqalari Yevropa va Osiyo o‘rtasidagi asosiy tranzit yo‘llarida joylashgan, bu ularga xalqaro savdo va tranzit yo‘llari imkoniyatlarini yaratadi.
Xitoyning “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi	Xitoyning global tranzit yo‘llarini rivojlantirish tashabbusi Markaziy Osiyo va Yevroosiyo mintaqasiga investitsiyalar kiritishga va yangi transport tarmoqlarini ochishga yordam beradi.
Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi (EAEU)	EAEU doirasida mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish va transport koridorlarini optimallashtirish orqali tovarlar va xizmatlar savdosini oshirish imkoniyatini yaratadi.
Avtomobil va temir yo‘l tarmoqlarining kengayishi	Transport infratuzilmasining rivojlanishi, yangi avtomobil va temir yo‘l yo‘llarining qurilishi, mintaq ichidagi va o‘rtadagi savdoni jonlantiradi.
Logistik va tranzit markazlarining rivojlanishi	Yangi logistika markazlari va terminal inshootlarini qurish orqali tranzitni tezlashtirish va samaradorlikni oshirish, tashish xarajatlarini kamaytirish imkoniyatlari mavjud.
Xalqaro investitsiyalar	Transport tarmoqlarini rivojlantirishga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va texnologiyalarni joriy etish imkoniyatini yaratadi.
Innovatsion texnologiyalar	Raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirishni joriy etish orqali transport jarayonlarining samaradorligini oshirish, o‘zgartirish va logistika tarmoqlarini optimallashtirish imkoniyatlari mavjud.

Geografik joylashuv. Markaziy Osiyo va Yevroosiyo mintaqalari Yevropa va Osiyo o‘rtasidagi savdo yo‘llarining markazida joylashgan. Ushbu mintaqalar orqali o‘tayotgan transport koridorlari global savdoning o‘sishi uchun katta

imkoniyatlar yaratadi, chunki ular Yevropa, Osiyo va boshqa mintaqalar o'rtasida o'tuvchi asosiy tranzit yo'llarini tashkil etadi.

Xitoyning "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi. Xitoyning bu tashabbusi Markaziy Osiyo va Yevroosiyo mamlakatlari uchun katta imkoniyat yaratadi. Xitoyning investitsiyalari transport infratuzilmasi va tranzit tarmoqlarining rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi. Shuningdek, bu tashabbus mintaqaviy aloqalarni kuchaytirish va yangi transport yo'llarini yaratish uchun zarur shart-sharoitlarni taqdim etadi.

Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi (EAEU). EAEU doirasida davlatlar o'rtasida iqtisodiy integratsiya va savdo erkinligi jarayonlari Markaziy Osiyo va Yevroosiyo transport koridorlarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Ittifoq doirasida bo'lgan mamlakatlar o'rtasida transport to'siqlari kamayadi, bu esa transport jarayonlarini tezlashtiradi va mintaqadagi savdoni oshiradi.

Avtomobil va temir yo'l tarmoqlarining kengayishi. Transport tarmoqlarini rivojlantirish va kengaytirish, jumladan, yangi avtomobil va temir yo'l yo'llarini qurish, mintaqaviy tranzit savdosining samaradorligini oshiradi. Bu yangi yo'llar orqali transport xarajatlarini kamaytirish va vaqtni tejash imkoniyatlari mavjud.

Logistik va tranzit markazlarining rivojlanishi. Logistik va tranzit markazlari transport koridorlarining samarali ishlashi uchun juda muhim ahamiyatga ega. Yangi markazlar qurilishi va mavjud infratuzilmani modernizatsiya qilish orqali transport jarayonlari tezlashtirilishi, logistika xarajatlari kamaytirilishi va samaradorlik oshirilishi mumkin.

Xalqaro investitsiyalar. Mintaqaning transport tarmoqlarini rivojlantirish uchun xalqaro investitsiyalar muhim rol o'ynaydi. Bu investitsiyalar transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish va transport xizmatlarini takomillashtirish uchun zarur. Xorijiy sarmoyalar orqali transport tizimining samarali ishlashini ta'minlash mumkin.

Innovatsion texnologiyalar. Raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirishning joriy etilishi transport jarayonlarining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Yangi texnologiyalar yordamida logistika tarmoqlari optimallashtiriladi, va transport jarayonlari yanada tez va samarali bo'ladi. Bu esa global savdoni tezlashtirish va transport to'siqlarini kamaytirish imkoniyatlarini yaratadi.

Xulosa shuki, Markaziy Osiyo va Yevroosiyo mamlakatlari transport koridorlarining rivojlanishi mintaqalararo savdoni kengaytirish, logistika xarajatlarini kamaytirish va iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish imkonini beradi. Zamonaviy infratuzilma, raqamli texnologiyalar va bojxona tartiblarini soddalashtirish orqali ushbu yo'nalishlardagi tranzit salohiyatini oshirish mumkin. Kelajakda xalqaro hamkorlik va investitsiyalarni jalb etish orqali transport tarmoqlarining barqaror va samarali ishlashiga erishish mintaqaning global savdo zanjirlariga chuqurroq integratsiyasini ta'minlaydi.

Asosiy tushunchalar

Markaziy Osiyo transport koridorlari - Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida va ularning tashqarisidagi transport yo'nalishlari, jumladan, yo'llar, temir yo'llar, havo va dengiz yo'nalishlarini o'z ichiga olgan tarmoq.

Yevroosiyo transport koridorlari - Yevropa va Osiyo o'rtasidagi transport yo'llari, bu koridorlar orqali xalqaro savdo va investitsiyalarni rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

Chegaraviy nizolar - davlatlar o'rtasida yoki hududiy o'zgarishlar sababli yuzaga keladigan siyosiy yoki harbiy nizolar.

Geosiyosiy raqobat - mintaqalar yoki davlatlar o'rtasida o'zlarining siyosiy, iqtisodiy, va harbiy ustunliklarini saqlash yoki oshirish uchun yuzaga keladigan raqobat.

Mintaqaviy hamkorlik - mintaq ichidagi davlatlar o'rtasida iqtisodiy, siyosiy, va madaniy sohalarda o'zaro manfaatli hamkorlik.

Tovarlar va xizmatlar uchun tariflar - tovarlar va xizmatlarni bir davlatdan boshqasiga eksport yoki import qilishda qo'llaniladigan narxlar va yig'imlar.

Logistik va tranzit markazlar - tovarlar va xizmatlarning transporti va tarqatilishini boshqaradigan va yo'naltiradigan markazlar.

Xalqaro investitsiyalar - xalqaro kompaniyalar yoki davlatlar tomonidan boshqa davlatlarda amalga oshirilgan kapital kiritishlar hisoblanadi.

Nazorat savollari:

1. Markaziy Osiyoda nechta transport koridorlari mavjud?
2. Markaziy Osiyo transport koridorlarining tranzit salohiyati qanday?
3. O'zbekistonning avtomobil transport marshrutlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. "Uzbekistan Airways" AJ xorijdagi vakolatxonalari qaysi davlatlarda joylashgan?
5. Yevroosiyo makonidagi xalqaro transport koridorlarini sanab bering.
6. Markaziy Osiyo va Yevroosiyodagi transport koridorlarining rivojlanishiga qanday to'siqlar mavjud?
7. Rivojlanish yo'lidagi geosiyosiy muammlolar tarkibiga nimalar kiradi?
8. Tovar va xizmatlar uchun qo'yilgan yuqori tariflar iqtisodiy o'sishga qanday ta'sir qilmoqda?
9. Markaziy Osiyo va Yevroosiyo mamlakatlarida joylashgan transport koridorlarining rivojlanish imkoniyatlariga qanday omillar ta'sir qiladi?
10. Mintaqadagi transport tarmoqlarini rivojlantirish uchun xalqaro investitsiyalarning ahamiyati qanday?

Case Study

Masala 1: Markaziy Osiyo davlatlari Xitoy, Rossiya va Yevropani bog'lovchi muhim transport yo'laklariga ega. Biroq, tranzit tovarlarining

harakatlanishida infrastrukturaviy kamchiliklar, hujjatlashtirishdagi kechikishlar va tariflarning noaniqligi raqobatbardoshlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Agar bu muammolar hal etilmasa, yuk tashish hajmi boshqa yo'nalishlarga yo'naltirilishi mumkin.

Topshiriqlar:

1. Markaziy Osiyo mamlakatlari tranzit yo'laklarini yanada jozibador qilish uchun qanday infratuzilma loyihalarini amalga oshirishi kerak? Misollar keltiring.
2. Siz logistika sohasi bo'yicha tadbirkorsiz. Tranzit xizmatlarining sifatini oshirish va yuk oqimini ko'paytirish uchun qanday innovatsion yechimlarni taklif qilgan bo'ladingiz?

Masala 2: Yevroosiyo bo'ylab xalqaro transport koridorlari ko'p davlatlarni qamrab oladi. Har bir davlatning bojxona talablari, yo'l infratuzilmasi va tarif siyosati turlicha bo'lgani sababli yuk tashish jarayonlari cho'zilib ketmoqda. Bu esa savdo va logistika xarajatlarining oshishiga olib kelmoqda.

Topshiriqlar:

